1-maxsus son, 2026-yil

AL-BUXORIY

Ilmiy jurnal

ISSN: 3030-3273

AL-BUKHARI

Scientific journal

AL-BUXORIY

Ilmiy jurnal

AL-BUKHARI

Scientific journal



ORIENTAL
UNIVERSITETI

AL-BUXORIY

Ilmiy jurnal

(Birinchi maxsus son)

Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qaroriga muvofiq tarix va filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga “Al-Buxoriy” ilmiy jurnali kiritilgan.

Toshkent – 2026

Bosh muharrir:

Farhod Maksudov, tarix fanlari doktori (DSc)

Bosh muharrir o‘rinbosari:

Malika Nasirova, filologiya fanlari nomzodi, professor

Mas’ul muharrir:

Govhar Rahmatova, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

“Al-Buxoriy”

ilmiy jurnalining tahrir hay’ati:

1. Azamat Ziyo	**t.f.d., akademik, professor – tahrir hay’ati a’zosi;**
2. Zohidjon Islomov	**f.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;**
3. Shorustam Shomusarov	**f.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;**
4. Durdona Lutfullayeva	**f.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;**
5. Komiljon Rahimov	**t.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;**
6. Shamsiddin Kamoliddinov	**t.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;**
7. Xolida Alimova	**f.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;**
8. Aftondil Erkinov	**f.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;**
9. Albert Burxanov	**t.f.d., akademik (Tatariston) – tahrir hay’ati a’zosi;**
10. Samal Tuleubaeva	**f.f.d., professor (Qozog‘iston) – tahrir hay’ati a’zosi;**
11. Sayfullo Mullodjanov	**t.f.d., professor (Tojikiston) – tahrir hay’ati a’zosi;**
12. Zilola Xudoyberganova	**f.f.d., professor (Turkiya) – tahrir hay’ati a’zosi;**
13. Akram Habibullayev	**t.f.d., professor (AQSh) – tahrir hay’ati a’zosi;**
14. Ashirbek Mo‘minov	**t.f.d., dotsent (Qozog‘iston) – tahrir hay’ati a’zosi;**
15. Murtazo Saidumarov	**f.f.n., professor (Saudiya Arabistoni) – tahrir hay’ati a’zosi.**

MUNDARIJA

FILOLOGIYA

Abdujabbarova Feruza Abdunazarovna
Turkiy manbalar tadqiqiga oid ilmiy qarashlar tahlili (“Devonu lug‘atit turk” asari yuzasidan) 4

Djurayeva Feruza Shukurovna
Arab notiqligi negizida paydo bo‘lgan adabiy nasriy janrlar: vasiyatlar 15

Egamova Shoxida Djalilovna
Alisher Navoiy “Saddi Iskandariy” dostoni so‘z boyligidagi ijtimoiy-siyosiy istilohlarning mavzuviy guruhlari 28

Turdiyev Jahongir Zafariddin o‘g‘li
Nasriy va nazmiy me’rojnomalardagi konseptual birliklar 44

Jalilova Gulchexra Maxmutdjonovna
Sarguzasht-detektiv janri badiiy uslubining o‘ziga xosligi 56

Abdullayeva Malika Baxtiyorovna
Xitoy tilida metafora: ifodalanishi va uning qo‘llanilishi 67

Abdullayeva Shahnoza Bahodir qizi
Ayollar mavzusidagi arab va o‘zbek maqollarining struktur va semantik qiyosi 77

TARIX

Xodjimuratova Dilshoda Sunnatillayevna
Eron parlamentiga saylovlar tarixi (1980-2024 yy.) 90

Sharipov Azamat Shamilevich
Zamonaviy davrda Turkiyaning tashqi siyosiy rivojlanishi ustuvor yo‘nalishlari 101

Nurumbetova Sanobar Rozimbay qizi
2001-yil Bonn konferensiyasi va Afg‘onistonda Post-Tolibon davrida yangi davlatchilik asoslarining shakllanishi 117

Ataxanov Xamza Ataxanovich
Talaba-yoshlar orasida diniy mazmundagi radikallashuvning shakllanish omillari: hozirgi davrdagi muammoli jihatlar va profilaktik yondashuvlar..... 129

Ibragimov Ibragim Axmedovich
Quyi Amudaryo hududida antik davr hunarmandchiligi mahsulot turlari bo‘yicha mulohazalar 138

Uzoqova Mahfuza Abdusalomovna
G‘arbiy Sug‘dning qadimgi aholisi tarixini o‘rganishda yozma manbalarning ahamiyati 146

TURKIY MANBALAR TADQIQIGA OID ILMIY QARASHLAR TAHLILI

(“Devonu lug‘atit turk” asari yuzasidan**)**

ANALYSIS OF SCIENTIFIC VIEWS ON THE STUDY OF TURKIC SOURCES

(based on the work "Dīwān Lughāt al-Turk")

АНАЛИЗ НАУЧНЫХ ВЗГЛЯДОВ НА ИЗУЧЕНИЕ ТЮРКСКИХ ИСТОЧНИКОВ

(По произведению "Девону лугатит турк")

https://zenodo.org/records/20666189

Abdujabborova Feruza Abdunazarovna
Oriental universiteti uzluksiz ta’lim pedagogikasi kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi
Tel.:+998 99-838-69-21
E-mail: feruzaabdujabbarova@yandex.com
https://orcid.org/0000-0002-9348-8484

Annotatsiya. Ushbu maqolada XI asr turkiy olimi Mahmud Qoshg‘ariy tomonidan yaratilgan **“**Devonu lug‘atit-turk**”** asarining o‘rganilishidagi ilmiy qarashlar tizimli tarzda tahlil qilinadi. Maqolada asarning turkiy tillar tarixi, adabiyot, etnografiya va madaniyat tadqiqotlaridagi o‘rni ko‘rsatilib, uning qiyosiy-tarixiy metod asosida yaratilganligi yoritiladi. Shuningdek, asarning lingvistik, leksikografik, madaniy va kartografik jihatlari ham tahlil qilinib, uning turkiy xalqlar tarixi va madaniy merosini o‘rganishdagi ahamiyati ta’kidlanadi.

Maqolada tarixiy manbalarni, xalq ijodini va olimlarning ilmiy izlanishlarini o‘zaro taqqoslash orqali “Devon” asarining ilmiy qadriyatlari aniqlanadi. Shu bilan birga, zamonaviy korpus va qiyosiy lingvistik metodlar asosida olib borilgan tadqiqotlar natijalari ham keltiriladi. Maqola “Devonu lug‘atit-Turk”ni turkiy tillar va madaniyat tarixida asosiy manba sifatida tadqiq qilishga qaratilgan ilmiy izlanishlar uchun qo‘llanma vazifasini bajaradi.

Kalit so‘zlar: *Devonu lug‘atit-turk, Mahmud Qoshg‘ariy, turkiy tillar, qiyosiy metod, lingvistik tahlil, etnografiya, leksikografik tahlil, madaniyat tarixi.*

Abstract. This article provides a systematic analysis of the scholarly perspectives on the study of the 11th-century work by the Turkic scholar Mahmud al-Kashgari, **“**Devonu lug‘atit-turk”. The paper examines the significance of the work for the history of Turkic languages, literature, ethnography, and culture, highlighting its creation based on the comparative-historical method. Linguistic, lexicographic, cultural, and cartographic aspects of the work are analyzed, as well as its role in studying the history and cultural heritage of Turkic peoples.

A comparative study of historical sources, folk creativity, and scholarly research demonstrates the scientific value of “Devonu lug‘atit-turk**”**. In addition, the article presents results of modern research using corpus-based and comparative-linguistic methods. The study serves as a guide for scholarly research on Turkic languages and cultural heritage.

Keywords: *Devonu lug‘atit-Turk, Mahmud al-Kashgari, Turkic languages, comparative-historical method, linguistic analysis, ethnography, cultural history.*

Аннотация. В данной статье систематически анализируются научные взгляды на изучение произведения XI века турецкого учёного Махмуда Кашгари «Девону-лугатит-тюрк». В статье рассматривается значение произведения для истории тюркских языков, литературы, этнографии и культуры, а также подчёркивается его создание на основе сравнительно-исторического метода. Анализируются лингвистические, лексикографические, культурные и картографические аспекты произведения, а также его роль в изучении истории и культурного наследия тюркских народов.

Сравнительный анализ исторических источников, народного творчества и исследований учёных позволяет выявить научную ценность «Девону-лугатит-тюрк». Кроме того, рассматриваются результаты современных исследований, проведённых с использованием корпусного анализа и сравнительно-лингвистических методов. Статья служит руководством для научных исследований тюркских языков и культурного наследия.

Ключевые слова: *Девону-лугатит-тюрк, Махмуд Кашгари, тюркские языки, сравнительно-исторический метод, лингвистический анализ, этнография, история культуры.*

KIRISH

Turkiy xalqlar va ularning tillarini o‘rganishga bo‘lgan qiziqish qadimiy ilmiy an’analarga ega. Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk” asari bu jarayonda alohida o‘rin tutib, unda O‘rta Osiyo hududida yashagan turli turkiy qabila va urug‘larning til xususiyatlari tizimli ravishda tahlil qilingan. Mazkur manba turkiy tillarning tarixiy holati, leksik boyligi hamda grammatik qurilishini yoritishda muhim ilmiy asos vazifasini bajaradi.

“Devonu lug‘atit-turk” – XI asrda yashagan mashhur turk olimi Mahmud Qoshg‘ariy tomonidan yozilgan turkiy tillar va she’riyatni o‘rganishga bag‘ishlangan lug‘atdir. Bu asar nafaqat turkiy tillar tarixini, balki o‘sha davr madaniyati, urf-odatlari va xalq adabiyotini o‘rganishda ham asosiy manba sifatida e’tirof etilgan.

XI-XX asrlar davomida o‘zbek tili o‘zining ichki taraqqiyot qonuniyatlariga muvofiq ravishda sezilarli fonetik, leksik va grammatik o‘zgarishlarni boshdan kechirdi. Bu jarayon XI asr yozma yodgorliklari materiallari asosida olib borilgan

kuzatishlar orqali yaqqol namoyon bo‘ladi. Tarixiy-lingvistik tahlillar til taraqqiyotining uzluksiz va qonuniy xarakterga ega ekanini tasdiqlaydi.

Turkiy tillar tarixi bo‘yicha S.E. Malov, N.A. Baskakov, K.K. Yudaxin, A.K. Borovkov, V.V. Reshetov kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlari fundamental ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

XI asr yozma yodgorliklarini ilmiy muomalaga kiritish va tahlil qilishda K.Brokkelmannning (1936) ishlari muhim bosqich hisoblanadi. Olim o‘z maqolasida Mahmud Qoshg‘ariy tomonidan qayd etilgan o‘tgan zamon va kelasi zamon fe’llarining yasalishi, shuningdek, buyruq mayli shakllari haqidagi ma’lumotlarni tarjima va izoh qilish bilan cheklangan. Ushbu ish dastlabki ilmiy tajriba sifatida e’tirof etiladi.

XX asrning birinchi yarmida V.V. Bartold (1968), I. Samoylovich (1928.) P.K. Juze (1928), S.E. Malov (1951), A.N. Kononov (1980), A.K. Borovkov (1963), I.Yu. Krachkovskiy (1958), N.A. Baskakov (1962) va boshqa tadqiqotchilar “Devonu lug‘atit turk” asarining turli jihatlari yuzasidan ilmiy mulohazalar bildirdilar.

Xususan, akademik V.V. Bartold Qoshg‘ariy merosini tarixiy manba sifatida chuqur baholagan tadqiqotchilardan biri sifatida tan olinadi. Tadqiqotlarda ta’kidlanganidek, Bartold “Devon”dagi tarixiy ma’lumotlarning ilmiy qiymatini erta anglab, o‘z asarlarida undan samarali foydalangan. Bartold Mahmud Qoshg‘ariy faoliyatini baholar ekan, uning kuzatuvlari bevosita empirik materiallarga asoslanganini alohida qayd etadi. Bu yondashuv “Devon”ning nafaqat lingvistik, balki tarixiy-etnografik manba sifatidagi ahamiyatini yanada oshiradi.

Atoqli turkshunos S.E. Malov “Devon”ni turkiy yozma merosning noyob namunasi sifatida baholab, uni qadimgi turkiy til materiallarini o‘rganishda asosiy manbalardan biri deb e’tirof etadi (Малов С.Э., 1951). P.K. Juze ham asarga yuksak ilmiy baho berib, uning qamrovi va empirik boyligini alohida ta’kidlaydi. Olimning fikricha, “Devon” qoraxoniylar davlati tarkibiga kirgan ko‘plab turkiy qabilalarning til xususiyatlarini mujassamlashtirgan (Жузе П.К., 1926: 198).

Ilmiy adabiyotlarda qayd etilishicha, turkiy tillar fonetikasi va etimologiyasiga oid qator nazariy qonuniyatlar Mahmud Qoshg‘ariy tomonidan XI asrdayoq aniqlangan (Қошғарий М., 1960). Asarning qamrovi, ilmiy aniqligi va metodologik asoslari uni turkiyshunoslik tarixida beqiyos manba darajasiga ko‘taradi. Shu bois, “Devonu lug‘atit turk” nafaqat tarixiy lug‘at, balki turkiy tillarning ensiklopedik qomusi sifatida baholanadi (Дмитриев, 1948).

N.K. Dmitriyev turkiy va arab tillari o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir masalasiga to‘xtalar ekan, ushbu muammoning tarixiy va zamonaviy tilshunoslikda doimiy qiziqish uyg‘otib kelayotganini ta’kidlaydi (Дмитриев, 1948).

Ma’lumki, 1937-yilda, Basim Atalay tarjimasi Turkiyada e’lon qilinishidan avvalroq, “Devonu lug‘atit turk” asari ozarbayjon tiliga tarjima qilinib, taqriz uchun S.E. Malovga taqdim etilgan (Малов С.Э., 1951). Taqriz jarayonida Malov ayrim masalalar yuzasidan ilmiy maslahat olish maqsadida o‘zbek filologi S. Mutallibovni hamkorlikka jalb etgan (Муталлибов, 1958). Ushbu holat asarning ilmiy muomaladagi nufuzini hamda turli ilmiy maktablar o‘rtasidagi hamkorlikni ko‘rsatadi.

O‘zbekistonda “Devon”ga oid dastlabki ilmiy tadqiqotlar Abdurauf Fitrat nomi bilan bog‘liq (Фитрат А., 2008). Uning mazkur asar yuzasidan bildirgan ilmiy mulohazalari va kuzatishlari nafaqat o‘zbek tilshunosligida, balki turkiyshunoslik doirasida ham muhim nazariy ahamiyatga ega. Fitrat o‘z asarlarida “Devon” tilining tarixiy-lingvistik o‘rnini belgilab, o‘zbek adabiy tili taraqqiyotining ildizlari bevosita ushbu manbaga borib taqalishini asoslab bergan (Фитрат А., 2008).

Fitrat “Sarf” asarida “Devon” tilining “Qutadg‘u bilig”, “Hibat ul-haqoyiq” hamda Ahmad Yassaviyning “Devoni hikmat” asari tili bilan genetik va struktur jihatdan yaqinligini qayd etadi. Olimning ta’kidlashicha, mazkur adabiy til keyinchalik chig‘atoy tili nomi bilan shakllangan tarixiy-lingvistik tizimga asos bo‘lgan. Ushbu qarash Fitrat tomonidan boshqa ilmiy ishlarida ham izchil ravishda ilgari surilgan (Фитрат, 1927/2008).

O‘zbek olimlari orasida Mahmud Qoshg‘ariy “Devon”ini tizimli va ilmiy asosda o‘rganish XX asrning 30-yillaridan boshlab faollashdi. Bu jarayonda S. Mutallibovning ilmiy faoliyati alohida o‘rin tutadi. Olim asarga oid qator maqolalar va monografiyalar yaratib, “Devonu lug‘atit turk”ni to‘liq o‘zbek tiliga tarjima qildi hamda nashr ettirdi (Муталлибов С., 1958).

S. Mutallibovning talqiniga ko‘ra, Mahmud Qoshg‘ariy “Devon”da o‘zlashma birliklarga differensial yondashuvni qo‘llagan (Қошғарий М., 1960). Ya’ni, real hayotda mavjud bo‘lib, turkiy tillarda muqobili bo‘lmagan predmet va tushunchalar nomlari qo‘shni tillardan qabul qilinishi tabiiy jarayon sifatida baholanadi (Муталлибов С., 1958).

“Devon” bo‘yicha indeks va ko‘rsatkichlar tuzish borasida ham bir qator ilmiy ishlar amalga oshirilgan. Xususan, K. Brokkelmann tomonidan nemis tilida ko‘rsatkich tuzilgan (Brokkelmann K., 1936). Basim Atalay nashrida atoqli otlar ro‘yxati keltirilgan bo‘lsa-da, izohlarning qisqaligi va ayrim ilmiy tafsilotlarning yetishmasligi tadqiqotchilar tomonidan qayd etilgan (Atalay B., 1941). Jumladan, geografik materiallarning kartografik talqini yetarli darajada yoritilmagan (Абдулқосимов, 2002).

Akademik I.Yu. Krachkovskiy “Devon”dagi kartografik materiallarga alohida e’tibor qaratib, qo‘lyozmada saqlangan doiraviy xaritaning ilmiy ahamiyatini

ta’kidlaydi (Крачковский И.Ю., 1968). Olimning qayd etishicha, mazkur xarita tarixiy geografiya, etnografiya va madaniy aloqalarni o‘rganishda muhim manba hisoblanadi. Biroq xarita bilan bog‘liq qator masalalar hanuz mukammal hal etilmagan (Крачковский И.Ю., 1968).

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada “Devonu lug‘atit turk” asariga oid ilmiy qarashlar qiyosiy-tarixiy metod asosida, tarixiy-etimologik nuqtayi nazardan, tavsifiy-tahliliy o‘rganildi. Bunda “Devonu lug‘atit-turk” asarining o‘rganilishiga doir turli yo‘nalishlardagi ilmiy fikrlar, tadqiqot xulosalari tahlil qilindi.

“Devonu lug‘atit-turk” asari lingvistik, leksikografik, lingvokulturologik, etnografik va adabiy va folklorshunoslik jihatdan tadqiq etilgani kuzatildi, turkologlarning asar tadqiqi yuzasidan ilmiy asarlari, ular tomonidan ilgari surilgan fikr-mulohazalar jamlandi va tahlilga tortildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Zamonaviy tarixiy va lingvistik tadqiqotlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, “Devonu lug‘otit turk” asari turkiyshunoslikda universal manba maqomiga ega (Щербак, 2005). A.M. Shcherbak asarni baholar ekan, uning ilmiy qamrovi, materiallar hajmi va filologik aniqligini alohida e’tirof etadi. Tadqiqotchining fikricha, “Devon”ni faqat lug‘at sifatida talqin qilish yetarli emas, chunki unda grammatika, fonetika, leksikologiya, etnografiya hamda tarixiy geografiyaga oid keng qamrovli ma’lumotlar mujassamdir. Shu jihatdan asar turkiy tillarning ensiklopedik manbasi sifatida baholanadi (Щербак, 2005).

Mahmud Qoshg‘ariy arab yozuvining turkiy tillardagi barcha fonemalarni to‘liq ifodalash imkoniyati cheklanganini alohida qayd etadi (Қошғарий, 1960). Olim bu kamchilikni bartaraf etish maqsadida diakritik belgilar tizimidan foydalanishni taklif etadi. Ushbu yondashuv o‘rta asr turkiy tilshunosligida fonetik aniqlikni ta’minlashga qaratilgan ilmiy-intellektual urinish sifatida e’tirof etiladi (Малов, 1951). Qoshg‘ariyning mazkur qarashlari turkiy yozuv madaniyati va grafik adaptatsiya jarayonlarini anglashda muhim nazariy asos vazifasini bajaradi (Абдураҳмонов, 1973).

XI asr yozma yodgorliklarida qayd etilgan til faktlari faqat shu davrning o‘ziga xos hodisasi bo‘lib qolmay, balki undan ham qadimgi lingvistik qatlamlarning izlarini aks ettiradi. Shu bois mazkur materiallar tarixiy-lingvistik rekonstruksiya uchun mustahkam empirik asos hisoblanadi (Алиев А., Содиқов Қ., 1994].

Akademik G. Abdurahmonov “Devon” materiallari asosida Qoraxoniylar davrida turkiy urug‘ tillarining o‘zaro yaqinlashuv jarayonlarini tahlil qiladi (Абдураҳмонов Г., 1973). Tadqiqotlarda qayd etilishicha, qarluq, chigil va uyg‘ur til

unsurlari mazkur davr til manzarasida yetakchi rol o‘ynagan. Biroq XI asrda urug‘ tillari hali to‘liq konsolidatsiyaga erishmagan bo‘lib, Mahmud Qoshg‘ariy qipchoq, o‘g‘uz va uyg‘ur tillarini aniq farqlab, har birining o‘ziga xos lingvistik xususiyatlarini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, kichik etnik birliklarning yirik qabila ittifoqlari tarkibiga singishi natijasida til integratsiyasi uchun muayyan sharoit shakllangan (Қошғарий, 1960; Абдураҳмонов Ғ., 1973).

“Devonu lug‘otit turk” asari geografik va toponimik materiallarning boyligi bilan ham ajralib turadi. Asarda yirik hududiy nomlar bilan bir qatorda ko‘plab mahalliy joy nomlari qayd etilib, ularga lingvistik va etimologik izohlar berilgan. Bu jihatdan “Devon”ni o‘ziga xos tarixiy-toponimik qomus sifatida ham baholash mumkin (Содиқов Қ., 2005). Asardagi ayrim nomlar mifologik va diniy tasavvurlar bilan bog‘liq bo‘lsa-da, ular tarixiy-geografik tafakkurni o‘rganishda muhim manba vazifasini bajaradi (Қошғарий М., 1960).

O‘zbekistonda “Devon” yuzasidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar Fitrat, S. Mutallibov, V.V. Reshetov, G. Abdurahmonov, A. Rustamov kabi olimlar faoliyati bilan uzviy bog‘liq. Tadqiqotlarda Mahmud Qoshg‘ariy turkiy tillarni qiyosiy-tarixiy jihatdan o‘rganishga ulkan hissa qo‘shgan ensiklopedik bilim sohibi sifatida e’tirof etiladi. Asarning o‘zbek tilidagi ko‘p jildli nashri esa milliy tilshunoslik rivojida muhim bosqich bo‘ldi (Муталлибов С., 1967).

Zamonaviy ilmiy jamoatchilik Mahmud Qoshg‘ariyni qiyosiy tilshunoslikning dastlabki asoschilaridan biri sifatida baholaydi (Абдураҳмонов Ғ., 1973).

Tarixiy manbalarga ko‘ra, VI–VIII asrlarda keng hududda hukmronlik qilgan Ko‘k Turk xoqonliklari davrida turkiy til davlat boshqaruvi, diplomatik aloqalar va yozma madaniyatning asosiy vositasi bo‘lgan (Бартольд, 1968). Ko‘k turk yozuvi rasmiy va madaniy kommunikatsiyada muhim o‘rin egallagan. Ushbu tarixiy an’ana keyingi davr turkiy davlatlarida ham davom etgan (Малов, 1951).

Islomiy davrda arab tilining keng o‘rganilishi turkiy tilning ijtimoiy funksional mavqeini susaytirmagan. Turkiy til siyosiy, madaniy va adabiy muhitda faol qo‘llanishda davom etgan. Mahmud Qoshg‘ariy “Devon”da turkiy tilning nufuzi, boshqa tillar bilan munosabati hamda mintaqadagi til vaziyati haqida muhim ma’lumotlar beradi. Olim turkiy tilning Sharq xalqlari o‘rtasidagi mavqeini yuksak baholab, uni arab tili bilan teng darajada taraqqiy etayotgan til sifatida tavsiflaydi (Қошғарий, 1960).

Qoshg‘ariy Markaziy Osiyoda yashagan ayrim etnik guruhlar orasida ikki tillilik hodisasini ham qayd etadi. Olim ayrim xalqlarning nutqida til aralashuvi va interferensiya jarayonlarini kuzatib, bu hodisalarning ijtimoiy-madaniy omillar bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi. Shuningdek, asarda uyg‘ur tili va yozuv madaniyatiga oid muhim ma’lumotlar berilib, turkiy yozuv tizimlarining xilma-xilligi va funksional

differensiasiyasi yoritiladi (Қошғарий, 1960; Абдураҳмонов Ғ., 1973). “Devonu lug‘atit turk” asari lingvistik, tarixiy, etnografik va geografik ma’lumotlarni o‘zida mujassamlashtirgan ko‘p qirrali ilmiy manba sifatida turkiyshunoslikda alohida o‘rin tutadi.

O‘zbekistonda “Devonu lug‘atit turk”ni o‘rganish tarixiga nazar tashlar ekanmiz, mazkur yo‘nalishdagi dastlabki fundamental tadqiqotlar Abdurauf Fitrat nomi bilan uzviy bog‘liq ekanligi kuzatiladi (Фитрат, 2008). Fitratning “Devon”ga oid ilmiy kuzatishlari va nazariy xulosalari nafaqat o‘zbek tilshunosligida, balki turkiyshunoslik doirasida ham muhim metodologik ahamiyat kasb etadi. Olim o‘z asarlarida “Devon” tilining tarixiy-lingvistik o‘rnini aniqlab, o‘zbek tilining taraqqiyotining ildizlari bevosita ushbu manbaga borib taqalishini ilmiy asosda qayd etgan (Фитрат, 2008).

Fitrat “Sarf” asarida “Devon” tilining “Qutadg‘u bilig”, “Hibat ul-haqoyiq” hamda Ahmad Yassaviy hikmatlari tili bilan struktur va genetik jihatdan yaqinligini ta’kidlaydi. Olimning fikricha, mazkur til keyinchalik chig‘atoy tili nomi bilan shakllangan adabiy til tizimining muhim asosini tashkil etgan. Shu bilan birga, Fitrat turkiy tillarni tasniflash masalalariga ham e’tibor qaratib, V.V. Radlov va A.N. Samoylovich tasniflariga munosabat bildirgan. Tadqiqotlarda qayd etilishicha, Mahmud Qoshg‘ariy tomonidan ilgari surilgan tasnif tamoyillari keyingi ilmiy klassifikatsiyalarda bevosita takrorlanmagan bo‘lsa-da, ular nazariy asos sifatida muhim o‘rin egallagan (Фитрат, 2008).

Fitrat Turkiyada amalga oshirilgan tadqiqotlarga ham ilmiy nuqtayi nazardan yondashib, N. Osim va F. Ko‘pruluzoda ishlariga tanqidiy munosabat bildirgan. Ayniqsa, F. Ko‘pruluzodaning turk adabiyoti genezisi haqidagi qarashlari bilan ilmiy munozaraga kirishgani Fitrat tafakkurining qamrovi va metodologik mustaqilligini ko‘rsatadi (Фитрат, 2008).

Fitratdan keyin “Devon” tadqiqiga salmoqli hissa qo‘shgan olimlardan biri S.Mutallibovdir. Olim asarni o‘zbek tiliga to‘liq tarjima qilib, uning ilmiy muomaladagi funksional doirasini kengaytirdi (Муталлибоев С.Я., 1967). Shu bilan birga, “Devon”ga tuzilgan indeks-lug‘at hamda grammatik ko‘rsatkichlar asarni lingvistik jihatdan tizimli o‘rganish imkonini yaratdi. Xususan, atoqli otlar, etnonimlar, toponimlar va gidronimlar bo‘yicha tuzilgan ko‘rsatkichlar tarixiy-lingvistik tahlillar uchun muhim metodik ahamiyatga ega bo‘ldi (Муталлибоев, 1967).

“Devon”ning o‘zbek tilida nashr etilishi va tadqiq qilinishida G‘.Abdurahmonovning ilmiy xizmatlari ham alohida e’tirof etiladi. Olim asar materiallari asosida tarixiy grammatika, fonetika va morfologiya masalalarini chuqur tahlil qilgan (Абдураҳмонов Ғ., 1973).

H. Hasanov Mahmud Qoshg‘ariyning geografik qarashlarini o‘rganib, asarning kartografik va tarixiy-geografik ahamiyatini yoritishga muhim hissa qo‘shdi (Ҳасанов Ҳ., 1963).

“Devonu lug‘atit turk” tadqiqotlari tarixiy jihatdan bir necha bosqichda shakllangan. XX asrning birinchi yarmida V.V. Bartold, I. Samoylovich, P.K. Juze, S.E. Malov, A.N. Kononov, I.Yu. Krachkovskiy, N.A. Baskakov va A. Fitrat kabi olimlar asarning lingvistik, tarixiy va madaniy jihatlarini tadqiq etgan. Shu davrda kartografik materiallar I.N. Umnyakov va S. Volin tomonidan o‘rganilgan (Бартольд, 1968; Малов, 1951; Крачковский, 1960).

XX asrning ikkinchi yarmida G‘.Abdurahmonov, S. Mutallibov, A.E. Yakubovskiy, A.M. Shcherbak, S.K. Ibrohimov va boshqa tadqiqotchilar “Devon”ning tilshunoslik, tarixiy va kartografik jihatlarini yanada chuqurroq tahlil qilgan.

Mustaqillik yillarida esa tadqiqotlar yangi ilmiy paradigmalarda davom etib,

A.Aliyev, Q.Sodiqov, V.Valixo‘jayev, H.Dadaboyev, Q.Karimov, A. Muxtorov, B.O‘rinboyev, J.Xudoyberdiyev, G‘.G‘ofurov va Z.Saidboboyev kabi olimlar tomonidan tarixiy-lingvistik, etimologik, madaniy va kartografik jihatlar tahlil qilingan. Shu tariqa, “Devonu lug‘atit turk” asari o‘zbek tilshunosligi va turkiyshunoslikdagi ilmiy maqomini mustahkamladi. Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, asar hanuz dolzarbligini saqlab qolmoqda va yangi metodologik yondashuvlar asosida o‘rganilishi davom etmoqda, bu esa Mahmud Qoshg‘ariy merosining adabiy ilmiy ahamiyatini tasdiqlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yurtimiz tarixi va madaniy merosini o‘rganishda ko‘plab yozma yodgorliklar asosiy manba hisoblanadi. Ulardan ba’zilari asrlar davomida saqlanib, xalq farzandlari tomonidan e’zoz bilan asrab kelingan bo‘lsa, ularning orasida “Devonu lug‘atit turk” asari ham alohida o‘rin tutadi.

“Devonu lug‘atit-Turk” asari turkiy tilshunoslik, etnografiya, adabiyot va folklor tadqiqotlari uchun bebaho manba hisoblanadi. Asarni o‘rganish jarayonida olimlar turli yondashuv va metodlardan foydalangan: tarixiy-lingvistik tahlil orqali turkiy tillarning rivojlanish bosqichlarini aniqlash; etnografik yondashuv yordamida xalq urf-odatlari, diniy e’tiqodlar va madaniy qadriyatlarni o‘rganish; adabiy yondashuv orqali esa she’riyat va maqollarni tahlil qilish mumkin bo‘lgan.

Shuningdek, zamonaviy lingvistik va leksikografik metodlar yordamida asardagi so‘z boyligi, morfologik tuzilma va grammatik xususiyatlar chuqur o‘rganilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, “Devonu lug‘atit-turk” nafaqat tarixiy manba, balki turkiy madaniyat va adabiyot tadqiqotlari uchun ilmiy asos sifatida muhim ahamiyatga ega.

“Devon” asari topilgandan so‘ng ko‘plab ilmiy tadqiqotlarga asos bo‘ldi, turli tillarga tarjima qilindi va xorijda ham keng tadqiq qilindi. Asar yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar V.V. Bartold, I. Samoylovich, S.E. Malov, I.Yu. Krachkovskiy, A.E. Yakubovskiy, S.K. Ibrohimov va boshqa tilshunos va adabiyotshunos olimlar faoliyatida tadqiqot manbai bo‘lib xizmat qildi..

Mahmud Qoshg‘ariy XI asrda turkiy va ba’zi Sharq tillari asosida tillarning qiyosiy tahlili va grammatik qoidalarini o‘rganib, fundamental asar yaratgan.

“Devon” turkiy tillarning birinchi qiyosiy grammatikasi va ularning qiyosiy lug‘ati sifatida ham ahamiyatga ega. Shu bois Mahmud Qoshg‘ariy umumtilshunoslikda qiyosiy-tarixiy metodning asoschilaridan biri sifatida e’tirof etilishi o‘rinli sanaladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Абдулқосимов А. (2002) Маҳмуд Қошғарийнинг картографик мероси / Маҳмуд Қошғарийнинг “Девону луғотит турк” асари ва унинг туркий халқлар маданияти ҳамда жаҳон цивилизациясида тутган ўрни. Халқаро конференция материаллари. – Самарқанд.

2. Абдураҳмонов Ғ., Шукуров Ш. (1973) Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. – Т. – 320 б.

3. Алиев А., Содиқов Қ. (1994) Ўзбек адабий тили тарихидан. – Т.: Ўзбекистон. – 120 б.

4. Atalay B. (1941) Divanü Luğati-t-Turk tipkibasimi. – Ankara.

5. Бартольд В.В. (1968) История турецко-монгольских народов // Сочинения. Т.V. – М.: Наука.

6. Brokelmann Carl. (1936) Geschichte der Arabische Literatur. Erster Supplementband. – Leiden.

7. Девону луғотит турк. Индекс-луғат Ғ. Абдураҳмонов ва С. Муталлибов таҳрири остида. (1967) – Т.

8. Дмитриев Н.К. (1948) Грамматика башкирского языка. – М.-Л.: Издательство АН СССР.

9. Жузе П.К. (1926) Диван лугат ат-турк “Известия Восточного факультета Азербайджанского Государственного университета им. В.И. Ленина” Т. I. – Баку. – С. 75-94. Т. II. – Баку (1928). – С. 27-58.

10. Каримов Қ. (2009) Қадимги туркий тил луғати (X – XII асрлар). – Т.: Мумтоз сўз.

11. Крачковский И.Ю. (1958) Очерки по истории русской арабистики. Избранные сочинения. Т. V. – М.-Л.

12. Малов С.Е. (1951) Памятники древнетюркской писъменности. – Москва-Ленинград.

13. Маллаев Н.М., Каримов Ғ.К., Исматов С.И. (1984) Ўзбек адабиѐти тарихи. – Т.: Ўқитувчи. – 224 б.

14. Маҳмуд Қошғарий. (1960) Девону луғотит турк // 1-жилд. Таржимон ва нашрга тайѐрловчи Муталлибов С. – Т.

15. Муталлибов С. (1958) XI аср филологи Маҳмуд Кошғарий ва унинг "Девону луғотит турк" асари. – Т.

16. Содиқов Қ. (2005) Маҳмуд Қошғарий харитаси ҳақида // Шарқ филологиясининг тугун ва ечимлари. – Т. – Б.10.

17. Фитрат. (2008) Энг эски турк адабиѐти наъмуналари. – Т. – Б. 45.

18. Ҳасанов Ҳ. (1963) Маҳмуд Қошғарий. – Т. – Б. 15.

19. Щербак А.М. (1962) Грамматика староузбекского языка. – М.-Л.: Издательство АН СССР.

REFERENCES:

1. Abdulkosimov A. (2002) Mahmud Qoshg'ariyning kartografik merosi / Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asari va uning turkiy xalqlar madaniyati hamda jahon tsivilizatsiyasida tutgan o'rni. Xalqaro konferensiya materiallari. – Samarqand (In Uzbek).

2. Abdurahmonov G'., Shukurov Sh. (1973) O'zbek tilining tarixiy grammatikasi. – T. – 320 b. (In Uzbek).

3. Aliev A., Sodiqov Q. (1994) O'zbek adabiy tili tarixidan. – T.: O'zbekiston. – 120 b. (In Uzbek).

4. Atalay B. (1941) Divanü Luğati-t-Turk tipkıbasımı. – Ankara (In Turkish).

5. Bartol'd V.V. (1968) Istoriya turetsko-mongol'skix narodov // Sochineniya. T.V. – M.: Nauka (In Russian).

6. Brokelmann Carl. (1936) Geschichte der Arabische Literatur. Erster Supplementband. – Leiden (In German).

7. Devonu lug'otit turk. Indeks-lug'at G'. Abdurahmonov va S. Mutallibov tahriri ostida. (1967) – T. (In Uzbek).

8. Dmitriev N.K. (1948) Grammatika bashkirskogo yazyka. – M.-L.: Izdatel'stvo AN SSSR (In Russian).

9. Juze P.K. (1926) Divan lugat at-turk "Izvestiya Vostochnogo fakul'teta Azerbaidzhanskogo Gosudarstvennogo universiteta im. V.I. Lenina" T. I. – Baku. – S. 75-94. T. II. – Baku (1928). – S. 27-58 (In Russian).

10. Karimov Q. (2009) Qadimgi turkiy til lug'ati (X – XII asrlar). – T.: Mumtoz so'z (In Uzbek).

11. Krachkovskiy I.Yu. (1958) Ocherki po istorii russkoy arabistiki. Izbrannye sochineniya. T. V. – M.-L. (In Russian).

12. Malov S.E. (1951) Pamyatniki drevnetyurkskoy pis’mennosti. – Moskva-Leningrad (In Russian).

13. Mallaev N.M., Karimov G‘.K., Ismatov S.I. (1984) O‘zbek adabiyoti tarixi. – T.: O‘qituvchi. – 224 b. (In Uzbek).

14. Mahmud Qoshg‘ariy. (1960) Devonu lug‘otit turk // 1-jild. Tarjimon va nashrga tayyorlovchi Mutallibov S. – T. (In Uzbek).

15. Mutallibov S. (1958) XI asr filologi Mahmud Koshg‘ariy va uning “Devonu lug‘otit turk” asari. – T. (In Uzbek).

16. Sodiqov Q. (2005) Mahmud Qoshg‘ariy xaritasi haqida // Sharq filologiyasining tugun va yechimlari. – T. – B.10. (In Uzbek).

17. Fitrat. (2008) Eng eski turk adabiyoti namunalarini. – T. – B. 45. (In Uzbek).

18. Hasanov H. (1963) Mahmud Qoshg‘ariy. – T. – B. 15. (In Uzbek).

19. Shcherbak A.M. (1962) Grammatika starouzbekskogo yazyka. – M.-L.: Izdatel’stvo AN SSSR (In Russian).

ARAB NOTIQLIGI NEGIZIDA PAYDO BO‘LGAN ADABIY NASRIY JANRLAR: VASIYATLAR

LITERARY PROSE GENRES THAT EMERGED FROM THE FOUNDATIONS OF ARABIC ORATORY: TESTAMENTS

ЛИТЕРАТУРНЫЕ ПРОЗАИЧЕСКИЕ ЖАНРЫ, ВОЗНИКШИЕ НА ОСНОВЕ АРАБСКОГО ОРАТОРСКОГО ИСКУССТВА: ЗАВЕЩАНИЯ

https://zenodo.org/records/20666250

Djurayeva Feruza Shukurovna
Oriental Universiteti Tillar – 1 kafedrasi
dotsenti, filologiya bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Tel.: +99890 930- 94- 97
e-mail: fairuz.djuraeva@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada ilk o‘rta asrlar arab nasrida vasiyat janrining shakllanishi va taraqqiyoti arab notiqlik an’analari doirasida tahlil qilinadi. Tadqiqotda vasiyat janri johiliya davri arab jamiyatiga yaxshi tanish bo‘lgan va muayyan adabiy qolipga ega shakl ekani asoslanadi. Vasiyat aytuvchilarning ijtimoiy maqomi, ularning hayotiy tajribasi va uzoq umr ko‘rgan shaxslar sifatidagi o‘rni yoritiladi. Shuningdek, vasiyatlarning aytilish sharoiti, qachon va kimga qaratilgani hamda asosiy mavzulari tahlil qilinadi. Maqolada vasiyat janrining ommaviy xitobadan funksional va uslubiy jihatdan farqlari ochib beriladi va uning mustaqil nasriy janr sifatidagi o‘rni asoslanadi.

Kalit so‘zlar: *arab nasri, notiqlik, vasiyat janri, johiliya adabiyoti, janr differensiatsiyasi, xitoba, axloqiy meros, ilk islom davri, nasriy an’ana*.

Abstract. This article examines the formation and development of the wasiyyah genre in early medieval Arabic prose within the framework of Arabic rhetorical traditions. The study argues that wasiyyah was a well-established literary form in the pre-Islamic (Jahiliyyah) period with recognizable structural features. The social status and life experience of those delivering wasiyyah, often elders and tribal leaders, are analyzed. The circumstances of delivery, audience, and thematic scope are also discussed. Particular attention is given to the differences between wasiyyah and public oratory (khitābah). The findings demonstrate that although wasiyyah originated within rhetorical practice, it evolved into an independent prose genre with distinct communicative functions.

Keywords: *Arabic prose, rhetoric, wasiyyah genre, Jahiliyyah literature, genre differentiation, khitābah, moral legacy, early Islam, prose tradition*.

Аннотация. В статье анализируется формирование и развитие жанра васият в раннесредневековой арабской прозе в контексте традиций арабской риторики. Обосновывается, что васият был хорошо известной литературной

формой в эпоху джахилии и обладал устойчивыми структурными признаками. Рассматривается социальный статус авторов васият, их жизненный опыт и роль старейшин в передаче нравственных норм. Анализируются обстоятельства произнесения васият, адресат и тематический круг. Особое внимание уделяется различиям между васият и публичной проповедью (хитоба). Делается вывод о том, что васият сформировался в недрах риторической традиции, но приобрёл самостоятельные жанровые признаки.

Ключевые слова: *арабская проза, риторика, жанр васият, литература джахилии, жанровая дифференциация, хитоба, нравственное наследие, ранний ислам, традиция прозы.*

KIRISH

Ilk arab adabiyotida nasr, avvalo, notiqlik bilan bog‘liq holda shakllangan. Johiliya davrida yozma adabiyot hali tizimli ko‘rinishga ega bo‘lmagani sababli, ijtimoiy munosabatlar va axloqiy me’yorlar asosan nutq orqali ifoda etilgan. Shu jarayonda notiqlikning turli shakllari vujudga kelgan bo‘lib, ular orasida vasiyat alohida o‘rin tutadi.

O‘zbek tilida vasiyatnoma, odatda huquqiy hujjatni anglatadi, biroq arablarning islomdan avvalgi davrlarida mashhur bo‘lgan “vasiyatlar adabiyoti” mukammal ko‘rinishga ega adabiy nasriy janrdir. U arab kishisining tug‘ma so‘z mahoratiga iqtidorining qizg‘in hissiyotlari, chuqur tafakkurining musiqiylik bilan yo‘g‘rilgan in’ikosidir. Odatda johiliya vasiyatlarida hayot tajribalaridan kelib chiqqan amaliy xulosalar, yuksak insoniy qadriyatlarga da’vatlar aks etgan, nafis, qofiyalangan uslubi tufayli tinglovchisi qalbiga chuqur ta’sir o‘tkazgan.

Islomgacha davr vasiyatlari mavzulari turlicha bo‘lgan: yaxshi fazilatlarni rag‘batlantiruvchi va yomonlikni qoralovchi; manfaatli va xayrli ishlarga targ‘ib qiluvchi va uni tarqatishni maqsad qilgan, yomonlikdan qaytaruvchi va uning oldini olishga intiladigan axloqiy qoidalardan tortib, oilaviy munosabatlarda oila barqarorligini saqlash shartlarigacha donishmandlik bilan berilgan tavsiyalar, pand-nasihatlarni o‘z ichiga olgan.

Arab ana’nalariga ko‘ra, vasiyatchining irodasi – uning qabilani boshqarish siyosatini; qiyinchiliklarni bartaraf etish, ularni aql va adolat bilan hal etish hamda o‘g‘illarining qonida, sha’nida, mol-mulkida va barcha ishlarida sharaf va qadr-qimmatni himoya qilishni anglatgan.

Johiliyada vasiyat aytuvchilar albatta uzoq umr ko‘rgan, katta hayotiy tajribaga ega, qabilaning obro‘ – e’tiborli kishilari bo‘lishgan. Ilk islom davri va keyinroq ummaviy xalifalar davridan boshlab, diniy rahnamolar, xalifalar, amirlar, voliylar ham vasiyatlar aytishgan.

Ilk o‘rta asrlar arablarining vasiyatlari qadim arab nasrining o‘z davrida eng ommalashgan shakllaridan hisoblangan. Mazkur nasrning namunalari zamonaviy asrlargacha arablarning she’riyatichalik ko‘p yetib kelmagan bo‘lsa-da, arab kishisining tabiati, uning so‘z san’atiga oshiqligi, ular hayotida so‘z qudratiga ega kishilarning yuqori darajada ulug‘langani; bundaylarning arab qabilalarida juda ko‘p sonli bo‘lgani haqidagi asosli ma’lumotlar arablarda islomgacha davrlarda aynan vasiyatlar adabiyoti mukammal badiiy nasrni tashkil etganini tasavvur qilishga izn beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Qadimgi arab nasrining, xususan, vasiyat janrining shakllanishi va taraqqiyotini o‘rganishda avvalo o‘rta asr manbalari asosiy manba vazifasini bajaradi. Ilk davr adabiy merosining katta qismi aynan IX-X asrlarda yashagan adib va tarixchilar tomonidan jamlangan.

Birinchi navbatda Al-Jahiz asarlari muhimdir. Uning “Al-Bayan wa al-tabyin” *(* 1968 ،ألجاحظ) asarida arab notiqligi, balog‘at san’ati va nasriy ifoda shakllari keng tahlil qilinadi. Ushbu asarda johiliya davri xutbalari, hikmatli so‘zlar va vasiyat namunalaridan ko‘plab iqtiboslar keltiriladi. Al-Jahiz vasiyatni mustaqil badiiy nutq shakli sifatida emas, balki notiqlikning amaliy ko‘rinishi sifatida baholaydi, biroq uning axloqiy va ijtimoiy funksiyasiga alohida urg‘u beradi.

Ibn Abd Rabbihining “Al-‘Iqd al-farid” (1962 ،إبن عبد ربه) asari esa vasiyat matnlarining boy to‘plamini o‘z ichiga olgan. Unda ota-onalarning farzandlariga qilgan pand-nasihatlari, qabila boshliqlarining siyosiy vasiyatlari, hukmdorlarning merosiy nasihatlari keltiriladi. Bu manba vasiyat janrining mavzu jihatdan rang-barangligini ko‘rsatadi.

Abu al-Faraj al-Isfahanining “Kitab al-Aghani” (1963 ،الإصفهاني) asarida ham tarixiy voqealar kontekstida ko‘plab vasiyat matnlari uchraydi. Ular asosan tarixiy shaxslarning so‘nggi so‘zlari yoki siyosiy-ijtimoiy tavsiyalari shaklida beriladi. Bu esa vasiyatning tarixiy rivoyat (akhbor) bilan uzviy aloqada rivojlanganini ko‘rsatadi.

Qudama ibn Ja'farning “Naqd al-nasr” (1937 ،قدامة بن خعفر بن قدامة) va boshqa tanqidiy risolalarida nasr va she’r mezonlari belgilab berilgan bo‘lib, u yerda notiqlik nutqi va uning tarkibiy qismlari haqida fikr yuritiladi. Garchi u vasiyatni alohida janr sifatida maxsus tadqiq qilmagan bo‘lsa-da, nasriy shakllarning differensial xususiyatlarini ko‘rsatib bergan.

Vasiyat janrining o‘rta asrlardagi asosiy yozma manbalari qatoriga yana “Jamharat khutab al-‘Arab (1933 ،صفوت)asarlarini ham kiritish mumkin. Bu manbalarda vasiyatlar xutba va hikmatli so‘zlar bilan yonma-yon keltirilgan bo‘lib, janrlar o‘rtasidagi aloqani yaqqol ko‘rsatadi.

Zamonaviy arab adabiyotshunosligida vasiyat janri alohida tadqiq obyekti sifatida ko‘rilgan. Shawqi Dayf o‘zining “Tarikh al-adab al-‘Arabi” (1963 ‘.ضيف) turkum asarlarida jahiliya nasrini tahlil qilar ekan, vasiyatni axloqiy-didaktik yo‘nalishdagi muhim janr sifatida baholaydi. U vasiyatni xutbaning ichki tarmog‘i deb hisoblaydi, biroq uning individual xarakteriga ham e’tibor qaratadi.

Umar Farrukh (19 ‘.فروخ) arab adabiyoti tarixiga oid tadqiqotlarida vasiyatlarning ijtimoiy va siyosiy ahamiyatini ochib beradi. Uning fikricha, jahiliya va ilk islom davrida vasiyat qabila tuzumining axloqiy kodeksini avloddan avlodga yetkazuvchi vosita bo‘lgan.

Hanna al-Fakhuri (1986‘.الفخوري) ham arab adabiyoti tarixiga bag‘ishlangan asarlarida nasr janrlarining shakllanish jarayonini ko‘rsatib, vasiyatni erta davr notiqlik an’analarining mahsuli sifatida izohlaydi.

Ali al-Jundi va Hashim Manna' nasriy janrlarning differensial xususiyatlarini tahlil qilib, vasiyatni didaktik-adabiy nutq shakli sifatida tasniflaydilar (‘.الجندي 1966). Siham Al-Farih esa vasiyatlarning gender va ijtimoiy kontekstini o‘rganib, ona-qiz vasiyatlari alohida namuna tashkil qilishini ko‘rsatadi. (‘.منّاع1993‘ الفريح. 1983)

Shuningdek, al-Hindawinashrlarida e’lon qilingan tadqiqotlar vasiyat matnlarini ilmiy-tanqidiy nashr asosida qayta ko‘rib chiqishga xizmat qilgan (‘.الهنداوي https://www.noor- book.com/%D9%83%D8%AA%D8%A7%D8%A8-).

Umuman olganda, o‘rta asr manbalari vasiyat matnlarini saqlab qolgan bo‘lsa, zamonaviy adabiyotshunoslik ularni janr sifatida nazariy jihatdan talqin qiladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, vasiyat jahiliya davridayoq shakllangan, ilk islom va ummaviylar davrida esa mavzu va funksional jihatdan kengaygan. Biroq vasiyat janrining mustaqil estetik tizim sifatidagi nazariy tadqiqi hali ham chuqurroq ilmiy izlanishlarni talab etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot tarixiy-qiyosiy, janrshunoslik va matnshunoslik usullari asosida olib borildi. Johiliya, ilk islom va ummaviylar davriga oid nasriy manbalar tahlil qilindi. Vasiyatlar aytilgan shart-sharoitlar, auditoriyasi va mavzu doirasi o‘rganildi. Shuningdek,uning xitoba bilan qiyosiy tahlil o‘tkazildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Arablarning genetik mental so‘zga mahorati, so‘z qudratiga maftun ekani va so‘z ustalariga yuksak ehtiromi ularning eng qadim zamonlaridanoq mavjud edi. Islomgacha davrlardan to arab adabiyotida yozma adabiyotga o‘tilguniga qadar arablar o‘z maishiy, siyosiy va ijtimoiy, diniy ehtiyojlarini o‘zlarining tabiatiga munosib ravishda yuksak badiiy tilda og‘zaki aks ettirar edilar.

Johiliya arablarining kundalik hayotida faol ishtirok etgan yana bir notiqlik janri: vasiyatlar arab va dunyo adabiyotshunoslari tomonidan eng kam o‘rganilgan mavzulardan biridir. Ilk o‘rta asrlar nasrini tashkil etuvchi ushbu janrga oid tizimli, tugal ilmiy tadqiqotlar barmoq bilan sanarli yoki yo‘q darajada. Holbuki, ko‘pgina manbalarda vasiyatlar arabiy turasda juda katta maqomga egaligi qayd etiladi.

Bu kichik notiqlik janrini mol-mulkni o‘zidan keyin qoldirish yoki qonuniy vakolatni kimga topshirish mazmunidagi rasmiy yoki shaxsiy vasiyatlar bilan adashtirmaslik zarur.

Vasiyat (a.وصيت – o‘lim oldidan aytib qoldiriladigan gaplar, o‘lim oldidagi oxirgi so‘z) Marhumning o‘z yaqinlariga aytib yoki yozib qoldirgan topshirig‘i, istagi, nasihati.

O‘zbek tili izohli lug‘atida berilgan ushbu ta’rif arab tilidagi vasiyat so‘zidan anglatiladigan kichik bir ma’nonigina bildiradi. Odatda, vasiyat so‘zi tilimizda shaxsning o‘lim oldi xohishlari yoki vafotidan keyin amal qilinishi kerak bo‘lgan topshiriqlari sifatida tushuniladi: Vasiyatnoma (vasiyat+noma) Yozma vasiyat; muayyan shaxsning (vasiyatchining) u vafot qilgan taqdirda, o‘ziga qarashli bo‘lgan mol-mulkning tasarruf etilishi bo‘yicha xohish-irodasi bayon qilingan hujjat” (Ўзбекистон миллий энциклопедияси: 443).

Etimologik kelib chiqishi arabcha bo‘lgan vasiyat islomdan avvalgi asrlar arablarining nasrga mansub vasiyat (ko‘pligi vasoya) shaklidagi adabiyoti bo‘lgan, ko‘plab manbalarda uni “adabu-l-vasoya”- vasiyatlar adabiyoti shaklida kelishi uchraydi.

Arab adabiyotida vasoya janri muayyan davrlarda keng tarqalgan va arab milliy mental qadriyatlarini aks ettiruvchi nasriy shakl bo‘lsa-da, u eng kam o‘rganilgan sohadir. Adabiyotshunoslikda, arabshunoslikda ham vasiyatlarga bag‘ishlangan alohida ishlar deyarli yo‘q.

Vasiyat arab notiqligining bir ko‘rinishi, biroq uning xitobadan alohida janrmi yo‘qligi bu ilmiy tadqiqotga ehtiyoj sezadi.

Qadim arab adabiyoti tarixiga bag‘ishlangan arab va xorijiy tadqiqotlarning ba’zilarida vasiyat janri mutlaqo tilga olinmagan, ba’zilarida vasiyatlar xitoba deb ham deb nomlangan.: Xitobalar sirasiga yana lozim bo‘lgan lahzada aytiladigan vasiyat nutqlari (vasoya) ni ham kiritish mumkin. Odatda, ular pand-nasihat, saboq, ezgulik va yovuzlik haqidagi mulohazalarni aks ettirar edi. Otaning o‘limi oldidan farzandlariga, og‘ir vaziyatlarda qabila oqsoqolining qabiladoshlariga aytadigan tavsiyalari, ibratli fikrlari vasiyatlar hisoblanadi. (Аль-Фахури Ханна.,1959) Olimning fikrlariga ko‘ra, xitoba va vasiyatlar johiliyada ko‘plab ishlarda ishtirok etadigan, bir-biriga aralashib ketadigan ikki nasriy san’at, janrlardir, bunda ularning

bir-biridan ozroq farq qilishi istisno qilinmaydi, ularning ikkalasidan ham murod manfaatli narsaga targ‘ib qilish va ziyon keltiruvchi narsadan qo‘rqitishdir.

Shu o‘rinda boshqa bir arab adabiyoti tarixchisining ta’kidlashicha: “tinglovchilarni buzg‘unchilik va adashishlardan qaytarish, to‘g‘ri yo‘lga yo‘naltirish jihatdan bir xil, ammo ularning eshituvchilari jihatidan ikki xildir. Xutbalar aytilganda ko‘pincha tinglovchilar jamoasi umummanfaat olish uchun yig‘iladi, vasiyatlarda esa ko‘p hollarda aniq zamondagi aniq bir insonga murojaat qilinadi, vasiyat aytiluvchining atrofida jamoa bo‘lishi shart emas, yoki zarurat taqozo qilsa, bir qanchadir odam bo‘lishi ham man’ etilmaydi (1993:108‘.منّاع).

Ko‘rinadiki, Hoshim Manno‘ xitoba(xutba) va vasiyatni tinglovchilar jamoasining hajmi hamda soniga qarab farqlash mumkin degan fikrni ilgari suradi.

Mavzu ustida ishlash asnosida vasiyatlar va xitobalar qiyosidan boshqa fikr ham uchradi: “U ham xuddi xitoba kabi o‘z ichiga juda ko‘p sathli ma’nolarni yashiradi, vasiyatlar otaning o‘g‘illariga, onaning qizlariga, qabila boshlig‘ining qabiladoshlariga pand-nasihat sifatida aytilgan sermazmun nutqlaridir” (https://www.noor-book.com/%D9%83%D8%AA%D8%A7%D8%A8-% ‘.الهنداوي).

Vasiyatlar va xitobalar haqidagi turli - tuman, ba’zan mavhum fikrlarga oydinlik kiritish uchun ushbu adabiy janrning biz tadqiq qilayotgan ilk o‘rta asrlar arab nasri haqidagi eng qadimiy o‘rta asr manbalariga ham murojaat qildik.

Al Mubarrad (826-898 yy.) “At-Ta’azi va-l-marosiy” (“Ta’ziyalar va marsiyalar”) to‘plamida odil xalifalardan Abu Bakr al-Siddiq, Umar bin al-Xattob, Ali bin Abi Tolib, ummaviy xalifalardan Muoviya Abu Sufyon, Abdulmalik bin Marvon, Abu Ubayda bin Jarrah, Al-Rabi’ al Jushaym, Jundub bin Abdulloh bin al Bajliy hamda al-Muhallab bin Abi Sufra al - Azdiylarning vasiyatlarini kiritgan (82-73 :1993‘.المبرد).

Ilk o‘rta asrlar arab notiqligi shaklidagi adabiy nasrni tadqiq qilish asnosida, xitobalar va vasiyatlar aynan bir janr emas, balki har biri o‘z janr chegaralari va xususiyatlariga ega ikki nasriy shakl ekanini aniqladik va vasiyatlarni ilk o‘rta asrlar adabiyotida eng yorqin nasriy janr xitobaning subjanri deb atash mumkinligiga amin bo‘ldik.

Vasiyatning ildizlari ham xuddi johiliya asridagi xitoba kabi islomdan anchayin avvalroq qadimiyatga borib taqaladi.

Vasiyatlar va xitobalar qabilaning eng so‘zamol, nufuzli kishilari tomonidan aytilgan. Biroq vasiyat, albatta, muayyan bir vaziyatda aniq mavzu yoki muammoni bartaraf etish uchun emas, balki tinch vaziyatlarda arab kishilarining dunyo, hayot yoki boshqa maishiy, ijtimoiy, siyosiy mavzularga oid o‘zlari anglab yetgan haqiqatlari, tajribalariga tayanib maslahat tarzida aytgan nutqlaridir.

Xitobada, odatda vaziyatlarni boshqarish, eshituvchilarga ta’sir o‘tkazish, aniq maqsad va shu maqsadni amalga oshirish uchun jadallik, harakatlanuvchi kuch namoyon bo‘ladi.

Vasiyat esa o‘zi aytilgan vaqtning o‘zidayoq uning samarasini ko‘rish uchun mo‘ljallanmaydi. Vasiyatlar tinch, xotirjam vaziyatlarda uzoq yillik tajribalar, isbotini topgan haqiqatlar haqida na zamon va na makon tanlamas abadiyatga daxldor hikmatlarni kimdir bilan baham ko‘rish istagidan kelib chiqib aytiladi.

Vasiyatlar adabiyoti –“adab al -vasoya”ni tushunish uchun vasiyat so‘zining tildagi ma’nosiga qiziqamiz.

Vasiyat so‘zining tildagi ma’nosi: “Al-’ayn” lug‘atida shunday kelgan: (‘الفراهدي. مادة وصى)

الوصية هي " ما أوصيت به"

Vasiyat - bu men (biron nima haqida) ko‘rsatma, maslahat berganim narsadir (.الزهري.‘ مادة وصى)

و وصيت الشيء و وصلتُه سواء‘ و سميت وصية‘ لإتصالها بأمر الميت

Va bir nimani vasiyat qildim va uni teppa-teng biriktirdim, mayyit bilan aloqasi borligi uchun vasiyat deb nomlandi.

و تواصى القوم: اي: اوصى بعضهم بعضا

*Qavm o‘zaro vasiyatlashdi, ya’ni bir-birlariga vasiyat aytdilar (*الجواهري.‘ 1990:2525*).*

Vasiyat so‘zining istiloh (termin sifatida)dagi ma’nosiga ko‘ra :

الوصية وصيتان، وصية الأحياء للأحياء وهي أدب وأمر بمعروف ونهي عن منكر وتحذير من زلل، و تبصره بصالح عمل، ووصية الأموات للأحياء عند الموت بحق يجب عليهم أداؤه أودين يجب عليهم قضاؤ

Vasiyat bu ikki (xil) vasiyatdir. Tiriklarning tiriklarga vasiyatlari va u adabiyot (odob)dir. U buyurilgan (amru ma’ruf) va qaytarilgan (nahiy munkar) ishlardir va xatodan ogohlantirishdir, solih amallar haqida tafakkur qilishdir. Ikkinchisi o‘l(ayot)ganlarning tiriklarga vasiyatidirki, ularning bu haqqini ado qilish shartdir (منقذ.‘ 1987:16).

Johiliya arablarining vasiyatlari tarix qayd qilinmagan zamonlarga borib taqaladi. Arab olimi doktor Ahmad Amin Mustafo johiliya arablaridan bugungi kungacha bir qancha vasiyatlar yetib kelganini ta’kidlaydi: Ma’lumki, johiliya asri islom kelishidan avvalroq 200 yildan oshmaydi, biroq ba’zi kitoblarda islomdan avvalgi uzoq asrlarga mansub vasiyatlar ham yetib kelgan.

Fikrini davom ettirarkan, johiliya vasiyatlari jamlangan ikki kitobni tilga oladi. Ulardan birinchisi kichik parchalarda 40 betni tashkil etadi va unda Hud a.s. vasiyatlari, Qahton, Yu’arrab, Yushjab, Abdushshams, Saba, Himyar, Kahlan, al-Humays'h, Ayman, Zuhayr, ’ariib bin Ayman, al- G‘avs, Zara’atu, al - Roish,

Abrahatu zi al - Manar, Zi al - Az'ar, Taba' bin zi al - Az'ar, As'ad al - Kamil, Taba' bin Zayd, Yaasir bin Taba'a, Shamr zi al - Janah, zi - Maqor, zi - Havvol, zi - Munaax, zi al - Kalo', zi asbah va Sayf bin zi Yazin vasiyatlari keltirilgan.

Arab adabiyotshunosi nisbat berilgan vasiyat mualliflari haqida manbalarda ma'lumotlar ko'p uchramasligini va ular miloddan ham avvalgi johiliya arablaridan bo'lishgani ehtimolini ilgari suradi.U mazkur shaxslarning o'zi va ularga nisbat berilgan vasiyatlarning aksariyati keyingi davrlarda to'qib chiqarilgan va soxtalashtirilgan degan taxminni bildiradi:

"Bu vasiyatlardan Sayf bin zi Yazin kabi mashhurlaridan ba'zilarining vasiyatlarini asos sifatida qabul qilamiz,ammo bu vasiyatlarning ko'plari to'qib chiqarilganiga ham guvoh bo'lamiz. Aytilishiicha, Sayf bin zi Yazin Abdul Muttalibga Muhammad a.s.ning dunyoga kelishini bashorat qilgan va bu haqda unga vasiyat qilgan; mazkur vasiyatchi jumladan islom payg'ambarining yoshlik chog'larida ota - onasi vafot etishi, uni bobosi va amakisi tarbiyasiga olishini xabar bergan. Biz ushbu vasiyatdagi Muhammad a.s.ning dunyoga kelishi haqidagi bashoratning o'ziga shubha qilmaymiz, ammo undagi tafsilotlar biz uchun shubhalidir" (1990:10 '.أمين).

Vasiyatlar haqida ko'plab ta'riflar mavjud, ularning ko'pligiga ko'ra, bu adabiy nasr ko'rinishi johiliya arablarining eng sevimli nutqiy janri ekaniga amin bo'ldik:

Vasiyatlar ko'p yillik malaka, tajribadan kelib chiqqan qisqa jumlalardir, ko'pincha ularda mashhur maqollar va hikmatlar keltiriladi va ba'zan birgina shunday gap ta'sirli vasiyat bo'lishi mumkin.

Hindavi johiliya vasiyatchilari sifatida Zi Isba al- Udvaniy, Zuhayr bin Jannab al- Kalbiy, Omir bin al - Zarb al - Udvaniy, Hisn bin Huzayfa al - Fazariylarni hamda ayollardan Umama bint al - Haris nomlarini keltiradi.

Ushbu arab adabiyotshunosi ham yetib kelgan qadim vasiyatlarning asl emasligi, barcha vasiyatlar ma'nosigina saqlanib qolgan degan fikrni bildiradi, biroq ba'zilarida, ayniqsa qisqa vasiyatlarda asliy iboralar ham saqlanib qolganini e'tirof etadi.

Vasiyat janrining boshqa millatlar adabiyotida ham mavjudligiga qiziqdik, vasiyatlar xususan qadim rus adabiyotida epistolyar janrlar orasida qayd etiladi, biroq u so'zlovchining o'limi oldidan oxirgi xohish-istaklarini izhor etish mazmunidagi poetik yozma nutqdir (Морковина.,2005:4).

Ibn Munqizga ko'ra, vasiyat ikki xil. Birinchi turdagi vasiyatnoma, ya'ni marhumdan tiriklarga qarz yoki huquq kabi dunyoviy masalani hal qilish uchun topshiriq va va'dani ifodalovchi vasiyatnoma. Ikkinchi turi esa, tadqiqotning mavzusi bo'lgan adabiy vasiyatnomadir. Bu mualliflarning tajribasi va ular mahoratining isboti, shuningdek, ular notiqligining namoyon bo'lishi hisoblanadi. Bunday

vasiyatlar “ ular nutqining sifatini va nafis ifodasi va uzoq muddatli ta’siriga e’tiborni ochib beradi, chunki vasiyat aytuvchilar notiqona so‘zlarni, mustahkam tuzilmalarni, mukammal uslublarni va go‘zal sifatlarni tanlaydilar. Bu tegishli shaxs tomonidan ma’lum bir vaqtda yaxshilikka undash va yomonlikdan qochish maqsadida berilgan maslahatdir (1986:13 ‘.الفخوري).

“Vasiyat sendan keyin qolgan insonga tajriba mevasi, hikmat, to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatish va yo‘naltirish uchun yo‘llangan narsadir. Nasihat ham shu kabi, ikkalasining ma’nosi yaqin yoki o‘xshash” (1983:26 ‘.الفريخ).

Va u arab adabiy nasrining bir turi bo‘lib, qay jihatlari bilandir hikmatga yaqin keladi. Zarurat paydo bo‘lganda boshliq yoki yo‘lboshchi o‘z qavmiga yoki ota ayriliq onlariga yaqinlashishini his qilganda o‘z farzandlariga yuzlanib aytadi, keyin darhol bu vasiyatlar ularni (farzandlar uchun) to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatuvchi dasturga aylanadi.

Vasiyatlar - aslan og‘zaki, nutqiy san’at. U mazmuni va g‘oyasi jihatidan mukammal bo‘ladigan pand-nasihatlar majmui, ba’zan arab mu’ammir (uzoq yashovchi) larining tushlaridan keyin yaqinlariga hayot haqidagi o‘z talqinlarini ulashish istagidan ham kelib chiqadi va shu sababli u xabar yetkazish vositasi. G‘oyaviylik jihatdan vasiyatlarda chuqur va tinch g‘oya aks etadi, hayot qiyinchiliklariga real voqelik nazari bilan qarash, jonli tajribadan ma’nolarni chiqarib olishdir.

Xitoba va vasiyat qiyosidan yana bir narsa aytish mumkin: Xitoba va vasiyat - tinglovchini to‘g‘ri yo‘lga yo‘naltirish, adashish (zalolat) va fasod (buzg‘unchilik)dan qaytarish tarafidan bir-biriga o‘xshaydi, ammo xuddi shunday tinglovchilar bo‘yicha farq ham qiladi. Ya’ni xitoba aytilganida, ko‘pincha, tinglovchilar jamoasi bo‘ladi, umum manfaatli bo‘lishi uchun. Ammo vasiyat ko‘p hollarda muayyan zamondagi muayyan insonga qarata aytiladiki, bunda vasiyat qiluvchining atrofida vasiyat aytish paytida jamoa bo‘lishiga ehtiyoj yo‘q, ba’zi insonlar hozir bo‘lishlariga ham moniylik yo‘q. Vasiyat boshqa zamondagi boshqa bir shaxs uchun ham foydali bo‘lishi mumkin, agar ularning dunyoqarashlari bir-biriga mos bo‘lsa.

Johiliya vasiyatlaridan birida qabila boshlig‘i donishmand Husn bin Huzayfa Badr al Fazoriyning banu Badrga vasiyatida johiliya vasiyatlari haqida yuqorida yozilgan barcha fikrlar tajassumini ko‘rish mumkin (1933 ‘.صفوت).

أوصي حصن بن حذيفة بن بدر الفزاري بني بدرٍ فقال:

اسمعوا مني ما أُوصيكم به‘ لا يتّكِل آخركم على أولكم‘ فإنما يُدرك الآخر ما أدركه الأول‘ و أَنكحوا الكُفءَ الغريبَ‘ فإنه عِزٌّ حادِثٌ‘ و إذا حضَرَكم الأمران فخذوا بخيرهما صدراً‘ فإن كلَّ مورِد مَغروفٌ‘ اصحبوا قومكم بأجمل أخلاقكم‘ و لا تخالفوا فيما اجتمعوا عليه‘ فإن الخلاف يُزري بالرئيس المُطاع‘ و إذا حادثْتم فأَربعوا‘ ثم قولوا الصدق‘ فإنه لا خيرَ في الكذب‘ و صونوا الخيل‘ فإنها حصون الرجال‘ و أطيلوا الرِماحَ فإنها قرون الخيلِ‘ و أَعِزّوا الكبير بالكبر‘ فإني بذلك كنت أغلِب الناس‘ و لا تَغْزوا إلا بالعيون‘ و لا

تسرحوا حتّى تأْمَنوا الصَباحَ، و أعطوا على حَسَب المال، و أَعْجِلوا الضيف بالقِرَى، فإن خيرَه أعْجلَه، و اتّقوا فَضِيحات البَغْي و فَلَتاتِ المِزاحِ، و لا تُجيروا على الملوك، فإنّ أيْديَهم أطول من أيْدِكم!

Sizlarga vasiyat qilayotgan narsamga quloq solinglar! Oxirgingiz birinchingizga ishonib qolmasin, negaki oxirgi (inson) ham birinchi erishganigagina erishadi (shu yo‘lni bosib o‘tadi).

Begona, (o‘zingizga) mos (lar bilan) nikohlaninglar, chunki yangi hodisa (qudalik) sharafdir.

Agar oldingizda ikki ish hozir bo‘lsa, ularning xayrlisini tanlang, chunki har bir manbada suv oluvchi bor.

Qavmingiz bilan eng go‘zal axloq ila yashanglar va ular yakdil bo‘lgan ishda xilof qilmanglar, zero ixtilof itoatkor rahbarni qadrsiz qiladi.

So‘zlashganda vazmin bo‘linglar, so‘ng rost so‘zni aytinglar, chunki yolg‘onda yaxshilik yo‘q.

Otlarni asranglar – ular mardlar qal’asidir. Nayzalarni uzun tutinglar – ular otlarning shoxidir.

Yoshi ulug‘ni yoshi sabab ulug‘langlar, men odamlar ustidan g‘olib bo‘lganim ham shu sababdandir.

Jangni faqat kuzatuvchilar bilan boshlanglar va tong xavfsizligini bilmaguncha qo‘shinni tarqatmanglar.

Berishni molingizga yarasha qilinglar, mehmonni taom bilan darhol izzatlanglar, zero mehmondo‘stlikning yaxshisi – tezkoridir.

Zulmning rasvoliklaridan va hazilning beixtiyor og‘ishlaridan ehtiyot bo‘linglar.

Podshohga qarshi chiqqanni himoya qilmanglar, chunki ularning qo‘li sizlarnikidan uzundir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ilk o‘rta asrlar arab nasrini, xususan, johiliya davri vasiyatlarini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, vasiyatni xitoba bilan aynan bir janr sifatida talqin qilish ilmiy jihatdan to‘liq asosga ega emas. Qadimgi arab adabiyotining har ikki janri ham notiqlik tabiatiga ega bo‘lsa-da, ularning muloqot asnosidagi shakliy namunalari, vazifasi va ichki strukturasi farqlanadi. Xitoba ko‘proq ommaviy tinglovchilar jamoasiga qaratilgan ijtimoiy-siyosiy nutq shakli bo‘lsa, vasiyat individual, ko‘pincha shaxsiy va tor qabilaviy muhitlarda yuzaga kelgan nasriy shakldir. Vasiyatlarda nutqning hissiy va chuqur tafakkur natijasi ekani, tajribaga tayangan hikmat va avlodlararo qadriyatlarni meros qilish vazifasi ustuvorlik kasb etadi.

Tadqiqot natijalari vasiyat janrining arablarning mental va genetik xususiyatlari bilan uzviy bog‘liqligini ko‘rsatadi. Qabila tuzumi, nasabni muqaddas bilish, ajdodlar tajribasini avlodlarga yetkazish an’anasi vasiyatni arab nasrining eng qadimiy

notiqlik janrlaridan biriga aylantirgan. U shunchaki nutq shakli emas, balki qadim arablarning ijtimoiy xotirasi va axloqiy kodekslarini zamonlar osha uzatish, tarixga muhrlash vositasi bo‘lgan.

Johiliya vasiyatlari struktur jihatdan ham tasniflanishi mumkin:

1. **Vasiyatchi va eshituvchi nuqtayi nazaridan** – ota-farzand, ona-qiz, qabila boshlig‘i-avlod, hukmdor-vorisi kabi shakllar;

2. **Mavzu jihatdan** – axloqiy, siyosiy, harbiy, oilaviy-maishiy, diniy-irodiy;

3. **Shakl va hajm jihatdan** – qisqa hikmatli vasiyatlar, keng qamrovli nasihatnomalar, o‘lim oldi so‘nggi so‘zlar.

Bu esa vasiyatni o‘z ichki kanonlariga ega ega mustaqil janr sifatida baholash imkonini beradi.

Tadqiqot shuningdek, johiliya davrida ayollar ham faol ravishda vasiyat aytganini ko‘rsatadi. Bu holat islomdan avval ayollarning oiladagi ijtimoiy-madaniy nufuzi yuqori bo‘lganini tasdiqlaydi. Ona tomonidan qizga berilgan vasiyatlar nafaqat oilaviy hayot kodeksi, balki ma’naviy-axloqiy me’yorlar tizimini aks ettiradi.

Xulosa sifatida yana “adab al-vasoya” janrining asosiy janr belgilari aynan johiliya davrida shakllanib ulgurganini ko‘rish mumkin. Keyingi islomiy davrda mazmunan diniy qatlam kuchaygan bo‘lsa-da, kompozitsion va stilistik asoslar avvaldan mavjud edi. Johiliya vasiyatlari poetik yuksakligi bilan ham ajralib turadi: saj’, parallelizm, takror, obrazli iboralar va qisqa, lekin mazmunan zich jumlalar bu janrning estetik mukammalligini namoyon qiladi.

Shuningdek, arab vasiyatlarining ildizi johiliyadan ham qadimgi og‘zaki an’analarga borib taqalishi ehtimoli katta. Og‘zaki madaniyat ustuvor bo‘lganligi sababli bu merosning katta qismi yozma shaklda saqlanib qolmagan. Demak, bizgacha yetib kelgan vasiyatlar bu qadimiy qatlamning faqat bir qismidir.

Umuman olganda, johiliya vasiyatlari arab nasrining shakllanish jarayonida markaziy o‘rin tutgan, mustaqil janr sifatida mukammal poetik va funksional tizimga ega bo‘lgan adabiy hodisadir.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqqan holda ilk o‘rta asrlarda arab notiqligining yorqin janri bo‘lmish vasiyatlar mavzusi bo‘yicha shunday takliflar berish mumkin:

1. Vasiyat janrini xitoba tarkibida emas, balki ilk arab nasrining mustaqil notiqlik janri sifatida qayta tasniflash zarur.

2. Johiliya vasiyatlarini alohida janr modeli sifatida struktur-semantik va pragmatik tahlil qilish bo‘yicha maxsus tadqiqotlar olib borish maqsadga muvofiq.

3. Vasiyatlarning to‘liq ilmiy-tanqidiy matnini tuzish, ularni manbashunoslik asosida qayta nashr etish va tematik katalogini yaratish dolzarb vazifa hisoblanadi.

4. Johiliya ayollari aytgan vasiyatlarni gender tadqiqotlari doirasida o‘rganish, ularning ijtimoiy-madaniy maqomini aniqlash lozim.

5. Arab vasiyatlarini boshqa qadimiy madaniyatlardagi vasiyat janrlari bilan qiyosiy o‘rganish janrning universal va milliy xususiyatlarini aniqlashga xizmat qiladi.

6. Og‘zaki an’ana va yozma shakl o‘rtasidagi o‘tish jarayonini o‘rganish orqali johiliyadan ham avval mavjud bo‘lgan qadimiy arab nasri haqida yangi ilmiy farazlar yaratish mumkin.

7. Vasiyat janrining poetik vositalarini maxsus stilistik tadqiq etish arab nasrining erta estetik mezonlarini aniqlashga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. قدامة بن خعفر بن قدامة‘ ابو الفرج البغدادي‘ نقد النثر‘ (1937)‘القاهرة
2. د.منّاع هاشم صالح‘ النثر في العصر الجاهلي‘ دار الفكر العربي‘ بيروت‘ 1993.‘ ط.1.
3. الفراهيدي،الخليل بن أحمد، مادة وصى
4. الزهري،أبومنصور،تهذيب اللغة، مادة وصى
5. إسماعيل بن حماد ألجواهري ،الصحاح تاج اللغة وصحاح العربية ،تحقيق ،احمد عبد الغفور عطار ،دار العلم للملاين ،بيروت ،لبنان ،ط، 1990ج .
6. الأمير أسامة بن منقذ ،لباب الأدب ،تح ’احمد محمد شاكر ،منشورات مكتبة السنة بالقاهرة ،ط2 1987
7. د. مصطفى أحمد أمين‘ مكتبة الأنجلو المصرية ‘(1990)‘أدب الوصايا في العصر العباسي إلى نهاية القرن الرابع.
8. حنا الفاخوري ،الجامع في تاريخ الأدب العربي ،دار الجيل بيروت ، ط ،1986 .
9. الفريح سهام‘ أدب الوصايا في العصر الجاهلي‘ مجلة البيان الكويتية‘1983‘رقم العدد 208.
10. صفوت‘ احمد زكي‘ جمهرة خطب العرب في العصور العربية الزاهرة‘ (1933)‘ المكتبة العلمية‘ القاهرة.
11. ألجاحظ‘ أبو عثمان عمرو بن بحر‘ البيان و التبين‘ (1968)‘ تحقيق عبد السلام هارون‘ مكتبة الجاحظ‘ بيروت.
12. إبن عبد ربه‘ أبو عمرو أحمد بن محمد الأندلسي‘ العقد الفريد‘ (1962)‘ تحقيق أحمد أمين‘ و أحمد الزين‘ و إبراهيم البياري‘ مطبعة لجنة التأليف و الترجمة و النشر‘ القاهرة.
13. الإصفهاني‘ إبو الفراج علي بن الحسين بن محمد‘ كتاب الاغاني‘(1963)‘ الهيئة المصرية العامة للكتاب‘القاهرة.
14. Аль-Фахури Ханна., (1959) История арабской литературы, Издательство Иностранной литературы, – Москва.
15. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти, Тошкент. – Б.443.(https://ziyouz.uz/durdona-toplamlar/uzbek-tilining-izohli-lugati/

REFERENCES:

1. Al-Fakhuri Khanna. (1959) Istoriya arabskoy literatury. – Moskva: Izdatel’stvo Inostrannoy literatury (In Russian).
2. Al-Farahidi, al-Khalil bin Ahmad. (–) Madat "vasa" (In Arabic).

3. Al-Jahiz, Abu Usman Amr bin Bahr. (1968) Al-Bayan wa al-Tabyin. Tahqiq: Abd al-Salam Harun. – Bayrut: Maktabat al-Jahiz (In Arabic).

4. Al-Isfahani, Abu al-Faraj Ali bin al-Husayn bin Muhammad. (1963) Kitab al-Aghani. – Al-Qahira: Al-Hay'a al-Misriyya al-Amma lil-Kitab (In Arabic).

5. Al-Jawhari, Ismail bin Hammad. (1990) Al-Sihah. Taj al-lugha wa sihah al-Arabiyya. Tahqiq: Ahmad Abd al-Ghafur Attar. – Bayrut, Lubnan: Dar al-Ilm lil-Malayin, J.6 (In Arabic).

6. Al-Mubarrad, Abu al-Abbas Muhammad bin Yazid. (1993) Kitab al-Ta'azi wa al-Marathi. – Bayrut, Lubnan: Dar al-Kutub al-Ilmiyya (In Arabic).

7. Al-Farikh, Siham. (1983) Adab al-wasaya fi al-asr al-jahili. Majallat al-Bayan al-Kuwaytiyya, raqam 208 (In Arabic).

8. Amin, Mustafa Ahmad. (1990) Adab al-wasaya fi al-asr al-Abbasi ila nihayat al-qarn al-rabi'. – Al-Qahira: Maktabat al-Anglo al-Misriyya (In Arabic).

9. Dayf, Shawqi. (1963) Tarikh al-adab al-Arabi / al-Asr al-Islami. – Misr: Dar al-Ma'arif (In Arabic).

10. Fakhuri, Hanna. (1986) Al-Jami' fi tarikh al-adab al-Arabi. – Bayrut: Dar al-Jil (In Arabic).

11. Farroukh, Umar. (1981) Tarikh al-adab al-Arabi. T.4, J.1. – Al-Qahira (In Arabic).

12. Hindawi, Husayn Ali. (–) Ashkal al-khitab al-nathri al-jahili (In Arabic). https://www.noor-book.com/...

13. Ibn Abd Rabbih, Abu Amr Ahmad bin Muhammad al-Andalusi. (1962) Al-Iqd al-Farid. Tahqiq: Ahmad Amin, Ahmad al-Zayn, Ibrahim al-Abyari. – Al-Qahira: Matba'at Lajnat al-Ta'lif wa al-Tarjama wa al-Nashr (In Arabic).

14. Safwat, Ahmad Zaki. (1933) Jamharat khutab al-Arab fi al-usur al-Arabiyya al-zahira. – Al-Qahira: Al-Maktaba al-Ilmiyya (In Arabic).

15. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti, Toshkent. – B.443 (In Uzbek). https://ziyouz.uz/durdona-toplamlar/uzbek-tilining-izohli-lugati/

ALISHER NAVOIY “SADDI ISKANDARIY” DOSTONI SO‘Z BOYLIGIDAGI IJTIMOIY-SIYOSIY ISTILOHLARNING MAVZUVIY GURUHLARI

THEMATIC GROUPS OF SOCIO-POLITICAL TERMINOLOGY IN ALISHER NAVOIY’S EPIC “SADDI ISKANDARIY”

ТЕМАТИЧЕСКИЕ ГРУППЫ СОЦИАЛЬНО-ПОЛИТИЧЕСКИХ ТЕРМИНОВ В ЛЕКСИКЕ ДАСТАНА АЛИШЕРА НАВОИ “САДДИ ИСКАНДАРИЙ”

https://zenodo.org/records/20666280

Egamova Shoxida Djalilovna
Oriental universiteti Uzluksiz ta’lim pedagogikasi kafedrasi dotsenti, f.f.n.
Tel.: +998 94-670-04-28
E-mail: egamovashohida2@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada ijtimoiy-siyosiy leksikaning o‘zbek adabiy tili lug‘at boyligidagi o‘rni hamda siyosiy tizimga daxldor xususiyatlari yoritiladi. Terminologiya tarixi qadimgi turkiy davrdan istiqlolga qadar davrlashtirilib, terminlar tizimining intralingvistik va ekstralingvistik omillar ta’sirida shakllanishi izohlanadi. Tadqiqot obyekti sifatida Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostoni tanlanib, undagi ijtimoiy-siyosiy terminlar funksional-semantik jihatdan tahlil qilinadi. Tahlil jarayonida birliklarning lug‘aviy ma’nosi, matndagi vazifasi, uslubiy bo‘yog‘i va paradigmatik munosabatlari aniqlanadi. Doston leksikasi mavzuviy guruhlarga tasniflanib, undagi hukmdor va voris nomlari, yuqori martabali mansablar, ma’muriy boshqaruv, diniy va insonni ulug‘lovchi terminlar hamda boshqaruv tartib-qoidalarini ifodalovchi istilohlar alohida semantik maydonlar sifatida tadqiq etiladi. Ushbu tahlillar Navoiy asarlari leksikasining boy va tizimli ekanligini ilmiy jihatdan asoslab beradi.

Kalit so‘zlar: *ijtimoiy, siyosiy, leksika, termin, istiloh, qadimgi turkiy til, eski turkiy til, eski o‘zbek adabiy tili, mansab, martaba, ma’muriy-hududiy boshqaruv, diniy boshqaruv.*

Abstract. The article explores the role of socio-political lexis within the vocabulary of the Uzbek literary language and its specific characteristics related to the political system. The history of terminology is categorized from the ancient Turkic period to the era of Independence, explaining the formation and enrichment of the terminological system under the influence of intralinguistic and extralinguistic factors. Alisher Navoi’s epic “Saddi Iskandariy” serves as the primary research object, where socio-political terms are analyzed through a functional-semantic approach. The

study identifies the lexical meanings, textual functions, stylistic nuances, and paradigmatic relations of these units. The epic's lexicon is classified into thematic groups, investigating titles of rulers and heirs, high-ranking officials, administrative governance, religious and honorary terms, and regulatory terminology as distinct semantic fields. These analyses scientifically substantiate the richness and systematic nature of the lexicon in Navoi's works.

Keywords: *social, political, lexis, term, terminology, Old Turkic language, Middle Turkic language, Old Uzbek literary language, position, rank, administrative-territorial governance, religious administration.*

Аннотация. В статье освещается роль социально-политической лексики в словарном составе узбекского литературного языка, а также её особенности, связанные с политической системой общества. На основе периодизации истории терминологии от древнетюркского периода до эпохи независимости разъясняется формирование и обогащение терминосистемы под влиянием интралингвистических (внутренние возможности языка) и экстралингвистических (социально-политические процессы, культурная среда, развитие науки и литературы) факторов. Основным объектом исследования является лексика дастана Алишера Навои «Садди Искандарий», в котором социально-политические термины анализируются на основе функционально-семантического подхода. В ходе исследования определяются не только лексические значения терминов, но и их функции в тексте, контекстуальное применение, стилистическая окраска и парадигматические отношения. Лексика дастана классифицируется по тематическим группам, где наименования правителей и наследников престола, высшие государственные чины, административно-территориальные названия, религиозные термины, а также термины, прославляющие человека и правила управления, исследуются как отдельные семантические поля. Данный анализ научно обосновывает богатство и системность лексики произведений Навои.

Ключевые слова: *общественная, политическая, лексика, термин, древнетюркский язык, старотюркский язык, староузбекский литературный язык, должность, звание, административно-территориальное управление, религиозное управление.*

KIRISH

Ijtimoiy-siyosiy leksika lug‘aviy boylikning jamiyat siyosiy hayoti yoki siyosiy tizimiga bevosita aloqador bo‘lgan hodisalar, jarayonlar va munosabatlarni ifodalovchi, ayni vaqtda, ijtimoiy-tarixiy, iqtisodiy, madaniy, diniy, ma’naviy-ma’rifiy omillar asosida shakllanuvchi va o‘zgaruvchan qatlamidir. O‘zbek adabiy tili leksikasi qonuniyatlari negizida shakllangan terminologik leksika tarixini qadimgi

turkiy til (VII-X) terminologiyasi, eski turkiy til (XI-XIV) terminologiyasi, eski o‘zbek adabiy tili (XV-XX asr boshi) terminologiyasi, sho‘rolar davri o‘zbek tili terminologiyasi va istiqlol davri o‘zbek terminologiyasi tarzida davrlashtirish salkam o‘n to‘rt asrlik vaqt mobaynida terminologik leksika tizimida intralingvistik va ekstralingvistik omillar negizida sodir bo‘lgan jarayonlarni anglab yetish imkonini beradi (Dadaboyev H., 2019:13). Eski o‘zbek adabiy tili terminologiyasining takomillashuvi hamda uning yanada yuqori bosqichga ko‘tarilishida tilning ichki qonuniyatlari bilan bir qatorda tashqi ta’sirlar, ya’ni ekstralingvistik omillar ham muhim rol o‘ynagan. Ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, madaniy muhit, ilm-fan va adabiyot taraqqiyoti terminologik tizimning shakllanishi va boyishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan. O‘zbek adabiy tilining asoschisi Alisher Navoiy hamda uning salaflari – Lutfiy, Atoiy, Sakkokiy, Yaqiniy, shuningdek, izdoshlari – Bobur, Muhammad Solih, Munis, Ogahiy kabi ijodkorlar tomonidan yaratilgan badiiy, tarixiy va ilmiy asarlarning leksik tarkibi tahlili shuni ko‘rsatadiki, bu davrda termin yaratishda tilning ichki imkoniyatlaridan keng va samarali foydalanilgan. So‘z yasashning an’anaviy usullari, ma’no ko‘chishi, semantik kengayish hamda mavjud leksik birliklarni ixtisoslashtirish orqali yangi terminlar hosil qilish sermahsul yo‘nalish bo‘lgan. Ayniqsa, Alisher Navoiyning ona tiliga millatning bosh ko‘zgusi sifatida munosabatda bo‘lish zarurligini qat’iy ta’kidlashi, ziyolilar, olimlar va ijodkorlar oldiga ona tilining nufuzini oshirish masalasini dolzarb vazifa sifatida qo‘yishi terminologik tizim rivojiga kuchli turtki bergan. Natijada o‘zbek tilining ichki resurslariga tayangan holda ilmiy, adabiy va ijtimoiy sohalarga oid terminlar tizimi boyib, izchil shakllangan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Tilshunoslik terminologiyasi doirasida ijtimoiy-siyosiy va harbiy leksika lingvostatistik, funksional-semantik hamda tarixiy-etimologik jihatdan bir qator olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Xususan, H.Dadaboyev, N.Husanov, Z.Xolmanova, B.Abdushukurov, Z.Isaqova, F.Usmanov, D.Abduvaliyeva, Sh.Xo‘janiyazova kabi tadqiqotchilar eski o‘zbek tili ijtimoiy-siyosiy leksikasi yo‘nalishida, M.Do‘stmurodov, A.Mavlonov, A.O‘razboyevlar esa harbiy terminologiya tahlili yuzasidan samarali izlanishlar olib borganlar.

Ma’lumki, qadimgi turkiy til, eski turkiy til hamda eski o‘zbek adabiy tili yodgorliklaridagi siyosiy-ma’muriy va ijtimoiy-iqtisodiy terminlar tizimi bo‘yicha eng salmoqli va mukammal ilmiy tadqiqot H.Dadaboyev tomonidan amalga oshirilgan (Дадабаев Х., Насыров И., Хусанов Н., 1990). Ushbu tadqiqot turkiy terminologiya tarixini o‘rganishda muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. So‘nggi yillarda Alisher Navoiy asarlari leksikasi hamda ularning lisoniy xususiyatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan bir qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirildi.

Jumladan, M. Tojiboyeva Alisher Navoiyning “Ilk devon”idagi arabcha so‘zlarni leksik-semantik jihatdan tahlil qilgan (Тожибоева М., 2001). D.Abduvaliyeva “Tarixi anbiyo va hukamo” hamda “Tarixi muluku ajam” asarlarining so‘z boyligini tarixiy-etimologik, funksional-semantik va semantik-stilistik nuqtayi nazardan tadqiq etgan (Абдувалиева Д., 2017). Sh. Xo‘janiyazova esa “Xamsat ul-mutahayyirin”, “Holoti Sayyid Hasan Ardasher” va “Holoti Pahlavon Muhammad” asarlari leksikasini o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy ish olib borgan (Хўжаниёзова Ш.., 2022). Shuningdek, X.Muxammadiyev Alisher Navoiy “Xamsa” dostonlaridagi maishiy leksika masalasini tadqiq qilgan (Мухаммадиев Х., 2022). N.Umarovaning ilmiy izlanishi Alisher Navoiy asarlarida faol lug‘aviy konseptlarning olamni lisoniy idrok etishdagi o‘rnini aniqlashga qaratilgan bo‘lib, unda eski o‘zbek tilidagi konsept va kategoriyalarning milliy-lisoniy manzaradagi tutgan o‘rni ochib berilgan (Умарова Н., 2021). A.Mavlonov esa “Saddi Iskandariy” dostonida qo‘llanilgan terminlarning tarkibiy-mazmuniy xususiyatlarini o‘rgangan (Mavlonov A., 2024). Mazkur tadqiqotda dostondagi terminlar ma’noviy-mavzuviy jihatdan tasnif etilib, ularning genetik manbalari hamda yasalish xususiyatlari aniqlangan. Z.Isoqova esa o‘z ilmiy izlanishlarida Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” tazkirasini XV asr ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotini aks ettiruvchi muhim lisoniy manba sifatida tadqiq etadi. Z.Isoqovaning yondashuvida asardagi ijtimoiy-siyosiy leksika shunchaki lug‘aviy birliklar yig‘indisi emas, balki Temuriylar davri davlatchilik tafakkuri va ijtimoiy tuzumining lisoniy in’ikosi sifatida baholanadi. Tadqiqotchi Navoiy tomonidan turkiy, arabiy va forsiy istilohlarning o‘zaro mutanosiblikda qo‘llanilishi, ularning semantik ko‘lami va uslubiy xususiyatlarini ochib berishga alohida e’tibor qaratgan (Исақова З., 2010).

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotning metodologik asosini tilshunoslikning tarixiy-qiyosiy, tavsifiy va semantik-stilistik tahlil metodlari tashkil etadi. Tadqiqot jarayonida Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonidagi ijtimoiy-siyosiy terminlarni aniqlash va ularni tizimlashtirishda leksikografik, qiyoslov, funksional-semantik yondashuvlardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Alisher Navoiy “Saddi Iskandariy” dostonining so‘z boyligini funksional-semantik nuqtayi nazardan tahlil etish jarayonida ijtimoiy-siyosiy terminlarning alohida qatlam sifatida shakllanganini kuzatish mumkin. Mazkur birliklar nafaqat asarning g‘oyaviy-badiiy mazmunini ochishda, balki davrning siyosiy tafakkuri, davlat boshqaruvi tizimi va ijtimoiy munosabatlarini aks ettirishda ham muhim lingvistik vosita vazifasini bajaradi.

Funksional-semantik yondashuv terminlarning faqat lug‘aviy ma’nosini emas, balki ularning matndagi vazifasi, kontekstual qo‘llanishi, uslubiy xususiyati va paradigmatik munosabatlarini ham o‘rganishni taqozo etadi. Shu nuqtayi nazardan, doston tarkibidagi ijtimoiy-siyosiy terminlarni mavzu doirasiga ko‘ra tasniflash ilmiy jihatdan asosli va maqsadga muvofiqdir. Bunday tasnif terminologik birliklarning semantik maydonini aniqlash, ularning o‘zaro bog‘liqligini ochish hamda siyosiy-leksik tizimning ichki strukturaviy xususiyatlarini belgilash imkonini beradi.

Taklif etilayotgan leksik-semantik guruhlash tamoyili asosida ijtimoiy-siyosiy istilohlar ularning semantik tabiatiga, qo‘llanish doirasiga hamda mazmuniy yo‘nalishiga ko‘ra tizimli ravishda tahlil etiladi. Bunday yondashuv doston tilining terminologik boyligini chuqurroq ochib berish, ijtimoiy-siyosiy leksikaning shakllanish manbalari va taraqqiyot bosqichlarini aniqlash, shuningdek, Alisher Navoiy ijodida qo‘llangan harbiy istilohlarning lingvistik, uslubiy va semantik xususiyatlarini har tomonlama yoritishga xizmat qiladi.

Doston leksikasidagi ijtimoiy-siyosiy istilohlarni tizimli va funksional-semantik jihatdan tadqiq etish maqsadida ularni quyidagi leksik-semantik guruhlarga ajratib tahlil qilishni maqsadga muvofiq deb bildik:

a) hukmdor va taxt vorisi nomlari: *pádšáh, jahándár, dargahnišin, valiahd, malik, šah, šahanšáh, valine’mat, sáhibqirán, dávar, salátin, taxtgir, farmándeh, šahriyár, gardunsarir, kišvarpanáh, masnadnišin, mulkgir, mulkdár, mulkrán, álampanáh, kišvarxudá, marzbán* kabi. Masalan:

Valiyahd ولی عهد ***a****.“Toju taxt merosxo‘ri, podshoh o‘rinbosari (podshoh o‘lgandan keyin o‘rniga o‘tiruvchi)”* (НАЛ,144):

Manučehr boldi ***valiyahd*** *anga,*

Ki, masnad edi bu kuhan mahd anga. (SI, 61)

Pádšáh [*f.* پادشاه - qad.f. پاد*hukmdor*+شاه – *ulug‘, buyuk*”**]** *“mutlaq hokimlik qiluvchi hukmron unvoni va shunday unvonga ega shaxs, shoh”* (O‘TIL, III, 282):

Jahán mulkida mustaqil ***pádšáh,***

Anga tápšurub šáhlar táju káh (SI, 111).

Jahándár جهاندار *f. “Jahonni egallovchi, jahonni idora etuvchi zo‘r shoh*” (НАЛ, 223):

Ozin faqr birla ***jahándár*** *etar,*

Jahándárlïqdïn vale ár etar (SI, 81).

Dargahnišin درگه نشن***f.*** “*Podshoh, qasrda o‘tiruvchi”* (НАЛ,179):

Atáridki, mavláyi ***dargahnišin,***

Qačán xáma yonsa bolub rezačin (SI, 33).

Malik ملک ***a.*** *“Podshoh, hukmron”* (НАЛ, 356):

Qilib sanga farzanddek páybus,

Deyinkim, tirildi ***malik*** *Faylaqus* (SI, 291).

Šah شه***f.*** *“Shoh, podshoh”* (НАЛ, 693):

Čiqárda bu feruzagun mahddin,

Emas ***šáh*** *fáriy valiyahddïn.* (SI, 335)

Šahanšáh شهنشاه***f.*** *“Buyuk podshoh, shohlar shohi”* (НАЛ, 693):

Yana yer opub qásidi rahxirám,

Dedi: “Key ***šahanšáhi*** *áliymaqám* (SI, 113).

Valine’mat ولی نعمت***a.*** *“Ne’mat egasi, boquvchi, tarbiyachi; podshoh”* (НАЛ, 145):

Xudáu rasul amri tápqač kamál,

Valine’mat *amriya qil ištiyál* (SI, 472).

Sáhibqirán صاحب قران ***a.*** *“Baxtiyor, baxtga erishgan; jahongir; zo‘r podshohlarga berilgan laqab, jahongir”* (НАЛ, 572):

Yana ulki ***sáhibqirán*** *ham erur,*

Juvándavlatu pahlaván ham erur (SI, 287).

Dávar داور ***f.*** *“Hukmdor, podshoh”* (НАЛ, 195):

Qayu šáhkim, dávari taxtgir,

Ne ***dávar****, šahanšáhi gardunsarir* (SI, 52).

Taxtgir تخت گیر ***f.*** *“Kuchli podshoh, mustaqil podshoh; taxt oluvchi”* (НАЛ, 602):

Xiroj álmáq andin emas dilpazir,

Ki ham tojbaxsh olsa, ham ***taxtgir*** (SI, 113).

Salátin سلاطین ***a****. “Sultonlar, podshohlar”* (НАЛ, 543):

Aning ummatïdïn ***salátinda*** *ham,*

Biráv keldi šáh, ozga bári xidam (SI, 52).

Farmondeh فرمان ده ***f.*** *“Farmon beruvchi, hukmdor”* (НАЛ, 633):

Yana sordi ***farmondehi*** *rozgár:*

Ki: “Ey, dániš ahliya ámuzgár (SI, 332).

Šahriyár شهریار***f.*** *“Buyuk podshoh”* (НАЛ, 694):

Tugatgač sozin dedi: “Ey ***šahriyár,***

Ki, bolsun sanga dáyimá baxt yár! (SI, 288)

Gardunsarir گردون سریر ***f.-a.*** *“Qudratli podshoh”* (НАЛ, 158):

Aningdekki dárái ***gardunsarir****,*

Aduv ilgiga boldi záru asir (SI, 164).

Kišvarpanáh کشورپناه ***f.*** *“Mamlakat homiysi, podshoh”* (НАЛ, 314):

Bu kišvarn čun qildi árámgáh,

Ki, yári edi anda ***kišvarpanáh*** (SI, 216).

Masnadnišin مسند نشین***a.-f.*** *“Yuqori o‘ringa o‘tiruvchi, taxtga o‘tiruvchi”* (НАЛ, 369):

Qilib Haq ani sayyidal-mursalin,
Risálat uza boldi ***masnadnišin*** (SI, 58).

Mulkgir ملک گیر ***a.-f.*** *“Mulk oluvchi zo‘r podshoh”* (НАЛ, 411):

Anga mulk agar bolsa farmánpazir,
Manga zár erur yuz tuman ***mulkgir*** (SI, 348).

Mulkdár ملکدار ***a.-f.*** “Podshoh” (НАЛ, 411):

Ani mulk etib Haq, meni ***mulkdár,***
Manga bárča išga berib iqtidár (SI, 402).

Mulkrán ملکرن ***a.-f*** .*“Podshoh, ega”* (НАЛ, 411):

Iskandarnïŋ Dárá mamálikiga ***mulkrán*** *bolub…* (SI, 167)

Álampanáh عالم پناه***a.-f.*** *“Olamning (olamdagi kishilar va mamlakatlarning) panohi, olam kishilari sig‘inadigan yeri (podshoh)”* (НАЛ, 482):

*Ming uč yuz yil on tort á****lampanáh,***
Ki, bor erdilar álam ahliγa šáh (SI, 170).

Kišvarxudá کشور خدا ***f.*** *“Mamlakat egasi, podshoh”*(НАЛ, 314):

Base maks etib, šáhi ***kišvarxudá,***
Dedi: “Qil hadisingni emdi adá!” (SI, 274).

Marzbánمرزبان ***a.-f.*** *“Podshoh, hukmron”* (НАЛ, 365):

Nasib etti aylab seni ***marzbán,***
Sináni qalam birla tiγi zabán (SI, 323).

b) yuqori martabaga ega mansabni bildiruvchi istilohlar: *vazir, sudur, dastur, ganjur, deván* kabi.

Vazir وزر ***a.*** “*Vazir”* (АНАТИЛ, I, 351):

Rafiqiγa keldi bu iš dilpazir,
Ináyat qilib, etti áni ***vazir*** (SI, 221).

Dastur دستور ***f.*** *“Vazir, vazirlik amali”*(НАЛ, 184):

Naqumohis állinda ***dastur*** *edi,*
Ki hikmatqa álamda mašhur edi (SI, 71).

Ganjur گنجور***f.*** “*Xazinachi, xazinalarni saqlovchi”*(НАЛ, 156):

Alar ul xazáyinγa ***ganjur*** *olub,*
Alarning nigahbáni bu mor olub” (SI, 355).

Sudur صدور ***a.*** “*Diniy marosimlarni tekshiruvchi katta mansabdor”* (НАЛ, 573):

Yana hukmi áliyya boldi ***sudur****,*
Ki: “Bersun bilik ahli majlisqa nur” (SI, 254).

Deván ديوان***f.*** *“Davlat kirim-chiqim ishlari (daftarxonasi)ning boshlig‘i (vazir)”* (НАЛ, 188):

Itáat qilib sháh farmánig‘a,
Tashirlar edi sháh ***devánig‘a*** (SI, 171).

c) ma’muriy-hududuy boshqaruvga oid istilohlar: *xaláyiq, viláyat, marzubum, kišvar, bilod, vádiy, deván, davlat, šahr, koy, raiyat, ulus, avám, el, xalq, vazárat* kabi.

Xaláyiq خلايق***a.*** *“Odamlar, xalq, el”* (АНАТИЛ, III, 375):

Xaláyiqqa *kop yetkurub intifá’,*
γarib amr kop ayladi ixtirá’ (SI, 61).

Viláyat ولايت***a.*** *“Viloyat (bir mamlakatning kata bir bo‘lagi)”*(НАЛ, 148):

*… Kašmirdin yel bila átni o‘γurlayoni va ul****viláyatni*** *bir oluk jismdekki, nafasi munqati’ va γariziy harárati muntafi bolmiš bolγay qilγáni…*(SI, 223)

Marzubum مرزبوم***a.-f.*** *“Mamlakat, territoriya”* (НАЛ, 365):

Ču fath oldi álamdayi ***marzubum,***
Ko‘ngul jam’ etib ayladi azmi Rum (SI, 105).

Kišvar كشور ***f.*** *“Mamlakat, viloyat”* (НАЛ, 314):

Bu qánun bila bolsa áyin anga,
Tápib ***kišvaru*** *mulk tazyin anga* (SI, 160).

Bilod بلاد ***a. “****Shaharlar, mamlakatlar”*(НАЛ, 118):

Bárur yolnïŋ atráfida har ***bilád,***
Ki, bir šáh edi anda áliy nihád (SI, 103).

Vodiy وادى ***a.*** *“Vodiy”* (НАЛ, 149):

Ču kop sáldi fikrat ará hayrati,
Bu ***vádiy*** *sári čekti báš fikrati* (SI, 335).

Deván ديوان***f.*** *“Davlatning kirim-chiqimlari yoziladigan daftar” va shu ishlar olib boriladigan mahkama”* (НАЛ, 188):

Magar šáh ***devániγa*** *ketmamiš,*
Yetar maxzan ičra magar etmamiš (SI, 111).

Davlat دولت***a.*** *“Davlat, saltanat”* (АНАТИЛ, I, 436):

Kerak dastgir olsa ***davlat*** *iši,*
Yoq ersa netar kop cherikni kiši? (SI, 342)

Shahr شهر - “shahar” (АНАТИЛ, 517):

Alar yánida Mávarannahr eli,
Iki rud arásida on ***shahr*** *eli* (SI, 140).

Koy كوى- *f. “Qishloq, mahalla”* (НАЛ, 325):

Gulu sabza ayyámida boldi toy,
Bolub gulšan áyin bila šahru ***koy*** (SI, 342).

Raiyat رعیت a. *“Bir hukmdorning qo‘l ostidagi xalq, tobe’ xalq”* (НАЛ, 520):

Berib zulmgustarga farsudalïq,

Raiyat*qa yetkursun ásudalïq”* (SI, 88).

Ulus اولوس *“El, xalq”* (НАЛ, 624):

*Tápar*γ*a ináyat bila parvariš,*

Ulus *qilma*γ*ay jurmdin o‘zga iš* (SI, 11).

Avám عوام a. *“Umum, omma, olamon; xalq; oddiy kishilar”* (НАЛ,27):

Avám *álli*γ*a iltijá aylabán,*

Yiráqtin čekib un, duá aylabán (SI,212).

El ایل *“Xalq, odamlar”* (НАЛ, 707):

Qilib hukmkim, ***el*** *qilib iztiráb,*

Kišidin tama’ qilmasun rišta táb (SI, 212).

Xalq خلق ***a.*** *“Odamlar, xalq”* (НАЛ, 647):

Karam birla ***xalq*** *aylagay álame,*

Bu álamda maqsud anga ádame (SI, 7).

Vazárat وزارت ***a.*** *“Vazirlik”* (НАЛ,144):

Vazáratdin *olmoq rafáhiyati,*

*Bu dá*γ*i edi sayr xásiyati* (SI, 217).

d) mansab-martaba bildiruvchi istilohlar: *rutba, ják, mulázim, ašráf, farmándeh, ulyá, anjumansáz, amárat maáb, navváb, pešvá* kabi.

Rutba رتبه ***a.*** *“Martaba, daraja”* (НАЛ, 532):

Ču berding anga ***rutba*** *mundáq baland,*

Qilib konglini sevmaging arjumand (SI, 7).

Ják جاه ***f.*** *“Mansab, yuqori darajali o‘rin, amal, martaba”* (НАЛ, 233)

Va yá mulku ***jákiya*** *qilmáq nazar,*

Aning kongliga mutlaq etmay guzar (SI, 109).

Ašráf اشراف ***a.*** *“Sharof va e’tibor egalari, oliy tabaqa”*(НАЛ, 69):

Munádi qilib bárča atráfqa,

Xabar aytib arzálu ***ašráfqa*** (SI, 442).

Farmándeh فرمان ده ***f.*** *“Farmon beruvchi, hukmdor”* (НАЛ, 633):

Ešittimki, ***farmándehi*** *bár emiš,*

Hadisida bu sozga takrár emiš (SI, 419).

Ulyá علیا ***a.*** *“Eng oliy, eng yuksak, a’lo;* ***mahdi ulyo*** *–podshohning katta xotiniga berilgan unvon”* (НАЛ, 623):

Hamul Ravšanak ***mahdi ulyá*** *bolub,*

Šabistánida majlisárá bolub (SI, 344).

Anjumansáz انجمن ساز ***a.-f.*** *“Majlis quruvchi, kengash bilan ish qiluvchi”* (НАЛ, 52):

Bárin házir etti tuzub anjuman,

Dedi ***anjumansázi*** *lashkaršikan* (SI, 200).

Amárat maáb امارت ماب***a.*** *“Amirlik mansabidagi (amirning unvoni)”* (НАЛ, 46):

Alarkim, erurlar ***amáratmaáb,***

Qilurlar nayábat učun iztiráb (SI, 122).

Navváb نواب ***a.*** *“Noib, o‘rinbosar”* (НАЛ, 444):

Sipahdáru ***navvábu*** *hájib anga,*

Ki, devándin ermiš mavájib anga (SI, 172).

Pešvá پیشوا ***f.*** *“Yo‘lboshchi, rahbar”* (НАЛ, 506):

Kim andáqki yetti sozungdin navá,

Bu sayr ičra sen bolyasen ***pešvá*** (SI, 415).

e) diniy boshqaruv insonni ulug‘lovchi istilohlar: *akábir, pir, maxdum, hazrat, mavláná, avliyá, mašáyix, šayx, mursalin, mobad, valiy* va h.k.

Akábir اکابر ***a.****“Eng ulug‘lar, eng kattalar”* (НАЛ, 38):

Akábirki *– mulk ičra mavjud edi,*

Kim, ul xayl mulk ičra maqsud edi (SI, 253).

Pir پیر ***f.*** *“Biror dinniy-ruhoniy guruhning boshlig‘i; rahbari; boshlig‘i;eshon, shayh; so‘fiylar boshlig‘i”* (НАЛ,508):

Qolum tutti ***pir*** *ixtiyári bila,*

Korušturdi hamráhu yári bila (SI, 484).

Maxdum مخدم*a. “xizmat etilgan kishi, ulug‘ zot, martabali kishi”* (НАЛ, 374)

Ču ***Maxdum*** *tápti duo sári yol,*

Yana áčtilar bárča áming‘a qol (SI, 490).

Hazrat حضرت *a.* “janob, hurmatli” (НАЛ, 761)

Erur ***hazrat****i Šayx, ágáh bol!*

Niyáz aylabán xáki dargáh bol (SI, 484).

Mavláná مولانا***a.*** *“olimlar yoki so‘fiylarning nomidan ilgari aytiladigan laqab, unvon”* (НАЛ, 345):

...ya’ni hazrati maxdumiy ***mavláná*** *Nuriddin Abdurahmán Jomiy...* (SI, 36)

Avliyá اولیا ***a.*** *“valilar, e’tiqodli, dindor kishilar, muqaddas, aziz odamlar; ruhoniylar”* (НАЛ, 27):

Xoh ***avliyá*** *guruhi, xoh sáyiri nás jamáati aláqadri marátibihim har biri o‘z yerida murattabdur…* (SI,163)

Mašáyixمشایخ ***a.*** *“shayhlar”*(НАЛ, 376):

Qilib šáh izhári šarmandalïq,

Mašáyix*qa aylab sarafkandalïq* (SI, 256)

Shayx شیخ*a. “So‘fiylar boshlig‘i; eshon”*(НАЛ, 688):

*Manga **Šayx** birla korušmak hamán,*
Mubárak ayáyiÿa tušmak hamán (SI, 493)

***Mursalin** مرسلين **a.** "Elchilar, payg'ambarlar"*(НАЛ, 418):

*Qilib Haq ani sayyidal-**mursalin,***
Risálat uza boldi masnadnishin (SI, 58)

***Mobad** موبد **f.** "Otashparast din boshlig'i; donishmand, hokim, dono"* (НАЛ, 442):

*Bu yangliy dedi **mobadi** nuktasanj,*
Ki, tarix ilmig'a kop čekti ranj (SI, 102)

***Valiy** ولى **a.** "Ega, sohib; avliyo, aziz"* (НАЛ, 144):

Biri Ardašer ibni Bábak edi
*Ki, ba'zi el áni **valiy** ham dedi* (SI, 65)

f) ma'muriy boshqaruv tartibini bidiruvchi istilohlar: *amr, hukm, qonun, mašvarat, zábita, ahkám, dastur (buyruq, farmoyish, ijozat, ruhsat), yárliq (amr, farmán), anjuman, farmán, majlis* va h.k.

***Amr** عمر **a.** "Buyuruq"* (НАЛ, 46):

Anga sen xazáyin ešigin áčib,
*Ču sáčmáqqa **amr** aylabán, ul sáčib* (SI, 8)

***Hukm** حكم* a. *"Hukm, buyruq, farmon"* (АНАТИЛ, IV, 199):

*Yana mulk uza qildi Garšášsp **hukm,***
Nechukkim, qilib erdi Luhrásb hukm (SI, 61)

***Qonun** قانون - "tartib, qoida, ko'rsatma; usul, rasm, nizom"* (АНАТИЛ, IV, 65):

*Bu **qonundin** ar bo'lsa ish muxtalif,*
Adolat tariqi bo'lur munharif (SI, 285)

***Mašvarat** مشورت **a.** "Kengash, maslahat"* (НАЛ, 376):

*Šah ar **mašvaratda** sitamkáradur,*
Sitam čekmay ul išta ne čáradur? (SI,403)

***Zabita** ضابطه **a.** "Qoida, tartib, dastur"* (НАЛ, 254):

***Zábitai** rusumi šáhiydakim, kárxánai Iláhiydin namudárdurur…* (SI,159)

***Ahkám** احكام **a.** "Hukmlar, Qonunlar, farmonlar, buyruqlar"* (НАЛ, 74):

Qilib hukmlar anjum arqámida,
*Raqamlar qoyub erdi **ahkámida*** (SI, 72)

***Dastur** دستور **f.** "Ko'rgazma, yo'sin, qo'llanma, namuna, qoida; tartib, odat"* (NAL, 184):

*Bu **dastur** ila ibtidá qildilar,*
Tugagunča bir-bir adá qildilar (SI, 187)

***Yárliq**يارليق "amr, farmon"* (НАЛ, 211):

*Ne tort asldin kongliga **yárliq,***
Ne álti tarafdin xabardárlïq (SI, 20)

Anjuman انجمن ***a.*** *“Yig‘ilish, majlis, bazm”* (НАЛ, 51):

*Ču Bahman sipáhi tuzub **anjuman,***
Yer Isfandiyárin qilib Royintan (SI, 192)

Amr امر ***a.*** *“Buyruq, hukm, farmon, farmoyish”* (АНАТИЛ, I, 88):

Anga sen xazáyin ešigin áčib,
*Ču sáčmáqqa **amr** aylabán, ul sáčib* (SI, 8)

Farmán فرمان ***a.*** *“Buyuruq, hukm”* (АНАТИЛ, III, 325):

*Yoq ulkim bolub amru **farmán** bila,*
Ki, umruŋγa aylab duá ján bila (SI, 58)

Majlis مجلس***a***. *“Majlis, yig‘in, bazm”* (АНАТИЛ, II, 199):

Yana hukmi áliyγa bo‘ldi sudur,
*Ki: “Bersün bilik ahli **majlis**qa nur”* (SI, 259)

Tadqiqot davomida shu narsa ayonlashdiki, doston matnida hukmdor va taxt vorisi nomlariga oid پادشاه *“pádšáh”,* شه *“šah”,* شهنشاه *“šahanšáh”,* جهاندار *“jahándár”,* ولی عهد *“valiahd”,* داور *“dávar”,* تخت گی *“taxtgir”,* سلاطین *“salátin”,* فرمان *“farmándeh”,* شهریار *“šahriyár”,* درگه نشن *“dargahnišin”,* ملک *“malik”,* ولی نعمت *“valine’mat”,* صاحب قران *“sáhibqirán”,* گردون سریر *“gardunsarir”,* کشورپناه *“kišvarpanáh”,* مسند نشین *“masnadnišin”,* ملک گیر *“mulkgir”,* ملکدار *“mulkdár”,* ملکرن *“mulkrán”,* عالم پناه *“álampanáh”,* کشور خدا *“kišvarxudá”,* مرزبان *“marzbán”* kabi bir qator istilohlar eng faol qatlam sifatida namoyon bo‘lib, ular ko‘pincha rasmiy-huquqiy mazmun (mamlakatning mutlaq hukmdori, siyosiy qonuniylik, taxt vorisligi) hamda baholovchi-ekspressiv sema *(ulug‘lash, qudrat, saltanat shukuhi)*ni bir paytda ifodalagan. Bu holat *“pádšáh”* leksikasi va unga yaqin sinonimik qatorlarning keng qamrovli qo‘llanishi orqali ham tasdiqlangan.

Yuqori martabali mansablar hamda ma’muriy-boshqaruv tizimiga taalluqli: وزر *“vazir”,* دستور *“dastur”,* دیوان *“deván”,* صدور *“sudur”,* گنجور *“ganjur”,* مرزبان *“marzbán”* kabi istilohlar davlat boshqaruv organlarining o‘zaro bog‘liqligini ifodalab, dostonning siyosiy-ijtimoiy mazmunini ochib bergan. Ushbu birliklar matnda boshqaruv qarorlarining yuqoridan pastga yo‘naltirilgan holda amalga oshirilishini anglatgan, mansablar, davlat boshqaruvi yoki ijtimoiy tizim doirasida shakllangan lavozim va martabalarning vakolat hajmi hamda vazifaviy mavqeiga ko‘ra pog‘onali tartibda joylashuvi, boshqaruv tizimi va ma’muriy boshqaruv usullarini ifodalagan.

Ma’muriy-hududiy boshqaruv va jamiyat qatlamlariga oid: ولایت *“viláyat”,* کشور *“kišvar”,* بلاد *“bilod”,* شهر *“šahr”,* کوی *“ko‘y”,* مرزبوم *“marzubum”,* دولت *“davlat”,* وادی *“xalq”,* خلق *“el”,* ایل *“avám”,* عوام *“ulus”,* اولوس *“xaláyiq”,* خلایق *“raiyat”,* رعیت

“vádiy”, ديوان *“deván”,* وزارت *“vazárat”* kabi istilohlar dostonning ijtimoiy makonini belgilaydi, “*davlat-hudud-xalq”* uchlik doirasida ijtimoiy munosabatlarning ko‘rinishini ifodalaydi. Ayniqsa, رعيت *“raiyat”,* عوام *“avom”* hamda خلق *“xalq”* kabi leksik birliklar vositasida xalq ommasi obrazi voqelikni mukammal va uyg‘un tarzda aks ettirish talqinida gavdalanadi. Ushbu birliklar semantik maydonda faollashib, nafaqat ijtimoiy qatlam nomini bildiradi, balki adolat, mas’uliyat, hokimiyat va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni ifodalovchi g‘oyaviy yukni ham o‘zida mujassam etadi. Natijada mazkur so‘zlar matnda oddiy nominativ birlik sifatida emas, balki muayyan ijtimoiy-axloqiy tushunchani tashuvchi semantik markaz sifatida namoyon bo‘ladi.

Bundan tashqari, diniy boshqaruv va insonni ulug‘lovchi: پير *“pir”,* مخدم *“maxdum”,* اوليا *“avliy”,* مشايخ *“mašáyix”,* مولانا *“mavláná”,* خضرت *“hazrat”,* شيخ *“shayx”* kabi istilohlar dostonning ma’naviy-axloqiy yo‘nalishini kuchaytirib, siyosiy hokimiyatning ma’naviy ko‘rinishi *(adolat, komillik, ilohiy tartib)* g‘oyasini matnda mustahkamlaydi. Bu qatlam badiiy nutqda axloqiy me’yor va ruhiy yetakchilik tushunchalarini ifodalovchi semantik maydonni hosil qiladi.

Quyidagi ma’muriy boshqaruv tartib-qoidalarini ifodalovchi: فرمان *“farmán”,* امر *“amr”,* حكم *“hukm”,* يارليق *“yárliq”,* قانون *“qonun”,* مشورت *“mašvarat”,* ضابطه *“zabita”,* انجمن *“anjuman”,* مجلس *“majlis”,* احكام *“ahkám”* kabi istilohlar doston matnida davlat boshqaruvi tamoyillarining til birliklari orqali namoyonini ko‘rsatgan. Bu birliklar *“buyruq-qonun-maslahat”* zanjiri orqali siyosiy qaror qabul qilish jarayonining tilshunoslikdagi aksini berib, Navoiyning davlatchilik g‘oyalarini badiiy shaklda ifodalashiga xizmat qilgan.

Umuman, doston terminologik leksikasi tarkibida fors-tojik va arab manbali istilohlarning yuqori ulushi kuzatiladi; bu holat XV asr madaniy-ilmiy muhiti, saroy-adabiy an’analar hamda rasmiy-yozma uslub me’yorlari bilan izohlanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonidagi ijtimoiy-siyosiy leksikani funksional-semantik yondashuv asosida tadqiq etish natijasida quyidagi ilmiy xulosalarga kelindi:

Terminologik tizimning yaxlitligi: Tadqiqot natijalari doston leksik qatlamida ijtimoiy-siyosiy va harbiy istilohlar alohida, izchil va mantiqiy tugal tizim sifatida shakllanganini tasdiqladi. Mazkur qatlam asarning shunchaki badiiy-estetik unsuri bo‘lmasdan, XV asr davlatchilik tafakkuri hamda siyosiy boshqaruv madaniyatini aks ettiruvchi tayanch lisoniy vosita hisoblanadi.

Davlat boshqaruvining lisoniy ifodasi: Dostondagi ijtimoiy-siyosiy istilohlar Alisher Navoiyning adolatli hukmdor, ideal davlat tuzilishi va harbiy mahorat haqidagi falsafiy-siyosiy qarashlarini badiiy matnda tizimli ifodalashga xizmat qilgan.

Bu qatlam davr terminologiyasining naqadar yuksak taraqqiyot bosqichida bo‘lganini namoyon etadi.

Leksik-semantik qamrovliligi: Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, doston leksikasida o‘zlashma (arabiy va forsiy) istilohlar salmoqli o‘rin egallasa-da, Navoiy ularni turkiy til tabiatiga va milliy davlatchilik an’analariga to‘liq moslashtira olgan. Bu esa mutafakkirning so‘z qo‘llash mahoratidan dalolat beradi.

Kelgusida “Saddi Iskandariy” dostonidagi ijtimoiy-siyosiy terminlarni boshqa “Xamsa” dostonlari leksikasi bilan qiyosiy-tarixiy jihatdan o‘rganish Navoiy terminologik mahoratining taraqqiyot bosqichlarini aniqlash imkonini beradi.

Ushbu terminlarning matndagi uslubiy vazifalarini lingvopoetik nuqtayi nazardan chuqur tadqiq etish, eski o‘zbek tili lug‘at boyligini zamonaviy terminologiya bilan boyitishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

SHARTLI QISQARTMALAR

1. АНАТИЛ - Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. I-IV. - Тошкент., 1983-1985.

2. НАЛ – Навоий асарлари луғати. Порсо Шамсиев таҳрири остида. – Тошкент: “Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти”.1973. –782 б.

3. SI – “Saddi Iskandariy”. Alisher Navoiy.Nashrga tayyorlovchi va mas’ul muharrir V.Rahmonov. – Toshkent: “G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi”, 2020. -640 b.

4. O ‘TIL - O ‘zbek tilining izohli lug‘ati. T.1-VI. -T., 2023.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Абдувалиева Д. (2017) Алишер Навоий асарларида кийим-кечак номларининг лексик-семантик тадқиқи: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) ... дисс. – Тошкент. – 159 б.

2. Бафоев Б. Навоий асарлари лексикаси. – Тошкент: Фан, 1983. – 157 б.

3. Дадабаев Х. (1990) Военная лексика в староузбекском языке. – Ташкент: Фан. – 156 с.

4. Дадабаев Х., Насыров И., Хусанов Н. (1990) Проблемы лексики староузбекского языка. – Тошкент: Фан– 213 с.

5. Дадабоев Ҳ. (1996) Амир Темурнинг ҳарбий маҳорати. – Тошкент: Ёзувчи. – 319 б.

6. Dadaboyev H. (2019) O‘zbek terminologiyasi. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi. – 117 b.

7. Dadaboyev H. (2024) Tarixiy harbiy terminlar lug‘ati. – Toshkent: Muharrir. – 341 b.

8. Do‘stmurodov M. (2023) O‘xun-Yenisey bitigtoshlaridagi harbiy terminlar tadqiqi: Filol. fan. bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ... diss. – Toshkent. – 149 b.

9. Ижтимоий-сиёсий терминлар луғати / О. Усмон таҳрири остида. – Тошкент: Фан, 1976. – 350 б.

10. Исақова З. (2010) Алишер Навоийнинг “Мажолис ун-нафоис” асаридаги ижтимоий-сиёсий лексика: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент. – 26 б.

11. Mavlonov A. (2024) Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonida qo‘llanilgan terminlarning tarkibiy-mazmuniy tahlili: Filol. fan. bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ... diss. avtoref. – Toshkent. – 49 b.

12. Мухаммадиев Х. (2022) Алишер Навоий “Хамса” достонларидаги маиший лексика: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. – Жиззах. – 165 б.

13. O‘razboyev A. (2024) Ogahiy tarixiy asarlarida harbiy amaliyot va qismlar nomlari // Jahon harb ishi va harb san’ati rivojida ajdodlar o‘rni: adabiy va tarixiy manbalar misolida: ilmiy-amaliy yig‘in materiallari.-Toshkent.-146 b.

14. Тожибоева М. (2001) Алишер Навоийнинг “Илк девон”идаги арабча сўзларнинг лексик семантик талқини: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент. – 51 б.

15. Умарова Н. (2021) Алишер Навоий асарларининг лисоний-концептуал тадқиқи: Филол. фан. доктори (DSc) дисс. автореферати. – Фарғона.– 72 б.

16. Ўразбоев А.Д. (2009) Огаҳийнинг «Риёз уд-давла» асарида ижтимоий-сиёсий лексика: Филол. фан. номзоди ... автореф. – Тошкент. – 25 б.

17. Холмонова З. (2007) “Бобурнома” лексикаси. – Тошкент: Фан. – 180 б.

18. Хўжаниёзова Ш. (2022) Алишер Навоий маноқиб асарлари лексикаси: Филол. фан. бўйicha фалсафа доктори (PhD) ... дисс. автореф. – Тошкент. – 54 б.

REFERENCES:

1. Abdurahmonova D. (2017) Alisher Navoiy asarlarida kiyim-kechak nomlarining leksik-semantik tadqiqi: Filol. fan. bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ... diss. – Toshkent. – 159 b. (In Uzbek).

2. Bafoyev B. (1983) Navoiy asarlari leksikasi. – Toshkent: Fan. – 157 b. (In Uzbek).

3. Dadaboyev H. (1990) Voennaya leksika v starouzbekskom yazyke. – Tashkent: Fan. – 156 s. (In Russian).

4. Dadaboyev H. (1996) Amir Temurning harbiy mahorati. – Toshkent: Yozuvchi. – 319 b. (In Uzbek).

5. Dadaboyev H. (2019) O‘zbek terminologiyasi. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi. – 117 b. (In Uzbek).

6. Dadaboyev H. (2024) Tarixiy harbiy terminlar lug‘ati. – Toshkent: Muharrir. – 341 b. (In Uzbek).

7. Dadaboyev H., Nasyrov I., Xusanov N. (1990) Problemy leksiki starouzbekskogo yazyka. – Toshkent: Fan. – 213 s. (In Russian).

8. Do‘stmurodov M. (2023) O‘xun-Yenisey bitigtoshlaridagi harbiy terminlar tadqiqi: Filol. fan. bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ... diss. – Toshkent. – 149 b. (In Uzbek).

9. Ijtimoiy-siyosiy terminlar lug‘ati / O. Usmon tahriri ostida. (1976) – Toshkent: Fan. – 350 b. (In Uzbek).

10. Isaqova Z. (2010) Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” asaridagi ijtimoiy-siyosiy leksika: Filol. fan. nomz. ... diss. avtoref. – Toshkent. – 26 b. (In Uzbek).

11. Mavlonov A. (2024) Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonida qo‘llanilgan terminlarning tarkibiy-mazmuniy tahlili: Filol. fan. bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ... diss. avtoref. – Toshkent. – 49 b. (In Uzbek).

12. Muhammadiev X. (2022) Alisher Navoiy “Xamsa” dostonlaridagi maishiy leksika: Filol. fan. bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. – Jizzax. – 165 b. (In Uzbek).

13. O‘razboyev A. (2024) Ogahiy tarixiy asarlarida harbiy amaliyot va qismlar nomlari // Jahon harb ishi va harb san’ati rivojida ajdodlar o‘rni: adabiy va tarixiy manbalar misolida: ilmiy-amaliy yig‘in materiallari. – Toshkent. – 146 b. (In Uzbek).

14. O‘razboyev A.D. (2009) Ogahiyining “Riyoz ud-davla” asarida ijtimoiy-siyosiy leksika: Filol. fan. nomzodi ... avtoref. – Toshkent. – 25 b. (In Uzbek).

15. Tojiboyeva M. (2001) Alisher Navoiyning “Ilk devon”idagi arabcha so‘zlarning leksik semantik talqini: Filol. fan. nomz. ... diss. avtoref. – Toshkent. – 51 b. (In Uzbek).

16. Umarova N. (2021) Alisher Navoiy asarlarining lisoniy-konseptual tadqiqi: Filol. fan. doktori (DSc) diss. avtoreferati. – Farg‘ona. – 72 b. (In Uzbek).

17. Xolmonova Z. (2007) “Boburnoma” leksikasi. – Toshkent: Fan. – 180 b. (In Uzbek).

18. Xo‘janiyozova Sh. (2022) Alisher Navoiy manoqib asarlari leksikasi: Filol. fan. bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ... diss. avtoref. – Toshkent. – 54 b. (In Uzbek).

NASRIY VA NAZMIY ME’ROJNOMALARDAGI KONSEPTUAL BIRLIKLAR

CONCEPTUAL UNITS IN PROSE AND POETIC MI’RAJNAMAS

КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ СТРУКТУРЫ В ПРОЗАИЧЕСКИХ И ПОЭТИЧЕСКИХ МИРАДЖНАМЕ

https://zenodo.org/records/20666317

Turdiyev Jahongir Zafariddin o‘g‘li
Oriental universiteti,
Tillar-1 kafedrasi dotsenti
Tel.: + 998977769941
E-mail: jahongirturdiyev1987@gmail.com

Annotatsiya. Musulmon mintaqa madaniyati ma’naviy jihatdan yuksalishda bir qator takomil bosqichlarini bosib o‘tdi. Bu bosqichlar ichida insonni ehson maqomiga ko‘tarilishida muhim hisoblangan tasavvuf tariqatlari bosqichi alohida o‘ringa ega. Ma’lumki, tasavvuf tariqati riyozat yo‘li bo‘lib, bu yo‘l qalbni poklashdan boshlanadi. Mintaqa ma’naviy takomilidagi mazkur yuksalish bosqichi badiiy ijodda ham o‘z aksini topa boshladi. Natijada tasavvuf adabiyoti maydonga keldi. XII asrdan boshlab badiiy adabiyotda tasavvufiy qarashlar yetakchi o‘ringa ko‘tarila boshladi. Mazkur davr ijodkorlari tasavvuf ilmini puxta egallagan va bu ularning hayot yo‘llarida, yashash tarzida o‘z aksini topgan edi. Ular tomonidan bitilgan va bugungi kunimizga qadar yetib kelgan asarlar ham bu fikrimizni tasdiqlaydi. Tasavvuf adabiyotida Isro va Me’roj mavzusi alohida ahamiyat kasb etadi. Ko‘pgina ijodkorlar o‘z asarlarida mazkur voqealarni bayon etuvchi maxsus boblar ajratganlar. Umuman, Isro va Me’roj voqeasiga bag‘ishlangan nasriy va nazmiy asarlar tasavvuf adabiyotining ajralmas qismidir. Ushbu maqola turkiy me’rojnomalarning asosini tashkil etuvchi konseptual birliklar tahliliga bag‘ishlangan. Unda turkiy adabiyotda me’rojnomalarning yozilish sabablari, tuzilishi, manbalar asosida kiritilgan konseptual birliklar kabi masalalar o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: *Nasriy me’rojnoma, nazmiy me’rojnoma, Isro, janr, konseptual birliklar, kitobatchilik.*

Abstract. The culture of the Muslim region has passed through a number of stages of perfection in its spiritual ascent. Among these stages, the tarikat of tasawwuf holds a special place, which is considered important in a person's ascent to the status of ikhsan. It is well known that the tarikat of tasawwuf is the path of piety, and the path begins with purification of the heart. This stage in the spiritual development of the region began to be reflected in the arts. As a result, Sufi literature emerged. Sufi views began to take centre stage in literature from the 12th century onwards. The writers of that period mastered the science of tasawwuf thoroughly, and

this was reflected in their lifestyle and way of life. The works written by them and which have survived to the present day also confirm this idea. The subject of Isra and Mi‘raj has a special significance in Sufi literature. Many writers have devoted special chapters to them in their works. In general, the prose and poetry devoted to the events of Isra and Mi‘raj are an integral part of Sufi literature. This article is devoted to the analysis of the conceptual units that constitute the foundation of Turkic Mi’rajnamas. It examines such issues as the reasons for the composition of Mi’rajnamas in Turkic literature, their structural features, and the conceptual units incorporated on the basis of various sources.

Keywords: *prose Mi’rajnama and poetic Mi’rajnama, Isra, genre, conceptual units, bibliography.*

Аннотация. Культура мусульманского региона прошла ряд этапов духовного развития. Среди этих этапов особое место занимает этап суфийских тарикатов, который считается важным в поднятии человека до статуса благотворительности. Известно, что суфийский тарикат - это путь очищения, который начинается с очищения души. Этот этап подъема духовного совершенствования региона начал находить свое отражение и в художественном творчестве. В результате появилась суфийская литература. Начиная с XII века суфийские взгляды стали занимать ведущее место в художественной литературе. Творцы этого периода глубоко овладели наукой суфизма, и это отразилось на их жизненном пути, образе жизни. Их произведения, сохранившиеся до наших дней, также подтверждают эту мысль. В суфийской литературе тема Исра и Мираджа приобретает особое значение. Многие художники выделили в своих произведениях специальные главы, повествующие об этих событиях. В целом, прозаические и поэтические произведения, посвященные событиям Исра и Мираджа, являются неотъемлемой частью суфийской литературы. Данная статья посвящена анализу концептуальных единиц, составляющих основу тюркских мираджнаме. В ней рассматриваются такие вопросы, как причины написания, структура, концептуальные единицы, введенные на основе источников в тюркской литературе.

Ключевые слова: *Прозаическая мираджнама, поэтическая мираджнама, Исра, жанр, концептуальные единицы, книговедение*.

KIRISH

Mazkur maqolani yozishda manba sifatida turkiy “Me’rojnoma” asarining Parij va Istanbul kutubxonalarida saqlanayotgan qo‘lyozma nusxalari hamda Alisher Navoiyning “Lisonut-tayr” asaridagi me’roj bo‘limi olindi. Payg‘ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallam necha marta me’rojga chiqqanliklari haqida

turli qarashlar mavjud. Shuningdek, voqea uyg‘oqlikda bo‘lganmi yoki uyquda bo‘lganmi, yoki ba’zisi uyg‘oqlikda va ba’zisi uyquda bo‘lganmi kabi turli fikr-mulohazalar bildirilgan. Bunday turli qarashlar “Isro va Me’roj” kechasi haqidagi rivoyatlarda bayon qilingan voqealar sababli kelib chiqqan.

Jumhur ahli sunna val jamoa ulamolari Isro va Me’roj hodisasining Rasulullоh sollallohu alayhi vasallam payg‘ambar bo‘lganlaridan keyin, Makka davrida, hijratdan sal oldin, Islom da’vati quvg‘un bilan muvaffaqiyat o‘rtasida turgan bir paytda, uyg‘oq hollarida, ruh va tanalari bilan, Jabroil farishta hamrohligida, Buroq nomli mo‘jizaviy ulovda, kechaning bir bo‘lagida, bir marta yuz berganiga ittifoq qilishgan. Besh vaqt namoz Isro kechasi Me’rojda farz qilinganiga barcha ulamolar yakdildirlar.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Me’roj hodisasi turkiy adabiyotda eng ko‘p yoritilgan mumtoz mavzulardan deyish mumkin. XII asrdan boshlab nazmiy va nasriy me’rojnomalar yozila boshlangan (Akar 1987: 319).

Ijod ahli tomonidan devonlarga me’roj mavzusiga oid she’rlarni kiritish an’anaga aylangan. Dastlab adabiyotda na’tning bir qismi bo‘lgan me’roj mavzusi keyinchalik mustaqil janr sifatida shakllandi. Vaqt o‘tishi bilan qasidalarni *me’rojiya*, masnaviylarni esa *me’rojnoma* deb nomlangan boy adabiy janr vujudga keldi. Odatda ushbu mavzu diniy manbalarga asoslangan holda didaktik uslubda yozilgan.

Turkiy adabiyotda me’roj hodisasi dastlab Sotuq Bug‘roxon dostonida motiv sifatida namoyon bo‘ladi. XII asrda chig‘atoy turkiysida bitilgan, muallifi Hakim ota deb qabul etilgan 122 baytli “Me’rojnomatul-hazrat” asari me’roj mavzusi yoritilgan mustaqil janrning ilk namunasi hisoblanadi. (Hasan Shener 2016: 79).

Fuzuliyning “Layli va Majnun”i va Alisher Navoiyning “Xamsa”si tarkibidagi masnaviylar, shuningdek, “Lisonut-tayr” asaridagi me’roj bo‘limlari mazkur mavzuda yoritilgan turkiy tildagi yorqin namunalardir. Keyingi asrlarda turkiy adabiyotda mustaqil ravishda hamda devonlarda bir bo‘lim sifatida me’roj mavzusida ijod etish an’anaga aylandi va asrlar davomida rivojlanib bordi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda me’roj mavzusining turkiy adabiyotdagi aks etishi, xususan, turkiy “Me’rojnoma” asarlarining Parij va Istanbul kutubxonalarida saqlanayotgan qo‘lyozma nusxalari hamda Alisher Navoiyning “Lisonut-tayr” asaridagi me’roj bo‘limini solishtirma va tizimli tahlil qilish asosiy maqsad qilib qo‘yildi. Tadqiqot tarixiy-filologik, matnshunoslik va adabiyotshunoslik yondashuvlariga asoslangan holda olib borildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Me’roj kechasida bo‘lib o‘tgan har bir voqea butun tafsilotlari bilan nasriy va nazmiy me’rojnomalarda motiv o‘laroq kiritilgan. Nazmiy me’rojnomalar ustida tadqiqot olib borgan turk olimi Metin Akar me’rojnomalardagi motivlarni oyat va hadislarga asoslangan hamda xalq orasidagi rivoyatlar va ijodkorlarning tasavvuriga asoslangan motivlarga ajratgan (Akar 1987: 206).

Nasrda hamda nazmda yozilgan me’rojnomalarda qo‘llangan motivlarni shartli ravishda quyidagi guruhlarga bo‘lish mumkin:

- *Isro hodisasi yuz berguniga qadar bo‘lgan motivlar;*
- *Tungi sayr (Isro) davomidagi motivlar;*
- *Me’roj hodisasi davomidagi kechinmalarga oid motivlar;*
- *Isro va me’rojdan qaytgandan keyingi voqealarga doir motivlar.*

Me’roj voqeasining sababi: Barcha me’rojnomalarda me’roj hodisasiga doir ishlangan motivlar boshida me’rojning sababi keladi. Eng ishonchli rivoyatga ko‘ra Muhammad sollallohu alayhi vasallam boshchiliklaridagi oz sonli musulmonlarga nisbatan mushriklarning ozorlari, qiynoqlari kuchaygan qiyin bir holat paydo bo‘lgan edi. Payg‘ambar sollallohu alayhi vasallamni mushriklarning hujumlaridan himoya qiladigan shaxslar Abu Tolib va Xadicha onamiz ham vafot etgan va qiyinchilik haddan oshgan davrda Isro va Me’roj hodisasi bo‘lib o‘tdi. Bu esa, ana shunday og‘ir bir paytda u zot sollallohu alayhi vasallam va musulmonlar uchun katta tasalli edi. Noumidlik kayfiyatini so‘ndirib, umid uchqunlarini alanga oldirish edi. Ayni chog‘da, bu hodisa kishilar iymonini sinash omili ham edi.

Shuningdek, mufassirlar “Isro” va “Najm” suralarining ba’zi oyatlarini o‘rganib, Alloh taolo ulkan oyat-mo‘jizalaridan bir qismini Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallamga ko‘rsatish uchun me’roj voqeasi bo‘lib o‘tganligini ta’kidlashgan.

Me’rojning sanasi: Bu motiv me’roj voqeasining qaysi sanada bo‘lib o‘tganligi haqidadir. Isro va Me’roj hodisasi yuz bergani haqida Islom ummatida mutlaqo ixtilof yo‘q. Ammo qachon sodir bo‘lgani haqida turlicha qarashlar bor. Bu borada tadqiqot olib borgan Siyrat fani mutaxassisi Abdul Azim Ziyovuddin ma’lumotlarni tahqiq etib me’roj voqeasi sanasi haqida quyidagi xulosani keltiradi:

“Isro va Me’roj voqeasi hijratdan bir yil oldin, payg‘ambarlikning 13-yili rabiul avval oyida, dushanba kuni bo‘lgani “rojih” (haqiqatga yaqin) dir. Bu vaqt milodiy 621- yilning sentyabr yoki oktyabr oyiga to‘g‘ri keladi. O‘shanda Rasulullo sollallohu alayhi vasallam qamariy 52 yoshga to‘lgan edilar. Alloh taolo o‘zining buyuk hikmati ila bu hodisaning aniq vaqtini Qadr kechasi kabi unuttirdi!”.

Me’roj da’vatining xabari: Mazkur motiv me’roj da’vatining xabari haqdagi rivoyatlarga ko‘ra Muhammad sollallohu alayhi vasallam Hatimda, Xijrda yoki Ummu Honiyning uyida ekanliklarida Jabroil alayhissalom u kishini da’vat qilish uchun kelganliklari to‘g‘risidadir. Hadislarga tayanadigan bo‘lsak, voqea Ummu

Honiyning uylarida ekanliklarida da’vat boshlangan. Ummu Honiy roziyallohu anhoning nasabi Rasulullohnikiga borib taqaladi, bu sahobiya u zotning amakilari Abu Tolibning Fahita ismli qizi bo‘lib, hazrati Aliyning opalaridir.

Ko‘krak yorilishi motivi: Bu motivda me’roj voqeasidan avval Muhammad sollallohu alayhi vasallamning ko‘ksilarini yorilib, bashariy ayb va nuqsonlardan poklanganligi, qalblarining iymon va hikmat bilan to‘ldirilganligi haqida so‘z boradi. Ayrim mufassirlarga “Sharh” surasining ilk oyati bu voqeaga aloqador bo‘lib, oyatning ma’no tarjimasi quyidagicha: *Sening ko‘ksingni keng qilib qo‘ymadikmi?* (Sharx surasi, 1-oyat ma’no tarjimasi).

Ya’ni, Alloh taolo O‘zining inoyati bilan Muhammad sollallohu alayhi vasallamning ko‘ksilarini keng qildiki, u zot ko‘ksilariga payg‘ambarlik, hidoyat, iymon, hikmatlar mas’uliyatini sig‘dira oldilar (Шайх Муҳаммад Содиқ 2012: 498-499).

Payg‘ambar alayhissalomning ko‘ksilari yorilishi necha bor sodir bo‘lgani haqida ulamolar turlicha fikr bildirishgan. Ba’zi ulamolar to‘rt marta sodir bo‘lgan desa, boshqa ulamolar ushbu hodisaning uch marta sodir bo‘lganini ta’kidlashadi. Bu borada yanada chuqurroq izlangan ulamolarimiz “Payg‘ambar alayhissalomning ko‘kraklari ikki marta yorilgan” degan fikrni ilgari surishadi. Bizningcha ham keyingi fikr to‘g‘riroqdir.

U zot sollallohu alayhi vasallam tavalludlarining to‘rtinchi yoki beshinchi yilida “Shaqqus sodr” (ko‘ksining yorilishi va undan shayton ulushining chiqarib tashlanishi) voqeasi bo‘lib o‘tdi. Imom Muslim Anas roziyallohu anhudan rivoyat qilishicha, Rasulullоh sollallohu alayhi vasallam bolalar bilan o‘ynab yurganlarida, Jabroil alayhissalom kelib, u kishini erga yotqizdi va ko‘kraklarini yorib, yuragini chiqarib oldi. Yurakdan bir quyuq qonni olib tashlab: “Bu shaytonning sizdagi ulushi edi”, - dedi. So‘ng oltin tog‘oradagi zamzam suvi bilan yurakni yuvib, o‘nglab-yaxshilab, keyin joyiga solib qo‘ydi. Bolalar onaning, ya’ni Halimaning oldiga yugurib kelib: “Muhammadni o‘ldirishdi”, - deyishdi. Ular nabiy sollallohu alayhi vasallamni qarshilaganlarida, u zotning ranglari o‘zgarib ketgan edi. Anas roziyallohu anhu aytadi: “Men u zotning ko‘ksilaridagi o‘sha tikilgan ip izlarini payqagan edim” (Muborakfuriy 2019: 52).

Ikkinchi “Shaqqus sodr” voqeasi Isro kechasida sodir bo‘lgan. Bu haqda ikki “Sahih”da ham aytib o‘tilgan. Sahihul Buxoriyda keltirilishicha, Molik ibn Sa’sa’ roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi:

“Allohning Nabiysi sollallohu alayhi vasallam o‘zlari sayr qildirilgan kechalari haqida so‘zlab berdilar:

“Men Hatimda yonboshlab yotgan edim birov kelib, mana bu yerdan manavi yergacha kesdi. So‘ng qalbimni chiqardi. Keyin menga iymon to‘la tilla jom

keltirildi. So‘ng esa qalbim yuvilib, joyiga solib qo‘yildi. So‘ngra menga xachirdan kichikroq, eshakdan kattaroq bir oq ulov keltirildi. Men unga mindirildim. Keyin Jabroil meni olib yo‘lga tushdi...” (Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy 2014: 158).

Mo‘tabar olimlarning ta’kidlashlaricha, muborak ko‘ksilarining bu safargi yorilishining sababi ul zotni yuksak darajada hurmat qilish, e’zozlash, qo‘llab-quvvatlash va eng muhimi, Alloh taoloning huzurida turishga, U Zot bilan suhbatlashishga tayyorlashdir (Sayyid Muhammad 2019:42). Me’rojnomalarda ikkinchi “Shaqqus sodr” voqeasi motiv o‘laroq tasvirlaganligi ma’lum bo‘ladi.

Me’roj voqeasi boshlangan joy motivi: Ushbu motiv barcha me’rojnomalarda uchraydi. Sanab o‘tilayotgan boshqa barcha motivlar uShbu motiv asosiga qurilgan. Imom Jaloliddin Suyutiy “Isro va Me’roj” haqida quyidagilarni yozgan: “Mufassirlar, muhaddislar, fuqaholar va mutakallimlar barchalari “Isro va Me’roj”ning uyg‘oqlikda bir kechada bo‘lganiga ittifoq qilganlar. Bu haqida ochiq-oydin sahih xabarlar kelgan. Alloh taolo xabar berganki:

سُبْحَانَ الَّذِي أَسْرَى بِعَبْدِهِ لَيْلاً مِّنَ الْمَسْجِدِ الْحَرَامِ إِلَى الْمَسْجِدِ الأَقْصَى الَّذِي بَارَكْنَا حَوْلَهُ لِنُرِيَهُ مِنْ آيَاتِنَا إِنَّهُ هُوَ السَّمِيعُ البَصِيرُ

(O‘z) bandasi (Muhammad)ni, unga mo‘jizalarimizdan ko‘rsatish uchun (Makkadagi) Masjidi Haromdan (Quddusdagi) Biz atrofini barakotli qilgan Masjidi Aqsoga tunda sayr qildirgan Zot barcha nuqsonlardan pokdir. Darhaqiqat, U Same’ (eshituvchi) va Basir (ko‘ruvchi)dir. (Isro surasi, 1-oyat ma’no tarjimasi) (Shayx Abdulaziz Mansur 2019: 282).

Tasbeh ulug‘ ishlar qarshisida aytiladi (oyatda “Subhana” deya tasbeh aytilmoqda). Agar mazkur voqea Rasulullоh sollallohu alayhi vasallamning uxlayotgan paytlarida sodir bo‘lganida, bu ishda alohida bir ulug‘lik bo‘lmasdi. Quraysh ham buni birdan inkor qilishga oshiqmas, islomga endi kirgan ba’zi kimsalar ham murtad bo‘lib ketmas edi. Zero, banda ruh va jasaddan iborat. Agar mazkur voqea u zotning uxlagan paytlarida faqat ruhlariga bog‘liq holda sodir bo‘lganida edi, oyatda “Bandasini” deb emas, balki “Bandasining ruhini” deb aytilgan bo‘lardi. Qolaversa, bu aqlan ham to‘g‘ri emas, chunki u zot Buroqqa mindirilganlar. Buroqqa esa ruh mindirilmaydi, balki badan mindiriladi” (Abdulqodir Abdurahim 2012: 172).

Oyatdagi “O‘z bandasi”dan murod, Muhammad sollallohu alayhi vasallamdir. Muhammad sollallohu alayhi vasallam doimo Allohning bandasi ekanliklari bilan faxrlanib yurar edilar. Ushbu oyatda u zotning nomlar aytilmay, “O‘z bandasi” iborasi ishlatilishi ham Payg‘ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallam faxr hamda eng og‘ir paytda u kishi uchun tasallidir (Shayx Muhammad Sodiq 2006: 179).

Qur’oni karimda “Masjidul Harom” iborasi uch narsaga ishlatiladi.

Birinchisi – Ka’bai Muazzama atrofidagi masjid.

Ikkinchisi – Makkai Mukarrama Shahri.

Uchinchisi – Makkai Mukarrama atrofida haram uchun belgilangan chegara: kofirlar kirib bo‘lmaydigan, ov ovlanib, o‘simliklari kesilib yoki yulinib bo‘lmaydigan, ko‘pgina ma’lum ishlar harom etilgan mintaqaga nisbatan ham iShlatiladi.

Ushbu oyati karimadagi “Masjidul Harom” iborasi Makkai Mukarrama Shahri ma’nosida kelgan.

Isro kechasi Payg‘ambarimiz Ka’bai Muazzama atrofidagi masjidda emas, Shaharning bir tarafida joylashgan, ammalari Ummu Honi’ning uyida uxlab yotgan edilar.

“Masjidul Aqso”dan murod Shomdagi Baytul Maqdisdir. “Aqso” so‘zi uzoq, chet ma’nolarini bildiradi. Masjid esa ibodatxona, sajdagoh ma’nosini bildirishi hammaga ma’lum (Shayx Muhammad Sodiq 2006: 180).

O‘sha paytda Baytul Maqdis Makkai Mukarramaga nisbatan uzoq va eng chetdagi ibodatxona hisoblanar edi. Shuning uchun ham uni “Masjidul Aqso” deb nomlanadi.

“Isro” surasining ilk oyatida keltirilganidek, Muhammad sollallohu alayhi vasallam Makkadagi Masjidul Haromdan Quddusdagi masjidul Aqsoga sayr ettirilgandir. Me’roj voqeasi boshlangan joyi hadislarda Xijr, Xatim yoki Ummu Honiyning uylari ekanligi keltiriladi.

Namoz motivi: Bu motivda, besh mahal namozning farz bo‘lganligi, Masjidul Aqsoda payg‘ambarlar bilan o‘qilgan namoz, Madina va Madyanda o‘qilgan namozlar, Tur tog‘ida o‘qilgan namoz, Baytul ma’murda o‘qilgan namozlar keltirilgan.

Ichimliklar motivi: Me’roj kechasida Payg‘ambar alayhissallomga suv, asal, sut va sharob kabi ichimliklar tortiq qilinadi, ammo payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallam sutni tanlaydilar.

Osmonlar motivi: Qur’oni Karimda keltirilishicha, osmonlar yetti qavatdir. *Alloh etti osmonni qandoq qilib tabaqama-tabaqa yaratib qo‘yganini ko‘rmadingizmi?* (Nuh surasi, 15-oyat ma’no tarjimasi). Me’rojga oid hadislarda ham osmon qavatlari, har bir qavatdagi voqealar birma-bir bayon qilinadi. Bu o‘ziga xoslik me’rojnomalarda ham aks etgan.

Payg‘ambarlar motivi: Me’rojga oid hadislarda Muhammad sollallohi alayhi vasallamni har bir osmon qavatida payg‘ambarlar qarshi olishlari, ular bilan ko‘rishganlari bildirilgan. Hadislarga asoslangan me’rojnomalarning ko‘pida payg‘ambarlar haqida so‘z yuritiladi. Bu payg‘ambarlar Odam alayhissalom, Idris alayhissalom, Ibrohim alayhissalom, Yusuf alayhissalom, Muso alayhissalom, Horun alayhissalom, Yahyo alayhissalom va Iso alayhissalomdir.

Farishtalar motivi: Me’rojnomalarda nomlari zikr etilgan farishtalar Jabroil, Mikoil, Isrofil va Azroil alayhissallomlardir. Jabroil alayhissallom me’roj kechasi Rasulullоh sollallohu alayhi vasallamni uyg‘otgan, me’roj mujdasini keltirgan, ko‘ksilarini keng qilgan, shundan so‘ng Buroqqa mindirib, yo‘lda birgalikda yo‘ldosh bo‘lgan farishta sifatida zikr etiladi va tasvirlanadi. Jabroil alayhissallomning Sidratul muntahodan nariga o‘ta olmasliklari me’rojnomalarda o‘ziga xos tarzda ishlangan motivdir. Mikoil alayhissallom me’roj da’vati xabari uchun Jabroil alayhissallom bilan birgalikda kelgan, shaqqu sodr hodisasida unga yordamchi bo‘lgan, Buroq bilan sayr chog‘ida yuganini tutgan farishta o‘laroq zikr etiladi va tasvirlanadi. Isrofil va Azroil alayhissallomlar ham me’rojnomalarda zikri keltirilgan farishtalardir. Shuningdek, me’rojnomalarda etmish ming boshli farishta, Otashkor farishta, Molik, Ismoil, suvoriylar, yettinchi qavat osmondagi dengiz ichidagi fariShtalarning nomlari zikr etilganini ko‘rish mumkin. Me’roj bilan bog‘liq oyatlarning tafsirlarida va me’rojga oid hadislarda bu farishtalardan faqatgina Jabroil alayhissalomning nomi keltirilgan.

Jannat motivi: Me’rojnomalarda jannati Ma’voning tasviri, hurlar va Tubo daraxti jannat bilan bog‘liq motivlar ichida alohida o‘ringa ega.

Suv motivi: Me’rojnomalarda suv bilan bog‘liq motivlar quyidagilar:

a) Er bilan birinchi qavat osmon orasidagi suv;

b) Sidratul muntaho joylashgan osmondan chiqqan to‘rt daryo: Kavsar, Rahmat, Nil,Furot;

Sidratul muntaho daraxti ostida Nil va Furot daryolari namoyish qilingan. Bu ular aynan o‘sha joydan oqib tushadi, degan ma’noda emas, albatta. Ammo ularning mazkur maqomda Nabiy sollollohu alayhi vasallamga ko‘rsatilishi ularning barakali, jannat anhorlari kabi fazilatli, sermanfaat ekanini anglatadi;

c) Salsabil chashmasi;

d) Dur ichidagi dengizlar;

e) Arsh oldidagi dengizlar;

f)Jannatdagi to‘rt irmoq: rangi, hidi, hech bir xususiyati buzilmagan irmoqlar, mazasi o‘zgarmagan sutli irmoqlar, ichuvchilarga lazzat baxsh etuvchi sharobdan bo‘lgan irmoqlar, asal oquvchi irmoqlar.

Jahannam motivi: Me’rojnomalarda jahannam bilan bog‘liq motivlarda harom, foiz va etim molini yeganlar, zino qilganlar kabi ba’zi insonlarning jazolanishiga doir tasvirlar o‘rin olgan.

Obod uy motivi - Hadislarda keltirilishicha, yettinchi qavat osmonda, Ka’bai Muazzamaning tepasida joylashgan bir uydir (masjiddir). Uni har kuni etmish ming farishta tavof qiladi va ularning ko‘pligidan bir tavof qilgani yana qaytib kira olmaydi. Erda Ka’batulloh qanday ulug‘lansa, osmonda “Baytul ma’mur” ya’ni,

Obod uy ham shunday ulug‘lanadi (Shayx Muhammad Sodiq 2006: 193). Me’roj kechasi Rasulullоh sollallohi alayhi vasallam uni ko‘rganlar va tavsif etganlar.

Sidratul muntaho: lug‘atda “intiho daraxti”, “chegara daraxti” degan ma’noni anglatadi. Hadisda ta’riflanishicha u butasimon daraxt bo‘lib, chavandoz bir necha o‘n yil ot choptirsa ham uning soyasidan chiqa olmaydi. Uning “intiho” deb nomlanishiga sabab shuki, barcha maxluqotning ilmi o‘sha joygacha etadi, undan uyog‘ida nima borligini Allohdan o‘zga hech kim bilmaydi. Farishtalar ham undan uyog‘iga o‘ta olmaydilar. Bu ham g‘aybga taalluqli narsalardan bo‘lib, bu haqda oyat va hadislarda kelgan ma’lumotlar bilan kifoyalanish lozim. Uning kayfiyati va boShqa jihatlari Allohning o‘zigagina ma’lum bo‘lib, inson aql-u idrokidan ustundir (Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy, 2014:162). Me’rojnomalarda ham ushbu daraxt alohida tilga olingan. Qur’oni Karimda ikki o‘rinda, ya’ni “Najm” surasining 14- va 16-oyatlarida Sidratul muntaho nomi zikr etilgan bo‘lib, me’roj haqida kelgan hadis va rivoyatlarda ham ushbu daraxt nomini uchratish mumkin.

Lavhul maxfuz: Me’rojnomalarda uchraydigan ushbu motiv islomiy asosga tayangandir. Lavhul maxfuz sodir bo‘ladigan har bir hodisa unda yozilgan kitobdir.

Qalam motivi: Me’rojnomalardagi tasvirlarga ko‘ra inju yoki yoqutdan yaratilgan, siyohi nurdan bo‘lgan bir qalamdir. Muhammad sollallohu alayhi vasallam me’roj kechasi mazkur qalamning ovozini eshitganlar.

Qaytish motivi: Muhammad sollallohu alayhi vasallam osmonlarga chiqib aylanib, me’rojini nihoyasiga etkazganlaridan so‘ng Jabroil alayhissalom bilan birgalikda yana Ummu Honiyning uylariga tushadilar. O‘shanda obdastalari to‘la, ko‘rpalari qanday qoldirgan bo‘lsalar xuddi o‘shandoqligicha, yotgan o‘rinlari ham sovimagan holda bo‘ladi.

Abu Jahlning munosabati motvi: Me’roj hodisasidan so‘ng Abu Jahl bilan ko‘rishgan payg‘ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallam unga bir kechada Quddusga olib borilib yana qaytib keltirilganliklarini aytadilar. Bunga ishonmagan Abu Jahl xalqni to‘plab, Rasulullоh alayhissalomdan bo‘lgan hodisani yana bir bor aytib berishlarini so‘raydi. Muhammad sollallohu alayhi vasallam ularga ham bu voqeani so‘zlab beradilar. To‘planganlarning bir qismi “Bu ochiq yolg‘on-ku, bizning karvonlarimiz bu masofaga ikki oyda borib kelishadi”, - deya inkor etadi. Bir qismi esa Al-Amin bo‘lgan Muhammad sollallohu alayhi vasallamning aytganlarini tasdiqlaymiz, deya xursand bo‘lishadi. Abu Jahl va uning tarafdorlarining bu xatti-harakatlari me’rojnomalarda motiv sifatida qo‘llanilgan.

Hazrat Abu Bakr raziyallohu anhuning tasdig‘i motivi: Abu Jahl va uning tarafdorlari Abu Bakr raziyallohu anhuning uylariga borib “Muhammad bir kecha ichida Masjidul Aqsoga borib kelganligini aytayapti. Sen bunga nima deysan?”, - deb so‘rashadi. Hazrat Abu Bakr raziyallohu anhu esa “Agar Muhammad sollallohi alayhi

vasallam shunday degan bo‘lsalar to‘g‘ri aytibdilar, men bunga shohidlik beraman. Men u kishining bundan g‘aribroq narsasini ham tasdiqlayman. Osmondan xabar aytishini ham tasdiqlayman”, dedi. SHundan Abu Bakr “Siddiq” – o‘ta tasdiqlovchi, deb atala boshladilar[1]. Bundan ulug‘ sahobaga martabalarini ulug‘lovchi laqabning berilishi bevosita Rasulullоh sollallohi alayhi vasallamga mustahkam ishonchlari va me’roj voqeasi bilan bog‘liq ekanligi ma’lum bo‘ladi.

Masjidul Aqso motivi: Muhammad sollallohi alayhi vasallam bir kechada Masjidul Aqsoga borib kelganligiga ishonmaganlar, bu safar Rasulullоh alayhissalomdan Masjidul Aqsoni sifatlab berishlarini talab qiladilar. Masjid payg‘ambar sollallohu alayhi vasallamga ko‘rsatiladi. U zot sollallohu alayhi vasallam ularga masjidni fasf qila boshlaydilar. Ular nima so‘rasalar barcha savollariga payg‘ambar sollallohu alayhi vasallam to‘g‘ri davob berdilar. Shunda ular “Ammo vasfini to‘g‘ri qildi”, deydilar (Shayx Muhammad Sodiq, 2006:183).

Karvonlar motivi: Muhammad sollallohu alayhi vasallamning Masjidul Aqsoni to‘g‘ri sifatlab berishlariga qaramasdan, u kishiga ishonmaganlar bu safar endi yo‘ldagi karvonlari haqida xabar berishlarini so‘rashadi. Payg‘ambar sollallohu alayhi vasallam ularning karvonidagi tuyalar soni, ahvoli haqida to‘liq xabar berib, “Karvon falon kuni, quyosh chiqish paytida yetib keladi. Oldinda kulrang tuya bo‘ladi”, deydilar. Karvon shaharga kirib kelganda aytilgan xabarlarning barchasi to‘g‘ri chiqadi. Ammo shundoq bo‘lsa ham ular iymon keltirmaydilar. Isro hodisasi buyuk mo‘jiza edi. Buni bilgandan keyin iymon keltirmoqlari lozim edi. Biroq iymon keltirmaydilar (Shayx Muhammad Sodiq 2006: 184).

Turkiy me’rojnomalarda boshqa motivlarni ham uchratish mumkin. Yuqorida keltirilgan motivlarning barchasi ayni bir asarda to‘liq, uchramasa-da, me’roj mavzusiga bag‘ishlangan asarlarga xos umumlashgan motivlar deyish mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Islom madaniyatining yorqin namunalaridan bo‘lmish me’rojnomalar yozishda ijod ahli oyat va hadislarga tayanganlar. Bu esa ularning aqoid, Qur’on ilmi, hadis, Islom tarixi, tafsir kabi diniy ilmlarni puxta o‘zlashtirganlaridan dalolat beradi. Shulardan kelib chiqib quyidagi xulosalarga keldik:

Me’rojnomalarda dastlab Isro voqeasiga doir motivlar, shundan so‘ng Me’roj voqeasiga bog‘liq motivlar o‘rin olgan bo‘lib, unda voqealar rivoji davriy tartibda kechgan.

---

[1] Arablarda kishilarning nomlash uch qismga bo‘linadi. Agar nom madh yoki mazammat ma’nosini anglatsa laqab bo‘ladi. Agar nom Abu, Ummu, Ibn va Bint so‘zlari bilan boshlansa kunya bo‘ladi. Agar bu ikki narsaga oid bo‘lmasa ism bo‘ladi.

Islom tarixida muhim voqealardan bo‘lgan Me’roj mo‘jizasi deyarli barcha musulmon xalqlari tamaddunida alohida o‘rin egallagan bo‘lib, mumtoz adabiyotda, folklorda, xattotlik va kitobat san’atida o‘ziga xos tarzda aks etgan.

Isro qissasi islomiy da’vatning bir davri tugab, yangi bir davri boshlanish arafasida ekanini ko‘rsatadi. Besh vaqt namoz ham Isro kechasi Me’rojda farz qilingani insoniyat tarixidagi ulkan hodisa bo‘lib, bu uning boshqa islomiy ruknlardan farqli jihatidir.

Turkiy adabiyotda Me’roj mavzusiga alohida ahamiyat berilishi va ijod ahlining bu borada ko‘p asarlar bitishidan ko‘zlangan maqsad o‘quvchida go‘zal xulqni shakllantirish edi. Badiiy-estetik ta’sirini oshirish uchun mualliflar o‘z asarlarida badiiy tasvir vositalari, badiiy san’atlardan unumli foydalanganlar. Me’roj mavzusiga bag‘ishlangan asarlar turkiy adabiyot va adabiy tilning, shu bilan bir qatorda matnshunosligimizning eng sara namunalaridandir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Абу Малик бахши. Меърожнома. Қўлёзма. Париж миллий кутубхонаси Suppl. Turk. бўлими №190.
2. Алишер Навоий. (2019) Лисонут-тайр. – Тошкент: Янги аср авлоди.
3. АН-НАИМ. Арабча-ўзбекча луғат. (2003) Тошкент.
4. Абдулқодир Абдураҳим. (2012) Эътиқод дурдоналари. – Тошкент.
5. Hasan Şener. (2016) Türk edebiyatinda mi’râciyye geleneği ve harputlu Rahmî’nin Beyân-i mi’râc başlikli manzumesi. The Journal of International Social Sciences. – Elaziğ.
6. Муборакфурий Саффиюрраҳмон. (2019) Ар-Раҳиқул махтум. – Самарқанд: Имом Бухорий халқаро маркази нашриёти.
7. Муҳаммад ибн Исмоил ал-Бухорий. (2014) Саҳиҳул Бухорий. Олтин силсила 5-жуз. – Тошкент.
8. Нуриддин Али ат-Талиқоний. Меърожнома. Қўлёзма. Истанбул Сулаймония кутубхонаси, Фотиҳ фонди №2848.
9. Саййид Муҳаммад Ҳасаний. (2019) Икки олам сарвари. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. – 352 б.
10. Шайх Абдулазиз Мансур. (2019) Қуръони карим маъноларининг таржима ва тафсири. – Тошкент: Sano-standart. – 624 б.
11. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. (2006) Ҳадис ва ҳаёт. Нубувват ва рисолат 19-жуз. – Тошкент: Sharq. – 576 б.
12. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. (2012) Тафсири Ҳилол. 6 жуз. – Тошкент: Sharq. – 640 б.

REFERENCES:

1. Abdulkodir Abdurahim. (2012) E’tiqod durdonaları. – Toshkent. (In Uzbek).
2. Abu Malik Baxshi. Me’rojnoma. Qo‘lyozma. Parij milliy kutubxonasi Suppl. Turc. bo‘limi №190. (In Uzbek).
3. Alisher Navoiy. (2019) Lisonut-tayr. – Toshkent: Yangi asr avlodi. (In Uzbek).
4. AN-NAIM. Arabcha-o‘zbekcha lug‘at. (2003) Toshkent. (In Uzbek).
5. Hasan Şener. (2016) Türk edebiyatinda mi’râciyye geleneği ve harputlu Rahmî’nin Beyân-i mi’râc başlikli manzumesi. The Journal of International Social Sciences. – Elaziğ. (In Turkish).
6. Muborakfuriy Saffiyurrahmon. (2019) Ar-Rahiqul maxtum. – Samarqand: Imom Buxoriy xalqaro markazi nashriyoti. (In Uzbek).
7. Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. (2014) Sahihul Buxoriy. Oltin silsila 5-juz. – Toshkent. (In Uzbek).
8. Nuriddin Ali at-Taliqoniy. Me’rojnoma. Qo‘lyozma. Istanbul Sulaymoniya kutubxonasi, Fotih fondi №2848. (In Uzbek).
9. Sayyid Muhammad Hasaniy. (2019) Ikki olam sarvari. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. – 352 b. (In Uzbek).
10. Shayx Abdulaziz Mansur. (2019) Qur’oni karim ma’nolarining tarjimasi va tafsiri. – Toshkent: Sano-standart. – 624 b. (In Uzbek).
11. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. (2006) Hadis va hayot. Nubuvvat va risolat 19-juz. – Toshkent: Sharq. – 576 b. (In Uzbek).
12. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. (2012) Tafsiri Hilol. 6-juz. – Toshkent: Sharq. – 640 b. (In Uzbek).

SARGUZASHT-DETEKTIV JANRI BADIIY USLUBINING O‘ZIGA XOSLIGI

SPECIFIC FEATURES OF THE LITERARY STYLE IN ADVENTURE-DETECTIVE GENRE

ОСОБЕННОСТИ ЛИТЕРАТУРНОГО СТИЛЯ В ПРИКЛЮЧЕНЧЕСКО-ДЕТЕКТИВНОМ ЖАНРЕ

https://zenodo.org/records/20666343

Jalilova Gulchexra Maxmutdjonovna
Oriental universiteti “Tillar-2”
kafedrasi o‘qituvchisi, tadqiqotchi
Tel.: +998 99-863-53-01
E-mail: gulchexrajalilova7@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola sarguzasht-detektiv janrining badiiy-uslubiy o‘ziga xosliklarini tadqiq etadi. Sarguzasht janri qahramonning xavfli sayohatlari, tasodifiy voqealar va jasorat motivlari orqali ta’riflanadi, detektiv janri esa jinoyatni mantiqiy tahlil va retrospektiv yondashuv bilan ochish mexanizmini o‘z ichiga oladi. Janrlarning birlashuvi adabiyot tarixida miflar, eposlar va XIX-XX asrlar urbanizatsiyasi ta’sirida shakllanganligi ko‘rsatiladi. Artur Konan Doylning “Baskerviller iti” romani misolida sarguzasht elementlari (botqoqlikdagi ta’qiblar, jismoniy sinovlar) va detektiv uslublari (deduksiya, ratsionalizm va xurofotning rad etilishi) tahlil qilinadi. Natijada, janr o‘quvchiga hayajon va intellektual zavqni birlashtirib, adolat va kurash ruhini tarannum etishi ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: *Sarguzasht janri, detektiv janri, sarguzasht-detektiv janri, badiiy uslub, qahramon sayohati, jinoyat tergovi, retrospektiv usul, deduksiya, ratsionalizm, xurofot, Artur Konan Doyl, Baskerviller iti.*

Annotation. This article examines the distinctive features of the literary style in the adventure-detective genre. The adventure genre is defined through the hero‘s perilous journeys, random events, and motifs of bravery, while the detective genre incorporates mechanisms for solving crimes via logical analysis and retrospective approaches. The fusion of these genres is traced in literary history, from myths and epics to the influences of 19th-20th century urbanization. Using Arthur Conan Doyle's “The Hound of the Baskervilles” as an example, the analysis highlights adventure elements (such as pursuits in marshes and physical trials) combined with detective techniques (deduction, rationalism, and the debunking of superstitions). Ultimately, the genre is shown to blend excitement and intellectual pleasure, celebrating justice and the spirit of struggle.

Keywords: *Adventure genre, detective genre, adventure-detective genre, literary style, hero‘s journey, crime investigation, retrospective method, deduction, rationalism, superstition, Arthur Conan Doyle, The Hound of the Baskervilles.*

Анноация. В статье исследуются специфические особенности художественного стиля в приключенческо-детективном жанре. Приключенческий жанр определяется через опасные путешествия героя, случайные события и мотивы смелости, а детективный жанр включает механизм раскрытия преступления с помощью логического анализа и ретроспективного подхода. Объединение жанров показано в контексте литературной истории, от мифов и эпосов до влияния урбанизации XIX-XX веков. В качестве примера анализируется роман Артура Конан Дойла «Собака Баскервилей», где приключенческие элементы (преследования в болотах, физические испытания) сочетаются с детективными методами (дедукция, рационализм и опровержение суеверий). В итоге подчеркивается, что жанр объединяет эмоциональное напряжение и интеллектуальное удовольствие, прославляя справедливость и дух борьбы.

Ключевые слова: *Приключенческий жанр, детективный жанр, приключенческо-детективный жанр, художественный стиль, путешествие героя, расследование преступления, ретроспективный метод, дедукция, рационализм, суеверия, Артур Конан Дойл, Собака Баскервилей.*

KIRISH

Sarguzasht-detektiv janri adabiyotning eng mashhur va dinamik yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, unda sarguzasht elementlari: xavfli sayohatlar, tasodifiy voqealar, qahramonning jasorati; va detektiv uslublari: jinoyatni mantiqiy tahlil va retrospektiv yondashuv orqali ochish birlashadi. Bu janr adabiyot tarixida qadimiy miflar, eposlar va folklor namunalaridan tortib, XIX-XX asrlar urbanizatsiyasi va ijtimoiy o‘zgarishlar ta’sirida shakllangan bo‘lib, o‘quvchiga hayajonli voqealar orqali axloqiy g‘oyalarni – adolat, kurash ruhini va intellektual ustunlikni – yetkazishga xizmat qiladi. Mavzuning ahamiyati shundaki, sarguzasht-detektiv janri nafaqat o‘yin-kulgini ta’minlaydi, balki jamiyatdagi muammolarni, ya’ni, jinoyat, adolatsizlik, xurofot va ratsionalizm qarama-qarshiligini aks ettirib, o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash va mantiqiy tahlil qobiliyatlarini rivojlantiradi. Ushbu janr orqali adabiyotshunoslikda janrlarning o‘zaro ta’siri va evolyutsiyasi o‘rganiladi, bu esa zamonaviy adabiyotda yangi shakllar paydo bo‘lishiga zamin yaratadi. Zamonaviy dunyoda sarguzasht-detektiv janriga oid muammo shundaki, texnologiya va ijtimoiy o‘zgarishlar, ya’ni, urbanizatsiya, kibermakonda jinoyatlar ko‘payishi ta’sirida janrning an’anaviy uslublari: retrospektiv tahlil, deduksiya yangi kontekstlarda moslashishi kerak, ammo ko‘pincha ular o‘quvchilarning hayajon va intellektual

talablariga javob bermay qolmoqda. Bu muammoning dolzarbligi shundan iboratki, globalizatsiya va raqamli madaniyat sharoitida janr o‘zining axloqiy va ta’limiy rolini saqlab qolishi lozim: jinoyatni fosh etish orqali jamiyatdagi adolatsizlikka qarshi kurashni rag‘batlantirish va xurofotlarni ratsionalizm bilan yengishni targ‘ib qilish. O‘zbek adabiyotshunosligida bu janrning milliy folklor bilan sintezi o‘rganilmaganligi sababli, dolzarblik yanada kuchayadi, chunki u milliy madaniyatni saqlash va zamonaviy adabiyotni boyitish imkoniyatini beradi. Ushbu muammoni hal qilish adabiyotning jamiyatdagi ta’sirini oshirib, yosh avlodda mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Sarguzasht-detektiv janrining badiiy-uslubiy o‘ziga xosliklari mavzusi adabiyotshunoslikda keng tadqiq etilgan bo‘lib, janr ta’riflari, evolyutsiyasi va badiiy elementlari rus, ingliz va o‘zbek tilidagi manbalarda yoritilgan. D.Quronovning “Adabiyotshunoslik lug‘ati” (2013) va “Kratkaya literaturnaya entsiklopediya” (1968) kabi lug‘atlar sarguzashtni voqeaband asarlar, detektivni esa jinoyat tergovi atrofidagi janr sifatida ta’riflab, ularning o‘zaro bog‘lanishini ko‘rsatadi. J.G.Kaveltining “Adventure mystery and Romance” (1976) kitobi sarguzasht janrining qahramon sayohatlari va axloqiy motivlarini tahlil qilsa, P.Ahmedovaning maqolasi (2022) o‘zbek folkloridagi jasorat elementlarini sharq-g‘arb farqlari bilan bog‘laydi. Detektiv janri bo‘yicha E.A.Varlakova (2012), E.N.Gerasimenko (2013) va T. Todorov (1977) asarlari intellektual tahlil, ikki voqea chizig‘i va urbanizatsiya ta’sirini yoritib, janrning psixologik jihatlarini ochib beradi. Tarixiy kontekstda C.Baker (1969) va N.Klausson (2005) ijtimoiy o‘zgarishlarni, A.Zhunussova (2023) esa folklor va zamonaviy trillerlarni tahlil qiladi. Konkret asarlar bo‘yicha L.Frank (2003), J.B.Taylor (1987), D.I.Grossvogel (1983) va M.Kaglıyan (2010) Po Kollins, Kristi va Doyl asarlarida retrospektiv usul va gotika elementlarini ko‘rib chiqadi. Ushbu adabiyotlar janr evolyutsiyasini qamrab oladi, ammo o‘zbek kontekstida milliy sintez va raqamli evolyutsiya bo‘yicha tadqiqotlar yetarli emas, bu mavzuning kelgusidagi o‘rganishlariga zamin yaratadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda sarguzasht-detektiv janrining badiiy-uslubiy o‘ziga xosliklarini o‘rganish uchun nazariy va taqqosiy tahlil metodlari qo‘llanilgan, ya’ni janr ta’riflari, tarixiy evolyutsiyasi va badiiy elementlari adabiyotshunoslik manbalari asosida ko‘rib chiqilgan. Asosiy manbalar rus, ingliz va o‘zbek tilidagi lug‘atlar, ensiklopediyalar hamda ilmiy maqolalar bo‘lib, ularni sistematik tarzda guruhlash va taqqoslash orqali janrlarning o‘zaro ta’siri aniqlangan. Konkret Artur Konan Doylning “Baskerviller iti” romani misolida syujet tuzilishi, retrospektiv usul va

sarguzasht elementlari tahlil qilinib, deduksiya va ratsionalizmning roli yoritilgan. Tadqiqot jarayonida deskriptiv va interpretativ yondashuvlar qo‘llanilgan, bu esa janrning madaniy va ijtimoiy ahamiyatini ochib berishga imkon bergan. Natijada, mavzuga oid adabiyotlarning bo‘shliqlarini aniqlash va kelgusidagi tadqiqotlar uchun takliflar berish maqsad qilingan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Sarguzasht atamasi fors tilidan kelib chiqqan bo‘lib, sar – bosh va guzashtan – o‘tkazmoq fe’llarining qo‘shilishidan hosil bo‘lgan, boshdan o‘tkazilgan, kechirilgan degan ma’noni anglatadi. D.Quronov “Adabiyotshunoslik lug‘ati” kitobida bu atamaga haqiqatda yuz bergan yoki to‘qib chiqarilgan voqealarni qiziqarli tarzda hikoya qiluvchi voqeaband asarlarning umumiy nomi deya ta’rif bergan (Quronov D., 2013: 271). Adabiyotshunoslikda sarguzasht adabiyoti atamasi qat’iy belgilangan chegaralarga ega bo‘lmagan tushuncha sifatida qo‘llaniladi va u faqat sarguzashtga oid mavzular, syujet yoki motivlar orqali birlashtirilgan turli xil adabiy janrlarni ifodalash uchun ishlatiladi. Ushbu janr ilmiy fantastika, detektiv adabiyoti bilan yaqin integratsiyaga ega bo‘lib, ularning o‘zaro ta’sirida evolyutsion rivojlanishni namoyon etadi (Наркевич А. Ю., 1968: 973-974). Sarguzasht asar qahramonining xavf-xatarga to‘la jismoniy va ruhiy sayohati, kashfiyotlar va sirli yovuz kuchlarga qarshi kurashi markaziy g‘oya sifatida ilgari surilgan janr sifatida talqin etiladi. G‘arb adabiyotida sarguzasht so‘ziga mos keluvchi atama fransuz tilida aventure, ingliz tilida adventure, nemis tilida esa abenteuer tarzida uchraydi. Bu so‘zlar qadimgi lotincha adventura so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, sodir bo‘ladigan narsa, voqea, tahlikali ish, taqdir, tasodifiy voqea degan ma’nolarni bildiradi. Rus adabiyotshunosligida bu turdagi asarlar avantyurniy roman sifatida urg‘ulanib, qahramonning kechinmalari tasodifiy voqealar ketma-ketligi orqali rivojlanishi ko‘rsatiladi (Наркевич А. Ю., 1968: 973-974). O‘zbek madaniy kontekstida sarguzasht folklor ertaklari bilan sintezlanib, qahramonni mehnatsevarlik va jasoratning timsoli sifatida tasvirlaydi (Ahmedova P., 2022:). Yuqoridagi ta’riflardan xulosa qilinar ekan, bu janrda yozilgan asarlar markazida qahramonning g‘ayrioddiy, tasodifiy, xavfli va qiziqarli kechinmalari, doimiy sinovlarga duch kelishi tasvirlanadi va bu sinovlarni mohirona yengib o‘tishi, kuchi, aqli, jasorati hamda shiddat bilan rivojlanuvchi rang-barang voqealar dinamikasi janrning o‘ziga xosligini yuzaga keltiradi. J.G. Kavelti sarguzasht asarlarga ta’rif berar ekan, bunda asar qahramonlarining xavf-xatarga to‘la sayohati, hayajonli tajribalarga duch kelishi, asosiy e’tibor qahramonning hayoti va farovonligiga tahlika soluvchi jismoniy sinovlar va xatarlar tasvirlanadigan hikoya ekanligini qayd etgan. Asarda ko‘pincha odam o‘g‘irlash, ta’qib qilish, xazina qidirish, xayoliy yoki hayotiy sayohatlar va sirlar haqida so‘z boradi. Sarguzasht roman qahramonlari sayohatchilardir. Bular

kuchli iroda va yetakchilik fazilatlariga ega, ular jasur, har doim tavakkal qilishga va to‘siqlarni yengishga, o‘z baxti uchun kurashishga, do‘stlari va sevganlarini qutqarishga va har qanday umidsiz vaziyatdan chiqish yo‘lini topishga tayyor kimsalardir. Bu janrda qahramonlik, individualizm va axloq markaziy mavzu sifatida tarannum etiladi. Sarguzasht janri adabiyot tarixida eng sodda, eng qadimiy va, albatta, eng jozibali adabiy meros sifatida tan olingan hikoya turlaridan biri sanaladi. Janrning taraqqiyoti ilk eposlarga, mif, afsona va asotirlarga borib taqaladi. Zamonaviy adabiyotshunoslikda esa, sarguzasht janri fantastika, detektiv va boshqa janrlar bilan o‘zaro aloqada shakllangan. Bu janr turli jamiyat vakillari tomonidan milliy koloritet, ijtimoiy holat va madaniy qadriyatlar asosida turlicha shakllangan. Zero, bu turdagi asarlar axloqiy g‘oyasi kishilarni g‘alabaga undash va kurashuvchanlikka chorlashdir. Shu sababli, g‘arb adabiyotida adolatsizlik va qonunbuzarlik ustidan g‘alaba bosh mavzu sifatida tarannum etilsa, sharq adabiyoti namunalarida millatni qutqarish, ijtimoiy, maishiy, falsafiy g‘alaba asosiy mavzu sifatida yoritiladi.

Detektiv janri adabiyotshunoslikda mustaqil yo‘nalish sifatida qaralib, asosan sodir bo‘lgan jinoiy harakatni ochib berish mexanizmi atrofida qurilgan asarlarni o‘z ichiga oladi. E.Varlakova ta’rifiga ko‘ra, ushbu janr jinoyat, tergovchi, gumonlanuvchi va yechimga ega bo‘lib, syujet tuzilishi va badiiy shakllanishi o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Intellektual boshqotirmaning mavjudligi detektivni boshqa sarguzasht adabiyoti janrlaridan ajratib turadi (Варлакова Е.А., 2012:15). O‘zbek tili izohli lug‘atida detektiv atamasiga josuslar, yashirin ayg‘oqchilar, izquvarlar hayoti, sarguzashtlari, murakkab jinoyatlarning ochilishi haqida hikoya qiluvchi badiiy asar yoki film deya ta’rif beriladi. Adabiyotshunoslik lug‘atida detektiv adabiyotga sarguzasht adabiyotning bir tarmog‘i, syujeti asosida sirli jinoyatlarni ochish bilan bog‘liq voqealar yotuvchi asarning umumiy nomi deb izoh berilgan (Quronov D., 2013: 89). Detektiv hikoyasi doimo boshqotirma va sir bo‘lib, o‘quvchi muallif bilan birgalikda ushbu boshqotirmaga mustaqil ravishda yechim topadi, bu esa o‘quvchiga nafaqat mantiqiy fikrlash, deduktiv qobiliyatlarni namoyon etish imkonini beradi, balki inson psixologiyasini tushunishga yordam beradi. E. Gerasimenko yaxshi detektiv hikoyasining ajralib turadigan xususiyati - unda mavjud bo‘lgan axloqiy g‘oya bo‘lib, u jinoyatchini fosh etish va jazolash bilan bog‘liq, deb hisoblaydi (Герасименко Е. Н., 2013:194).

XIX asr oxiri XX asr boshlarida dunyoning London, Nyu York kabi yirik shaharlari tez suratda urbanizatsiyalashuvi jinoyatlar darajasining sezilarli o‘sishiga olib keldi, bu esa jamiyatdagi xavfsizlik, huquqni muhofaza qilish va axloqiy tamoyillar haqidagi tashvishlarni yanada kuchaytirdi. Mana shu fonda detektiv janri paydo bo‘ldi – u nafaqat jamiyatning sirli voqealarga bo‘lgan ishtiyoqiga javob

sifatida, balki ijtimoiy to‘ntarishlar oldida ratsionallik va tartibga bo‘lgan e’tiborni aks ettiruvchi yo‘nalish sifatida ham yuzaga keldi (Baker C., 1969:109). N.Klausson fikriga ko‘ra, o‘z mohiyatida detektiv janri ikki tomonlama maqsadga xizmat qildi. Bir tomondan, u o‘yin-kulgini ta’minladi, o‘quvchilarni murakkab syujetlar, sirli qahramonlar va shubhali hikoyalar bilan jalb qildi. Boshqa tomondan, u ta’limiy rol o‘ynadi, adolat va tanqidiy fikrlash qadriyatlarini mustahkamladi. Janrning markaziy tamoyili – qanchalik murakkab bo‘lmasin, jinoyatni intellektual tahlil orqali yechish mumkinligi - zamonaviy o‘quvchilarda aks-sado berdi, ular bu hikoyalarda ham tasalli, ham rag‘bat topdilar (Klausson N., 2005: 60-87).

Berilgan ta’riflarga asoslanib xulosa qilsak, detektiv janrida jinoyat ochilishi bilan bog‘liq murakkab va maxfiy jarayonni mantiqiy tahlil usuli orqali ochib berish mexanizmi tasvirlanadi. Rus adabiyotshunosi A.N. Guliga detektiv asarni sirli jinoyatni tergov qilish va uning holatlarini ochishga qaratilgan hikoya ekanini ta’kidlaydi (Гулыга А.Н., 1971: 78). Todorovning fikriga ko‘ra, an’anaviy detektiv adabiyoti ikki xil voqea chizig‘ini o‘zida mujassam etadi: jinoyat sodir etilishi va uni tergov qilish jarayoni, bunda birinchi voqea ikkinchisidan avval yakun topadi (Todorov T., 1977: 42-52). Birinchi voqea chizig‘i, ya’ni jinoyat sodir etilishi, bu asarda sodir bo‘lgan haqiqiy voqealar zanjiri bo‘lib, u ko‘pincha asarning dastlabki bosqichlarida yakun topadi. Masalan, Agata Kristining “O‘nta negr bolasi” yoki Artur Konan Doylning Sherlok Xolms haqidagi hikoyalarida jinoyat, qotillik yoki o‘g‘irlik allaqachon sodir bo‘ladi va u kitobxon oldida asta-sekin ochiqlanadi. Bu voqea odatda orqaga qaytib, rekonstruksiya qilinadi: tergovchi - detektiv dalillarni yig‘ib, o‘tmishdagi voqealarni tiklaydi. Todorovning fikricha, bu voqea sirli va qorong‘u xususiyatga ega, chunki u avvaliga to‘liq ma’lum emas va faqat asar yakunida to‘liq shakllanadi. Ikkinchi voqea chizig‘i esa tergov jarayoni bo‘lib, bu roman matnida asosiy o‘rin egallaydi va kitobxonni voqeaga jalb qiladi. U detektivning izlanishlari, suhbatlari, dalillarni tahlil qilishi va gumondorlar bilan munosabatini o‘z ichiga oladi. Bu voqea real vaqt rejimida rivojlanadi: detektiv sirni ochish uchun harakat qiladi, kitobxon esa bu jarayonni kuzatib boradi. Muhimi, jinoyat voqeasi tergovdan avval tugagan bo‘lsa-da, u tergov orqali ochiladi, ya’ni ikkinchi voqea birinchisini “yashirin” holda o‘zida saqlaydi va uni asta-sekin fosh etadi. Todorov bu ikki chiziqni solishtirganda, detektiv janrining o‘ziga xosligini nafaqat jinoyatni hal qilish, balki adabiyotning o‘zi haqida - voqea qanday qurilishi va kitobxonni qanday qiziqtirishi mumkinligi haqida fikr yuritadi. Masalan, Sherlok Xolms yoki Erkyul Puaro kabi klassik detektivlarda tergov jarayoni ko‘pincha mantiqiy o‘yin sifatida taqdim etiladi, bu esa kitobxonni faol ishtirok etishga undaydi. Biroq, Todorov zamonaviy detektiv adabiyotida bu ikki chiziq birlashib ketishi

mumkinligini ta’kidlaydi, ammo klassik shaklda ular aniq ajratilgan (Todorov T., 1977: 42-52).

Detektiv asarlarning o‘ziga xos xususiyati, syujet muayyan sirli jinoyat sodir etilishi bilan, ya’ni, fosh etilishi talab qilinadigan hodisaning oxirgi nuqtasidan boshlanadi va retrospektiv usulda, ya’ni, vaqt bo‘ylab ortga qaytish mantiqi asosida xarakterlanadi. Izquvar jinoyatni fosh etar ekan, jinoyatchi va jabrlanuvchi shaxsiga oid ma’lumotlarni aniqlashda zamon bo‘ylab ortga qaytadi. Asar qahramonlari obrazlari izquvar tomonidan qayta tiklanadi. Misol tariqasida Edgar Allan Poning “Mur ko‘chasidagi qotillik” (1841) asarini tahlil qilamiz. Bu asar detektiv janri otasi hisoblanadi. Hikoya Parijdagi ikki ayolning shafqatsiz qotilligi bilan boshlanadi. Detektiv Avgust Dyupen dalillarni, masalan, insoniy bo‘lmagan sochlar va boshqalarni retrospektiv tarzda tahlil qilib, voqeani qayta tiklaydi. Sarguzasht elementi yo‘q: butun jarayon Dyupenning mantiqiy fikrlashiga asoslangan, voqea o‘quvchi bilan birgalikda o‘tmishdagi hodisalarni tiklash orqali hal qilinadi. Bu uslub kitobxonga o‘zini detektivdek his qilib, jinoyatni fosh etishda mantiqiy tahlillarga asoslanish zavqini taqdim etadi. Ushbu tahlil detektiv janrida retrospeksiya ya’ni voqeani qayta jonlantirishni birinchi marta keng qo‘llanilganini ko‘rsatadi, chunki Dupen faqat dalillarni orqaga qaytarib ko‘rib chiqadi, jismoniy harakat qilmaydi (Frank L., 2003: 29-44). Vilki Collins qalamiga mansub “Oytoshi” (1868) asarida olmos o‘g‘irlanishi tasvirlanadi. Bunda ham avval jinoyat, keyin esa tergov jarayoni tasvirlanadi. Detektiv Serjant Kaf retrospektiv uslubda dalil va artefaktlarni tahlil qilib, o‘tmishdagi voqealarni tiklaydi. Sarguzasht elementlari mavjud emas: butun hikoya yopiq muhitda, ya’ni uy ichida sodir bo‘ladi. Detektiv va havaskorlar dalillarni orqaga qaytib ko‘rib chiqish orqali sirni ochadi. Retrospeksiya o‘quvchiga barcha dalillarni adolatli taqdim etish orqali jinoyatni mantiqiy ravishda qayta jonlantirishga imkon beradi. Bu uslub asar o‘tmishdagi hodisalarni asta-sekin fosh etib, psixologik chuqurlik qo‘shadi (Taylor J.B., 1987). Agata Kristining eng mashhur asarlaridan biri “Sharqiy Ekspressdagi qotillik” (1934) romani sof detektiv janrining klassik namunasi sifatida qaraladi. Asarda poyezdda sodir bo‘lgan qotillik hodisasi tasvirlanadi. Bu yerda cheklangan gumondorlar va dalillar orqali jinoyat ochiladi. Erkil Puaro tergov jarayonida guruhiy qasosni ochib beradi, bu esa sarguzasht elementlarisiz, faqat mantiqiy tahlil va deduksiyaga asoslangan holda amalga oshiriladi. Qotillikni fosh etar ekan, asar qahramoni voqeani retrospektiv uslubga tayangan holda har bir gumonlanuvchi izohlariga tayangan holda qayta jonlantiradi. Asar intellektual detektiv subjanriga mansub bo‘lib, jinoyatni fosh etishda kitobxonga mantiqiy salohiyatini charxlash orqali zavqlanish hissini beradi (Grossvogel D.I., 1983: 252-266).

Sarguzasht-detektiv janri adabiyotda detektiv janrining bir shakli bo‘lib, unda jinoyat yoki sirni tergov qilish jarayoni xavf-xatar, jismoniy kurashlar, sayohatlar, to‘siqlar va qahramonning shaxsiy rivojlanish elementlari bilan birlashtiriladi. Bu janrda professional yoki havaskor detektiv nafaqat mantiqiy tahlil va dalillarni yig‘ish orqali jinoyatni ochadi, balki, ta’qiblar, janglar yoki notanish joylarda qidiruvlar kabi sarguzashtli voqealar orqali qiyinchiliklarni yengadi. Janrning asosiy xususiyati - qahramonning shaxsiy yoki axloqiy missiyasi, ya’ni, adolatni tiklash atrofida tuzilgan syujet bo‘lib, bu o‘quvchini ham aql-idrok, ham hayajon bilan jalb qiladi. Aniqroq ta’rif sifatida, detektiv janri sarguzashtli jinoyat ishlarni mantiqiy hukmlar yordamida hal qilishni o‘z ichiga oladi, bu esa sarguzasht elementlarini, ya’ni, voqealar va qahramonlar o‘rtasidagi xavf-xatarni detektiv tergov bilan birlashtiradi. Sarguzasht-detektiv asarlarida folklor namunalaridan, masalan, qahramonlik qo‘shiqlari va ertaklardan olingan motivlar, intellektual qidiruv va xavfli voqealar birgalikda ishlatiladi. Bundan tashqari, detektiv romanning xususiyatlari orasida sarguzasht aspektlari triller elementlari orqali namoyon bo‘ladi: zo‘ravon jismoniy harakatlar, jumboqlar va o‘quvchini hayajonga soluvchi intriga, bu janrni boshqa adabiy shakllardan ajratib turadi (Zhunussova A., 2023: 14-22).

Artur Konan Doylning “The Hound of the Baskervilles” (Baskerviller iti) (1902) romani sarguzasht-detektiv adabiyotining klassik namunasi bo‘lib, u ratsionalizm va xurofot o‘rtasidagi qarama-qarshilikni gotika elementlari va sarguzashtli voqealar bilan birlashtiradi. Viktoriya davri jamiyatining qo‘rquv va tashvishlarini aks ettiradi. Roman 1901-1902-yillarda “The Strand Magazine” jurnalida serial sifatida nashr etilgan bo‘lib, Sherlok Holmes seriyasining uchinchi to‘liq metrajli asari sifatida qayd etilgan va detektiv janrida sarguzasht va gotika elementlarini birlashtirishning yorqin misoli hisoblanadi. Roman syujeti Baskerville oilasining qadimiy la’nati, ya’ni XVII asrda Hugo Baskerville ayolni ta’qib qilganligi uchun shaytoniy it tomonidan o‘ldirilganligi haqidagi mif atrofida qurilgan. Zamonaviy voqealar Sir Charles Baskervillening sirli o‘limi bilan boshlanadi – uning yuzida dahshat ifodasi va uzoqda it izlari topiladi. Merosxo‘r Sir Genri Baskerville Londonga kelgach, unga kesilgan gazetadan yasalgan xat va o‘g‘irlangan poyabzal kabi tahdidlar kelib tushadi. Sherlock Holmes ishni qabul qilib, Vatsonni Sir Genri bilan Devonshirga yuboradi, o‘zi esa yashirincha tergov qiladi. Dartmur botqoqligida ular mahalliy aholi bilan uchrashadi, qochqin mahbus Seldenning paydo bo‘lishi va tungi ovozlar sirni yanada murakkablashtiradi. Holmes botqoqlikda yashirinib, Stapletonning, Baskerville oilasining yashirin qarindoshi, fitnasini ochadi: u fosfor bilan bo‘yalgan haqiqiy itdan foydalanib, la’natni sun’iy ravishda yaratgan va Sir Charlesni yurak xurujiga undagan. Kulminatsiya – tumanda itning hujumi va Stapletonning botqoqlikda g‘oyib bo‘lishi bilan yakunlanadi. Bu asar detektiv tahlilni sarguzashtli

voqealar, ya’ni ta’qiblar, botqoqlikdagi xavf bilan aralashtirib, o‘quvchini doimiy hayajonda ushlab turadi. Roman sarguzasht janrining xususiyatlarini Dartmur botqoqligining tasviri orqali namoyon etadi. Bu landshaft qadimiy, yovvoyi va xavfli maskan sifatida ta’riflanib, tuman, botqoqlik va neolit davri xarobalari orqali qahramonlarni doimiy xavf ostida qoldiradi. Xavf elementlari botqoqlikdagi ta’qiblar va jismoniy qiyinchiliklar orqali aks etadi. Ushbu elementlar romanni nafaqat detektiv, balki sarguzashtli asar sifatida ajratib turadi, chunki tergov jarayoni jismoniy va ruhiy sinovlarga aylangan. Detektiv janri Holmesning deduktiv metodi orqali jinoyatning fosh etilishi va aql-idrokning xurofotni, ya’ni afsona va la’natlarni, rad etishi va jinoyatni haqiqiy sabablar bilan izohlanishida namoyon bo‘ladi. Bu qarama-qarshilik adabiyotda ko‘pincha inson ongining ikki tomonini, ya’ni, aql va qo‘rquvni ko‘rsatish uchun ishlatiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu tadqiqotda sarguzasht-detektiv janrining badiiy-uslubiy o‘ziga xosliklari, ya’ni sarguzasht elementlari, ya’ni, xavfli sayohatlar, jasorat motivlari va detektiv uslublari, ya’ni, retrospektiv tahlil, deduksiyaning o‘zaro birlashuvi adabiyot tarixi va Artur Konan Doylning “Baskerviller iti” romani misolida ko‘rib chiqildi. Natijada, janr o‘quvchiga hayajon va intellektual zavqni birlashtirib, jamiyatdagi adolat, ratsionalizm va kurash ruhini tarannum etishi aniqlandi. Taklif etiladigan yo‘nalishlar orasida o‘zbek adabiyotida bu janrning milliy folklor bilan sintezini chuqurroq o‘rganish, zamonaviy raqamli kontekstdagi evolyutsiyasini tahlil qilish va yosh avlodda mantiqiy fikrlashni rivojlantirish uchun adabiy ta’lim dasturlariga kiritish mavjud. Bundan tashqari, g‘arb va sharq adabiyoti namunalarini taqqosiy tahlil qilish orqali janrning global madaniy ahamiyatini oshirish mumkin. Ushbu takliflar adabiyotshunoslikdagi bo‘shliqlarni to‘ldirib, janrning dolzarbligini ta’minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ahmedova P.A. (2022) Adventure motives in uzbek children's literature // International scientific journal. ISSN: 2776-0979, Volume 3, Issue 3, Mar.
2. Baker C. (1969) The American detective story: A study of the genre. Harcourt, Brace & World.
3. Clausson N. (2005) Degeneration, Fin-de-Siècle Gothic, and the Science of Detection: Arthur Conan Doyle's The Hound of the Baskervilles and the Emergence of the Modern Detective Story. Journal of Narrative Theory, 35(1), pp. 60-87.
4. Cawelti J.G. (1976) Adventure mystery and Romance: Formula stories as art and popular culture. University of Chicago press.
5. D. Quronov, Z. Mamajonov, M. Sheraliyeva. (2013) Adabiyotshunoslik lug‘ati. – 8/4107 T.: Akademnashr. – B. 271.

6. David I. Grossvogel. (1983) Agatha Christie: Containment of the Unknown, as cited in Glenn W. Most and William W. Stowe, Poetics of the detective genre. – USA. pp. 252-26

7. Gerasimenko E.H. (2013) Детективный текст как объект филологических исследований. – M.

8. Гулыга А.Н. (1971) История зарубежной литературы XIX века. – Москва.

9. Jenny Bourne Taylor. (1987) “Wilkie Collins and nineteenth-century psychology: Cultural significance and fictional form”. University of Warwick.

10. Краткая литературная энциклопедия. Т. 5 (Мурари-Припев). (1968) Советская энциклопедия. – С. 973-974.

11. Lawrence Frank. (2003) “Victorian Detective Fiction and the Nature of Evidence”. Palgrave Macmillan. pp. 29-44.

12. Murat ÇAĞLIYAN. (2010) “Gothic elements in Sir Arthur Conan Doyle’s Sherlock Holmes stories”. Master’s work.

13. Наркевич А.Ю. (1968) Приключенческая литература // Краткая литературная энциклопедия / Гл. ред. А.А. Сурков. – М.: Сов. энцикл. Т. 5: Мурари - Припев. – С. 973-974.

14. Todorov T. (1977) “Anatomy of murder: Mystery, Detective and Crime Fiction” in “The Typology of Detective Fiction, The Poetics of Prose”. New York: Cornell University Press. pp. 42-52

15. Todorov T. (1977) “The Typology of Detective Fiction, The Poetics of Prose” kitobi, “Anatomy of murder: Mystery, Detective and Crime Fiction” maqolasi. New York: Cornell University Press. pp. 42-52

16. Варлакова Е.А. (2012) Текстотипологические характеристики англоязычного детектива XX века. Filol.f.n… diss.avtoref. – Sant Peterburg. – 15 b.

REFERENCES:

1. Ahmedova P.A. (2022) Adventure motives in uzbek children’s literature // International scientific journal. I: 2776-0979, Volume 3, Issue 3, Mar. (In English)

2. Baker C. (1969) The American detective story: A study of the genre. Harcourt, Brace & World. (In English)

3. Clausson N. (2005) Degeneration, Fin-de-Siècle Gothic, and the Science of Detection: Arthur Conan Doyle’s The Hound of the Baskervilles and the Emergence of the Modern Detective Story. Journal of Narrative Theory, 35(1), pp. 60-87. (In English)

4. Cawelti J.G. (1976) Adventure mystery and Romance: Formula stories as art and popular culture. University of Chicago press. (In English)

5. D. Quronov Z. Mamajonov M. Sheraliyeva. (2013) Adabiyotshunoslik lug‘ati. – T.: Akademnashr. – B. 271. (In Uzbek)

6. David I. Grossvogel. (1983) Agatha Christie: Containment of the Unknown, as cited in Glenn W. Most and William W. Stowe, Poeti of the detective genre. – USA. pp. 252-26 (In English)

7. Gerasimenko Ye.N. (2013) Detektivniy tekst kak obyekt filologicheskix issledovaniy. – M. (In Russian)

8. Guliga A.N. (1971) Istoriya zarubejnoy literaturi XIX veka. – Moskva. (In Russian)

9. Jenny Bourne Taylor. (1987) “Wilkie Collins and nineteenth-century psychology: Cultural significance and fictional form”. University of Warwick. (In English)

10. Kratkaya literaturnaya ensiklopediya. T. 5 (Murari-Pripev). (1968) Sovetskaya ensiklopediya. – S. 973-974. (In Russian)

11. Lawrence Frank. (2003) “Victorian Detective Fiction and the Nature of Evidence”. Palgrave Macmillan. pp. 29-44. (In English)

12. Murat Ç. (2010) “Gothic elements in Sir Arthur Conan Doyle’s Sherlock Holmes stories”. Master’s work. (In English)

13. Narkevich A.Yu. (1968) Priklyuchencheskaya literatura // Kratkaya literaturnaya ensiklopediya / Gl. red. A.A. Surkov. – M.: Sov. ensikl. T. 5: Murari - Pripev. – S. 973-974. (In Russian)

14. Todorov T. (1977) “Anatomy of murder: Mystery, Detective and Crime Fiction” in “The Typology of Detective Fiction, The Poetics of Prose”. New York: Cornell University Press. pp. 42-52 (In English)

15. Todorov T. (1977) “The Typology of Detective Fiction, The Poetics of Prose” kitobi, “Anatomy of murder: Mystery, Detective and Crime Fiction” maqolasi. New York: Cornell University Press. pp. 42-52 (In English)

16.Varlakova Ye.A. (2012) Tekstotipologicheskiye xarakteristiki angloyazichnogo detektiva XX veka. Filol.f.n… diss.avtoref. – Sant Peterburg. – 15 b. (In Russian)

17. Zhunussova A., Kenesbayeva Sh., Tulekova G., Nurpeissov N., Turysbek R. (2023) “Tracing the History of the Detective Genre in Literature: A Qualitative Study Based on Interviews with Literary Critics”. International Journal of Society, Culture & Language, 11(3), 14-22. (In English)

XITOY TILIDA METAFORA: IFODALANISHI VA UNING QO‘LLANILISHI

МЕТАФОРА В КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ: ЕЁ ВЫРАЖЕНИЕ И ПРИМЕНЕНИЕ

METAPHOR IN CHINESE: ITS EXPRESSION AND APPLICATION

https://zenodo.org/records/20666392

Abdullayeva Malika Baxtiyorovna
Oriental universiteti
Tillar -2 kafedrasi o‘qituvchisi.
Tel: +998 93-397-20-61
E-mail: malika.maxamatova.99@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqola metafora va ularning turlari, ishlatilish o‘rinlari va ifodalanishiga oid sanaladi. Xitoy tilida metaforaning grammatik, sintaktik va struktur jihatdan tavsiflash ancha dolzarb ekanligi bilan izohlanadi. Tilning leksik qatlamiga mansub metafora va uning ifoda vositalarini xitoy tili misolida ko‘rib chiqish, xitoy grammatikasidagi metafora hodisasini chuqur o‘rganishga, unga xos shakliy tuzilish va mohiyatni tavsiflashga, qolaversa, ularni matnlarda o‘qib tushunish va tahlil qilish jarayonida ham katta ahamiyat kasb etadi. Metafora ritorik vosita bo‘lib, unda so‘z yoki ibora boshqa predmet yoki tushuncha o‘rniga umumiy obyekt yoki tushunchani ko‘rsatish uchun ishlatiladi va shu orqali ular o‘rtasidagi o‘xshashlikni bildiradi. U so‘zlar va jumlalarni biriktirishda muhim xususiyatlarga ega bo‘lib, so‘zlar va jumlalar o‘rtasidagi odatiy aloqani o‘zgartirishga moyildir.

Kalit so‘zlar: *Xitoy, xitoy tili, so‘z ma’nosi, metafora, metafora turlari, ritorika, ontologiya, konseptual tuzilmalar, metaforik ma’noni, ritorika, ontologiya, asl ma’no.*

Abstract. This article is dedicated to metaphor, its types, applications, and expressions. The grammatical, syntactic, and structural description of metaphor in the Chinese language is explained by its particular relevance. Examining metaphors, which belong to the lexical layer of language, and their means of expression through the example of the Chinese language is of great importance. This contributes to a deeper study of the phenomenon of metaphor in Chinese grammar, helps to describe its characteristic formal structure and essence, and is also highly significant in the process of reading, understanding, and analyzing them in texts. A metaphor is a rhetorical device in which a word or phrase is used in place of another object or concept to indicate a common characteristic, thereby expressing a similarity between them. It possesses important features in connecting words and sentences and tends to alter the conventional relationship between them.

Keywords: *China, Chinese language, word meaning, metaphor, types of metaphor, rhetoric, ontology, conceptual structures, metaphorical meaning, rhetoric, ontology, original meaning.*

Аннотация. Настоящая статья посвящена метафоре, её видам, сферам употребления и способам выражения. Актуальность темы обусловлена тем, что грамматическое, синтаксическое и структурное описание метафоры в китайском языке представляет значительный научный интерес. Рассмотрение метафоры, относящейся к лексическому пласту языка, и её средств выражения на примере китайского языка имеет большое значение для углублённого изучения феномена метафоры в китайской грамматике, для описания присущей ей формальной структуры и сущности, а также для её понимания и анализа в текстах. Метафора – это риторический приём, в котором слово или выражение употребляется вместо другого предмета или понятия для обозначения общего для них объекта или понятия, тем самым указывая на их сходство. Она обладает важными свойствами при соединении слов и предложений и способна изменять привычную связь между ними.

Ключевые слова: *Китай, китайский язык, значение слова, метафора, виды метафор, риторика, онтология, концептуальные структуры, метафорическое значение, риторика, онтология, первоначальное значение*.

KIRISH

Metafora – bu bir gap boshqa narsani eslatib, bir narsaga ishora qiladigan nutq figurasi. Metaforalarda bir-biriga bog‘liq bo‘lmagan, ammo umumiy xususiyatlarga ega bo‘lgan ikkita narsani taqqoslash mavjud. Ushbu adabiy shaxsda obyekt, faoliyat yoki g‘oya boshqa narsaning ramzi sifatida ishlatiladi. Misol uchun: “hayot bu marafon”, “sizning ovozingiz mening qulog‘imga musiqaga o‘xshaydi”, “kulgi eng yaxshi dori” yoki “uning so‘zlari donolik durdonalari”. O‘xshatish turlari ichida metafora ko‘proq moslashuvchan va majoziy ma’no kasb etadi. Metafora she’riyatda ko‘proq uchraydi. Ayniqsa, zamonaviy she’riyatda ham unga tez-tez murojaat qilinadi. U so‘zlar va jumlalarni biriktirishda muhim xususiyatlarga ega bo‘lib, so‘zlar va jumlalar o‘rtasidagi odatiy aloqani o‘zgartirishga moyildir. Bir-biriga bog‘liq bo‘lmagan narsalarni bog‘lab, bir-biriga aloqador bo‘lmagan so‘z va iboralarni birlashtiradi. Tadqiqotchilar, uni yuqorida aytganimizdek, odatda metafora deb atashadi. Metafora, shuningdek, boshqa narsalarga ishora ostida bunday narsalarni idrok etish, boshdan kechirish, tasavvur qilish, tushunish, gapirishning oqilona xatti-harakati, til xatti-harakati, madaniy xatti-harakatlarini anglatadi. Metafora ritorik vosita bo‘lib, unda so‘z yoki ibora boshqa predmet yoki tushuncha o‘rniga umumiy obyekt yoki tushunchani ko‘rsatish uchun ishlatiladi va shu orqali ular o‘rtasidagi o‘xshashlikni bildiradi. Uning metafora ekanligi tog‘ridan-to‘gri

aytilmaydi, lekin u o‘xshatishdir (Sheffter 1963:36). Metafora, o‘xshatish deb ham ataladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

陈文萃 o‘z asarida 从英汉表情感的成语看英汉情感隐喻的共性 ta’kidlashicha, metaforalardan mohirona foydalanish ifoda texnikasining jonliligi, soddaligi va ta’kidlanishida muhim o‘rin tutadi, o‘xshatishga qaraganda ancha moslashuvchan va jonliroqdir. G‘arbda metafora tadqiqotlari ritorik tadqiqotlar, semantik tadqiqotlarni o‘z ichiga oladi. Bugungi kunda metafora tadqiqoti ritorika toifasidan tashqariga chiqib, fanlararo tadqiqotga aylandi. 1970-yillardan boshlab metaforalar Yevropa va Amerika akademik doiralarida paydo bo‘ldi. Metaforaning tabiati, vazifasi va mexanizmi tilshunoslik, semiotika, psixologiya kabi ko‘plab fanlarda o‘rganilgan. Ko‘p qirrali tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, metafora rolini e’tiborsiz qoldirib bo‘lmaydi. Insonning tashkiliy tajribasi vositasi sifatida metaforalarni baholash bu narsalarni bilishga yangicha qarashdir. Metafora odatda ontologiya va metaforadan iborat bo‘lib, ikkalasi bir-biri bilan o‘zaro ta’sir qiladi. Fikrlash tizimida assotsiativ funksiyani faollashtirish, metaforaning ma’lum bir xususiyati hisoblanadi.

Xitoy tilshunosligida metafora tadqiqotlari ham an’anaviy ritorika doirasidan chiqib, kognitiv va qiyosiy yo‘nalishlarga o‘tgan. Chen Wen Cui (陈文萃) o‘zining “从英汉表情感的成语看英汉情感隐喻的共性” (2004) asarida ingliz va xitoy tillaridagi emotsional idiomalar (masalan, qo‘rquv, g‘azab, baxt) ni taqqoslab, metaforalarning umumiy xususiyatlarini ochib bergan. Tadqiqotchi metaforalardan mohirona foydalanish ifoda jonliligini oshirishi, o‘xshatishga nisbatan moslashuvchanroq va ta’sirchanroq ekanligini ta’kidlaydi. Xuddi shunday, Yan Ke (2010) metaforik ma’noni kontekst va semantik “og‘ish” orqali tushunish zarurligini, metafora leksik ma’noga emas, balki kontekstga bog‘liqligini ko‘rsatgan.

Xitoy tilidagi metafora hodisasi grammatik, sintaktik va leksik qatlamlarda o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Lakoff nazariyasiga asoslanib, ko‘plab xitoy olimlari (masalan, Xiuzhi Li, 2010; Ning Yu, 2016) metaforani xitoy idiomalarida, she’riyatida va kundalik nutqda tahlil qilganlar. Masalan, “时间就是金钱” (vaqt – pul), “知识就是力量” (bilim – kuch) kabi iboralar ontologik metaforaning yorqin namunasidir. Orientatsion metaforalar esa “天天向上” (har kuni yuqoriga), “上善若水” (eng oliy yaxshilik suv kabidir) kabi iboralarda ko‘zga tashlanadi, chunki ular inson tanasining fazoviy holati (yuqori – yaxshi, past – yomon) bilan bog‘liq. Struktural metaforalar esa “婚姻是长跑” (nikoh – uzoq masofali yugurish) yoki “ARGUMENT

IS WAR” (bahs – urush) kabi murakkab tushunchalarni boshqa domen orqali tushuntiradi.

Metafora uchun asosiy narsa shundaki, uning paydo bo‘lishi va qabul qilinishi nafaqat leksik ma’noga bog‘liq, shuningdek, ma’noning o‘zi va kontekst bilan cheklangan, shuning uchun uni alohida-alohida hukm qilish qiyin (Yan Ke 2010:75).

Umuman olganda, bugungi kunda kundalik til muloqotimizda mavhum tushunchalar ko‘payib bormoqda. Metaverse, sun’iy intellekt, virtual haqiqat, qimmatli investitsiya, struktura va boshqalar. Dastlabki tekshiruv shuni ko‘rsatdiki, Insonning mavhum o‘lchov qobiliyatlari taxminan yuz yil ichida ulkan yutuqlarga erishildi. Buning asosiy sababi shundaki, biz bugungi kunda ko‘proq mavhum tushunchalarni ishlatamiz. Mavhum tushunchalar va ularning qanday paydo bo‘lganligini esa biz metaforalar orqali tushunamiz. Chunonchi, metaforalar bizga ritorik vosita sifatida ko‘rinadi ko‘pincha adabiy va badiiy asarlarda paydo bo‘ladi. misol uchun, xitoy tilidagi "诗经" (Qo‘shiqlar kitobi) ning birinchi bobida Xizchjoudagi nozik bir ayol Guan Jujiu, samimiy, oliyjanob inson ekanligi aytiladi. Guan Ju - yoqimli suv qushi. Biz Guan Juning o‘zaro tvitlaridan erkaklar va ayollar o‘rtasidagi sevgini metafora qilish uchun foydalanamiz.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotning umumiy yondashuvi nazariy-tahliliy va sifatli xarakterga ega bo‘lib, xitoy tilidagi metafora hodisasini grammatik, sintaktik, struktural va semantik jihatdan chuqur o‘rganishga qaratilgan. Tadqiqot Lakoff va Johnsonning kontseptual metafora nazariyasiga asoslanadi hamda xitoy tili materiallari orqali metaforaning leksik qatlamdagi ifoda vositalari, ularning shakliy tuzilishi va matn ichidagi funksiyasini tahlil qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ma’lumki, qadimgi xitoy she’r va qo‘shiqlarida metaforalarga tez-tez duch kelamiz. Metaforalar ko‘pincha adabiy yoki badiiy ritorik vosita, yordamchi ifoda vositasi sifatida namoyon bo‘ladi, ammo tilshunos Lakoff bizga metafora biz o‘ylagandan ham muhimroq ekanligini aytadi. Darhaqiqat, metaforasiz tushuncha, metaforasiz til bo‘lmaydi va biz metaforasiz normal muloqot qila olmaymiz. Metaforalar bizning tushunishimizning butun jarayonida ishtirok etadi. Metaforalar nafaqat, fikr va tilda, balki bizning fikrimiz va tilimiz asoslanadigan konseptual tizimlarda ham hamma joyda mavjud. U metafora asosida qurilgan. Deyarli barcha ta’lim shiorlarida oddiy va tushunarli jumlalar qo‘llaniladi. Ta’lim shiorlari ma’lum bir vaqt davomidagi jarayon va hodisalarga nisbatan yaralgan qisqa va ixcham birikmalardir. Ta’lim shiorlaridagi matn va jumlalar oddiyligi bilan o‘quvchi ongida tez esda qolib, o‘zida ta’limga bo‘lgan targ‘ibotni oddiy taqdim etish bilan ifodalaydi.

Masalan: “Ertangi kun quyoshini ushlab bilmoq kerak” 为了托起明天的太阳 (wèile tuō qǐmíngtiān de tàiyáng) ta’lim shiorining ma’nosi o‘ta chuqur va u bilan bog‘liq masalalar ham turlicha. Shiorda ko‘plab xabarlar va turli ma’nolar mavjud. Bolalar ertangi kun quyoshidir, kelajakni qanday yaratish ularga bog‘liq, ammo bugungi kunda kambag‘allik tufayli maktabga bora olmaydigan, o‘qiy olmaydigan bolalar ko‘pdir. Farzandlar uchun, ertangi kun uchun, insoniyat taraqqiyoti va yurt ravnaqi uchun yordam qo‘lingizni cho‘zing ma’nosini anglatadi. Strategiya tushunchasi ham lisoniy, ham g‘ayrilisoniy omillarni o‘zida jamlab, bu omillarning har biri tarjimaning ma’lum bir parchasida u yoki bu (yoki bir vaqtda bir necha) uslublar tanlovini shart qilishi mumkin. Statik omillar bilan bog‘liq strategiyalar:

1) belgili tarjima strategiyasi,

2) kompressiya strategiyasi,

3) dekompressiya strategiyasi (Sheffter 1963:36).

Kompressiya, ya’ni siqish strategiyasi – bu sinxron tarjimada vaqtni tejash va mehnatni tejaydigan chora bo‘lib, u zich ma'lumot va og‘ir kognitiv yukni bir vaqtning o‘zida tarjima qilishning ekstremal holatida yengishga qodir. Misol tariqasida sanoatni rivojlantirish forumining sinxron talqinini olgan holda, maqolada G.V. Chernovning siqish strategiyasining xitoy-ingliz tillarida sinxron tarjimasida qo‘llanilishi tahlil qilinadi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, siqish strategiyasi tarjimonning kognitiv yukini kamaytiradi, maqsadli tilni yanada ixcham va tushunarli qiladi va nihoyat samarali muloqot maqsadiga erishadi (Chjao Runxin 2021:1). Aytish kerakki, ma'lumotni siqish har qanday sinxron tarjima jarayonida tabiiy ravishda mavjud. Buning asosi, birinchi navbatda, tillarning tizimiga xos xususiyatlar va sinxron tarjimaning tarjima sohasi sifatidagi xususiyatlari. Bu shuni anglatadiki, siqilish bayonotni yetkazishning lingvistik va psixolingvistik tamoyillaridan kelib chiqadigan hodisadir. Kommunikativ ahamiyatga ega bo‘lgan ma’lumotlar saqlanib qolgan holda, dekompressiya va kompressiya jarayonlarida semantik ahamiyatga ega bo‘lmagan ma'lumotlarning tushib qolishi tabiiy ekanligini ta'kidlaydi. Bir tilli muhitda ma'lumotni uzatishdan ko‘ra 60% gacha qisqartirish tabiiydir.

N.I.Jinkinning ta’kidlashicha, barcha ishtirokchilar o‘rtasidagi o‘zaro tushunish darajasiga qarab, matnlarda doimo semantik bo‘shliqlar mavjudligini taklif qiladi.matnlarda har doim ishtirok etgan barcha tomonlar o‘rtasidagi o‘zaro tushunish darajasiga qarab semantik bo‘shliqlar mavjud. Misol uchun, muallif bir formulani boshqasiga o‘zgartirganda, u odatda o‘zgartirishning ba'zi bosqichlarini o‘tkazib yuboradi va buni o‘quvchining o‘zi bajarishiga ishonadi. Psixologiyada bunday matnni siqish darhol operatsiyalarni qisqartirish deb ataladi (Jinkin 2009:99). Kompressiyaning asosi shundan iboratki, tinglovchi va ma'ruzachi umumiy ma'lumotga ega yoki vaziyatga oid kontekstga ega, shuning uchun ba'zi qismlar

qisqartirilgan yoki o‘tkazib yuborilgan bo‘lsa-da, bu umumiy tushunchaga ta'sir qilmaydi. Quyidagi misollarda buni ko‘rib chiqishimiz mumkin:

Ma’ruzachi:

很高兴出席上海合作组织峰会。感谢米尔济约耶夫总统的热情接待和周到安排

Tarjimon: SHHT sammitida ishtirok etayotganimdan juda ham mamnunman. Prezident Mirziyoyevga samimiy qabul va o‘ylangan tadbirlar uchun tashakkur izhor etaman.

Demak, inson ma’lum darajada majoziy jonzotdir. Lakoffning “Biz yashayotgan metafora” nomli kitobi bor bo‘lib, kitobda u metaforalarning uch turini taklif qiladi. Bular ontologik metafora, oriyentatsiya metaforasi va struktura metafora. Quyida biz ularni alohida tanishtiramiz. Birinchisi, ontologik metafora. Bu eng asosiy metaforalardan biridir. Bu narsalar, faoliyat, his-tuyg‘ular, g‘oyalar va boshqalarni mavjudlik yoki substansiya sifatida ko‘rishning metaforik shaklidir. Biz ko‘pincha "时间就是金钱"，"知识就是力量" (vaqt – pul), (bilim – kuch) deb aytamiz. Vaqtni pul sifatida metaforalash orqali bilim esa metaforaviy kuchdir. Biz vaqt va bilimning juda mavhum tushunchalar ekanligini tan olamiz. Mavhum vaqt haqiqiy pul uchun metafora. Bular bir xil: ontologik metafora. Ushbu metafora bo‘lmasa, biz uchun muloqotni tasvirlash yoki hatto vaqt qanchalik qimmatli ekanligini tushunish qiyin bo‘lar edi. Masalan, "人力隐喻为资源", "洪水隐喻成猛兽, "知识隐喻成大厦" "婚姻隐喻成长跑" (inson kuchi resurslar uchun metafora), (suv toshqini maxluq hayvonga metafora), (bilish baland imoratga metafora), (turmush qurish uzoq masofaga yugirishga merafora), barchasi odatiy ontologik metaforalardir. Ontologik metaforaning asosi haqiqiy sezgi tajribasidir. U mavhum narsalarni real ko‘rinadigan narsalar bilan bog‘laydi va ifodalaydi. Ontologiya metaforasida **“konteyner metafora**” deb ataladigan nisbatan muhim metafora mavjud. Bu metafora tanani to‘g‘ridan-to‘g‘ri idrok etishimizdan kelib chiqadi. Inson moddiy mavjudotdir. U tashqi dunyodan ajratilishi uchun teri bilan qoplangan. Boshqacha qilib aytganda, inson tanasi idishga o‘xshaydi. Ichki va tashqi farqlar mavjud va konteynerlar uchun metaforalar yordamida ko‘plab tushunchalar o‘rnatildi. Masalan, biz aytamizki: “你走进了我的内心世界” (Siz mening ichki dunyoimdasiz); “我们进入了婚羽殿堂” (Nikoh saroyiga kirdik), “恋人处于热恋之中” (Oshiq yigit ishqqa mubtalo bo‘ldi), “贫贫退出了历史”, (har bir bechora o‘tmishidan chekindi) “病人摆脱了危险” (Bemor xavfdan qutuldi), “某某人进入了我的视野” (Kimdir ko‘z o‘ngimda namoyon bo‘ldi). “你进入了心流的状态” siz oqimga kirdingiz va hokazo. Shubhasiz, yurak, nikoh, xavf, sevgi, baxt, tarix va ko‘rish mavhum tushunchalardir. Va biz ularni metafora orqali

konteyner sifatida ishlatamiz. Ammo “把病人从危险里面拿出来” shuningdek, “让一个人放置到我们的视野里面” ushbu jumlalarda bu iboralarning barchasi konteyner metaforasi noto‘g‘ri ishlatilgan.

Keling, biz ushbu mavhum tushunchalarni osonroq tushunamiz. Borliq metaforalari ta’sirida biz mavhum tushunchalarni obyektlar yoki substansiyalar sifatida ko‘rib chiqsak va keyin biz ularga murojaat qilishimiz mumkin. Ularni tasniflash, guruhlash, miqdoriy aniqlash yoki shu asosda qo‘shimcha tahlil qilish va mulohaza yuritishimiz. Masalan, inson resurslar metafora bo‘lsa, biz resurslarni miqdoriy jihatdan aniqlashimiz, qismlarga ajratishimiz va ularni tekshirish orqali baholashimiz mumkin bo‘ladi. Ikkinchisi, orientatsiya metaforasi. Bu narsalar, faoliyat, his-tuyg‘ular va fikrlar yo‘naltirilgan deb hisoblaydigan metafora shaklidir.

Biz ko‘pincha "天天向上"(har kuni yuqoriga chiqing), "上善若水" (eng oliy yaxshilik suv kabidir), "位高权重" (yuqori mavqe va nufuzga ega bo‘lish) va boshqa iboralarni ishlatamiz. Bu iboralarda orientatsiya metaforalari ishlatilgan. “上” yo‘nalish tushunchasi “善” esa axloq tushunchadir. Nima uchun ularni birlashtirib, qiymat mulohazasini shakllantirish mumkin. Chunki orientatsiya metaforasi ko‘pincha tanamizning holati bilan qo‘shilib ketadi. Qiymat mulohazasi shakllanadi. Chunki ruhiy holat yaxshi yoki baxtli yoki solih bo‘lganda tana to‘g‘riroq va cho‘zilgan bo‘ladi. Aksincha, qayg‘u, og‘riq yoki qo‘rqoqlik vaqti kelganda tana bukchayadi. Demak, baxt, salomatlik, mehribonlik, bu holatlar baland, yuqori, to‘g‘ri so‘zlari bilan bog‘liq. Xo‘sh, biz vaqtni qanday tushunamiz? Vaqtni ko‘rish ham, teginish ham mumkin emas. Aslida, biz vaqtni tushunish uchun “orientatsiya metaforasi”dan ham foydalanamiz. Biz ko‘pincha “ikki soat vaqt o‘tdi”, “kelajak oldinda”, “ertalab va tushdan keyin”, “keyingi hafta ko‘rishguncha” va shu kabilarni ishlatamiz. Orientatsiya metaforalari yordamida vaqt go‘yo yo‘l yoki chiziqqa o‘xshaydi. Vaqtning old va orqasi, o‘tmishi va kelajagi bor. Orientatsiya metaforasidan tashqari vaqt aslida, ontologiya metaforaga ham tayanadi. Biz vaqtni: “运动的物体” (harakatlanuvchi obyekt) sifatida metafora qilamiz. Misol uchun: 某某时间即将到来，就好像一个物体正在向我运动过来 (Falon vaqt keladi, go‘yo men tomon harakatlanayotgan narsa). Masalan, “时间已经过去很久” (uzoq vaqt o‘tdi) “时间已经过去” yoki “时光飞逝” (vaqt uchib ketdi) va hokazo (河南科技大学学报, 2003: 65) Go‘yo obyekt bizdan o‘tib ketdi. Aslida, barcha orientatsiya metaforasi va ontologik metaforalar. Biz real dunyoda idrok etamiz, tajribaga ega bo‘lamiz, tanamiz va boshqa obyektlar esa turli xil pozitsiyalarga ega. Bu tuyg‘uga ega bo‘lishimiz tabiiydir. Yuqoriga, pastga, chapga, o‘ngga, old va orqa kabi orientatsiya metaforalari

ko‘pincha bizning tanamiz taqdim etgan holati bilan bog‘liq va uning hukmi bilan birlashtiriladi, lekin struktur metafora deb ataladigan metafora ham mavjud. U bevosita konseptual tuzilmalarning bir to‘plamidan boshqa kontseptual tuzilmalar to‘plamiga mos keladi. Misol uchun: “Urush”. Unga o‘xshash tushunchalar juda ko‘p va ular argumentlarda ishlatiladi. Masalan, bahsda biz ko‘pincha “siz juda haqoratomuz gapirdingiz”, “men o‘z pozitsiyamni himoya qilaman”, “men bu bahsda g‘alaba qozondim”, “siz mening nuqtayi nazarimga qarshi chiqyapsiz” va boshqalar. Bunday metaforalar orqali biz o‘tmishda mavjud bo‘lmagan ko‘plab yangi tushunchalarni yaratishimiz mumkin.

Tuyg‘ular mavhum yoki ta'riflab bo‘lmaydigan bo‘lsa-da, metafora odamlarning bilim jarayonida juda muhim xususiyatdir. Odamlarning o‘z tajribasi va atrofdagi aniq narsalarni tushunishlariga asoslanib, xitoyliklar hissiyotlarni tasvirlash uchun metaforalardan foydalanadilar. Ushbu tavsif tasodifiy emas, balki odamlarning atrofdagi narsalarni tushunishiga, o‘zlarining his-tuyg‘ulariga va fiziologik o‘zgarishlarga asoslangan.

Tadqiqotimiz natijasi shuki: emotsional so‘zlar til boyligini oshiradi. Aynan metafora tufayli odamlar bir xil tushunchani har xil tomondan tushunishlari mumkin, shunda bu tushuncha va bu tuyg‘u haqida yanada kengroq tushunchaga ega bo‘lishlari mumkin, bu ham tilning ifoda boyligi uchun asos yaratadi. Agar siz “qo‘rquv” ni tasvirlasangiz, sizda bo‘lishi mumkin: 他心中充满了恐惧。（把恐惧隐喻为一种能装在容器中的实在的东西) (yuragi qo‘rquvga to‘la. (Qo‘rquvni idishda bo‘lishi mumkin bo‘lgan haqiqiy obyekt sifatida metafora qilish) 天色暗下来，恐惧一阵阵向他袭来。(把恐惧隐喻为一种与天气有关的现象：风。(osmon qorong‘i edi, qo‘rquv uni to‘lqindek urdi. (Qo‘rquvni ob-havo bilan bog‘liq hodisa sifatida majoziy ma’noda metafora qilish: shamol) 他鼓起勇气，终于战胜了恐惧。(把恐惧隐喻为敌人) (u jasorat to‘pladi va nihoyat qo‘rquvini yengdi) (外语与外语教学, 1998 :8). (Qo‘rquvni dushman sifatida metafora orqali ifodalash kabi). Hissiy metaforalarni tahlil qilish orqali biz tildagi metaforik hodisalarning lug‘at ma’nosidagi o‘zgarishlarga ta’sirini ham aniqlashimiz mumkin. Masalan, Xitoy tilida “感情很深” – “tuyg‘ular juda chuqur” – degan naql bor. Tuyg‘uning ilk ma’nosidan boshlab u tuyg‘ularni daryo yoki suvning bir turi sifatida ifodalovchi metafora bo‘lib, daryo va suvning xususiyatlari xaritada tasvirlangan. His-tuyg‘ularga, shuning uchun “chuqur” tuyg‘ular uchun metafora sifatida ishlatilishi mumkin ya’ni, tushunchalararo metaforalarni hosil qilish nafaqat bu ikki tushunchani, balki shu ikki tushunchaning xaritasini ham o‘z ichiga oladi. Bu shuni anglatadiki, konseptual

metaforalarni yaratish nafaqat ushbu ikki tushunchani o‘z ichiga oladi, balki ushbu ikki tushunchani xaritalash jarayonida ularga tegishli so‘zlarning ma'nosidagi o‘zgarishlarga ham ta'sir qiladi

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, tildagi ko‘plab tushunchalar metafora orqali tuziladi. Aytib o‘tganimizdek, uchta tipik metafora mavjud: ontologiya metafora, orientatsiya metafora va struktur metafora. Ammo shuni alohida ta’kidlash kerakki, metafora orqali tuzilgan tushuncha narsaning to‘liq tavsifini emas, balki uning xususiyatlarining bir qismini ajratib ko‘rsatadi va mustahkamlaydi. Masalan, Vaqtning pul sifatidagi metaforasi vaqt qiymatini ta’kidlaydi va boshqalar. Yoki mavhum tushunchalarning barchasi bir tomonlama deyish mumkin ular aniq narsalar bilan kamroq bog‘liq bo‘ladi. Chunonchi, tushunchaning kengayishi qanchalik katta bo‘lsa, uning ma’nosi shunchalik kam bo‘ladi. Keyingi tadqiqot mavzulari sifatida daosizm tafakkuridagi “Tao” qonunlarini olishni tavsiya qilamiz. Ular qonunlar va ularning mohiyatiga ishora qilishi mumkin. Lekin uning asl shakli qanday bo‘lishi, uning asl mohiyatini tushunish biz uchun qiyinchilik tug‘dirishi mumkin. Umuman olganda, biz bir qancha misollar orqali konseptsiyani shakllantirish jarayoni va ba’zi xususiyatlar bilan tanishib chiqdik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. 周红.英汉情感隐喻共性分析.四川外语学院学报,2001,

2. 张敏,认知语言学与汉语名词短语 [M]. 北京:中国社会科学出社,1998.

3. Lakoff G., Johnson Metaphors We Live By [M].Chicago:University of Chicago press,1980.

4. 陈文萃、从英汉表情感的成语看英汉情感隐喻的共性会科学, 2004

5. 牛丽红, 林艳.从概念理论看俄汉情感隐喻 .外语研究, 2005,

6. 周秀娟. 英汉"爱情"隐喻的比较思考. 延边大学学报, 2001

7. 束金星, 徐玉娟.从隐喻式认知看情感隐喻.河南科技大学学报, 2003

8. 赵艳芳. 认知语言学概论.上海:上海外语教育出版社, 2001

9. 束金星, 徐玉娟.从隐喻式认知看情感隐喻

10. 河南科技大学学报, 2003,

11. 赵艳芳. 认知语言学概论.上海:上海外语教育出版社, 2001.

12. 束定芳. 隐喻学研究 [M] .上海:上海外语教育出版社, 2000 .

13. 李国南. 辞格与词汇 [M] .上海:上海外语教育出版社, 2001 .

14. 胡曙中. 英语修辞学 [M] .上海:上海外语教育出版社, 2002 .

15. 赵艳芳. 认知的发展与隐喻 [J] .外语与外语教学, 1998, (10) :8 -11.

16. 林书武. “ 愤怒” 的概念隐喻———英语、汉语语料[J]

REFERENCES:

1. Chjou Xong. Ying Xan qinggan yinyu gongxing fenxi. Sichuan Waiyu Xueyuan Xuebao, 2001, (2). (In China)

2. Chjan Min. Renzhi yuyanxue yu Hanyu mingci duanyu [M]. Pekin: Zhongguo Shehui Kexue Chubanshe, 1998 yil. (In China)

3. Lakoff G., Johnson M. Biz yashayotgan metaforalar [M]. Chikago: Chikago universiteti nashriyoti, 1980. (In China)

4. Chen Vencui. Cong Ying Han biao qinggan de chengyu kan Ying Han qinggan yinyu de gongxing. Shehui Kexue, 2004 yil. (In China)

5. Niu Lixon, Lin Yan. Cong gainian lilun kan E Han qinggan yinyu. Waiyu Yanjiu, 2005 yil. (In China)

6. Chjou Syujuan. Ying Xan “aiqing” yinyu de bijiao sikao. Yanbian Daxue Xuebao, 2001 yil. (In China)

7. Shu Jinxing, Syu Yujuan. Cong yinyushi renzhi kan qinggan yinyu. Henan Keji Daxue Xuebao, 2003 yil. (In China)

8. Chjao Yanfang. Renji Yuyanxue Gailun. Shanxay: Shanxay Vayyu Jiaoyu Chubanshe, 2001 yil. (In China)

9. Shu Jinxing, Syu Yujuan. Cong yinyushi renzhi kan qinggan yinyu. (In China)

10. Henan Keji Daxue Xuebao, 2003 yil. (In China)

11. Chjao Yanfang. Renji Yuyanxue Gailun. Shanxay: Shanxay Vayyu Jiaoyu Chubanshe, 2001 yil. (In China)

12. Shu Dingfang. Yinyuxue Yanjiu [M]. Shanxay: Shanxay Vayyu Jiaoyu Chubanshe, 2000 yil. (In China)

13. Li Guonan. Cige yu Cihui [M]. Shanxay: Shanxay Vayyu Jiaoyu Chubanshe, 2001 yil. (In China)

14. Xu Shuzhong. Yingyu Xiucixue [M]. Shanxay: Shanxay Vayyu Jiaoyu Chubanshe, 2002 yil. (In China)

15. Chjao Yanfang. Renzhi de fazhan yu yinyu [J]. Waiyu yu Waiyu Jiaoxue , 1998, (10): 8-11. (In China)

16. Lin Shuvu. “Fennu” de gainian yinyu – Yingyu, Xanyu yuliao [J]. (In China)

AYOLLAR MAVZUSIDAGI ARAB VA O‘ZBEK MAQOLLARINING STRUKTUR VA SEMANTIK QIYOSI
СТРУКТУРНО СЕМАНТИЧЕСКОЕ СОПОСТАВЛЕНИЕ АРАБСКИХ И УЗБЕКСКИХ ПОСЛОВИЦ О ЖЕНЩИНАХ
A STRUCTURAL AND SEMANTIC COMPARISON OF ARABIC AND UZBEK PROVERBS ABOUT WOMEN

https://zenodo.org/records/20666417

Abdullayeva Shahnoza Bahodir qizi
Tillar-1 kafedrasi o‘qituvchisi
Tel: +998 99-228-04-42
E-mail: shahinazaabdullayeva@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada ayollar mavzusiga oid arab va o‘zbek xalq maqollari struktur-semantik hamda lingvokulturologik jihatdan qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida maqollarning grammatik qurilishi, leksik tarkibi, obrazli ifoda vositalari, semantik qatlamlari va funksional xususiyatlari chuqur o‘rganiladi. Shuningdek, maqollarda ayol obrazi qanday ijtimoiy, axloqiy va madaniy qadriyatlar bilan bog‘liq holda ifodalanishi, ularning xalq tafakkuri va milliy mentalitetdagi o‘rni aniqlanadi. Arab va o‘zbek paremiologiyasida ayollarga nisbatan shakllangan qarashlar, stereotiplar va qadriyatlar o‘rtasidagi o‘xshash hamda farqli jihatlar lingvistik va madaniy mezonlar asosida tahlil etiladi. Maqola natijalari paremiologik birliklarning milliy madaniyatni aks ettirishdagi o‘rni, ayol obrazining til va tafakkurdagi talqini hamda xalq og‘zaki ijodida genderga oid qarashlarning ifodalanish xususiyatlarini aniqlashga xizmat qiladi.

Tayanch so‘zlar: *paremiologiya, arab maqollari, o‘zbek maqollari, ayol obrazi, struktur tahlil, semantik tahlil, lingvokulturologiya, qiyosiy tadqiqot, milliy mentalitet.*

Abstract. This scholarly article presents a comparative structural, semantic, and linguocultural analysis of Arabic and Uzbek proverbs related to women. The study examines the grammatical structure, lexical composition, figurative devices, semantic layers, and functional characteristics of these proverbs. Particular attention is given to the representation of the female image and the socio-cultural values reflected in paremiological units. The research identifies similarities and differences in the perception of women within Arabic and Uzbek folk wisdom, revealing the role of proverbs in shaping and transmitting national mentality, ethical norms, and cultural stereotypes. The article also explores how gender-related concepts are encoded in language and reflected in traditional worldview through proverbs. The findings contribute to paremiological studies, comparative linguistics, and linguoculturology

by highlighting the role of the female image in national consciousness and oral folklore traditions.

Keywords: *paremiology, Arabic proverbs, Uzbek proverbs, female image, structural analysis, semantic analysis, linguoculturology, comparative study, national mentality.*

Аннотация. В данной научной статье проводится сравнительный структурно-семантический и лингвокультурологический анализ арабских и узбекских пословиц, посвящённых теме женщины. В ходе исследования рассматриваются грамматическая структура, лексический состав, образные средства, семантические особенности и функциональные характеристики пословиц. Особое внимание уделяется отражению женского образа и социально-культурных ценностей, представленных в паремиологических единицах. Выявляются сходства и различия в восприятии женщины в арабской и узбекской народной мудрости, а также роль пословиц в формировании национального менталитета, моральных норм и культурных стереотипов. Кроме того, анализируется, каким образом гендерные представления отражаются в языке и традиционном мировоззрении через пословицы. Результаты исследования вносят вклад в развитие паремиологии, сравнительного языкознания и лингвокультурологии, раскрывая место женского образа в национальном сознании и устной народной традиции.

Ключевые слова: *паремиология, арабские пословицы, узбекские пословицы, образ женщины, структурный анализ, семантический анализ, лингвокультурология, сравнительное исследование, национальный менталитет.*

KIRISH

Tilshunoslikda paremiya birliklarini struktur va semantik jihatdan o‘rganish xalq tafakkuri va til tizimi o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlashda muhim metodologik asoslardan biri sanaladi. Ayniqsa, ayollar obrazining maqollarda ifodalanishi ijtimoiy ong, oilaviy qadriyatlar, gender tasavvurlari va madaniy stereotiplarni yoritishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Arab va o‘zbek xalqlari tarixiy-madaniy aloqalarga ega bo‘lgan xalqlar sifatida ularning folklorida, jumladan maqollar tizimida ham muayyan o‘xshashliklar kuzatiladi. Biroq har bir xalqning milliy mentaliteti, ijtimoiy qarashlari va an’analari ushbu maqollarning struktur va semantik qurilishida o‘ziga xos farqlarni ham yuzaga keltirgan.

Mazkur tadqiqotning maqsadi arab va o‘zbek tillaridagi ayollar mavzusidagi maqollarning struktur tuzilishi hamda semantik mazmunini qiyosiy tahlil qilish, ularning o‘xshash va farqli jihatlarini aniqlashdan iborat. Tadqiqot jarayonida maqollarning grammatik qurilishi, sintaktik modeli, leksik-semantik xususiyatlari va obrazlilik darajasi tahlil qilinadi. Shu orqali maqollarda ayol obrazining til va

madaniyatdagi aksini aniqlash, milliy dunyoqarash va qadriyatlar tizimini yoritish nazarda tutiladi.

Mazkur maqola arab va o‘zbek paremiologiyasida ayollar obrazining ifodalanishiga bag‘ishlangan bo‘lib, ularning struktur-semantik xususiyatlarini qiyosiy o‘rganish orqali til va madaniyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ochib berishga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Arab folklorini o‘rganishning ilk bosqichi (VIII XII asrlar) da arab filologlari, asosan, xalq maqollarini yig‘ishga, to‘plashga harakat qilishgan. O‘sha davrlarda arab xalq og‘zaki ijodining eng ommaviy janri – maqol hisoblangan. VIII-XII asrlarda arab xalq maqollarini to‘plab, tavsiflash hamda alohida majmualar holida umumlashtirishga diqqat qilinadi. Bu davrda turli mualliflarning sa’y-harakatlari bilan 44 ta arab maqollari to‘plamlari tuzilgan bo‘lib, shundan bizgacha atigi 14 tasi saqlanib qolgan, xolos. Ahmad ibn al-Husayn al-Maydoniyning “Majma al-amsal” (الميداني ٢٠١٦ مجمع الأمثال، ج 2) kitobida har bir maqolning tarixi, kelib chiqish manbasi va ishlatilish konteksti tafsilotlari bilan bayon etilgan. Abdul Karim قلب في الشعبية ألمثال العرب جزيرة “Al-amsal ash-sha’biyya fi qalb jaziyra al-arab” (الكريم عبد جهيمان. ١٤٠٢هـ) ushbu asari Saudiya Arabistonida keng tarqalgan 10,000 ga yaqin xalq maqollarini jamlaydi. Kitob 10 jilddan iborat bo‘lib, unda arab xalqining urf-odatlari, madaniy qadriyatlari va hikmatli iboralari keltirilgan. Muallif maqollarni izohlar bilan sharhlab, ularning kelib chiqish tarixi va ijtimoiy ahamiyatini tahlil qilgan. Shuningdek, Robih Xudusiyning “Mavsua al-Jazair fi al-amsal ash-sha’biyya” Jazoir xalq maqollariga “الشعبية االمثال في الجزائر” (رابح خدوسي. (1997) الأمثال في الجزائر موسوعة الشعبية. – الجزائر: الحضارة دار) bag‘ishlangan ensiklopediya bo‘lib, unda xalq og‘zaki ijodi namunalarining to‘plami berilgan. Muallif har bir maqolning ma’nosi va uning kelib chiqishini izohlab bergan. Ushbu asar Jazoir madaniy merosini o‘rganish va xalq og‘zaki ijodini tadqiq qilishda muhim manba hisoblanadi. Tadqiqot materiallarining xususiyatlaridan kelib chiqib, ular tavsifiy, qiyosiy va semantik tahlil asosida o‘rganildi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda materiallar tavsifiy, qiyosiy, struktur, semantik va tahlil metodlari asosida o‘rganildi. Maqollar struktur tuzilishi, semantik mazmuni hamda obrazlilik darajasi jihatidan qiyosiy yondashuv asosida tahlil qilinib, ularning umumiy va milliy xususiyatlari aniqlanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Maqollarni “hayot qomusi”, og‘zaki ensiklopediya, o‘ziga xos bir badiiy-tarixiy solnoma, deyish mumkin. Ular kishilarning aqlini o‘tkirlashtiradi, nutqini ravshan va

ta’sirchan qiladi, hayotda to‘g‘ri yo‘lni tanlay bilishga, hayotiy jumboqlar va muammolarni to‘g‘ri yechishga o‘rgatadi, turmushning jamiki katta-kichik masalalari xususida qimmatli maslahatlar beradi (Шомақсудов Ш., Шорахмедов Ш.,1990: 8).

Maqol va matallar bir jihatdan xalq og‘zaki ijodining ma’lum turi sifatida badiiy ijod mahsuli, ya’ni san’at asari bo‘lsa, ikkinchi jihatdan, u muayyan til hodisasidir. Til hodisasi sifatida maqol va matallar tildagi so‘z va iboralar bilan ma’lum munosabat hosil qiladi. Maqol va matallar tarkibidagi so‘z va boshqa unsurlarning har biri o‘z shakliy va mazmuniy jihatlariga ega bo‘lishdan tashqari, o‘zaro ma’lum sarf-u nahv munosabatlariga kirishadi (Қаҳҳоров А.С., 2007: 90).

Maqollar to‘liq gaplar bo‘lib, sintaktik jihatdan ularni uch qismga ajratish mumkin. Bunda shakliy grammatik o‘ziga xoslikni ko‘rishimiz mumkin.

a) ot-kesimli maqollar;

b) fe’l-kesimli maqollar;

c) buyruq yoki undov gap shaklidagi maqollar;

Bu turlarning har biri, o‘z navbatida, sodda gapli va qo‘shma gapli maqollarga ajratiladi (Қаҳҳоров А.С., 2007: 97).

Paremiyalalarni struktur tahlil qilishda ularning grammatik tuzilishi, gap qurilmasi tahlil etiladi. Bunda ular qanday gap bo‘laklaridan tashkil topganligi va qanday vazifalarda kelganligi aniqlanadi.

Paremiyalarni semantik tahlil qilish orqali ma’lum bir kontekstdagi alohida so‘zlar o‘rtasida vujudga keluvchi leksik-semantik munosabatlarni aniqlash imkoniyati mavjud bo‘ladi. Semantik tahlil qilishda so‘zlarning o‘z va ko‘chma ma’noda qo‘llanganligi muhim ahamiyat kasb etadi. Ko‘chma ma’no – so‘zning o‘z asosiy ma’nosi bilan metonimik, metaforik aloqadorlik, vazifaviy umumiylik yoki qandaydir assotsiativ (o‘zaro o‘xshash) belgilar bilan bog‘liq ikkilamchi, hosila ma’nosini beradi. Demak, so‘zning to‘g‘ri ma’nolaridan boshqalari uning ko‘chma ma’nolaridir. Ongimizda qandaydir xususiyatlari, belgilari bilan bir-biriga yaqin bo‘lgan ikki predmet yoki hodisa haqida aniq, yorqin tasavvur hosil qilish uchun unga boshqa biror predmet yoki voqeaning belgisi ko‘chiriladi. Maqollarning aksariyati aynan ko‘chma ma’noli so‘zlar bilan hosil qilingan.

Arab va o‘zbek tillarida ayollar mavzusidagi maqollarda struktur va semantik jihatidan o‘xshash tomonlari mavjud. Buni quyidagi misollar orqali ko‘ramiz.

Kelin bilan qaynona o‘t bilan suv (Мирзаев Т., 2005: 127). الجنّـة يشْخُ ما ابليس الكنّة تقبل ما والعجوز ، (خدوسي رابح.، 1997: 25). Iblis jannatga kirmaydi, keksaygan ayol kelinini yoqtirmaydi.

Ushbu arab maqolning 1-qismida ega kesim va o‘rin holini, 2-qismida esa ega, kesim, to‘ldiruvchi o‘z o‘rnida kelganini ko‘rishimiz mumkin. Tinglovchiga asosiy ma’lumotni, ya’ni hukmni yetkazishda gapning qolgan bo‘laklariga ehtiyoj yo‘qligi

sababli qolgan bo‘laklar ishtirok etmagan. Uning muqobili sifatida tanlangan o‘zbek maqoli esa sodda yig‘iq gap sifatida keltirilganligini ko‘rishimiz mumkin. Ayni paytda kesimlik -dir qo‘shimchasi yoki, hisoblanadi kabi bog‘lama fe’llarni ishlatilmaganligini ko‘ramiz. Bu esa kesimdan anglashilgan ma’noni ta’kidlab va chegaralab beradi.

Onasini ko‘rib, qizini ol. تضَمَّها قبل أُمَّها اعرف (جهيمان الكريم عبد.، ١٤٠٢: 191). Uylanishdan oldin onasini bil.

Ushbu maqolning arab tilidagi birinchi qismida kesim – اعرف (bil), ya’ni buyruq maylida kelgan fe’l orqali ifodalangan bo‘lib, hukm va asosiy ma’lumot markazi hisoblanadi. Mazkur fe’l egasiz berilgan. Gapni egasi ikkinchi shaxs bo‘lsa-da, nutq barchaga qaratilgan. Maqoldagi أُمَّها (onasi) so‘zi vositasiz to‘ldiruvchi vazifasida kelgan. تضمها قبل (uylanishdan oldin) so‘z birikmasi esa payt holi vazifasida kelgan. Umuman olganda, bu maqolda gap tarkibi fe’l-to‘ldiruvchi-holdan iborat. Tinglovchiga berilayotgan maslahat yaqqol ifodalangan. Ayni paytda gapda bog‘lovchi yoki yordamchi vositalarning ishtirok etmaganini, fe’l buyruq maylida bo‘lsa-da, maslahat va tavsiya ma’nosida kelgan. Ushbu maqolga o‘zbek tilida ekvivalent sifatida keltirilgan “Onasini ko‘rib, qizini ol” maqoli esa qo‘shma gap tarzida qurilgan. “Onasini” – to‘ldiruvchi, “ko‘rib” – fe’l-kesim, “qizini” – to‘ldiruvchi, “ol” – fe’l-kesim vazifasida kelgan. Maqolda gap bo‘laklari odatdagi tartibda kelgan.

XXotinning yomoni – umrning egovi (Мирзаев Т., 2005: 142). من غل السوء المرأة حديد (الميداني ،. ٢٠١٦: 376). Yomon ayol – temir kishan.

Bu maqol tuzilishiga ko‘ra, ot-kesimli gap bo‘lib, gapning asosiy bo‘laklari aniqlanmish-aniqlovchi tuzilishiga ega: المرأةُ (ayol) – ega السوءُ – (yomon) aniqlovchi, ot (ya’ni “yomon” ma’nosida), bu yerda المرأة so‘ziga moslashgan aniqlovchi bo‘lib xizmat qiladi. غلٌّ – bu yerda ot-kesim, ya’ni hukmning markazi. Bu so‘z arab tilida “kishan” degan ma’noni bildiradi. من حديد – birikmasi esa shaklan ko‘makchi boshqaruvidagi ot bilan ifodalangan bo‘lsa-da, ma’no jihatdan aniqlanmishning yasalgan materialini bildiradi. Semantik nuqtayi nazaridan kesim ko‘chma ma’noda qo‘llanilgan. Buni temir kishan ma’nosida emas, balki temir kishan singari deb tushunish to‘g‘ri bo‘ladi. Ushbu maqolga muqobil sifatida tanlangan o‘zbek xalq maqoli esa sodda yoyiq gap ko‘rinishida keltirilgan. Uning bosh bo‘laklari moslashuvli birikma hosilasi bo‘lib, xotinning yomoni – ega, umrning egovi – kesim vazifasida ishlatilgan so‘z birikmasi bo‘lib, bu ikkita maqolda ham hech qanday fe’l ishlatilmagan, ammo kesimga xos bo‘lgan ohang va mantiqiy markaz aynan “egov” va “kishan” so‘zlarida mujassam. Maqolda asosiy fikr shundan iboratki, ayolning noxushligi, yomon xulqi butun umrga ruhiy va ijtimoiy to‘siq, ya’ni “egov” bo‘lishi urg‘ulanmoqda. Bu tasvir ham metaforik tusda ifodalangan. Ikkala maqolda ham

nega va qanday degan savollarga javob beruvchi qo‘shimcha bo‘laklar ishtirok etmagan. Bunday tuzilish esa maqolning ta’sirchanligini kuchaytiradi.

Elakka chiqqan xotinning ellik og‘iz gapi bor. عام اخبار جابت للحمام راحت. (الحميد عبد هدوقة بن.، 1993: 97). Hammomga borib, bir yillik xabarlarni topib keldi.

Arab tilidagi maqol sodda yoyiq gap shaklida bo‘lib, odatdagidek, fe’l-kesim bilan boshlangan. Bu yerda رَاحَتْ – fe’l-kesim, لِلْحَمَّامْ esa o‘rin-payt holi vazifasida kelgan. Maqolning ikkinchi qismida esa جَابَتْ – fe’l-kesim, عَام خْبَارَ أ – vositasiz to‘ldiruvchi bo‘lib xizmat qilgan. Struktur jihatdan har bir bo‘lak o‘z o‘rnida qo‘llanilgan bo‘lib, fikr aniq ifodalangan. Mazkur arab maqoliga o‘zbek xalq maqollaridan “Elakka chiqqan xotinning ellik og‘iz gapi bor” maqoli muqobil bo‘la oladi. Ushbu maqolda esa “Elakka chiqqan xotin” – qaratqich aniqlovchi, “ellik og‘iz” – “gap” so‘ziga moslashgan aniqlovchi bo‘lib, “gap” ega, kesim – “bor” bilan ifodalangan. Asosiy fikr lo‘nda va aniq tarzda ifoda etilgan. Ikkala maqolda ham gap metaforik mazmunga ega bo‘lib, ayollar to‘planadigan joylar hammom, mahalla, bazm kabi makonlarda yangiliklar, mish-mishlar tarqalishiga kinoyaviy ishora qilinadi. Ayollar yig‘inlarida va mahalla-ko‘yda, qo‘shnilar orasida yangiliklar va g‘iybatlar tez tarqalishi g‘oyasi ochib beriladi. Tuzilish jihatdan qaralganda, arab maqoli fe’l-kesimli gap tuzilmasiga ega, o‘zbek maqoli esa ot-kesimli sintaktik soddalikka ega.

Qiz tuqqanga muz tug‘ar, o‘g‘il tuqqanga kun tug‘ar (Мирзаев Т., 2005: 141).
بحيط مسنودة الصبي وأم بخيط مسنودة البنت أم.

Qizning onasi ipga suyanadi, o‘g‘ilning onasi devorga suyanadi.

Arab tilidagi maqolda parallel ikki jumla mavjud: أم البنت مسنودة بخيط – “qizning onasi ipga suyanadi”, وأم الصبي مسنودة بخيط – “o‘g‘ilning onasi devorga suyanadi”. Maqoldagi “أم البنت” izofiy birikma bo‘lib ega vazifasida, “مسنودة بخيط” birikmasi esa ko‘makchili ot boshqaruvidagi birikma bilan birgalikda murakkab ot-kesim vazifasida kelgan. Maqolning ikkinchi qismida ham shunday ketma-ketlikni ko‘rishimiz mumkin. Mazkur arab maqoliga o‘zbek xalq maqollaridan “Qiz tuqqanga muz tug‘ar, O‘g‘il tuqqanga kun tug‘ar” degan maqol muqobil bo‘la oladi. Ushbu maqol yoyiq gap shaklida bo‘lib “qiz tuqqanga” – boshqaruvli birikma to‘ldiruvchi vazifasida, fe’l-kesim esa “muz tug‘ar” – frazemasi orqali ifodalangan. O‘zbek maqolining ikkinchi qismida ham shunday ketma-ketlikni ko‘rishimiz mumkin. Har ikki maqolda farzand jinsiga nisbatan ijtimoiy munosabat, qadriyat va dunyoqarash ifodalangan. Har ikki semantik tuzilish esa qarama-qarshilik asosida qurilgan: “ip” – zaiflik, beqarorlik; “devor” – kuch va barqarorlik ramzi. Onaning holati bevosita farzand jinsiga bog‘liq holda ko‘rsatilgan: qiz onasi zaif tayanchga ega; o‘g‘il onasi esa kuchli asosga tayanadi. O‘zbek maqolida ham ikki xil holat tazod orqali berilgan: qiz tug‘ilganida “muz tug‘ar”, ya’ni sovuqlik yuzaga keladi, o‘g‘il tug‘ilganida esa

“kun tug‘ar”, ya’ni yorug‘lik, baraka, quvonch paydo bo‘ladi. Bu yerda muz – salbiylik, kun esa – ijobiylik, hayot va kuch timsolidir. Semantik jihatdan bu maqolda farzand jinsiga qarab muhit va kayfiyat o‘zgaradi.

Qiz bola – uy ziynati (Mirzayev T., 2005: 92). الدار عمارة البنات. Qizlar – uy obod qiluvchisi.

Arab maqolidagi “عمارة” so‘zi lug‘aviy jihatdan “binoni qurish, mustahkamlash, obod etish”, degan ma’nolarni anglatadi. “البنات” (qizlar) – ega, “عمارة الدار” (uy obod qiluvchisi) – izofa ko‘rinishidagi ot-kesim. Ikkala maqolda ham ot-kesimli gap konstruksiyasi qo‘llangan. Muqobil sifatida keltirilgan o‘zbek maqoli ikki qismli ot + ot so‘z birikmasidan iborat: “Qiz bola” – ega, “uy ziynati” – ot-kesim. O‘zbek va arab xalq maqoli sintaktik jihatdan ot-kesimli sodda tuzilishga ega. Bu ikkala maqolda qizlar oilaning barqarorligi, ijtimoiy muvozanati va ma’naviy barakasi manbai sifatida ko‘rsatiladi. O‘zbek maqolida qiz bola go‘zallik, tarovat, nafosat va bezak timsolida tasvirlangan. “Ziynat” so‘zi moddiy emas, balki ma’naviy, hissiy qiymatga ega: uyning fayzi, oila muhitining go‘zalligi, or-nomus va odob timsoli. Mazmunan bu maqolda qiz farzandning ijtimoiy qadri yuqori baholangan.

Qozon olsang qoqib ol, Xotin olsang boqib ol (Mirzayev T., 2005: 131). يعجبك ما طفلة زين - حتى تشوف الفعايل (رباحي الرحمان عبد ،2000: 7). Qizning go‘zalligiga mahliyo bo‘lma -uning amallarini ko‘rmaguningcha.

Ikkala maqolda ham inson hayotidagi muhim qarorlar – turmush qurish yoki biror narsani tanlash – yuzaki ko‘rinish emas, balki ichki fazilat va foyda asosida bo‘lishi kerakligi ta’kidlanadi. O‘zbek maqolining birinchi qismida “Qozon olsang, qoqib ol”, degan jumlada “qozon” vosita sifatida metafora vazifasini bajaradi. Struktur jihatdan maqoldagi har ikki jumlada shart bog‘lamasi mavjud bo‘lib, to‘ldiruvchi + fe’l tuzilmasidan tarkib topgan. Har ikki ibora ogohlantiruvchi ohangda, ammo pand-nasihat ruhida. Arab tilidagi maqolning birinchi qismida fe’lning bo‘lishsiz shakli “ما يعجبك” – “senga yoqmasin”, ikkinchi qismda esa shart fe’li “حتى تشوف الفعايل” – orqali asosiy ma’no berilgan. Bu maqol ikki qismdan iborat bo‘lib, jumla odatdagidek tuzilmagan. Ya’ni odatda shart fe’lidan iborat bo‘lgan jumla avval kelib, javob jumla keyin keladi. Bu maqolda odatiy tartibda emas, balki o‘rin almashib kelgan. Har ikki maqolda ham metafora, tazod va shartli gaplar orqali fikr kuchaytirilgan.

Yaxshi xotin – betidan semirar, yomon xotin-ketidan (Mirzayev T., 2005: 130). مريضة اليدين وفي ،وعريضة طْويلة (جلاوجي الدين عز.، 2007: 63). Bo‘yi uzun, yelkalari keng, lekin qo‘llari xasta.

Xalq maqollarida ayollar obrazi ko‘p qirrali bo‘lib, ular orasida xotin-qizlarning ijtimoiy faoliyati, mehnatkashligi yoki dangasaligi haqida ko‘plab fikrlar ifoda topgan. Ba’zi maqollar bevosita emas, ramziy va kinoyaviy yo‘l bilan ayolning

dangasalik xususiyatlarini tasvirlaydi. O‘zbek maqolida ayolning xulqi va turmushga ta’siri baholanadi. Ayolning dangasaligi, faqat o‘z ehtiyojlari haqida o‘ylashi, ro‘zg‘orga befarqligi sababli o‘zi semiradi – ya’ni faqat o‘tirib yeydi, harakat qilmaydi. Bu yerda “ketidan” iborasi metonimiya yo‘li bilan ayolning harakatsiz, faolsiz obrazini bildiradi. Struktur jihatdan maqol ikki qismdan iborat: yaxshi xotin – ega, betidan – to‘ldiruvchi, semirar – fe’l-kesim. Ayolga qo‘yilgan baho faqat chiroyga emas, balki mehnatsevarlik, amaliy harakat orqali belgilanadi. Ushbu maqolga muqobil sifatida olingan maqol esa struktur jihatdan ikki asosiy qismdan iborat: birinchisi uyushiq aniqlovchilar orqali tashqi ko‘rinish tasvirlanadi: “طْويلة وعريضة” (*bo‘yi uzun*), ikkinchi qismi esa مريضة وفي اليدين (*qo‘llari xasta*) gap bo‘laklari inersiyasi kuzatilib, ot-kesim egadan oldinga o‘tganligi kuzatiladi.

Qo‘ng‘iz bolasini oppog‘im der, kirpi bolasini yumshog‘im der (Shomaqsudov SH., Shoraxmedov SH., 1990: 141). غزال أمه عند خنفس كل (صالح القادر عبد.، 2002: 210). Har bir qo‘ng‘iz onasi nazdida kiyikdir.

Arab maqoli strukturasi yoyiq ismiy gap shaklida bo‘lib, gapning egasi (كل خنفس) birikma, ot-kesimi esa (عند أمه غزال) jumla bilan ifodalangan. Ega funksiyasini bajarayotgan “كل” belgilash olmoshi arab tilida izofa tarkibida birlik sondagi ot bilan qo‘llanganda, butunning bir qismini (*“har bir”*) ta’kidlash orqali umumiylikka qaratilgan ma’noni ifodalaydi. “Gap ichida gap” konstruksiyasi arab tilining o‘ziga xos jihatlaridan biri bo‘lib, odatda ot-kesimli gapning kesimi ismiy yoki fe’liy jumladan iborat bo‘lishi mumkin. Maqolda ham shunday konstruksiya (عند أمه غزال) uchraydi va bu o‘z semantik funksiyasini bajarmoqda. O‘zbekcha maqol esa fe’l-kesimli gapdan tarkib topgan va gap bo‘laklari an’anaviy tartibda joylashgan: ega + vositasiz to‘ldiruvchi + to‘ldiruvchi (ko‘chirma gap) + fe’l-kesim. “Demoq” nutqiy faoliyat fe’li bu o‘rinda “*der*” shaklida qo‘llanilib, noaniq zamonni ifodalamoqda. Gap tarkibidagi ikkala to‘ldiruvchi ham – *bolasini* va *oppog‘im* (ko‘chirma gap) so‘zlari shu fe’lga bog‘langan.

Xotinning chiroyi – erdan (Mirzayev T, Musoqulov A, Sarimsoqov B., 2005: 128). نجارها السعد و خشبة المرأة (صالح الحاج الرحمن عبد.، 1987: 152). Ayol yog‘ochdir va uning baxt uning duradgorida.

Arabcha maqol sintaktik jihatdan ikki mustaqil ismiy gapdan tashkil topgan bo‘lib, murakkab konstruksiyadir. Birinchi qism – «المرأةُ خَشَبَةٌ» ot-kesimli gap tuzilishiga ega, bunda «المرأةُ» ega (mubtado) vazifasida kelgan, «خشبةٌ» esa ot-kesim (xabar) bo‘lib, noaniq holatda. Gapning tuzilish modeli: mubtada (ma’rifa) + xabar (nakira). Ikkinchi qism – «السَّعْدُ نَجَّارُهَا» ham ismiy gap bo‘lib, «السعدُ» ega, «نجارُها» esa ot-kesim vazifasidagi qaratqichli birikma. Chunki u izofa konstruksiyasidan tashkil topgan: «نجارُ» qaralmish, «ها» esa uchinchi shaxs ayol jins birlik olmoshi sifatida

qaratqich aniqlovchidir. Har ikki ismiy gap «و» teng bog‘lovchisi orqali bog‘langan. Demak, maqolning strukturaviy modeli: [mubtada + xabar] + و + [mubtada + xabar].

O‘zbekcha maqol esa elliptik, ya’ni kesimi tushirilgan nominal gapdir. To‘liq shakli “Xotinning chiroyi erdandir” tarzida ifodalanadi. Bu yerda “Xotinning” qaratqich aniqlovchi bo‘lib, -ning qo‘shimchasi orqali qaratqich munosabat ifodalangan. “Chiroyi” esa ega vazifasida kelgan bo‘lib, -i egalik qo‘shimchasi orqali uchinchi shaxs birlik egalik ma’nosini bildiradi. Demak, birinchi sintaktik birlik qaratqichli birikma: (qaratqich + egalik qo‘shimchali ot). “Erdan” esa chiqish kelishigi (-dan) orqali ifodalangan kesim vazifasini bajaradi. O‘zbek tilida predikativlik yashirin “dir” to‘liqsiz shakli orqali beriladi.

Mazkur o‘zbek va arab maqollari ayolning ijtimoiy mavqei va baxti er shaxsiga bog‘liq holda talqin etilishini ko‘rsatadi. “Xotinning chiroyi – erdan” maqolida ayolning obro‘si va turmushdagi baxti er bilan bog‘liqligi yumshoq metafora orqali ifodalangan. “المرأة خشبة و السعد نجارها” maqolida esa ayol yog‘och, er esa duradgor obrazida tasvirlanib, ayol hayotining shakllanishi erkak omiliga bog‘liqligi kuchliroq metafora orqali beriladi. O‘zbek maqoli umumlashtirilgan va yumshoq ohangda, arab maqoli esa obrazli va keskinroq ifoda bilan ayolning ijtimoiy baxti er bilan bog‘liqligini ta’kidlaydi. Bu maqollar an’anaviy jamiyatlarda gender rollari va oilaviy munosabatlarning til va folklordagi aksini ko‘rsatuvchi muhim paremiologik birliklar hisoblanadi.

Alp – otadan, zot – onadan (Mirzayev T, Musoqulov A, Sarimsoqov B., 2005: 54). لِأُمِّهَا ٱلْبِنْتُ تطلع ،فَمِهَا عَلَى ٱلْجَرَّةَ إِقْلِب (السكيوي أحمد حسن.، ٢٠١٨: ٩). Ko‘zani og‘ziga ag‘daring, qiz onasidek chiqadi.

Mazkur maqollar mazmun jihatidan nasliy o‘xshashlik g‘oyasini ifodalasa-da, ularning grammatik-sintaktik tuzilishi ikki mutlaqo boshqa tizim asosida qurilgan. O‘zbekcha maqolda to‘liqsiz kesim shakli tushirilgan bo‘lib, uni “Alp otadan bo‘ladi, zot onadan bo‘ladi” tarzida ifodalash mumkin. Gap ikki parallel qismlardan iborat: “alp – otadan” va “zot – onadan”. Har ikkala qismda “alp” va “zot” ega vazifasini bajarmoqda. “Otadan” va “onadan” so‘zlari esa chiqish kelishigi (-dan) orqali ifodalangan. Predikativlik (kesimlik) shakli yashirin “bo‘ladi” fe’li orqali berilgan.

Arab maqoli esa ikki fe’l-kesimli gapdan tashkil topgan murakkab tuzilma. اقْلِبِ «فَمِهَا عَلَى ٱلْجَرَّةَ» buyruq gapdir. «اقلبِ» – buyruq fe’li (2-shaxs birlik), fe’l-kesim vazifasida. «ٱلْجَرَّةَ» – vositasiz to‘ldiruvchi (tushum kelishigida). «فَمِهَا عَلَى» – hol birikmasi: «على» old ko‘makchi, «فمِ» ko‘makchi boshqaruvidagi ot va qaralmish, «لِأُمِّهَا ٱلْبِنْتُ» ham fe’l-kesimli gap bo‘lib, kesim vazifasini bajarayotgan «تطلعِ» shart maylida ifodalangan va maqolning birinchi qismidagi talabga javob bo‘lib kelmoqda. Odatda, arab tilida bunday konsturksiyalar [buyruq fe’li + boshqa bo‘laklar + javob fe’li (shart maylida) + boshqa bo‘laklar] ko‘p uchraydi. «ٱلْبِنْتُ» – ega, «لِأُمِّهَا» – izofiy

birikma, «لِ» old ko‘makchi, «أمِّ» ko‘makchi boshqaruvidagi ot, «ها» qaratqich aniqlovchi.

O‘zbek maqolida farzandning jasorat, kuch va ijtimoiy fazilatlari ota bilan, nasl, tarbiya va ichki sifatlari esa ona bilan bog‘lanadi. Arab maqolida esa ko‘za metaforasi orqali qiz farzandning fe’l-atvori va xulqi ko‘pincha onaga o‘xshashi obrazli tarzda ifodalanadi.

Har ikki maqol semantik jihatdan ota-ona ta’sirining davomiyligini va avlodlar o‘rtasidagi o‘xshashlikni ta’kidlaydi. Biroq o‘zbek maqolida ota va ona rollari muvozanatli tarzda ajratib ko‘rsatilsa, arab maqoli ayniqsa qiz farzandning onaga o‘xshashligini kuchli metafora orqali ifodalaydi. Mazkur maqollar an’anaviy oilaviy qadriyatlarni folklordagi aksini yorituvchi muhim paremiologik birliklar sifatida baholanishi mumkin.

Enasi tepgan qulunning, eti og‘rimas (Shomaqsudov SH., Shoraxmedov SH., 1990: 315). الشحيمة أكل مثل الأميمة طق (جهيمان الكريم عبد.، ١٤٠٢: 245). Onaning urishi saryog‘ yeyish kabidir.

O‘zbekcha maqol murakkab qo‘shma gap bo‘lib, birinchi qism “Enasi tepgan qulunning” aniqlovchi ergash gap vazifasini bajarmoqda: “enasi” – ega, -si egalik qo‘shimchasi orqali uchinchi shaxs tegishlilik ifodalangan; “tepgan” – sifatdosh shaklidagi fe’l bo‘lib, “qulun” so‘zini aniqlab kelmoqda. Ikkinchi qism “eti og‘rimas” bosh gapdir. “Eti” – ega, egalik qo‘shimchasi (-i) bilan. “Og‘rimas” – kesim, inkor shakldagi fe’l (hozirgi-kelasi zamon). Strukturasi: (Sifatdoshli aniqlovchi birikma + qaratqich) + (Ega + kesim).

Arabcha maqolda esa «طَقُّ» – ega vazifasida kelgan harakat nomi (urish, taqillatish ma’nosida), «الأميمةِ» – qaratqich aniqlovchi. «مِثْلُ» – ot-kesim vazifasida kelgan.مثل» «أَكْلِ الشَّحِيمَةِizofa zanjiri bo‘lib, «أكلِ» harakat nomi va keying so‘zga qaralmish, «الشحيمةِ» qaratqich aniqlovchi.

O‘zbek maqolida qulunning onasi tomonidan tepishi unga og‘riq bermasligi metaforasi orqali ona tanbehi mehr va g‘amxo‘rlik bilan yo‘g‘rilgani ta’kidlanadi. Arab maqolida esa onaning urishi saryog‘ yeyishga qiyoslanib, bu jarayon bolaning zarariga emas, aksincha foydasiga xizmat qilishi obrazli tarzda ifodalanadi.

Har ikki maqol semantik jihatdan onaning tarbiyaviy ta’siri mehr asosida ekanini, uning tanbehi farzand uchun og‘ir jazo emas, balki tarbiya vositasi sifatida qabul qilinishini ko‘rsatadi. Bu maqollar an’anaviy oilaviy tarbiya modeli va ona mehrining folklordagi aksini yorituvchi paremiologik birliklar sifatida ahamiyat kasb etadi.

Yaxshi xotin – xazina (Shomaqsudov SH., Shoraxmedov SH., 1990: 130).
جَديدة جَوهَرة عن يَومٍ كُلَّ يَكشِفُ مُجوهراتٍ صُندوقُ الفاضلةُ المرأةُ (د. نعمان عبد السميع متولي.، ٢٠١٥: 32). Fazilatli ayol – har kuni yangi gavharni ochib beruvchi xazina sandig‘idir.

O‘zbek maqoli sodda gap shaklida bo‘lib, “yaxshi” aniqlovchi, “xotin” aniqlanmish va bu ikki so‘z bitishuv orqali bog‘langan. “Xotin” so‘zi ega vazifasida, “xazina” ot-kesim funksiyasini bajarmoqda. Kesimlik shakli “-dir” tushib qolgan.

Arab maqoli esa yoyiq ismiy gap bo‘lib, «المرأةُ» ega (mubtada), «الفاضلةُ» moslashgan aniqlovchi, «مُجوهراتٍ صُندوقُ» izofiy birikmasida «صندوقُ» qaralmish va gapning ot-kesimi, «مجوهراتٍ» esa qaratqich aniqlovchi vazifasida kelmoqda. Demak, birinchi qism strukturasi: (Mubtada + na’t) + (Xabar (izofa)). Keyingi qismi fe’l-kesimli gap bo‘lib, oldingi ot-kesimning kengaytirilgan gap-aniqlovchisidir: «يَكشِفُ» hozirgi-kelasi zamon, ish-harakat egasi yashiringan «هو» bo‘lib, mazkur olmosh ot-kesim «صندوق»ni ifodalaydi. «يَومٍ كُلَّ» – payt holi, «جَوهَرةٍ عن» – ko‘makchi+ot tuzilmali vositali to‘ldiruvchi, «جديدةٍ» esa «جوهرةٍ» so‘zining moslashgan aniqlovchisi vazifani bajarmoqda.

O‘zbek maqolida yaxshi ayol xazina metaforasi orqali oilaning eng qimmatli boyligi, barakasi va tayanchi sifatida talqin etiladi. Arab maqolida esa fazilatli ayol har kuni yangi gavhar ochib beruvchi xazina sandig‘iga qiyoslanib, uning fazilatlari, donoligi va ezgu xulqi vaqt o‘tishi bilan yanada namoyon bo‘lishi obrazli tarzda ifodalanadi.

Har ikki maqol semantik jihatdan ayolning oiladagi ma’naviy boylik, baraka va ezgulik manbai ekanini ta’kidlaydi. Biroq arab maqolida metafora kengroq va dinamik bo‘lib, ayol fazilatlarining vaqt o‘tishi bilan tobora ochilib borishi g‘oyasi kuchliroq ifodalangan. Mazkur maqollar an’anaviy jamiyatda fazilatli ayolning yuksak qadrlanishini aks ettiruvchi muhim paremiologik birliklar hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan qiyosiy tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, arab va o‘zbek tillaridagi ayollar mavzusiga oid maqollar struktur va semantik jihatdan o‘zaro yaqinliklarga ega bo‘lsa-da, ularning ifoda vositalari, metaforik tasvirlari va baholash mezonlari milliy mentalitet, tarixiy tajriba hamda ijtimoiy qarashlar bilan chambarchas bog‘liq holda shakllangan. Har ikki paremiologik tizimda ayol obrazi oilaviy qadriyatlar, tarbiya, ijtimoiy mavqe va axloqiy me’yorlar bilan bog‘liq holda talqin etilgan.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, arab va o‘zbek maqollarida ayollarga nisbatan ijobiy, salbiy va kinoyaviy baholar parallel tarzda mavjud bo‘lib, ular jamiyatning tarixiy-gender qarashlarini aks ettiradi. Struktur jihatdan esa har ikki til maqollarida ot-kesimli va fe’l-kesimli konstruktsiyalar ustunlik qiladi, biroq metafora va obrazlilik darajasi til va madaniyatga xos bo‘lgan ifoda uslublari orqali farqlanadi.

Mazkur tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy-amaliy takliflarni ilgari surish mumkin:

1. Arab va o‘zbek tillaridagi ayol obraziga oid maqollarni jamlagan qiyosiy paremiologik lug‘at tuzish maqsadga muvofiq.

2. Ayollar obraziga oid maqollarni lingvokulturologik va gender tadqiqotlari doirasida chuqurroq o‘rganish zarur.

3. Arab – o‘zbek paremiologik birliklarining elektron korpusini yaratish kelgusi tadqiqotlar uchun muhim manba bo‘la oladi.

4. Mazkur maqollarni til o‘qitish jarayonida, ayniqsa lingvokulturologiya va tarjimashunoslik fanlarida didaktik material sifatida qo‘llash tavsiya etiladi.

5. Kelgusida ayollar obraziga oid maqollarni tarixiy – dialektologik hamda pragmatik jihatdan kengroq o‘rganish ilmiy natijalarni yanada boyitadi.

Xulosa qilib aytganda, arab va o‘zbek paremiologiyasida ayol obrazi nafaqat til hodisasi, balki ijtimoiy-madaniy ongning muhim ko‘rsatkichi sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur tadqiqot ushbu obrazning struktur-semantik va lingvokulturologik xususiyatlarini aniqlash orqali paremiologiya, qiyosiy tilshunoslik va gender lingvistikasiga muayyan hissa qo‘shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Мирзаев Т. (2005) Ўзбек халқ мақоллари. – Тошкент: «Шарқ» нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси Бош таҳририяти. – 512 б.

2. Қаҳҳаров А.С. (2007) Ал-Жоҳизнинг “Китаб ал-ҳайван” асарида “масал”. – Тошкент. – 163 б.

3. Шомақсудов Ш., Шорахмедов Ш. (1990) Ҳикматнома: Ўзбек мақолларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбек совет энтсиклопедияси бош редакцияси. – 528 б.

4. ربّاحي الرحمان عبد. (2000) أذوب قال. – الجزائر: التوزيع وكيل، المؤلف حساب على طبع مكتبة: الجزائرية الشركة. – ص 7–10.

5. رابح خدوسي. (1997) الشعبية الأمثال في الجزائر موسوعة. – الجزائر: الحضارة دار.

6. الكريم عبد جهيمان. (١٤٠٢هـ) العرب جزيرة قلب من الشعبية الأمثال. – الرياض: العربية المملكة السعودية.

7. جلاوجي الدين عزّ. (2007) بسطيف الجزائرية الشعبية الأمثال. – الجزائر: الثقافة دار منشورات سطيف لولاية. – ص 63.

8. الميداني (٢٠١٦) مجمع الأمثال، ج 2، – 376

9. الحميد عبد هدوقة بن. (1993) جزائرية أمثال. – الجزائر: المؤسسة وحدة، المطبعية للفنون الوطنية رغاية.

نجار هزار. (2020) موقع في منشور مقال Noonpost بتاريخ 10 يوليو. الرابط: https://www.noonpost.com/37445/

REFERENCES:

1. Abd al-Rahman Rabbahi. (2000) Qala adhub. – Jaza'ir: Tab' 'ala hisab al-mu'allif, wakil al-tawzi': Maktabat al-sharikat al-jaza'iriyya. – s. 7–10. (In Arabic)

2. Ben Haduqa Abd al-Hamid. (1993) Amthal jaza'iriyya. – Jaza'ir: al-Mu'assasa al-wataniyya lil-funun al-matba'iyya, wahdat Raghaya. (In Arabic)

3. Jahiman Abd al-Karim. (1402 h.) Al-amthal al-sha'biyya min qalb Jazirat al-Arab. – al-Riyad: al-Mamlaka al-Arabiyya al-Sa'udiyya. (In Arabic)

4. Jihayman Abdulkarim. (1402 h./taxminan 1982) Al-amthal al-sha'biyya min qalb Jazirat al-Arab. – Riyad: Saudiya Arabistoni. (In Arabic)

5. Khaddusi Rabih. (1997) Mawsu'at al-Jaza'ir fi al-amthal al-sha'biyya. – Jaza'ir: Dar al-Hadara. (In Arabic)

6. Mirzaev T. (2005) O'zbek xalq maqollari. – Toshkent: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati. – 512 b. (In Uzbek)

7. Al-Maydani. (2016) Majma' al-amthal, j. 2. – 376 b. ((In Arabic))

8. Qahhorov A.S. (2007) Al-Johizning “Kitab al-hayavon” asarida “masal”. – Toshkent. – 163 b. (In Uzbek)

9. Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. (1990) Hikmatnoma: O'zbek maqollarining izohli lug'ati. – Toshkent: O'zbek sovet ensiklopediyasi bosh redaktsiyasi. – 528 b. (In Uzbek)

10. Hazar Najjar. (2020) Maqol nashr etilgan Noonpost saytida, 10 iyul. Havola: https://www.noonpost.com/37445/ (In Arabic)

11. Izz al-Din Jalawji. (2007) Al-amthal al-sha'biyya al-jaza'iriyya bi-Satif. – Jaza'ir: Manshurat Dar al-Thaqafa li-wilayat Satif. – s. 63. (In Arabic)

ERON PARLAMENTIGA SAYLOVLAR TARIXI (1980-2024 yy.)

HISTORY OF PARLIAMENTARY ELECTIONS IN IRAN (1980-2024)

ИСТОРИЯ ПАРЛАМЕНТСКИХ ВЫБОРОВ В ИРАНЕ (1980-2024 гг.)

https://zenodo.org/records/20666429

Xodjimuratova Dilshoda Sunnatillayevna
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti boshqarma boshlig‘i,
Tarix fanlari doktori (DSc)
Tel.: 998 90-903-77-76
E-mail: dilshoda_xodjimuratova@tsuos.uz
ORCID 0000-0001-8830-4399

Annotatsiya. Maqolada Eron Islom Respublikasidagi parlament saylovlarining huquqiy va siyosiy jihatlari tahlil qilingan. Eron saylov tizimi an‘anaviy demokratiya tamoyillari va teokratik nazorat mexanizmlari o‘rtasida murakkab jarayondan iboratligi, unda Konstitutsiyani qo‘riqlash kengashi nomzodlarni saralash va qonun loyihalarini tasdiqlash orqali parlament faoliyatini cheklash vakolatiga egaligi yoritilgan. Maqolada konservativ va islohotchi kuchlar o‘rtasidagi saylov jarayonidagi raqobat jarayonlari tahlil qilinib, Kuzatuv kengashining konservatorlar g‘alabasini ta’minlashdagi roli ko‘rsatilgan. Shuningdek, saylov jarayonida ovoz beruvchilarning ishtirok etish dinamikasi va siyosiy muxolifatga nisbatan cheklovlar muhokama qilingan. Ushbu maqolada Eron saylov tizimining transformatsiya jarayonlari va uning mamlakat siyosiy tizimidagi ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so‘zlar. *Parlament (Majlis), konservatorlar va islohotchilar, Konstitutsiyani qo‘riqlash kengashi, Islom respublikasi partiyasi, “Tude” partiyasi.*

Аннотация. В статье проанализированы правовые и политические аспекты парламентских выборов в Исламской Республике Иран. Отмечено, что избирательная система Ирана представляет собой сложный процесс, находящийся на пересечении принципов традиционной демократии и механизмов теократического контроля. Подчёркнуто, что Совет стражей конституции обладает полномочиями ограничивать деятельность парламента посредством отбора кандидатов и утверждения законопроектов. В статье проанализированы процессы конкуренции между консервативными и реформаторскими силами в ходе избирательного процесса, а также показана роль Наблюдательного совета в обеспечении победы консерваторов. Кроме того, обсуждаются динамика участия избирателей в выборах и ограничения в отношении политической оппозиции. В статье раскрыты процессы

трансформации избирательной системы Ирана и её значение в политической системе страны.

Ключевые слова: *Парламент (Маджлис), консерваторы и реформаторы, Совет стражей Конституции, Партия Исламская Республика, Партия "Туде".*

Annotation. The article analyzes the legal and political aspects of parliamentary elections in the Islamic Republic of Iran. It is noted that Iran's electoral system is a complex process situated at the intersection of traditional democratic principles and mechanisms of theocratic control. It is emphasized that the Guardian Council has the authority to limit the activities of the parliament through candidate selection and the approval of legislative bills. The article examines the competitive processes between conservative and reformist forces during the electoral process and highlights the role of the Supervisory Council in ensuring the victory of conservatives. Additionally, the dynamics of voter participation in elections and the restrictions imposed on political opposition are discussed. The article reveals the transformation processes of Iran's electoral system and its significance within the country's political framework.

Keywords: *Parliament (Majlis), conservators and reformists, Council of Guardians of the Constitution, Islamic Republic Party, "Tude" party.*

Eron saylov tizimi uzoq tarixga ega bo‘lib, amaldagi hokimiyatni legitimlashtirishda muhim o‘rin tutadi. Eron Konstitutsiyasi bo‘yicha bir nechta saylov asosida rahbar tayinlanadigan institutlar belgilangan. Eronda prezidentlik va parlament (Majlis) saylovlari islohotchilar va konservativ kuchlar vakillari o‘rtasida kechadigan keskin kurash sharoitida o‘tadi.

KIRISH

Eronning partiyaviy tizimi shartli ravishda uch qanotga bo‘lingan: o‘ngchilar, markazchilar va so‘lchilar, ya’ni konservatorlar (“mo‘tadil konservatorlar”, “radikal fundamentalistlar”, ya’ni “qattiq siyosat” tarafdorlari), markazchilar (pragmatiklar yoki “mo‘tadillar”) hamda islohotchilar (liberallar). Eron konservatorlari kichik va o‘rta tadbirkorlar ko‘magida islom inqilobi va hozirgi teokratik tuzumning asosiy prinsiplarini saqlab qolishga intiladilar. Ular Eronning jahon iqtisodiyotiga faol integratsiya bo‘lishiga qarshi. Islohotchilar esa iqtisodiyotni liberallashtirish va xususiylashtirish hamda mamlakatni jahon ishlab chiqarishi va iqtisodiy aloqalariga integratsiyasini ilgari suradilar. Ular amaldagi konstitutsiya doirasida siyosiy tizimni o‘zgartirish mumkin deb hisoblaydilar. O‘z navbatida, mo‘tadil pragmatiklar mazkur ikki yondashuv vakillarini o‘zaro murosaga keltirishga harakat qilishadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Eron Islom Respublikasida parlament saylovlari instituti mamlakat siyosiy tizimining muhim tarkibiy elementi sifatida siyosatshunoslik, tarix va xalqaro munosabatlar fanlari doirasida keng tadqiq etilgan masalalardan biri hisoblanadi. 1980-yildan boshlab muntazam ravishda o‘tkazib kelinayotgan Majlis saylovlari teokratik-respublika boshqaruv modelining amaliy faoliyatini, siyosiy legitimlik mexanizmlarini hamda davlat va jamiyat o‘rtasidagi siyosiy munosabatlarni tahlil qilish uchun muhim empirik asos yaratadi. Eron siyosiy tizimi bo‘yicha fundamental tadqiqotlarda parlament saylovlari ko‘pincha gibrid yoki teokratik boshqaruv modeli doirasida tahlil qilingan. Xususan, Ervand Abrahamian (2008), Said Amir Arjo‘mand (1988) kabi tadqiqotchilar Eron siyosiy tizimini diniy legitimlik va saylov orqali shakllanadigan institutlar o‘rtasidagi murakkab institutsional muvozanat sifatida izohlaydilar. Ularning fikricha, Majlis saylovlari klassik liberal-demokratik saylovlardan farqli ravishda siyosiy raqobatni to‘liq emas, balki nazorat ostidagi pluralizm shaklida namoyon etadi. Ayniqsa, E.Arjo‘mand Eron siyosiy tizimida “Veloyate fakih” tamoyili saylov jarayonlarining institutsional chegaralarini belgilab berishini ta’kidlaydi. Shu nuqtayi nazardan, parlament saylovlari siyosiy vakillikdan tashqari, tizim legitimligini qayta ishlab chiqish mexanizmi sifatida baholanadi.

Eron parlament saylovlari tarixini o‘rganishda siyosiy fraksiyalar va mafkuraviy oqimlarning shakllanishi alohida tadqiqot yo‘nalishini tashkil etadi. David Menashri (2001), Uilfrid Buchta (2000) tadqiqotlarida 1980-1990-yillardagi inqilobiy elita hukmronligi, konservatorlar va islohotchilar o‘rtasidagi siyosiy raqobat hamda saylovlar orqali siyosiy kuchlar muvozanatining o‘zgarishi tahlil qilingan. Mazkur mualliflar 1997-yildan keyingi islohotchilar harakatining kuchayishi va prezident Muhammad Xotamiy davrini parlament saylovlarining siyosiy mobilizatsiya vositasiga aylanish bosqichi sifatida baholaydilar. Shu bilan birga, 2004-yil va undan keyingi saylovlar konservativ kuchlarning institutsional ustunligi mustahkamlangan davr sifatida talqin qilinadi. Shu bilan birga, ilmiy adabiyotlarda alohida e’tibor saylovlarni nazorat qiluvchi organ – Konstitutsiyani qo‘riqlash kengashi faoliyatiga qaratilgan. Rossiyalik olimlar N.Filin (2021), V.Sajin (2020) va Ye.Dunayeva (2008) tadqiqotlarida nomzodlarni saralash mexanizmi Eron saylov tizimining asosiy siyosiy filtri sifatida ko‘rsatiladi. Tadqiqotchilar fikricha, nomzodlarni tasdiqlash jarayoni siyosiy maydonda aktorlar doirasini cheklab, saylovlarning natijaviy konfiguratsiyasiga oldindan ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois Eron parlament saylovlari ko‘pincha “nazorat ostidagi saylov tizimi” konsepsiyalari orqali tahlil qilinadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Eron Islom Respublikasining qonun chiqaruvchi organi hisoblangan Majlisga bo‘lgan saylovlar va ularning tarixiy xususiyatlarini tadqiq qilgan ushbu maqolani tayyorlashda tarixiy-tahlil, qiyosiy, siyosiy-diskursiv tahlil va boshqa tadqiqot usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Eronda islom inqilobidan keyin parlamentga birinchi saylov 1980-yil mart-may oylarida bo‘lib o‘tgan. Aksariyat liberal va so‘l qanot nomzodlari saylovga qo‘yilmadi. Natijada Majlisda ko‘pchilikni Ruhulloh Xumayniyning konservativ qarashdagi tarafdorlari, shuningdek, ruhoniyat vakillari tashkil etdi (С.Алиев., 2004:387).

Islom respublikasi partiyasi parlamentda 270 ta o‘rindan 85 tasini, uning koalitsiyadagi sheriklari esa 45 ta o‘rinni oldi. Beshta o‘rin kam sonli din vakillariga (armanlar, ossuriylar, zardushtiylar, yahudiylarga) berildi. Ushbu tartib parlamentning har bir yangi chaqirig‘ida takrorlandi. Hukumatga qarshi qurolli harakatlar kechayotgan Kurdiston va Balujistonning ayrim hududlarida saylov o‘tkazilmadi. Bu Eron tarixidagi eng erkin saylovlar bo‘lib, unda ishtirok etgan ko‘plab partiya va siyosiy harakatlar keyingi yillarda noqonuniy deb e‘lon qilindi. Masalan, saylovda ishtirok etgan “Milliy front” birlashmasi parlamentda to‘rt nafar deputat vakili bo‘lishiga erishdi, biroq ular keyinchalik lavozimidan chetlashtirildi. Saylovda “Tude” kommunistik partiyasi hamda Eron “Xalq mujohidlari tashkiloti” ham ishtirok etdi, ammo ularning vakillari deputatlik mandatlariga erisha olmadi. Bundan tashqari, bu paytda hali nomzodlarni qattiq tanlash tartibi ishlab chiqilmagan edi. Ana shu saylovda deputatlik mandatlarining salmoqli qismini (42,6%) mustaqil nomzodlar qo‘lga kiritdi (www.iran1979.ru).

1984-yil 15-aprel va 17-may kunlari o‘tkazilgan parlament saylovlari natijasida Majlisga o‘sha vaqtda faoliyatiga ruxsat berilgan yagona partiya bo‘lgan Islom respublikasi partiyasi kirdi. Mazkur partiya 130 ta o‘ringa ega bo‘ldi. Qolgan mandatlarning (140 tasini) esa mustaqil nomzodlar oldi. Tadqiq etilayotgan davrda Eron saylovchilari bir muncha faol bo‘lgani qayd etiladi, xususan, ovoz berish jarayonida saylov berish huquqiga ega bo‘lgan aholining 65,1 foizi ishtirok etgan. Ali Akbar Hoshimiy-Rafsanjoniy 1980-1989-yillar parlament spikeri sifatida faoliyat ko‘rsatdi (www.parliction.ir).

Uchinchi parlament saylovlari 1988-yil 8-aprel va 13-may kunlari bo‘lib o‘tdi. Unda jami deputatlik o‘rinlarining 63 foizini “Kurashayotgan ruhoniyat jamiyati” qo‘lga kiritdi. Saylovda ishtirok etish istagini bildirgan 1666 nafar nomzodning 20 foizi ovoz berish jarayonidan chetlashtirildi. Deputatlikka tasdiqlanganlarning 20 foizini taniqli ruhoniyat vakillari tashkil etdi. 1987-yil may

oyida Islom respublikasi partiyasi tarqatib yuborilgani bois saylovlarda ishtirok etmadi. Bundan tashqari, “Kurashayotgan ruhoniyat jamiyati”dan “Kurashayotgan ruhoniyat uyushmasi” deb nomlangan radikal-konservativ qanot ajralib chiqdi. “Kurashayotgan ruhoniyat uyushmasi” saylovlarda mafkura jihatidan o‘ziga yaqin bo‘lgan “Mazlumlar koalitsiyasi” bilan birga qatnashdi. Parlament saylovlarida asosiy kurash ana shu ikki guruh o‘rtasida kechdi. Parlamentdagi ulamolar soni avvalgi chaqiriqdagilarga nisbatan sezilarli kamaydi (www.iran1979.ru).

1980-1992-yillarda radikal-konservativ qarashlarga ega ruhoniyat vakillari va ziyolilar parlamentda ko‘pchilikni tashkil qilgan. Ular davlatning iqtisodiyotni vertikal nazorat qilish siyosatini qo‘llab-quvvatladilar, aholining madaniy va ijtimoiy hayotini tartibga soluvchi ko‘plab cheklovchi normalarni amaliyotga joriyladilar. 1992-yilda ko‘pgina so‘l qanot nomzodlari saylovdan chetlatilganidan keyin parlamentdagi o‘z fraksiyalariga tegishli aksar mandatlardan mahrum bo‘ldilar. 1989-yili Oliy rahbar R.Xumayniy vafotidan so‘ng parlamentning mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy roli sezilarli darajada yuksalgani kuzatildi. Bu ayniqsa, Ali Akbar Hoshimiy-Rafsanjoniyning ikkinchi prezidentlik davrida, parlament prezident va hukumat tashabbusi bilan boshlangan ko‘plab iqtisodiy islohotlarga to‘sqinlik qilganida yaqqol ko‘zga tashlandi (W. Buchta., 2000:120).

Umuman olganda, 1992-1996-yillarda o‘tkazilgan parlament saylovlari tomonlarning o‘zaro shiddatli ayblovlari fonida o‘tdi. 1992-yilda “Kurashayotgan ruhoniyat uyushmasi”ga parlament saylovlarida qatnashishiga ruxsat berilmadi. Natijada uning parlamentdagi a’zolari hukumatni tark etdi. 1996-yilgi saylovlarda konservatorlar va markazchilar (“Bunyodkorlik pudratchilari” partiyasi) o‘rtasida jiddiy to‘qnashuvlar bo‘lib o‘tdi. Biroq eng yirik so‘l tashkilot (Kurashayotgan ruhoniyat uyushmasi) nomzodlari Konstitutsiyani qo‘riqlash kengashi (Kuzatuv kengashi) tomonidan chetlashtirilishidan qo‘rqib, saylovda qatnashishdan bosh tortdi. Ushbu ikkita saylov kampaniyasi natijasida eng nufuzli konservativ partiya (Kurashayotgan ruhoniyat jamiyati) 1992-1996-yillarda texnokratlar bilan koalitsiya tuzgan holda 1996-2000-yillarda parlamentda ko‘pchilik o‘rinni qo‘lga kiritdi. 1996-yilda saylangan parlamentda Majlis spikeri uchun siyosiy partiyalarning 241 nafar deputati ovoz berishi natijalari quyidagi holatni ko‘rsatdi: “Bunyodkorlik pudratchilari” vakili Abdulloh Nuriyga 105 nafar deputat, Kurashayotgan ruhoniyat jamiyati rahbari Aliakbar Natek Nuriyga 133 nafar deputat ovoz berdi (Н.Филин., 2012:184).

2000-yilgi parlament saylovlarida islohotchilar qanoti vakillari 290 ta deputatlik mandatidan 195 tasini qo‘lga kiritdi. Buning natijasida president Muhammad Xotamiy (1997-2005 yy) Majlisda o‘ziga yaqin hukumat a’zolariga tayanish imkoniga ega bo‘ldi (E.Abrahamian., 2008:340). Ushbu holat Eron

jamiyatida aholi orasida ijtimoiy o‘zgarishlar va demokratlashtirish jarayoni ommaviy tus olganidan dalolat beradi.

M.Xotamiy davrida “Eron islom hamjihatlik fronti” siyosiy partiyasi parlamentdagi eng nufuzli partiyalardan biriga aylandi. Mazkur partiya deputatlari 2000-yilgi saylovlarda parlamentning 150 nafargacha deputatlik mandatlariga ega bo‘ldi. “Mulohazakorlik, adolat va erkinlik” - partiyaning asosiy shiori sifatida belgilandi. Talabalar, davlat xizmatchilari va ziyolilar partiyani eng ko‘p qo‘llab-quvvatlab ovoz berdi. Partiyaga M.Xotamiyning ilgari radikal qarashlari bilan ajralib turgan ukasi Muhammadrizo Xotamiy rahbarlik qildi. Qisqa vaqt ichida partiya o‘z nizomi va dasturini ishlab chiqdi, bir qancha yirik shaharlarda boshlang‘ich tashkilotlarini tuzdi va shu tariqa hozirgi kunda G‘arb davlatlaridagi siyosiy partiyalar shaklini oldi. Eron siyosiy tizimini yanada demokratlashtirish hamda bozor iqtisodiyotini liberallashtirish “Eron islom hamjihatlik fronti” partiyasi mafkurasining asosiy g‘oyasi bo‘ldi (Л.Равanди-Фадаи., 2010:167).

Islohotchi M.Xotamiy prezidentligi davrida parlament qiynoqqa solishni man etish va xotin-qizlar huquqlarini kengaytirish kabi 100 dan ziyod qonun loyihalarini ishlab chiqdi. Islohotchilar tashabbusi bilan bir qator siyosiy mahbuslar ozod qilindi va boshqalarining ozodlikdan mahrum etish muassasalaridagi shart-sharoitlari yaxshilandi. Davlat jamg‘armalari islohotlar sababli nodavlat madaniy muassasalar va ommaviy axborot vositalariga sarmoya kirita boshladi. Biroq ko‘pgina parlament qonunlari loyihalarini konservatorlar shariat ahkomlariga mos kelmaydi deb baholab, ularni tasdiqlanishini blokladi. Ziyolilarning muxolif vakillarini ta’qib etish davom ettirildi. M.Xotamiy Islom inqilobi qo‘riqchilari korpusining mazkur choralarini keskin tanqid qilib, buni demokratiyaga putur yetkazish va ekstremizmga yo‘l ochib berish deb baholadi (E.Abrahamian., 2008:414). Bu jarayonlar konservatorlar va islohotchilar o‘rtasida keskin qarama-qarshilik mavjudligiga ishora qiladi. Zero, o‘sha davrda real hokimiyat konservatorlar qo‘lida mujassamlashgan edi. Islohotchilar Erondagi siyosiy guruhlarni ta’qib qilish ishlarini to‘xtattira olmagani bois konservatorlar muxolifatning siyosiy faoliyatini har tomonlama bo‘g‘ish amaliyotini davom ettirdi.

2000-yillarning o‘rtalariga kelib Eron siyosiy tizimida demokratik normalar o‘rnatilganiga qaramay, Oliy rahbar va uning asosiy tarafdorlari bo‘lgan nufuzli ruhoniyat vakillari Eron ichki siyosatiga kuchli ta’sirlarini saqlab qoldilar. Konservativ kayfiyatdagi ruhoniyat o‘z siyosiy resurslaridan foydalangan holda islohotchilarning Eron davlat boshqaruv tizimini yanada liberallashtirishga qaratilgan qonunchilik tashabbuslarini islom dini ahkomlariga zid va G‘arb davlatlari ta’siridagi choralar deb baholab, ularning amalga oshirilishiga to‘sqinlik

qildilar. 2004-yilgi saylovlarda islohotchi nomzodlarning aksariyati Kuzatuv kengashi tomonidan chetlashtirilishi konservatorlarning g‘alabasini ta’minladi. Ular parlamentdagi 290 ta o‘rindan 196 tasini qo‘lga kiritdi (konservativ “Bunyodkorlar koalitsiyasi”) va o‘z navbatida islohotchilar 40 ta deputatlik o‘rniga ega bo‘ldi (Н.Филин., В.Кокликов., А.Ходунов., 2021:131). Islohotchilarning mag‘lubiyati Eron aholisi kutgan demokratik islohotlar mamlakatda muayyan samara bermaganligi bilan izohlanadi.

Eronda 2008-yil mart-aprel oylarida eronliklarning salkam 60% ishtirok etgan parlament saylovlaridan islohotchilarning qator nomzodlari chetlatilgani bois “Konservatorlar birlashgan fronti” koalitsiyasi tarkibidagi mo‘tadil kayfiyatdagi siyosatchilar ovoz berish jarayonida parlamentdagi 2/3 deputatlik o‘rinlarini egalladi (islohotchilar 20 foizdan kam mandat oldi) (Е.Дунаева www.iimes.ru). G‘alaba qilgan mo‘tadil konservatorlar prezident Mahmud Ahmadinajodning ichki va tashqi siyosatini tanqid qila boshladilar.

Tadqiq etilayotgan bu davrda parlament va prezident M.Ahmadinajod o‘rtasidagi kelishmovchiliklar kuchaya bordi. Bu holat parlament va prezident qarorlarining ijro etilishi jarayonida yaqqol namoyon bo‘ldi. Shia ruhoniyatining nufuzli vakillari konservatorlar koalitsiyasini tuzishga qaratilgan urinishlari muvaffaqiyatsizlikka uchraganidan so‘ng, 2012-yilda o‘tkazilgan saylovlarda ularning har biri (mo‘tadil konservatorlar, radikal konservatorlar va markazchilar) alohida-alohida ishtirok etdi. Aksariyat o‘rinlarni M.Ahmadinajodga tanqidiy munosabatdagi “Birlashgan konservatorlar fronti” koalitsiyasi (45,9%) egalladi. Saylovlarning muhim xususiyati shundaki, deputatlik mandatlarining salmoqli qismini (30%) mustaqil nomzodlar egalladi (Е.Дунаева., 2013:21). Bunday sharoitda Eron siyosiy maydonida namoyon bo‘lgan barcha siyosiy guruhlar Oliy rahbarning dushmanlar tahdid qilayotgan vaqtda hamjihat bo‘lish haqidagi ko‘rsatmasini bajarish maqsadida, prezident va parlament o‘rtasidagi ziddiyatlarni jamoatchilikka ochiq namoyish etmaslikka harakat qildilar. Umuman olganda, 2009-yildan keyin Oliy rahbarning davlat boshqaruvidagi roli va nufuzi sezilarli ravishda oshdi. Bu ayniqsa, hokimiyatning barcha tarmoqlari o‘rtasidagi kelishmovchiliklarni hal qilishda yaqqol namoyon bo‘ldi (Е.Дунаева., 2013:27).

2016-yil fevral-aprel oylarida bo‘lib o‘tgan parlament saylovlarida prezident Hasan Ruhoniy tarafdorlari bo‘lgan islohotchilar va markazchilar koalitsiyasi (“Umid ittifoqi”) 49% ovoz bilan g‘alaba qozonib, majlisda 143 ta o‘rin oldilar. E’tiborga loyiq tomoni shundaki, parlamentga 17 nafar ayol deputatlar saylandi. Bunda ruhoniyat faqatgina 16 nafar o‘z vakillarini parlamentga o‘tkaza oldi (Ю.Бондарь., www.iimes.ru).

Vashington ma’muriyati 2018-yilda Eronga nisbatan sanksiyalarni qayta tiklaganidan so‘ng mamlakatda yuzaga kelgan murakkab iqtisodiy vaziyat sharoitida konservatorlar bloki ko‘pchilikni islohotchilar vakillari tashkil etgan hukumatni mamlakatni boshqarishga qodir emaslikda ayblab, 2020-yilda o‘tkazilishi kutilayotgan parlament saylovlariga tayyorgarlik ko‘ra boshladi. Konservatorlar nazoratidagi Kuzatuv kengashi islohotchilar va markazchilar ilgari surgan nomzodlarning 60 foizini ro‘yxatga olishni rad etdi. Qolgan nomzodlar orasida raqobat parlamentdagi har bir o‘ringa 25 nafar nomzoddan (290 ta o‘ringa 7100 nafar nomzod) to‘g‘ri keldi. Saylovchilar faolligi o‘rtacha ko‘rsatkichdan ancha past, ya’ni 42,6 foiz bo‘ldi (avvalgi parlament saylovlarida bu ko‘rsatkich 60 foizdan kam bo‘lmagan) (В.Сажин., www.interaffairs.ru).

2020-yilda bo‘lib o‘tgan parlament saylovlarida mo‘tadil va radikal konservatorlar g‘alaba qozondi. Mazkur saylovlarning o‘ziga xos jihati shundaki, ular ikki turda o‘tkazilib, yetti oy davom etdi (2020-yil 21-fevraldan 11-sentyabrgacha). Konservatorlar 77% ovoz olib, parlamentda 223 ta o‘rinni egalladilar va natijada islohotchi va markazchi deputatlar soni 20 taga tushdi. Bunda Majlisda 36 ta o‘rinni mustaqil deputatlar, 16 ta joyni ayollar egalladi. Muhammadboqr Qolibof boshchiligidagi mo‘tadil va radikal konservatorlar koalitsiyasi 30 ta o‘rinni qo‘lga kiritdi (В.Сажин., www.interaffairs.ru). Parlament saylovlari natijalari eronlik saylovchilarning konservatorlar yoki islohotchilar nomzodlarini qo‘llab ovoz berishi jarayoni mamlakatdagi siyosiy konyunkturadan kelib chiqishini ko‘rsatadi.

Eronda 2024-yili o‘tkazilgan parlament saylovlarida 15200 nafar nomzod Majlisdagi 290 ta o‘rin uchun kurashdi. Bunda nomzodlarning 30 nafarini islohotchilarning vakillari tashkil etdi. Asosiy raqobatni konservatorlar nazoratidagi Kuzatuv kengashi tasdiqlagan nomzodlar ta’minladi. Eron tarixida birinchi marta saylovda ishtirok etish uchun faqat mamlakat siyosiy maydonida namoyon bo‘lgan konservativ koalitsiya nomzodlariga ruxsat berildi. Muqobil nomzodlar (pragmatiklar, islohotchilar) ishtirok etmagan saylov jarayonida konservatorlar mutlaq g‘alabaga erishdi.

Mazkur davrda parlament saylovlari bilan bir vaqtda Ekspertlar kengashiga ham o‘tkazilgan saylovlarda sobiq prezident Hasan Ruhoniyning ushbu kengash a‘zoligiga nomzodi ma’qullanmadi.

2023-yil iyulda Eron hukumati Parlament saylovi to‘g‘risidagi Qonunga kiritilgan ayrim o‘zgartirishlar natijasida Kuzatuv kengashining mamlakat siyosiy partiyalar tizimiga bo‘lgan ta’siri yanada kengaydi. Unga ko‘ra, Kuzatuv kengashi partiya nomzodlarini nafaqat saylovdan oldin, balki ovoz berish natijalari e’lon qilinganidan so‘ng ham ularni chetlashtirish huquqini oldi. Oliy rahbar mazkur

o‘zgartirishlardan foydalanib, Kuzatuv kengashi orqali o‘ziga nomaqbul bo‘lgan hamda Eronda G‘arb modelida ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy islohotlar amalga oshirilishi tarafdori bo‘lgan liberal nomzodlarni mamlakat siyosiy maydonidan chetlashtirdi.

Umuman olganda, Eron siyosiy tizimiga ko‘ra mamlakat parlamenti qonunchilik faoliyatida asosan maslahatlashuv organi sifatida namoyon bo‘ladi. Zero, Eron Konstitutsiyasida parlament “Islom kengashi majlisi” deb nomlangan va Kuzatuv kengashining roziligisiz birorta ham qonun loyihasi qabul qilinmaydi hamda kuchga kirmaydi. Mazkur tartibga binoan parlament Eron siyosiy tizimini o‘zgartirish vakolatlariga ega emas. Hattoki parlament a’zolari Eronning eng nufuzli diniy markazi deb hisoblanuvchi Qum shahridagi ulamolardan ishlab chiqilgan qonun loyihalari islom ahkomlariga muvofiqligi borasida maslahatlashuvlar o‘tkazadilar.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Eron saylov tizimi demokratik protsessual shakllar va chuqur ildiz otgan konservativ institutsional nazorat o‘rtasida murakkab munosabat borligini ko‘rsatmoqda. Eron parlamenti 1989-2005-yillarda sezilarli transformatsiya bo‘lgani qayd etildi. Unda dastlab an’anaviy aristokratik elementlar hukmronlik qilgan bo‘lsa, keyinchalik parlament vakilligiga ijtimoiy tabaqa vakillari ko‘pchilikni tashkil etgani namoyon bo‘ldi. Ayni vaqtda konservatorlar Kuzatuv kengashi vakolatlari orqali o‘ziga maqbul institutsional mexanizmni saqlab qolmoqda. Bu esa konservativ isteblishment Eron siyosiy tizimining fundamental arxitekturasini saqlab qolishga muvaffaq bo‘layotganligini ko‘rsatmoqda.

Eronda 2021-2024-yillari o‘tkazilgan umumxalq saylovlarida ovoz berish huquqiga ega fuqarolarning ishtiroki tobora pasayib borayotgani jamiyat ruhoniyat yetakchiligida konservatorlar bloki vakillari tomonidan amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy islohotlardan jiddiy norozi ekanligiga ishora qiladi.

Ushbu fikr-mulohazalardan kelib chiqib quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

Eron parlament saylovlarining mintaqaviy geosiyosiy omillar bilan bog‘liqligini chuqur tahlil qilish lozim. Bu esa Eronga nisbatan qo‘llanilgan xalqaro sanksiyalar, mintaqaviy xavfsizlik muammolari va tashqi siyosiy bosimlarning ichki saylov jarayonlariga ta’sirini kompleks yondashuv asosida o‘rganish orqali Eron siyosiy tizimining tashqi omillarga nisbatan moslashuvchanlik darajasini aniqlash imkonini beradi;

Erondagi parlament saylovlarini gibrid siyosiy tizim nazariyasi doirasida chuqurroq tadqiq etish maqsadga muvofiq bo‘lib, mazkur yondashuv saylov institutining nazariy talqinini kengaytiradi hamda xalqaro siyosiy jarayonlar bilan bog‘liq o‘xshash va farqli jihatlarni aniqlash imkonini beradi;

Erondagi saylovlarda nomzodlarni saralash mexanizmining mamlakat siyosiy tizimiga ta’sirini institutsional tahlil qilish zarur. Ushbu jarayonda Konstitutsiyani qo‘riqlash kengashining vakolatlari va qarorlarining saylov tizimiga ta’sirini chuqurroq o‘rganish Eron saylov tizimining real siyosiy funksiyasini aniqlashga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abrahamian E. (2008). A History of Modern Iran. Cambridge: Cambridge University Press.
2. Buchta W. (2000). Who Rules Iran? The Structure of Power in the Islamic Republic. Washington: Washington Institute for Near Policy.
3. Алиев С.М. (2004). История Ирана. XX век. М.: ИВ РАН.
4. Бондарь Ю.М. (30.06.2016). Иран: май 2016 года. Военно-политическая ситуация // Институт Ближнего Востока. URL: http://www.iimes.ru/?p=28914.
5. Дунаева Е.В. (2013). Развитие политического процесса в Иране в 2005–2012 гг. // Иран при М. Ахмадинежаде. М.: ИВ РАН, Центр стратегической конъюнктуры.
6. Дунаева Е.В. (02.04.2008). Парламентские выборы в Иране: первые итоги и оценки. Институт Ближнего Востока. [Электронный ресурс]. URL: http://www.iimes.ru/?p=7011.
7. Филин Н.А., Кокликов В.О., Ходунов А.С. и др., (2021). Современные избирательные системы. Вып. 16: Иран, Латвия, Литва. — М.: РЦОИТ,.
8. Филин Н.А. (2012). Социально-историческое развитие Исламской Республики Иран (1979–2008): факторы устойчивости государственной власти. М: РГГУ.
9. Раванди-Фадаи Л.М. (2010). Политические партии и группировки Ирана. М.: ИВ РАН.
10. Сажин В. (04.03.2020). Парламентские выборы в Иране и их влияние на внутреннюю и международную политику // Международная жизнь.
11. Парламентские выборы 1980 года. Сегодня. Завтра. [Электронный ресурс]. 10.07.2020. URL: https://iran1979.ru/parlamentskie-vybory-1980-goda/.
12. Парламентские выборы 1988 года. [Электронный ресурс]. 14.08.2021. URL: https://iran1979.ru/parlamentskie-vybory-1988-goda/.

REFERENCES:

1. Abrahamian E. (2008). A History of Modern Iran. Cambridge: Cambridge University Press. (In English)

2. Aliev S. M. (2004) Istoriya Irana XX vek (The History of Iran. The 20th Century). Moscow: Institute of Oriental Studies, Russian Academy of Sciences, (In Russian)

3. Bondar Yu.M. (2016). “Iran: May 2016. Military-Political Situation.” Institute of the Middle East. http://www.iimes.ru/?p=28914. (In Russian)

4. Buchta W. (2000). Who Rules Iran? The Structure of Power in the Islamic Republic. Washington, DC: Washington Institute for Near East Policy. (In English)

5. Dunaeva E.V. (2013). “Razvitie politicheskogo protsessa v Irane v 2005-2012 gg.” (Development of the Political Process in Iran in 2005-2012). In Iran pri M. Ahmadinezhade (Iran under M. Ahmadinejad). Moscow: Institute of Oriental Studies, RAS; Center for Strategic Conjuncture. (In Russian)

6. Dunaeva E.V. (2008). “Parliamentary Elections in Iran: First Results and Assessments.” Institute of the Middle East. April 2, http://www.iimes.ru/?p=7011. (In Russian)

7. Filin N.A., V.O.Koklikov, A.S.Khodunov, et al. (2021). Sovremennye izbiratel'nye sistemy. Issue 16: Iran, Latvia, Lithuania Modern Electoral Systems. Issue 16: Iran, Latvia, Lithuania. Moscow: Russian Center for Training in Election Technologies (RCIET). (In Russian)

8. Filin N.A. (2012). Sotsial'no-istoricheskoe razvitie Islamskoi Respubliki Iran (1979–2008): faktory ustoichivosti gosudarstvennoi vlasti (Socio-Historical Development of the Islamic Republic of Iran (1979–2008): Factors of State Power Stability). Moscow: Russian State University for the Humanities (RSUH). (In Russian)

9. Ravandi-Fadai L.M. (2010). Politicheskie partii i gruppirovki Irana (Political Parties and Groups of Iran). Moscow: Institute of Oriental Studies, Russian Academy of Sciences. (In Russian)

10. Sazhin V. (2020). “Parliamentary Elections in Iran and Their Influence on Domestic and International Politics.” Mezhdunarodnaya Zhizn’ (International Affairs). https://interaffairs.ru/news/show/25567. (In Russian)

11. “Parliamentary Elections of 1980.” Segodnya. Zavtra. July 10, 2020. https://iran1979.ru/parlamentskie-vybory-1980-goda/. (In Russian)

12. “Parliamentary Elections of 1988.” August 14, 2021. https://iran1979.ru/parlamentskie-vybory-1988-goda/. (In Russian)

ZAMONAVIY DAVRDA TURKIYANING TASHQI SIYOSIY RIVOJLANISHI USTUVOR YO‘NALISHLARI

PRIORITY DIRECTIONS OF TURKEY’S FOREIGN POLICY DEVELOPMENT AT THE PRESENT STAGE

ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ ВНЕШНЕЙ ПОЛИТИКИ ТУРЦИИ В НА СОВРЕМЕННОМ ЭТАПЕ

https://zenodo.org/records/20666447

Sharipov Azamat Shamilevich
Oriental universiteti
Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi
katta o‘qituvchisi
Tel.: *+998 90-189-93-68*
E-mail: tarixiypochta@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada zamonaviy davrda Turkiyaning tashqi siyosiy rivojlanishi va uning ustuvor yo‘nalishlari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Unda Turkiyaning Yevropa Ittifoqiga integratsiyalashuv jarayoni, Yunoniston (Gretsiya) va Kipr masalalari hamda “arman genotsidi” muammosi, Yaqin Sharq kabi siyosiy masalalarga to‘xtalgan. Shuningdek, Markaziy Osiyo va Kavkaz mintaqasida Turkiyaning “soft power” vositalari, Turk Kengashi, TIKA va TURKSOY kabi institutlar orqali ta’sirini kuchaytirish strategiyasi ko‘rsatib beriladi. Rossiya va AQSh bilan munosabatlarda yuzaga kelayotgan raqobat, xavfsizlik va energetika omillari alohida o‘rin tutadi. Maqola Turkiyaning neoosmanizm (yangi usmoniychilik), panturkizm va mintaqaviy yetakchilik ambitsiyalari asosida ko‘p vektorli tashqi siyosat yuritayotganini asoslaydi.

Kalit so‘zlar: *Erdog‘an, Yevropa Ittifoqi, Kipr masalasi, Markaziy Osiyo, Kavkaz, Rossiya, AQSh, NATO, Yaqin Sharq, Gretsiya, Isroil-Falastin.*

Abstract. The article provides analysis of Turkey’s foreign policy development in the contemporary period and its main strategic priorities. It examines Turkey’s process of integration into the European Union, as well as key political issues such as relations with Greece, the Cyprus question, the “Armenian genocide” debate, and developments in the Middle East. In addition, the study highlights Turkey’s strategy of strengthening its influence in Central Asia and the Caucasus through “soft power” instruments and institutions such as the Turkic Council, TIKA, and TURKSOY. Turkey’s interactions with Russia and the United States are to a significant extent determined by rivalry, security issues, and energy-related interests. Overall, the article argues that Turkey pursues a multi-vector

foreign policy shaped by neo-Ottomanism, Pan-Turkism, and ambitions for regional leadership.

Keywords: *Erdoğan, European Union, Cyprus issue, Central Asia, Caucasus, Russia, USA, NATO, Middle East, Greece, Israeli–Palestinian conflict.*

Аннотация. Статья представляет собой научный анализ развития внешней политики Турции в современный период и её основных стратегических приоритетов. В ней рассматривается процесс интеграции Турции в Европейский союз, а также ключевые политические вопросы, такие как отношения с Грецией, кипрская проблема, дискуссия вокруг «армянского геноцида» и события на Ближнем Востоке. Кроме того, исследование подчёркивает стратегию Турции по усилению своего влияния в Центральной Азии и на Кавказе посредством инструментов «мягкой силы» и таких институтов, как Тюркский Совет, ТИКА и ТЮРКСОЙ. Взаимоотношения Турции с Россией и Соединёнными Штатами во многом определяются конкуренцией, вопросами безопасности и энергетическими интересами. В целом автор статьи приходят к выводу, что Турция осуществляет многовекторную внешнюю политику, основанную на идеях неоосманизма, пантюркизма и стремлении к региональному лидерству.

Ключивые слова: *Эрдоган, Европейский союз, Кипрский вопрос, Центральная Азия, Кавказ, Россия, США, НАТО, Ближний Восток, Греция, Израильско-палестинский конфликт.*

KIRISH

Turkiya Jumhuriyati so‘nggi yigirma yil ichida tashqi siyosati transformatsiyaga uchradi. Aniqrog‘i, mamlakat mintaqaviy siyosiy aktordan global siyosiy o‘yinchiga aylanishga harakat qilmoqda. Bu holat Turkiyada iqtidorda turgan Adolat va Taraqqiyot partiyasi davrida, xususan, siyosiy lider R.T.Erdog‘an boshchiligida yuz berayotganligiga e’tiborni tortadi.

XXI asr boshidan Turkiya tashqi siyosati mintaqaviy va global tizimda yuz berayotgan geosiyosiy o‘zgarishlar fonida sifat jihatdan yangicha bosqichga o‘ta boshladi. Xususan, “Sovuq urush”dan keyingi davrda shakllangan Yevro-Atlantika xavfsizlik arxitekturasi, Yaqin Sharqdagi mojarolar dinamikasi, energetika yo‘laklari uchun raqobat hamda Markaziy Osiyo - Kavkaz hududida ta’sir doiralari uchun kurash Turkiyaning tashqi siyosatini ko‘p vektorli yo‘nalishga burmoqda. Mazkur jarayonda Anqara bir tomondan NATO a’zoligi va AQSh bilan strategik hamkorlikni saqlashga intilsa, ikkinchi tomondan Rossiya bilan pragmatik aloqalarni rivojlantirishga, Yevropa Ittifoqi bilan integratsiya istiqbollarini qayta baholash hamda turkiy dunyo va musulmon olamida ta’sirini kuchaytirishga urinmoqda. Bu holat Turkiya tashqi siyosatini “muvozanat siyosati”, “selektiv

hamkorlik” va “strategik avtonomiya” kabi tushunchalar orqali tahlil qilish zaruratini keltirib chiqaradi.

Turkiyaning Yevropa Ittifoqi bilan munosabatlari bugungi kunda murakkab va ko‘p ukladli xarakter kasb etib, unda siyosiy-me’yoriy talablar, identitet masalasi hamda xavfsizlikka doir ziddiyatlar uyg‘unlashadi. Tashkilotga a’zolik jarayonining cho‘zilishi nafaqat “Kipr masalasi”, “kurd muammosi” va tarixiy-siyosiy diskurslar bilan, balki Yevropa ichidagi siyosiy iqlim va Turkiyaning ichki transformatsiyasi bilan ham uzviy bog‘liq bo‘lib qolmoqda. Shu bilan birga, Yunoniston bilan Egey dengizi va Sharqiy O‘rta Yer dengizidagi orollar va suv hududi demarkatsiyasi, dengiz hududlari bo‘yicha huquqiy yondashuvlar hamda migratsiya oqimlari masalalari Anqara - Afina munosabatlarida doimiy ziddiyat manbai bo‘lib qolmoqda. Mazkur muammolar Turkiyaning G‘arb bilan integratsiyasi doirasida yuzaga keladigan institutsional va siyosiy cheklovlarni ko‘rsatib beradi.

Boshqa tomondan, Markaziy Osiyo va Kavkaz mintaqasi Turkiya uchun tarixiy-madaniy yaqinlik bilan birga strategik va geoiqtisodiy manfaatlar chorrahasi hisoblanadi. Turk Kengashi, TIKA, TURKSOY va Yunus Emre instituti kabi mexanizmlar orqali “yumshoq kuch” qurollari faollashib, mintaqaviy aloqalarni institutsionallashtirishga xizmat qilmoqda. Bu jarayon energiya loyihalari, transport-logistika yo‘laklari (jumladan, transkaspiy yo‘nalishlari) va savdo aloqalari bilan mustahkamlanib, Turkiyaning mintaqadagi mavqeini kuchaytirishga qaratilgan strategik yo‘nalish sifatida namoyon bo‘ladi. Kavkazda esa Ozarbayjon bilan “*bir millat – bir davlat*” konsepsiyasi doirasidagi yaqin hamkorlik hamda Gruziya orqali tranzit va xavfsizlik aloqalari Turkiyaning mintaqaviy siyosatini belgilovchi asosiy omillardandir.

Turkiyaning Rossiya va AQSh bilan munosabatlari esa raqobat va hamkorlikning bir paytda kechishi bilan ajralib turadi. Xavfsizlik sohasida Suriya inqirozi, harbiy-texnik hamkorlik (S-400 masalasi) va NATO doirasidagi kelishmovchiliklar Anqara – Vashington munosabatlarida taranglikni kuchaytirgan bo‘lsa, energetika hamkorligi, savdo aylanmasi va mintaqaviy muzokaralar formatlari Turkiya-Rossiya aloqalarini pragmatik holatda ushlab turuvchi omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Shu jihatdan Turkiya tashqi siyosati neoosmanizm, panturkizm va mintaqaviy yetakchilik ambitsiyalari bilan bir qatorda geoiqtisodiy manfaatlar, xavfsizlik ehtiyojlari hamda institutsional bog‘liqliklar (NATO va Yevropa bilan munosabatlar) ta’sirida shakllanayotgan murakkab tizim sifatida ko‘rinadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Turkiyaning Yevropa Ittifoqiga integratsiya jarayoni ilmiy adabiyotlarda uzoq muddatli siyosiy cheklovlar bilan izohlanadi. Xususan, tadqiqotchi Drujilovskiy (2001) Turkiyaning 1980-yildan keyingi kurdlarga nisbatan siyosatini tahlil qilib, bu masala mamlakatning Yevropa bilan munosabatlarida asosiy muammolardan biri bo‘lib qolayotganini ta’kidlaydi. Shuningdek, Vertyaev (2006) demokratlashuv jarayonlari va kurd masalasining XXI asr boshidagi siyosiy ahamiyatini ko‘rsatib, YeI tomonidan qo‘yilgan talablar Turkiyaning integratsion istiqbollarini murakkablashtirganini ta’kidlaydi. Mazkur manbalar Turkiya – YI munosabatlarida inson huquqlari va etnik muammolar strategik omil ekanini tasdiqlaydi.

Turkiyaning Markaziy Osiyo va Kavkazdagi siyosati “Yangi katta o‘yin” kontekstida baholanadi. Tadqiqotchi Menon (2003) Markaziy Osiyoni global va mintaqaviy kuchlar raqobat maydoni sifatida izohlab, Turkiyaning bu hududdagi strategik faolligi Rossiya va Xitoy manfaatlari bilan kesishishini ta’kidlaydi. Bunda Turkiyaning yumshoq kuch vositalari muhim rol o‘ynaydi. Chavush (2012) Turkiyaning tashqi siyosatda “*soft power*” konsepsiyasidan foydalanishini ilmiy asosda tahlil qilib, TIKA va madaniy institutlar orqali ta’sir mexanizmlarini ochib beradi. TIKAning rasmiy hisobotlari ham ushbu strategiyaning institutsional asosini tasdiqlaydi.

Suriya urushi Turkiya tashqi siyosatining eng muhim sinovlaridan biridir. Kashin Rossiyaning Suriyaga aralashuvini strategik manfaatlar bilan izohlab, bu jarayon mintaqaviy kuchlar muvozanatini o‘zgartirganini ta’kidlaydi (Василий Кашин, 2020). RAND markazi tahlillari Rossiyaning asosiy maqsadi Asad rejimini saqlab qolish va O‘rta Yer dengizidagi harbiy tayanchni mustahkamlash bo‘lganini ko‘rsatadi. Asadning o‘zi ham Rossiya ishtirokini xalqaro huquq va qonuniy hokimiyatni himoya qilish bilan asoslaydi.

Turkiya tashqi siyosatining faollashuvi ichki siyosiy institutlar transformatsiyasi bilan ham bog‘liq. Ipek 2017-yil Turkiya tashqi siyosatidagi yutuqlarni tahlil qilib, prezidentlik tizimiga o‘tish mamlakatning global maydondagi mustaqil qaror qabul qilish imkoniyatlarini kengaytirganini ta’kidlaydi (Ипек Ж.Д., 2017).

Ko‘rib chiqilgan adabiyotlarga ko‘ra, Turkiyaning zamonaviy tashqi siyosati YeI integratsiyasi muammolari, Markaziy Osiyo va Kavkazdagi yumshoq kuch strategiyasi, energetika tranziti, NATO doirasidagi ziddiyatlar hamda Yaqin Sharqdagi geosiyosiy ambitsiyalar bilan belgilanadi. Ushbu manbalar asosida Turkiya tashqi siyosatini ko‘p vektorli, pragmatik va mintaqaviy yetakchilikka intiluvchi strategiya sifatida baholash mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada Turkiyaning zamonaviy tashqi siyosiy rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlarini tahlil qilishga qaratilgan bo‘lib, unda kompleks siyosiy-ilmiy metodologik yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqotning metodologik asosini xalqaro munosabatlar nazariyalari, geosiyosiy tahlil hamda mintaqaviy integratsiya konsepsiyalari tashkil etadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Turkiya Yevropada iqtisodiyoti bo‘yicha 7-o‘rinda (Xalqaro valyuta fondi 2019), aholi soni bo‘yicha Germaniyadan so‘ng turadi. Turkiya ko‘p yillar Yevropa va Osiyoni bog‘lab turuvchi ko‘prik sifatida muhim rol o‘ynagan. Shundan kelib chiqadigan bo‘lsa, tarixan Turkiya o‘zini Yevropaning bir qismi deb biladi.

Turkiyaning Yevropa Ittifoqiga kirishga ariza berganiga 50 yilga yaqinlashib qoldi. Yevropa Ittifoqiga a’zolik talablarining yarmidan ko‘pi bajarilgan bo‘lsa-da, Yevropa eshiklari hali ham ochilgani yo‘q. Bir tomonda Fransiya “1915-yil armanlar genotsid”ini tan olish, ikkinchi tomonda Gretsiyaning Turkiya tomonidan okkupatsiya qilingan Kipr hududidan chiqib ketish va kurdlar masalasi kabi siyosiy talablari Turkiyaning Yevropa hamjamiyatiga kirishiga to‘siq bo‘lmoqda.

Xususan, 1995-yilda Yevrokomissiya Turkiyaning Yevropa Ittifoqiga a’zoligi masalasida “kurdlar muammosi”ni hal qilinishi kerak bo‘lgan asosiy vazifa sifatida ko‘rsatgan edi (Дружиловский С.В., 2001:19). 2005-yilga kelib, Turkiya rasmiy jihatdan mamlakatda “kurd muammo”si masalasi hal qilinishida kurdlarning etnik haq-huquqlari borasida katta qadamlar tashlanganligini bildirgan edi (Вертяев., 2006:17).

Tashqi siyosatda munosabatlarda qo‘shni Gretsiya bilan bog‘liq muammolar mavjud. Aniqroq qilib aytadigan bo‘lsak, -muammolar! *Birinchidan,* Egey dengizida Turkiyaning Gretsiyaga yaqin hududlari va Sharqiy O‘rta Yer dengizida Kipr oroliga yaqin masofada ilmiy-tadqiqot, neft-gaz qidiruv ishlarini olib borishi Gretsiya hukumatini tashvishga soladi. 1982-yilgi BMTning Xalqaro dengiz hududi konvensiyasini (qirg‘oqdan 12 dengiz milyasi, taxminan 22 km hudud tushuniladi.) Turkiya ratifikatsiya qilmagan. *Ikkinchidan,* mahalliy grek va turk aholisi o‘rtasidagi nizo sabab, 1974-yilda shimol va janubga ajralgan Kipr birlashishi masalasi hal bo‘lmasligida Yevropa Ittifoqi Turkiyani ayblaydi. Shimoliy Kiprni okkupatsiya qilganlikda Gretsiya Turkiyani ayblaydi. So‘nggi yillarda paydo bo‘lgan muammolardan biri Yaqin Sharq, Pokiston, Suriya va Afg‘onistonlik migrantlarning Yevropaga Gretsiya hududidan tranzit sifatida foydalanishlarida kuzatilmoqda. Gretsiya hukumati migrantlarni o‘z hududidan o‘tishida sharoit yaratib berganlikda Turkiyani ayblaydi.

Afina Milliy universiteti iqtisodiy geografiya va geosiyosiy fanlari professori *Ioannis Mazis* fikricha, Erdog‘an o‘ziga uyushtirilgan 2016-yil 15-iyuldagi suiqasddan so‘ng siyosiy muxolif opponentlaridan qutulish imkonini berdi. Uning fikricha, Gretsiya Turkiyaning xatti-harakatlariga qarshi Afina-Nikosiya-Quddus va Afina-Nikosiya-Qohira ikki yo‘nalishlarida harbiy hamkorlikni rivojlantirishi kerak. Ba’zi ekspertlarning fikricha, Gretsiya NATO tarkibida bo‘lsa ham, ittifoqchilar unga yordamga kela olmasliklari mumkin. Chunki, NATOga a’zo davlatlar tarkibida ham kelishmovchilar mavjud, - deb hisoblashadi (Мельник., 2018:23).

2016-yil 16-iyul Turkiyada davlat to‘ntarishi harakatida ishtirok etgan turk armiyasi bir necha ofitserlari Gretsiya hududiga qochib o‘tishi va ularga siyosiy boshpana berilishi R.T.Erdog‘anga yoqmadi.

So‘nggi yillarda Turkiya va Gretsiya o‘rtasida Egey dengizida joylashgan orollar demarkatsiyasi va orollarda Gretsiyaning mudofaa radar antennalarini o‘rnatilishi, Gretsiyaning o‘z ittifoqdoshlari bilan provakatsion tarzda dengizda harbiy mashg‘ulotlarni o‘tkazilishi, Turkiya Egey va O‘rta Yer dengizida uglevodorod resurslari geologik qidiruv ishlarini olib borishi, Kiprni birlashuviga Turkiyaning to‘sqinlik qilishi, migrantlar oqimini nazorat qilinmasligi, energo-resurslarga egalik va tranziti borasidagi turkum masalalar ikki tomonni kompromissga borishligiga to‘sqinlik qiladi.

Markaziy Osiyo davlatlari mustaqilligini birinchilardan tan olgan Turkiyaga o‘zining tarixiy, madaniy, diniy va lingvistik jihatdan yaqin munosabatlari bilan faol tashqi siyosatni olib borishiga hamda “Yangi Katta o‘yin” (Menon R., 2003:10) ishtirokchisiga aylanish imkonini berdi. Dastlabki yillarda Turkiyaning Markaziy Osiyo davlatlari bilan madaniy-gumanitar, iqtisodiy hamkorlikni faollashtirishga harakat qila boshladi. Lekin, yo‘l qo‘ygan bir necha xatolari, ya’ni “katta og‘a” rolini o‘ynashga harakat qilishi mintaqa davlatlarining antipatiyasiga sabab bo‘ldi. Bu Turkiyaning bu mintaqadagi manfaatlariga zarba edi. Markaziy Osiyo davlatlari SSSR va Rossiyadan so‘ng yana bir “katta og‘a” kelishini istamasligini Turkiya anglab yetdi.

Mintaqada o‘z ta’sir doirasini ushlab turish maqsadida Turkiya “soft power” (Çavuş T., 2012:4). siyosatidan faol foydalanadi. Shu maqsadda “TIKA” va “TURKSOY”, turk tili va madaniyatini targ‘ib qiluvchi Yunus Emro instituti kabi tashkilotlarning mintaqada roli oshmoqda.

Turkiya Markaziy Osiyoning eng katta hududiga ega, Qozog‘iston bilan savdo va energetika sohalarida yirik kelishuvlarga ega. Mintaqadagi boshqa bir davlat, Turkmaniston bilan neft-gaz va savdo, qurilish sohalarida hamkorlikka ega. Turkiya turkman gazini Kaspiy orqali Baku-Tbilisi-Jeyhan quvuri bilan Yevropaga

o‘tkazish borasida kelishuvlarni olib bormoqda. Bu esa Markaziy Osiyo davlatlarining energetika sohasini diversifikatsiya qilishiga imkon beradi.

Turkiyaning O‘zbekiston bilan munosabatlarida ko‘p bora sovuqchiliklar tushgan bo‘lsa-da, so‘nggi yillardagi o‘zgarishlar ijobiy tus oldi. 20 yil deganda, Prezident Shavkat Mirziyoyevning Turkiyaga tashrifi, aloqalarning mustahkamlanishi hamkorlikni yangi darajaga ko‘tardi. Prezident Mirziyoyevning olib borayotgan tashqi siyosatini Turkiya to‘la qo‘llab-quvvatlashini ta’kidlab keladi.

Qirg‘iziston bilan savdo aloqalari u qadar katta bo‘lmasa-da, Turkiya TIKA tashkiloti orqali 850 mln (http://www.tika.gov.tr/tr). dollardan ortiq moddiy gumanitar yordamni yetkazib berdi. Xuddi shunday kamtarona aloqalar Tojikiston bilan ham olib borilmoqda. TIKAning Tojikistondagi madaniy-gumanitar faoliyatini yuqori baholash mumkin. 2009-yilda ilk bor Turkiya Prezidenti Abdullah Gulning Dushanbega rasmiy tashrifi bilan ikki davlat o‘rtasidagi aloqalarni yangi bosqichga olib chiqishga harakat qilmoqda.

Umumiy olganda hokimiyat tepasiga Erdog‘an kelishi bilan Turkiyaning Markaziy Osiyodagi tashqi siyosatini neoosmanizm, liberal islom va panturkizm prinsiplari asosida rivojlantirishga harakat qilingani ma’lum. Yevropa Ittifoqiga a’zolik masalasida Turkiya oldinga siljishlar bo‘lmaganidan so‘ng, mintaqaviy energotizim va umumiy bozorga ega turk dunyosini shakllantirishga harakat qilinmoqda. 2009-yil shakllantirilgan Turk Kengashi (Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashi) ham ana shu maqsadlarda xizmat qilishi nazarda tutilgan. Turkiy tilli davlatlarda Turkiyaning integratsion jarayonlari keyinchalik katta bir siyosiy-iqtisodiy birlashmaga aylanishi, mintaqada Rossiya va Xitoy manfaatlari bilan to‘qnashishi taxmin qilingan edi. Ammo Turkiy Kengash mintaqadagi boshqa siyosiy aktorlarga raqobatchi emas, to‘ldiruvchi va turkiy dunyoning madaniy hayotini integratsiyaga olib keluvchi vosita sifatida qaralishi kerak ekanligi ma’lum bo‘ldi. Orada iqtisodiy masalalar ham diqqat markazida bo‘lib kelmoqda.

Qozog‘iston va Qirg‘izistonning Yevro-Osiyo Iqtisodiy Hamkorlik tashkilotiga a’zoligi va bu davlatlar uchun Rossiyada bojxona to‘siqlari yo‘qligi Turkiyaning ayni manfaatlariga xizmat qiladi. Bundan tashqari, turkman va qozoq gazini *TANAP* (https://www.tanap.com/tanap-project/why-tanap/) loyihasi orqali Janubiy Yevropaga yetkazib berish bilan Rossiyaning *GAZPROM* tashkilotiga raqobat qilishi kutilmoqda.

Turkiya tashabbusi bilan *Baku-Tbilisi-Kars* temir yo‘lining qurilishining boshlanishi Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorlik masofalarini yaqinlashtirish

imkonini beradi. Bu bilan Turkiya Rossiya portlaridan foydalanishni kamaytirishni maqsad qilgan.

Kavkazortida esa, Gruziya va Ozarbayjonni Turkiyaning asosiy hamkori sifatida ko‘rish mumkin. O‘zaro munosabatlarga kelsak, Turkiyada bo‘lgan hududlarni Abxaziya, Janubiy Osetiyani Gruziyaning ajralmas qismi sifatida tan oladi. 2004-yilda Adjariyada muammolar yuz bergan vaqti Turkiyaning Gruziyaga yordamini 2008-yilda Gruziya Prezidenti Mixail Saakashvili ham e’tirof etgan edi.

Gruziyaning 2008-yilda Janubiy Osetiya urushida Rossiyadan mag‘lubiyati sabab NATO alyansiga a’zo bo‘lish jarayonini tezlatib yubordi. Bunda Gruziyaga Turkiyaning qo‘llovi juda muhim. Ana shu maqsadlar yo‘lida Turkiya bir necha bor Kavkazda Gruziya va Ozarbayjon bilan qo‘shma harbiy mashg‘ulotlarni o‘tkazib keladi.

Ozarbayjon bilan Turkiya munosabatlari “bir-millat, bir-davlat” prinsiplariga qurilgan. 1993-yildan buyon, Armaniston Tog‘li Qorabog‘ni egallashi ortidan Turkiya o‘z chegaralarini yopgan edi. 2009-yilga kelibgina, ikki o‘rtada diplomatik munosabatlar o‘rnatildi. 2014-yilda prezident Erdog‘an Birinchi jahon urushida halok bo‘lgan arman millati avlodlari oldida hamdardlik bildirgan edi. Erdog‘an bu mavzuda Armaniston hukumatini “siyosiylashtirmaslik”ni so‘radi. Hozirgi kunda dunyoning 30 davlati “armanlar genotsid”ini rasman tan olishgan. Bu muammodan tashqari Armaniston va Ozarbayjon o‘rtasida Tog‘li Qorabog‘ masalasida Turkiya Ozarbayjon tarafida yon bosadi. 2020-yilga kelib vaziyat o‘zgarib, Ozarbayjon qarshi hujumga o‘tib, “44 kunlik” urushda Tog‘li Qorabog‘ni Armanistondan qaytarib oldi. Albatta, bunda Turkiyaning uchuvchisiz harbiy dronlari samarali yordam ko‘rsatdi. Bu esa bevosita Turkiyaning Kavkazda Rossiya bilan teng raqobatda ekanligidan dalolat berar edi (Welt., 2021:29).

O‘zaro munosabatlar tarixda 13 marotaba rus-turk harbiy to‘qnashuvi bilan esda qolgan. Ikki davlat o‘rtasidagi manfaatlar Qora dengiz havzasi, Bolqon, Yaqin Sharq, Kavkaz, Markaziy Osiyoda bevosita to‘qnashadi. Oxirgi marta bu ikki davlat Birinchi jahon urushida to‘qnash kelgan. Sovuq urush davrida esa, Turkiya SSSRning janubiy sarhadlarida NATO uchun muhim platsdarm vazifasini o‘tagan. Ana shu sabablar tufayli ikki o‘rtada siyosiy munosabatlarda cheklanishlar bo‘lgan.

XX asrning 90-yillarida 1 va 2-chechen urushlarida aynan Turkiya hududida jangovar tayyorgarlikni o‘tagan jangarilar Rossiya federal kuchlariga qarshilik ko‘rsatgan degan iddaoni rasmiy Kreml ilgari surgan edi.

Oxirgi o‘rtadagi ziddiyat 2015-yildagi voqealar (Turkiyaning Xatay viloyati xavo chegaralarini buzib o‘tganligi uchun Rossiya Harbiy Koinot Kuchlariga tegishli Su-24 harbiy qiruvchi samolyotini urib tushirgan edi) va 2016-yil dekabrda

Rossiya elchisi Karpovning turk fuqarosi tomonidan o‘ldirilishidan so‘ng biroz vaqt o‘tib munosabatlar qayta tiklandi.

Lekin, Suriya masalasida ikki o‘rtada munosabatlarda ikki xil fikr. Rasmiy Anqara Suriyada Bashar Asadning hokimiyatdan ketishini istagan edi. Ammo, Rossiya uning hokimiyatini saqlab qolinishi tarafdori bo‘lib chiqdi.

Yuqoridagi masala ortidan Qora dengiz bo‘g‘ozlari masalasida Turkiya va Rossiya o‘rtasida ziddiyatlar kelishiga sabab ham bo‘lgan edi. Suriyadagi IShID marralariga zarba beruvchi Rossiya harbiy kemalarini bo‘g‘ozlardan o‘tkazmaslik borasidagi AQSh va uning ittifoqchilarining Turkiyaga bosim o‘tkazishi, NATO harbiy kemalarining Ukraina bilan Qora dengizda mashg‘ulotlar o‘tkazilishi munosabati bilan Rossiyaning noroziligiga sabab bo‘lgan edi.

Nima bo‘lganda ham, ikki davlat munosabatlarda konsensusga kelishdan tomonlar manfaatdor. Rossiya Prezidenti V.V.Putin va Turkiya Prezidenti R.T.Erdog‘an ham davlatlar o‘rtasidagi munosabatlarda tinchlik, xavfsizlik, iqtisodiy barqarorlik bo‘lishi ikki millat uchun zarur ekanligini ta’kidlab kelishadi.

Turkiya va Rossiya vositachiligi 2011-yildan beri davom etib kelayotgan Suriya inqirozini hal qilishda uch taraflama va kurashuvchi tomonlar o‘rtasidagi 2017-yilgi Astana (Nur-Sultan) kelishuvlari va 2018-yilgi Sochi (Rossiya)da yig‘ilishlarda muammolarni hal qilishda katta rol o‘ynamoqda.

O‘zaro munosabatlarga kelsak, 2018-yilda Rossiya tashqi savdosida Turkiyaning (russian-trade.com., 2019:22) 6-o‘rinni egallashi va o‘zaro savdo aylanmasi 25 mlrd $ dan oshganligini qayd etish mumkin. O‘z navbatida Turkiyaning asosiy savdo hamkorlari qatorida Rossiya 2019-yil iyun holatiga ko‘ra (Обнародована статистика внешней торговли Турции 2020:21), 5-o‘rinni egalladi. 2025-yil Turkiya Statistika instituti hisob-kitobiga ko‘ra o‘zaro savdo 32,9 mlrd $ni tashkil etgan va Turkiyaning uchinchi savdo hamkoriga aylangan. Bundan tashqari, Turkiya Rossiya uglevodorod xom-ashyosini Qora dengiz orqali Janubiy-Sharqiy Yevropaga yetkazilishida 2014-yildagi kelishuvlar asnosida yillik 31.5 mlrd[3] gazni o‘tkazish imkoniyatiga ega “Turk oqimi” (GazPROM., 2020:2) quvurining 2020-yil 8-yanvar sanasida ishga tushirilishi Turkiyaning Yevropa uchun energiya “*xab*”iga aylanish imkoniyatini oshirdi. Turkiyaning ilk “*Akkuyu*” AESining qurilishida Rossiyaning ishtiroki yuqori baholanmoqda.

Ikkinchi jahon urushidan so‘ng Marshal rejasiga ko‘ra Turkiya 137 mln.$ dollari miqdorida AQShdan moddiy yordam olgan (Nurgün K., 2017:11). Bu o‘z navbatida Turkiya iqtisodiyoti rivojlanishi uchun katta turtki bergan. Turkiya NATOda AQShdan so‘ng ikkinchi yirik harbiy kontingentga ega davlat. Turkiya o‘z oldidagi ittifoqchilik burchi sifatida 1950-1955-yillardagi Koreya urushida AQSh qo‘shinlari safida urushga kirgan edi. 1990-yilgi Fors ko‘rfazi, 1999-yilgi

Bolqon, 2001-yil Afg‘oniston, 2011-yil Liviya, 2003-yil Iroq va Suriyadagi harbiy harakatlarda AQShni qo‘llab-quvvatlagan.

Ikki davlat o‘rtasidagi munosabatlarda ziddiyatlar ham bo‘lib turgan. 1974-yilda Kiprdagi harbiy harakatlarda Turkiya o‘z harbiy salohiyatini NATO a’zosi sifatida foydalanganligi ortidan AQSh noroziligiga uchragan edi. Har qanday holatda ham AQSH Turkiyani muhim strategik hamkor sifatida biladi.

2017-yil kelishuvlariga ko‘ra, 2019-yilda Turkiya havo hujumiga qarshi Rossiyaning S-400 kompleksini xarid qildi. AQSh o‘z navbatida Rossiya bilan S-400 kompleksi bo‘yicha kelishuvlarni bekor qilinishini va uning o‘rniga “Patriot” kompleksini Turkiyaga taklif qilgan edi (Çelikkol O., 2018:5). AQSh prezidenti D.Tramp bir necha bor S-400 kompleksini sotib olmaslik bo‘yicha prezident R.Erdog‘anni ko‘ndirishga harakat qildi (Дембинская Н., 2019:1). 2019-yil Doha (Qatar)dagi forumda Turkiya Mudofaa vaziri Akar Husuli bayonotida, Turkiya 1999-yildan buyon, Fransiya va AQShdan havo hujumiga qarshi tizimni sotib olish bo‘yicha murojaatini qanoatlantirmaganligi sababidan mamlakat xavfsizligi o‘ylanganligi uchun S-400 kompleksini sotib olishga to‘g‘ri kelganligini aytdi (https://minval.az/news/123943667?utm). AQSh Rossiya bilan harbiy hamkorlik borasida Turkiyaga iqtisodiy sanksiyalar bilan ogohlantirdi. Hatto, F-35 harbiy uchoqlarni yetkazib berish kelishuvini bekor qildi. Turkiya tomoni esa, o‘z hududida ikkita harbiy havo bazalari Injirlik va Ko‘rejikni AQSh uchun yopish masalasini ko‘tarish niyatida ekanligini bildirdi.

2019-yilda Turkiyaning Suriyada kurdlarga qarshi harbiy operatsiyalari AQSh noroziligiga uchradi. IShIDga qarshi kurashda AQSh kurdlarni qurollantirgan. Zamonaviy qurollarga ega kurdlarni Turkiya o‘zi uchun asosiy xavf deb biladi. O‘z navbatida Turkiya AQSh va Isroilni kurd jangarilarini qurol-yarog‘ bilan ta’minlashda aybladi.

Turkiya AQShning Yaqin Sharqdagi siyosatini doimo tanqid qilib keladi. Ayniqsa, 2019-yilda D.Trampning AQSh elchixonasini Quddusga ko‘chirish haqidagi qarorini Turkiya ma’qullamadi. Uning bu qarori mintaqadagi xavfsizlikka salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligidan ogohlantirdi.

Oxirgi 2019-yil dekabrda AQSh Senati *armanlar genotsidi* bo‘yicha qarorni qabul qilishi Turkiya noroziligiga sabab bo‘ldi.

Hozirgi kunda Turkiya Yaqin Sharqda yetakchi rolini o‘ynashga harakat qilmoqda va bunda AQSh bilan munosabatlarda balansni ushlagan holda mintaqada o‘zining mustaqil tashqi siyosatini olib borishga intilishlar bor.

Shu paytgacha Turkiya AQShning barcha qarorlari, xohish-istaklariga qarshi chiqmagan. Bugungi kundagi tashqi siyosatdagi holatni ekspertlar “*yo‘q demoqlikni bilish*” deya baho bermoqda. O‘z vaqtida XX asrning 80-yillar oxirida

Yaponiyaning tashqi siyosat borasida AQSH ta’siridan mustaqil tarzda yo‘lga qo‘yganligini esga olish mumkin.

Turkiya va AQSh hamkorligi doirasida NATO tashkiloti ta’sirini unutmaslik lozim. Turkiya 1952-yilda NATOga a’zoligi va Yevro-Atlantika ittifoqi integratsiyasida ishtiroki bilan xavfsizlikka o‘z hissasini qo‘shib kelmoqda. Siyosiy aspektlarga ko‘ra, Turkiyaning NATOga a’zoligi kapitalistik mamlakatlar uchun “Sovuq urush” davrida SSSRning janubiy sarhadlarida ishonchli ittifoqdoshga ega bo‘lishini nazarda tutgan edi. Keyinchalik, 1979-yilda Eronda shoh hokimiyati ag‘darilishi Turkiyaning Yaqin Sharqda NATOning “funksional ittifoqchisi” (Aybet G., 2012:3) ga aylantirdi.

Turkiyaning Yaqin Sharqda sezilarli darajada faollashuvi 1991-yilda AQSh va uning ittifoqchilarining Iroq agressiyasiga qarshi “*Sahrodagi bo‘ron*” amaliyotiga sabab bo‘ldi. Bunga qadar Turkiya AQSh va uning ittifoqchilarining Sovet Ittifoqiga qarshi platsdarm bo‘lib xizmat qilgan. Sovet Ittifoqi parchalanishi Turkiyaning NATO va uning ittifoqchilari orasida Turkiyaning ahamiyatini biroz tushirgandek bo‘ldi. “Sahrodagi bo‘ron” operatsiyasi esa Turkiyaga o‘zining harbiy salohiyatini namoyish qilish imkoniyatini bergan edi.

1998-yildan beri faoliyat olib borayotgan “*Tinchlik uchun hamkorlik mashg‘ulotlar markazi*” tashkil qilinishida Turkiya General Shtabining hissasi bor. Kosovo, Makedoniya va Bosniya-Gersegovinaning NATOga a’zo bo‘lishini Turkiya qo‘llab-quvvatlamoqda. Serbiya va Kosovo o‘rtasidagi munosabatlarni ham yaxshilanishi tarafdori (http://www.mfa.gov.tr/nato.en.mfa).

2019-yil 4-dekabrda NATOning 70 yilligi ortidan alyansga a’zo davlat rahbarlarining London anjumani arafasida Fransiya prezidenti E.Makron Turkiyaning Suriyadagi kurdlarga nisbatan harbiy harakatlari sababidan “Turkiyani alyans safidan chiqarish kerak degan” fikrlari yangragan edi. Erdog‘an esa Fransiyaning Suriyada harbiy aralashuviga hech qanday sabab yo‘qligi, NATO oldidagi to‘lov badalini bajarib qo‘yishligini Makronga eslatib qo‘ydi. Bu holat NATO a’zolari orasida, xususan Turkiyaning AQSh, Fransiya o‘rtasida kelishmovchiliklar alyansda muhit yaxshilanishi kerak degan fikr uyg‘onadi. Bu ayniqsa, Yaqin Sharqdagi yuz berayotgan hodisalarda namoyon bo‘lmoqda.

Turkiya XXI asrning ikkinchi dekadasida mintaqada ancha faol tashqi siyosat olib bormoqda. Buni Yevropa integratsiyasiga qo‘shila olmagan Turkiya e’tiborini Sharqqa qaratganligidan bilish ham mumkin. O‘z navbatida Turkiya mintaqada yuz bergan “*Arab bahori*” inqiloblarini to‘laqonli qo‘llab-quvvatladi. Bu ayniqsa Suriya muammosida yaqqol namoyon bo‘ldi. 2011-yilning mart oyida Suriyada hukumatga qarshi boshlangan namoyishlar ortidan Bashar Asadga muxolifat bo‘lgan Suriya demokratik kuchlari aynan Turkiya hududiga ko‘chib o‘tdi. Bir

paytlar Asadni “birodarim” (Akal D., 2022:26) deb aytgan Erdog‘an bugun Asadni “terrorchi” deb atab, unga qarshi kurashni to‘la qo‘llab-quvvatlab turibdi. Minglab suriyalik qochqinlarga joy bergan Turkiya Asadga muxolif bo‘lganlarni qurollantirib, IShID va kurd separatchilariga qarshi kurash bahonasida Suriyada harbiy amaliyotlarni o‘tkazib kelmoqda.

2017-yilda Turkiya o‘zining Suriyadagi birinchi “*Firot qalqoni*” harbiy operatsiyasi bilan “*Aziz-Jirablus-Bob*” chizig‘i ostida 2 ming km^2 hududni IShIDdan ozod qilib, Ozod Suriya Armiyasi nazorati ostiga olinishini ta’minlab berdi. 2018-yilda Suriyaning Afrin hududida ikkinchi “*Zaytun novdasi*” nomli harbiy operatsiyasi natijasida Iroqdan Hatay hududlarigacha bo‘lgan chegara nazorati o‘rnatildi va Ozod Suriya Armiyasi harakatlari uchun hududga zamin yaratildi. Lekin AQShning KIP tashkilotini harbiy yordam bilan ta’minlashi rasmiy Anqara va Vashington o‘rtasida sovuqchilik olib kelishiga olib keldi.

2019-yil 9-oktyabrda AQSh va Rossiya maslahatlashuvidan so‘ng, Turkiya o‘zining uchinchi “*Tinchlik manbasi*” nomli harbiy operatsiyasini boshlab yubordi. Bu harbiy operatsiyaga Fransiya, Italiya va Gretsiya tomonidan jiddiy tanqidlarga uchradi. Shunga qaramay, Turkiya o‘z chegarasidan Suriya ichkarisigacha 30 km *xavfsiz bufer zona* yaratish uchun KIP kuchlariga qarshi harbiy operatsiyalarni boshlab yubordi.

Rossiyaning 2015-yil iyul oylarida Suriya urushiga kirishi asosiy sababi siyosatchi V.Kashin fikricha (Кашин В., 2020:16), AQShning Iroq va Suriyada IShID va xalqaro terrorizm kuchlariga strategik jihatdan mag‘lub bo‘lishligi va buning ortidan Kavkaz va Markaziy Osiyo hududlarida Rossiya ishtirokida keng miqyosli quruqlikdagi janglar boshlanishini oldini olish uchun qilinmoqda. Kashin AQShning Iroq, Suriya va Afg‘onistondagi samarasiz siyosati sabab terrorchilarni Markaziy Osiyo va Kavkaz orqali Rossiya hududiga sizib kirishi xavotirini bildirgan. Suriya prezidenti Bashar Asad aytishicha (https://rg.ru/2019/11/11/asad-nazval-prichiny-uchastiia-rossii-v-voennoj-operacii-v-sirii.html) urushga sabab Suriyadagi neft zaxiralariga AQSh va uning ittifoqchilarining qiziqishi hamda ittifoqchi Rossiyaning urushga kirishini Suriyadagi qonuniy hokimiyatni ta’minlashda xalqaro huquq normalarini himoya qilmoqda. AQShning *RAND Corporation* tadqiqot markazi tahlilchilari (www.topwar.ru., 2019), Rossiyaning Suriyadagi urushga kirishi O‘rta Yer dengizidagi o‘zining so‘nggi harbiy dengiz qarorgohida joylashgan Suriyadagi Bashar Asad hokimiyatini saqlab qolish bo‘lgan demoqdalar. Chunki Rossiyaga xayrixoh bo‘lgan Yaman, Liviya va Iroqda qulagan tuzumlar taqdiri Suriyada Bashar Asadga tushishligi sababdan Rossiyaning rejimni saqlab qolish uchun amaliy harakatga tushganligi bilan izohlash mumkin. Suriyada 2024-yilda B.Asad rejimi qulashi Turkiyaning

Suriyadagi siyosatining yana bir muvaffaqiyati sifatida qabul qilindi. Suriyani qayta qurishda Turkiya asosiy rolni o‘ynashi kutilmoqda.

Misr bilan Turkiya munosabatlarida, xususan Abdul-Fattoh As-Sisiy boshchiligidagi harbiylar 2013-yil M.Mursiyni prezidentlikdan ag‘darishgandan so‘ng taranglashgan edi. 2011-yil hokimiyat tepasiga kelgan “*Musulmon birodarlar*” lideri M.Mursiy bilan Erdog‘an va uning partiyasi bilan mustahkam aloqalarga ega edi. Misrda ilk bor demokratik yo‘l bilan saylangan qonuniy hukumatni ag‘darilishini Turkiya hukumati qattiq tanqid ostiga oldi.

2019-yildan Misr va Turkiya o‘rtasidagi munosabatlar tiklana boshlandi. Asosan iqtisodiy hamkorlik masalalari, Suriya, Livan va Falastindagi mojarolarni diplomatik hal qilish pragmatik yo‘llar bilan aloqalar rivojlantirilmoqda. O‘rta Yer dengizi maqomi, Suvaysh kanali, Falastin va Isroil masalalarida Turkiya Misr bilan hamkorlikda siyosiy, madaniy-gumanitar va xavfsizlik masalalarini birgalikda hal qilish bo‘yicha kelishuvlarga ega.

Turkiya Yaqin Sharqda mustaqil Falastin davlatining tashkil etilishi tarafdori sifatida harakatlari Isroil bilan munosabalarining sovuqlashishiga olib keldi. 2010-yil G‘azo sektorida Turkiyaga qarashli gumanitar yuk bo‘lgan flotni (Mavi Marmara kemasi) Isroil qirg‘oq qo‘shinlarini o‘qqa tutishi natijasida turk fuqarolarining halok bo‘lishi ortidan munosabatlar taranglashdi. Butun arab va islom olami bu vaziyatda Turkiyani qo‘llashi natijasida Isroil Falastinga nisbatan blokadani yumshatishga majbur bo‘ldi.

Isroil va Falastin masalasida Turkiya alohida pozitsiyaga ega. BMTning 2019-yildagi 74-sessiyasida Turkiya Prezidenti R.Erdog‘an minbardan turib, Isroilni yillar davomida Falastin yerlarini egallab kelayotganlikda aybladi. O‘z navbatida Isroil bosh vaziri B.Netanyaxu ham Turkiyani armanlar va kurdlarni genotsid qilishlikda ayblab chiqdi. G‘azo (Falastin) anklavida 2006-yilda saylovlarda Hamas siyosiy guruhi g‘alaba qozonganidan so‘ng Turkiya muloqot o‘rnatgan kam sonli davlatlardan bo‘ldi. 2011-2021-yillarda G‘azo blokadasi 2023-yilda Hamasni urush harakatlarini boshlashiga sabab bo‘ldi. Gumanitar yordam masalasida Turkiya Isroilni genotsidda aybladi. Mintaqada Turkiyani faollashuvi albatta Isroilni havotirga soladi.

2010-yilda buyon Turkiya va Livan o‘rtasida vizasiz rejim amal qilib keladi. “*Arab bahori*” va Suriya inqirozi davrida Livan xavfsizlik va iqtisodiy aloqalar doirasida muhim rol o‘ynagan edi (Üstün K., 2011:27). 2020-yilda Bayrut portidagi portlashda birinchilardan bo‘lib yordam qo‘lini Turkiya cho‘zgan edi. Livanda TIKA tashkiloti loyihalarda faol ishtirok etib “*yumshoq kuch*” siyosatini namoyon etib kelmoqda (www.mfa.gov.tr., 2023).

XULOSA VA TAKLIFLAR

XXI asr boshlarida Turkiya o‘zining tashqi siyosatini yangi bir kontsepsiya asosida qurishni boshladi. Turkiyaning o‘tmish mas’uliyati, unga yaqin mintaqalar Kavkaz, Kaspiy va Qora dengiz havzasi, Bolqon, Sharqiy O‘rta Yer dengizi, Yaqin Sharq va Fors ko‘rfazidan tortib, Shimoliy Afrika hududlarini o‘z manfaatlari doirasiga kiritishi yangi tashqi siyosat ambitsiyalari - “*neoosmanizm*” deb nomlandi. Lekin aksar hollarda geosiyosiy va geoiqtisodiy manfaatlar ustun turishi olib borilayotgan tashqi siyosatdan bilish mumkin.

Turkiya muhim geografik joylashuv nuqtasi uning faol tashqi siyosat olib borishiga asosiy omil bo‘ladi. Turkiya yaqin qo‘shnilar bilan muammolarni nol darajada ushlash siyosatini ko‘p tomonlama dialoglar asosida hal qilish diplomatiyasini amalga oshirishga harakat qilmoqda. Ma’lum bir vaqtdan keyin XX asrning 90-yillarida islomiy an’analar bilan panturkizm elementlari Turkiya hukumati tarkibiga kirib keldi. Bu esa, rasmiy Anqaraning Markaziy Osiyo va Kavkaz hamda Rossiya, Eron, Xitoyda o‘z manfaatlarini oshirishiga imkon yaratdi.

Turkiya tashqi siyosat konsepsiyasi arxitektori sifatida tan olinadigan Ahmet Dovutog‘lu taklif qilgan “*qo‘shnilar bilan nol muammolar*” prinsipi ba’zi hollarda omadsizlikka uchragan bo‘lsa-da, mintaqada savdo-iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirishda katta rol o‘ynadi. Isroil, Misr, Armaniston, Rossiya, Gretsiya, Iroq, Eron kabi davlatlar bilan siyosiy ma’noda muammolar mavjud bo‘lsa-da, Turkiya fuqarolarining bu davlatlardagi iqtisodiy faoliyatiga unchalik ta’sir etmaydi.

Tashqi siyosatda manfaatlari to‘qnashgan Turkiya konfrontatsiyaga borishga harakat qiladi. So‘nggi yillarda tashqi siyosatda Turkiya mustaqil qarorlar chiqarib, NATOdagi ittifoqchilar va AQSh qaramog‘idan qutulishga harakat qilmoqda. Har qanday siyosiy kelishmovchiliklarni Turkiya tezda hal qilishga va muammolarni bartaraf etishga intilmoqda. AQSh va uning ittifoqchilari kurd separatchilarni qo‘llashi va 2015-yilgi davlat to‘ntarishida ayblangan Fathulla Gulenni ekstraditsiya qilishni rad etilishi sabab Turkiya G‘arb bilan munosabatlariga sovuqchilik tushirdi. Bu orada Turkiya o‘z sarhadlarida tashqarida FETO, IShID va KIP bilan kurash olib bordi. Bunday murakkab kechgan 2017-yilni Anqara universiteti doktori Jamil Ipek (Ипек., 2017:24) Turkiya uchun omadli keldi deb hisoblaydi. Uning fikricha, Turkiyada to‘laqonli prezidentlik boshqaruviga o‘tilishi mamlakatdagi ichki muammolarni hal qilgan va Turkiyaning G-20 davlatlari orasida iqtisodi 11,1% lik o‘sish ko‘rsatkichga yetishi hamda mamlakatning energiya qaramlikning kamaygan.

2018-yilda AQSh prezidenti D.Tramp Quddusni Isroil poytaxti sifatida tan olishi va Myanmadan rohinja musulmonlarining genotsidini rasmiy Anqara tomonidan qoralashi ortidan Turkiyaning islom dunyosidagi obro‘si oshdi. Bu

holat ayniqsa arab davlatlarining Qatarga nisbatan izolyatsiyani yengib chiqishida Turkiyaning yordamida yaqqol ko‘rindi. Bu harakatlar Turkiyaning arab dunyosida, islom olamida yetakchilikka intilishi, mintaqada olib borayotgan tashqi siyosatida mustaqil qarorlar chiqarishga intilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Akal Deger (2022). Erdoğan'ın riskli Esad açılımı
2. Aybet Gülnur (2012). Turkey’s Security Challenges and NATO. Carnegie Endowment for International Peace.
3. Çavuş Tuba (2012). Dış Politikada yumuşak güç kavramı ve Türkiye’nin yumuşak güç kullanımı. Kahramanmaraş Sütçü İmam Üniversitesi İktisadi ve İdari Bilimler Fakültesi Dergisi, Cilt 2, Sayı 2. ss.23-37.
4. Çelikkol Oğuz (2018). 2018 yılında Türk dış politikası.
5. Дружиловский С.В. Политика турецкого правительства в курдском вопросе после военного переворота 1980 г. // Курдская проблема: международный аспект. М.: ДА МИД России, 2001, с. 47.
6. Гасюк Александр (2019). Асад назвал причины участия России в военной операции в Сирии. https://rg.ru/2019/11/11/asad-nazval-prichiny-uchastiia-rossii-v-voennoj-operacii-v-sirii.html (дата обращения: 06.01.2020).
7. Глава Минобороны Турции объяснил, что вынудило Анкару купить С-400. https://ria.ru/20191215/1562407812.html (дата обращения: 06.01.2020).
8. Глава Минобороны Турции объяснил, что вынудило Анкару купить С-400. https://minval.az/news/123943667?utm (дата обращения: 12.12.2019).
9. Ипек Ж.Д. Внешнеполитические достижения Турции в 2017 г.
10. Кашин Василий (2015). Зачем России война в Сирии. https://www.vedomosti.ru/opinion/articles/2015/10/09/612096-zachem-rossii-voina.
11. Мельник Геннадий (2018). Турция ведет против Греции гибридную войну, считают эксперты. https://ria.ru/20180309/1516060308.html (14.01.2020).
12. Menon Rajan. The New Great Game in Central Asia. The International Institute for Strategic Studies. Survival. Vol 45. No.2. Summer 2003, pp. 187-204.
13. Nurgün Koça Bedriye Koç. Affects of Marshall Plan on Turkish Economy. Sociology Study, David Publishing. February 2017, Vol. 7, No. 2, 83-121.
14. Shlomo Ben-Ami. Turkey’s Rise and the Decline of Pan-Arabism. http://www.project-syndicate.org/commentary/turkey-s-rise-and-the-decline-of-pan-arabism (accessed:10.01.2020).

REFERENCES:

1. Akal Deger (2022). Erdoğan'ın riskli Esad açılımı. (In Turkish)

2. Aybet Gülnur (2012). Turkey's Security Challenges and NATO. Carnegie Endowment for International Peace. (In English)

3. Çavuş Tuba (2012). Dış Politikada yumuşak güç kavramı ve Türkiye'nin yumuşak güç kullanımı. Kahramanmaraş Sütçü İmam Üniversitesi İktisadi ve İdari Bilimler Fakültesi Dergisi, Cilt 2, Sayı 2, ss.23-37. (In Turkish)

4. Çelikkol Oğuz (2018). 2018 yılında Türk dış politikası. (In Turkish)

5. Druzhilovskiy S.V. (2001). Politika turetskogo pravitelstva v kurdskom voprose posle voennogo perevorota 1980 g. // Kurdskaya problema: mezhdunarodnyy aspekt. M.: DA MID Rossii, s. 47. (In Russian)

6. Gasyuk Aleksandr (2019). Asad nazval prichiny uchastiya Rossii v voennoy operatsii v Sirii. https://rg.ru/2019/11/11/asad-nazval-prichiny-uchastiia-rossii-v-voennoj-operacii-v-sirii.html. (In Russian)

7. Glava Minoborony Turtsii obyasnil, chto vynudilo Ankaru kupit S-400. https://ria.ru/20191215/1562407812.html (дата обращения: 06.01.2020). (In Russian)

8. Glava Minoborony Turtsii obyasnil, chto vynudilo Ankaru kupit S-400. https://minval.az/news/123943667?utm (дата обращения: 12.12.2019). (In Russian)

9. İpek J.D. (2018). Vneshnepoliticheskie dostizheniya Turtsii v 2017 g. (In Russian)

10. Kashin Vasiliy (2015). Zachem Rossii voyna v Sirii. https://www.vedomosti.ru/opinion/articles/2015/10/09/612096-zachem-rossii-voina (дата обращения: 09.01.2021). (In Russian)

11. Melnik Gennadiy (2018). Turtsiya vedet protiv Gretsii gibridnuyu voynu, schitayut eksperty. https://ria.ru/20180309/1516060308.html (14.01.2020). (In Russian)

12. Menon Rajan (2003). The New Great Game in Central Asia. Survival, Vol. 45, No. 2, Summer, pp. 187-204. (In English)

13. Nurgün Koça Bedriye Koç (2017). Affects of Marshall Plan on Turkish Economy. Sociology Study, Vol. 7, No. 2, February, pp. 83-121. https://www.davidpublisher.org/Public/uploads/Contribute/59964fb039387.pdf (In English)

14. Shlomo Ben-Ami. Turkey's Rise and the Decline of Pan-Arabism. http://www.project-syndicate.org/commentary/turkey-s-rise-and-the-decline-of-pan-arabism (accessed: 10.01.2020). (In English)

2001-YIL BONN KONFERENSIYASI VA AFG‘ONISTONDA POST-TOLIBON DAVRIDA YANGI DAVLATCHILIK ASOSLARINING SHAKLLANISHI

THE 2001 BONN CONFERENCE AND THE FORMATION OF THE FOUNDATIONS OF NEW STATEHOOD IN POST-TALIBAN AFGHANISTAN

БОННСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ 2001 ГОДА И ФОРМИРОВАНИЕ ОСНОВ НОВОЙ ГОСУДАРСТВЕННОСТИ В АФГАНИСТАНЕ В ПОСТ-ТАЛИБАНСКИЙ ПЕРИОД

https://zenodo.org/records/20666461

Nurumbetova Sanobar Rozimbay qizi
O‘zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti tayanch doktoranti.
Tel.: +998 97-755-97-45
E-mail: nurumbetovasanobar@gmil.com

Annotatsiya. 2001-yil noyabr-dekabr oylarida o‘tkazilgan Bonn konferensiyasi Tolibon hokimiyati barham topganidan keyin Afg‘onistonda yangi siyosiy tuzum va davlatchilikni shakllantirishga qaratilgan muhim xalqaro siyosiy jarayon bo‘ldi. Ushbu konferensiya doirasida muvaqqat boshqaruv organlarini tashkil etish, hokimiyatni qonuniy yo‘l bilan o‘tkazish va siyosiy o‘tish davrining asosiy yo‘nalishlarini belgilab beruvchi kelishuvlar qabul qilindi. Bonn jarayoni markaziy davlat institutlarini qayta tiklash, yangi Konstitutsiya ishlab chiqish hamda prezidentlik va parlament saylovlari orqali legitim hokimiyatni shakllantirish uchun zarur huquqiy va institutsional zamin yaratdi. Shu bilan birga, ayrim ichki siyosiy kuchlarning jarayondan chetda qolishi va tashqi aktorlarning ta’siri kuchli bo‘lgani keyinchalik siyosiy tizimning zaif va mojarolarga moyil jihatlarini yuzaga chiqardi.

Kalit so‘zlar: *Bonn konferensiyasi, post-Tolibon davri, Afg‘oniston davlatchiligi, vaqtinchalik ma’muriyat, siyosiy o‘tish davri, Shimoliy Alyans, siyosiy inklyuzivlik, xalqaro aralashuv.*

Annotation. The Bonn Conference held in November–December 2001 became a significant international political process aimed at shaping a new political order and rebuilding statehood in Afghanistan following the collapse of the Taliban regime. Within the framework of the conference, agreements were reached on the establishment of interim governing institutions, the lawful transfer of power, and the determination of the main directions of the political transition period. The Bonn process laid the legal and institutional foundations for restoring central state institutions, drafting a new constitution, and forming a legitimate

government through presidential and parliamentary elections. At the same time, the exclusion of certain domestic political actors from the process and the strong influence of external stakeholders later contributed to the emergence of structural weaknesses and conflict-prone features within the political system.

Key words: *Bonn Conference, post-Taliban period, Afghan statehood, interim administration, political transition period, Northern Alliance, political inclusivity, international intervention.*

Аннотация: Боннская конференция, состоявшаяся в ноябре–декабре 2001 года, стала важным международным политическим процессом, направленным на формирование нового политического устройства и восстановление государственности в Афганистане после падения режима «Талибан». В рамках данной конференции были приняты соглашения о создании временных органов управления, законной передаче власти и определении основных направлений политического переходного периода. Боннский процесс заложил правовые и институциональные основы для восстановления центральных государственных институтов, разработки новой Конституции, а также формирования легитимной власти посредством президентских и парламентских выборов. Вместе с тем исключение ряда внутренних политических сил из процесса и значительное влияние внешних акторов в дальнейшем способствовали возникновению уязвимых и конфликтогенных элементов в политической системе.

Ключевые слова: *Боннская конференция, постталибский период, государственность Афганистана, временная администрация; политический переходный период, Северный альянс; политическая инклюзивность, международное вмешательство.*

KIRISH

Ushbu maqola Afg‘oniston tarixidagi eng muhim burilish davrlaridan biri 2001-yildan keyingi post-Tolibon siyosiy transformatsiya jarayoniga bag‘ishlangan. Tolibon rejimining qulashidan so‘ng mamlakat oldida nafaqat xavfsizlikni ta’minlash, balki uzoq yillar davom etgan urush va siyosiy parokandalik sharoitida davlatchilikni qayta tiklash vazifasi turdi. Aynan shu davrda Afg‘oniston siyosiy tizimini noldan shakllantirish, markaziy va mahalliy boshqaruv institutlarini barpo etish, siyosiy legitimlikni ta’minlash hamda xalqaro huquq normalariga mos davlat tuzilmasini yaratish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etdi.

Mazkur jarayonda xalqaro hamjamiyat, xususan Birlashgan Millatlar Tashkiloti va AQSh boshchiligidagi koalitsiyaning bevosita ishtiroki hal qiluvchi omilga aylandi. 2001-yil noyabr–dekabr oylarida Germaniyaning Bonn shahrida

o‘tkazilgan konferensiya Afg‘onistonda siyosiy o‘tish davrini institutsional jihatdan rasmiylashtirishga qaratilgan dastlabki keng qamrovli xalqaro tashabbus bo‘ldi. Ushbu konferensiya doirasida qabul qilingan qarorlar keyingi yillarda mamlakat siyosiy tizimi, hokimiyat taqsimoti va davlat institutlarining shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatdi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

2001-yilda o‘tkazilgan Bonn konferensiyasi yuzasidan tadqiqot olib borgan afg‘on tadqiqotchisi Sultan Barakatning “Afg‘onistonni qayta qurish uchun vaziyatni belgilash: muammolar va hal qiluvchi qarorlar” maqolasi Afg‘onistonda post-konflikt davrida davlatchilikni qayta qurishning nazariy va amaliy muammolarini chuqur tahlil qiluvchi muhim ilmiy manbalardan biridir. Ushbu manbada uzoq muddatli konfliktdan so‘ng Afg‘onistonda davlatchilikni qayta qurishdagi muammolar o‘rganilib, tahlil qilingan.

G‘arb tadqiqotchisi Astri Suhrkening (2007) “Qaram mamlakatni demokratlashtirish: Afg‘oniston misolida” nomli asari Afg‘onistondagi siyosiy o‘zgarishlarni “qaram davlat” konsepsiyasi asosida tahlil qiluvchi muhim nazariy tadqiqot hisoblanadi. Muallif ushbu maqolada Afg‘onistonda 2001-yildan keyin boshlangan demokratik jarayonlarni klassik demokratizatsiya modellari bilan emas, balki tashqi yordam va xalqaro aktorlarga kuchli bog‘langan davlat kontekstida baholagan.

Afg‘on tadqiqotchisi Umar Sadrning “Afg‘oniston mojarosini siyosiy yo‘l bilan hal etish: turli modellar” (2008) nomli asari Afg‘onistonda uzoq davom etgan mojaroni qurolli harakat bilan emas, siyosiy yechimlar orqali tugatish imkoniyatlarini tizimli asosda tahlil qiluvchi muhim ilmiy manbadir. Muallif ushbu tadqiqotda Afg‘oniston mojarosini faqat ichki siyosiy qarama-qarshilik sifatida emas, balki mintaqaviy va xalqaro omillar bilan chambarchas bog‘liq murakkab jarayon sifatida ko‘rib chiqadi. Amerikalik tadqiqotchi Kenneth Katzmanning “Afg‘oniston: Urushdan keyingi davlatchilik, xavfsizlik AQSh siyosati” nomli asari Afg‘onistonda 2001-yildan keyingi davrni AQSh siyosati, xavfsizlik masalalari va davlat boshqaruvining o‘zaro bog‘liqligi doirasida tahlil qiluvchi muhim analitik manba hisoblanadi. Muallif ushbu asarda 2001-yildan keyin Afg‘onistonda davlat boshqaruvini shakllantirishni AQSh siyosati va xavfsizlik masalalari bilan bog‘liq holda tadqiq qiladi.

Afg‘on tadqiqotchisi Umar Nosirning “2001-2014-yillarda zamonaviy Afg‘onistonning siyosiy rivojlanish tarixi” (2014) nomli asarida post-Tolibon davrida Afg‘onistonda yangi siyosiy tizimning shakllanish jarayoni, uning amalda ishlash mexanizmlari hamda ayrim bosqichlarda institutlar zaiflashuvi, legitimlikning pasayishi va siyosiy maydonning parokandalashuviga olib kelgan

omillar tarixiy-siyosiy tahlil asosida yoritilgan. Shuningdek, uning “Bonn modeli” va 2001-2004-yillarda Afg‘onistondagi siyosiy jarayon” maqolasida “Tolibon” qulaganidan keyingi to‘rt yilda Afg‘onistonda sodir bo‘lgan murakkab siyosiy jarayonlar tahlil qilingan, ularning bosqichma-bosqich rivojlanishi ko‘rsatilgan va “Bonn modeli” doirasida qabul qilingan qarorlarning amalda qanday ijro etilgani ochib berilgan.

Rus tadqiqotchilari Aleksandr Lyaxovskiy va Silovan Davitayaning “Afg‘onistondagi o‘yin” (2009) asarida Afg‘onistonning strategik joylashuvi, mintaqaviy va global kuchlar raqobati sharoitida mamlakat ichki siyosiy jarayonlarining tashqi bosimlar bilan uzviy bog‘liqligini o‘rgangan muhim tadqiqot hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda tarixiy-institutsional yondashuv Afg‘onistonda 2001-yildan keyin shakllangan davlat institutlarini ularning tarixiy rivojlanish mantiqli va merosiy cheklovlari doirasida tahlil qilishga xizmat qiladi. Mazkur yondashuv Bonn konferensiyasida yaratilgan vaqtinchalik siyosiy institutlarning qanday sharoitda vujudga kelgani va keyingi bosqichlarda qanday evolyutsiyaga uchraganini aniqlash imkonini beradi. Shuningdek, u oldingi siyosiy tajribalar va institutsional uzilishlarning yangi davlatchilik modeliga ta’sirini baholashga yo‘naltirilgan. Natijada Afg‘oniston davlatchiligining shakllanish jarayonidagi uzluksizlik va uzilish omillari ilmiy asosda ochib beriladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

2001-yilda Tolibon rejimi ag‘darilganidan so‘ng, Afg‘oniston siyosiy tarixida yangi sahifa ochildi. Afg‘oniston siyosiy tizimi tarixida huquqiy va institutsionallashgan rolga ega bo‘lmagan siyosiy partiyalarga 2001-yildan boshlab rasmiy tashkilotlar sifatida qonuniy ro‘yxatdan o‘tish imkoniyati berildi.

2001-yildan so‘ng Afg‘onistonda eng muhim vazifa – davlat boshqaruvini qayta tashkil etish, markaziy va mahalliy hokimiyat tizimini yaratish va shu orqali urushdan keyingi davrda mamlakatda barqarorlik va tartibni o‘rnatish edi.

2001-yil noyabr oyida *“Tolibon”* rejimi qulayotgani aniq bo‘lgach, *“Tolibon”*dan keyingi Afg‘oniston uchun siyosiy va xavfsizlik tizimini yaratish shoshilinch masalaga aylandi. Turli muxolifat guruhlari AQSh va BMTning qo‘llab-quvvatlashi bilan sentabr oyidan beri muzokaralarda ishtirok etishardi.

Xorijiy davlatlarning Afg‘oniston mojarosiga bevosita aralashuvi mamlakatdagi kuchlar nisbatini sezilarli darajada o‘zgartirdi va “Tolibon” harakatiga qarshi bo‘lgan siyosiy va harbiy guruhlar pozitsiyalarining mustahkamlanishiga yo‘l ochdi. Shunday sharoitda xalqaro hamjamiyat va afg‘on siyosiy elitasi oldida Afg‘onistonning davlat hokimiyati organlarini yaratish va

ularni qonuniylashtirish, ijtimoiy-siyosiy muvozanatni ta’minlash hamda xalqaro qonunchilik me’yorlariga asoslangan davlat tuzilmasini shakllantirish zarurati paydo bo‘ldi. Mazkur strategik muammoni hal etishga qaratilgan muzokaralar 2001-yil 27-noyabrdan 5-dekabrgacha BMT homiyligida Germaniyaning Bonn shahrida tashkil etildi (Sultan Barakat, 2002). 2001-yil dekabr oyida bo‘lib o‘tgan ushbu xalqaro konferensiya mamlakatda yangi siyosiy tizim va davlatni qayta qurish jarayonini boshlab bergan muhim voqea bo‘ldi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Afg‘onistondagi turli siyosiy partiya va guruhlarni hamda “Shimoliy alyans” va sobiq qirol Muhammad Zohirshox tarafdorlarini ushbu konferensiyaga taklif qildi.

Bu konferensiyaga faqat “Tolibon” taklif etilmadi. Bonn konferensiyasi Afg‘onistonda davlat boshqaruv tizimining huquqiy va tashkiliy asoslarini belgilashga qaratilgan bo‘lib, unda “Tolibon” tuzumi ag‘darilganidan so‘ng hokimiyat vakuumini to‘ldirish, davlat boshqaruv organlarining vaqtinchalik tarkibini shakllantirish, yangi Konstitutsiyani ishlab chiqish hamda asosiy legitimlashtirilgan siyosiy institutlarni yaratish kabi masalalar yuzasidan muzokaralar olib borildi (Astri Suhrke, 2007).

Vaqtinchalik siyosiy tuzilmalarni shakllantirish jarayonidan avval esa quyidagi to‘rtta muhim siyosiy guruhlar o‘rtasida kurash kechdi (Filling The Vacuum The Bonn Conference, 2001). Ular Afg‘onistonning kelgusi siyosiy konfiguratsiyasini belgilovchi asosiy ishtirokchilarga aylanish maqsadida o‘z manfaatlarini xalqaro hamjamiyat bilan uyg‘unlashtirishga urinayotgan edi. Bu jarayon, o‘z navbatida, Bonn kelishuvlarining mazmuni va keyingi siyosiy institutlarning shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatgan.

Rim guruhi – 2001-yil kuzda Rimda o‘z qurultoyini o‘tkazgan, monarxiyaviy yo‘nalishga mansub, asosiy etnik pushtun aholisini ifodalovchi siyosiy guruh hisoblangan. Guruhni sobiq qirol Muhammad Zohir Shoh boshqargan. Ushbu guruh mo‘tadil-liberal pozitsiyani egallagan. Bonn konferensiyasida ushbu guruhdan 9 nafar vakil ishtirok etgan. Anjumanda sobiq qirolning o‘zi ishtirok etmagan (2018، دکتر عمر صدر).

“Shimoliy Alyans” – “Tolibon”ga qarshi kurash olib borgan asosiy qurolli kuchlardan biri bo‘lib, mamlakat shimolidagi dala qo‘mondonlari ittifoqi hisoblanadi. 2001-yil sentabrda Ahmad Shoh Mas’ud halok bo‘lganidan so‘ng, bu koalitsiyani Muhammad Qosim Fahim boshqardi. Bonn konferensiyasida ushbu ittifoqdan 11 nafar vakil ishtirok etgan bo‘lib, Muhammad Qosim Fahim va Burhoniddin Rabboniy qatnashmagan.

Kipr guruhi – Erondagi afg‘on muhojirlari guruhi bo‘lib, ular 2001-yilda Kiprda qurultoy o‘tkazgan. Yetakchisi Said Is’hoq G‘iloniy bo‘lgan.

Konferensiyada guruhning 5 nafar vakili qatnashgan. Bu guruh o‘sha paytda Eronda yashayotgan “Afg‘oniston Islom Partiyasi” yetakchisi Gulbiddin Hikmatyor manfaatlarini himoya qilgan.

Peshavor guruhi – Pokistonning Peshavor hududida joylashgan afg‘onistonlik pushtun muhojirlari guruhi edi. Konferensiyada bu guruhdan 5 nafar vakil qatnashgan. Ular Abdul Rasul Sayyof tarafdorlari bo‘lgan.

2001-yil 5-dekabrda yuqoridagi guruhlar ishtirokida Bonn kelishuvi imzolandi. Bu kelishuv 2001-yil 6-dekabrda BMT Xavfsizlik Kengashining 1385-sonli rezolyutsiyasi bilan tasdiqlandi (Kenneth Katzman, 2008).

Bonn konferensiyasining asosiy qarorlari quyidagilardan iborat bo‘ldi (Agreement on Provisional Arrangements in Afghanistan Pending the Re-Establishment of Permanent Government Institutions, 2001):

- ***vaqtinchalik ma’muriyatni tashkil etish*** konferensiya qaroriga ko‘ra, mamlakatda hokimiyat bo‘shlig‘i yuzaga kelgan bir davrda markaziy boshqaruv vakolatlarini amalga oshirish uchun muvaqqat ma’muriyat tuzildi va 2001-yil 22-dekabrdan boshlab 6 oy davomida faoliyat yuritishi belgilandi. Ushbu tuzilma Afg‘onistonni o‘tish davri siyosiy jarayonlariga tayyorlash vazifasini o‘z zimmasiga oldi.

- ***Favqulodda Loya Jirg‘ani chaqirish*** vaqtinchalik ma’muriyat ish boshlaganidan olti oy o‘tib, Favqulodda Loya Jirg‘a yig‘ilishi o‘tkazilishini ta’minlash belgilandi. Bu an’anaviy xalq yig‘iniga o‘tish davri ma’muriyatining legitimligini belgilab beruvchi muhim siyosiy institut sifatida qaraldi. Favqulodda Loya Jirg‘ani chaqirish uchun “Maxsus Mustaqil Komissiya” muvaqqat ma’muriyat tomonidan tashkil etilishi kerak edi. Ushbu komissiya Favqulodda Loya Jirg‘aning tarkibini shakllantirish tartibini belgilash vazifasini bajarishi kerak edi.

- ***Konstitutsiyaviy Loya Jirgani chaqirish va yangi Konstitutsiya qabul qilish*** o‘tish davri ma’muriyati tuzilganidan so‘ng 18 oy ichida Konstitutsiyaviy Loya Jirg‘a chaqirilib, Afg‘onistonning yangi Konstitutsiyasini ishlab chiqishi va qabul qilishi ko‘zda tutilgan edi. Shu muddat ichida 1964-yilda qabul qilingan Konstitutsiya muvaqqat konstitutsiyaviy asos sifatida amal qilishi, shuningdek undagi monarxiya bo‘limi hamda qonunchilik va ijroiya hokimiyati organlariga oid boblardan foydalanmaslik belgilandi.

- ***mustaqil sud hokimiyatini shakllantirish,*** adolatli va qonun ustuvorligiga asoslangan boshqaruv tizimini barpo etish uchun Oliy sud boshchiligida milliy sud tizimini tashkil etish belgilandi. Bu qarorga Afg‘onistonda mustaqil sud hokimiyatini shakllantirish yo‘lidagi dastlabki bosqich sifatida qaraldi.

- ***xalqaro hamjamiyat bilan hamkorlik va xavfsizlikni ta'minlash,*** Bonn konferensiyasi doirasida Afg‘oniston hukumati va xalqaro hamjamiyat o‘rtasida o‘zaro hamkorlikka tayangan deklaratsiya ham qabul qilindi. Unda BMT Xavfsizlik Kengashining 1386-sonli rezolyutsiyasi asosida mamlakatda xorijiy harbiy kuchlarning joylashtirilishi va xavfsizlikni ta'minlashdagi roli huquqiy jihatdan mustahkamlab qo‘yildi. Bu esa xalqaro tinchlikparvar missiyalarning Afg‘onistonda legitim faoliyat yuritishiga sharoit yaratdi.

Konferensiya 9 kun davom etib, qatnashchilar o‘rtasida murakkab siyosiy muzokaralar olib borildi. Konferensiya davomida siyosiy jihatdan eng keskin bahs-munozaralarga sabab bo‘lgan masala – vaqtinchalik hukumat tarkibi, ayniqsa uning rahbariligini kim egallashini aniqlash edi. Bu masala Afg‘onistondagi turli siyosiy guruhlar o‘rtasida kuchli qarama-qarshiliklarga sabab bo‘ldi. Ba'zi manbalarga ko‘ra, vaqtinchalik hukumat rahbarligi uchun eng ko‘p ovoz *Rim guruhi* nomzodi Abdul Sattor Sirotga berilgan. Ammo bu qaror xalqaro kuchlar, xususan, AQSh tomonidan siyosiy jihatdan ma'qullanmagan. Bu jarayonda Afg‘oniston ichki siyosiy doiralari orasida unchalik taniqli bo‘lmagan va Bonn konferensiyasida ishtirok etmagan Hamid Karzay nomzodi AQSh tomonidan ilgari surilgan va qo‘llab-quvvatlangan hamda uning bosimi ostida Abdul Sattor Sirot o‘z nomzodligini Hamid Karzay foydasiga qaytarib olishga majbur bo‘lgan (**وحیدمژده، 2018**). Bu holat demokratik tizimga yo‘l ochishi kerak bo‘lgan ilk demokratik amaliyot, ya'ni ko‘pchilik ovoziga hurmat ishning boshidanoq AQSh bosimi tufayli e'tiborga olinmaganini ko‘rsatadi.

Boshqa bir muhim siyosiy kuch “Shimoliy Alyans” vakillari o‘zlarini mamlakatdagi asosiy harbiy-siyosiy kuch sifatida ko‘rib, Bonn kelishuvlari doirasidagi murosalarga e'tiroz bildirdilar. Ularning fikricha, oliy hokimiyatga da'vo qilish huquqi aynan ularga tegishli edi. Kobulda amalda hokimiyatni o‘z qo‘lida ushlab turgan Burhoniddin Rabboniy Afg‘oniston kelajagi haqidagi qarorlar mamlakat ichida qabul qilinishi kerakligini talab qildi va “Shimoliy Alyans” delegatsiyasini muzokaralardan chaqirib olishga harakat qildi. Bu urinishlar delegatsiyaning yetarli vakolatlarga ega emasligi bilan izohlandi, biroq aslida ularning siyosiy talablarini inobatga olish istagini kuchaytirish yo‘lidagi vosita edi. Biroq xorijliklar bunday yondashuv Afg‘oniston kelajagini mujohidlar qo‘liga topshirish bilan barobar bo‘lishini anglardilar (Омар Нессар, 2014).

Afg‘onistonda 2001-yilning oxirida boshlangan siyosiy o‘tish davri yangi davlatchilikni tiklash jarayonida muhim bosqich bo‘lib, ayniqsa yangi davlat boshqaruv tuzilmalarini shakllantirish masalasi keskin geosiyosiy va ichki siyosiy qarama-qarshiliklar fonida kechdi. Post-tolibon davrida vaqtinchalik ma'muriyatni tashkil etish jarayoni siyosiy jihatdan nozik va murakkab bo‘lib, u nafaqat mahalliy

kuchlarning manfaatlar to‘qnashuvi, balki xalqaro terrorchilikka qarshi koalitsiya a’zolari bo‘lgan yetakchi davlatlarning kuchli bosimi ostida amalga oshirildi.

Xususan, Bonn konferensiyasi Afg‘oniston siyosiy kelajagini belgilash yo‘lidagi muhim xalqaro siyosiy maydon bo‘ldi. Ushbu konferensiyada Afg‘onistondagi asosiy siyosiy guruhlar – qurolli muxolifat, muhojir tashkilotlar va sobiq muvaqqat muassasalar vakillari ishtirok etgan bo‘lsa-da, jarayon ustidan qat’iy nazorat, asosan, BMT vositachiligida, amalda esa AQSh boshchiligidagi xalqaro kuchlarning nazorati ostida olib borildi (Ляховский А., Давитая С. 2009).

Konferensiya ishtirokchilari qaror qabul qilish bosqichida sezilarli darajada tashqi bosim ostida qolgan. Eng ta’sirchan tashqi o‘yinchilar Afg‘oniston hududida o‘zlari homiylik qilgan shaxslarni yangi hokimiyat tuzilmalariga ilgari surishar edi (Афганистан на переходном этапе (сентябрь 2001 – июнь 2002 г), 2002). Bunday tashqi aralashuv Afg‘onistonning suveren siyosiy qarorlar qabul qilish imkoniyatini cheklab, o‘tish davri institutlarining shakllanishiga tashqi manfaatlarning chuqur singib ketishi uchun zamin yaratdi.

Bonn konferensiyasida tuzilayotgan vaqtinchalik ma’muriyat tarkibi borasidagi Burhoniddin Rabboniyning noroziligi uzoq davom etmadi. U o‘z siyosiy pozitsiyasini saqlab qolish harakatida bo‘lsa-da, mintaqaviy va global geosiyosiy kuchlar, xususan, Rossiya va AQSh “Shimoliy Alyans” qanotidagi ayrim kishilarni Rabboniyni hokimiyatni topshirishga ko‘ndirishga undadilar. Ular “Shimoliy Alyans”ning yoshroq avlod vakillariga kelajakdagi hukumatda ko‘proq o‘rin berishni taklif qildilar. AQSh bergan ushbu rag‘bat natijasida ular Rabboniydan hokimiyatni topshirishga tayyor bo‘lishini talab qildilar. Natijada Rabboniy bunga rozi bo‘ldi. Bu holat Afg‘onistondagi qaror qabul qilish jarayonlarida tashqi geosiyosiy kuchlarning bevosita ishtirok etayotganini tasdiqlaydi. Umuman olganda, tashkil etilgan vaqtinchalik ma’muriyatga nisbatan konferensiyadagi afg‘on ishtirokchilarining munosabati ehtiyotkor va ishonchsizlik bilan to‘la edi. Afg‘onistondagi yirik siyosiy fraksiyalar rahbarlarining deyarli hech biri to‘g‘ridan to‘g‘ri ushbu vaqtinchalik ma’muriyat tarkibida ishtirok etishni istamagan, balki ular yangi hokimiyatga bilvosita siyosiy ta’sir o‘tkazish strategiyasini afzal bilganlar. Bu o‘z navbatida, vaqtinchalik hukumatning siyosiy legitimligini susaytirdi va ichki konsensusga asoslangan boshqaruvni shakllantirishni murakkablashtirdi.

Tuzilgan vaqtinchalik ma’muriyat tarkibi rais (amaldagi mamlakat rahbari), besh nafar rais o‘rinbosarlari va bir qator vazirlardan iborat edi. Muvaqqat Ma’muriyat tarkibida *“Shimoliy Alyans”* 30 ta vazirlik lavozimidan 17 tasini egalladi, shu jumladan Fahim, Qonuniy va Abdulloh o‘z lavozimlarini saqlab qoldilar. Rim guruhi 8 ta, Kipr va Peshavor guruhlari esa 1 tadan lavozimga ega

bo‘ldilar (Heccap O, 2014). Ushbu tuzilma tashqi tomondan ijro hokimiyati sifatida faoliyat ko‘rsatgan bo‘lsa-da, real siyosiy kuch muvozanati boshqa mexanizmlarga tayanardi. Rais rasman davlat rahbari maqomida bo‘lsa-da, u yakka o‘zi muhim qarorlar qabul qilish vakolatiga ega emas edi. Asosiy qarorlar ko‘pchilik ovozi bilan, ya’ni jamoaviy muhokama orqali qabul qilinishi belgilangan edi. Bu yondashuv hokimiyatni markazlashtirishdan, ya’ni avtoritar rahbarlik modelidan saqlanib, siyosiy muvozanatni ta’minlashga qaratilgan bo‘lsa-da, ayni paytda qaror qabul qilishda sekinlik va samarasizlik xavfini ham oshirgan.

Afg‘oniston siyosiy tizimining shakllanish jarayonida “Shimoliy Alyans” o‘zining mamlakat ustidan to‘liq nazoratini qo‘lga kiritish imkoniyatiga ega bo‘lmagan bo‘lsa-da, vaqtinchalik ma’muriyat tarkibida ustun mavqega ega bo‘lishga erishdi. Ya’ni 24 ta vazirlik lavozimidan 14 tasini ushbu harbiy-siyosiy ittifoq vakillari qo‘lga olgan. Ular Tashqi ishlar vazirligi, Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi hamda milliy razvedka xizmati kabi strategik ahamiyatga ega idoralar bo‘lib, bu “Shimoliy Alyans”ning mamlakatdagi kuch ishlatar tizimlari ustidan sezilarli ta’sirini ta’minlagan. Vaqtinchalik ma’muriyatdagi muhim lavozimlarning katta qismi, ayniqsa huquqni muhofaza qilish va xavfsizlik sohalarida, “Shura-ye Nizar” nomi bilan tanilgan siyosiy-harbiy tuzilma a’zolariga berildi. Mazkur guruh asosan Shimoliy Afg‘onistonning siyosiy-harbiy elitalari bo‘lgan, Panjshir va Badaxshon viloyatlaridan chiqqan shaxslar tomonidan shakllangan edi.

Vaqtinchalik ma’muriyat rahbari etib pushtun millatiga mansub, “Tolibon”ga qarshi qat’iy pozitsiyasi bilan tanilgan dala qo‘mondoni Hamid Karzay tayinlandi. U bevosita Bonn konferensiyasida ishtirok etmagan bo‘lsa-da, rus mualliflari ma’lumotlariga ko‘ra, uning rahbarlik lavozimiga kelishi monarxiyaga moyilligi bilan tanilgan “Rim guruhi” tomonidan faol ravishda qo‘llab-quvvatlangan (Арунова М, 2013). 2001-yil 23-dekabr kuni Kobul shahrida Hamid Karzay boshchiligidagi vaqtinchalik ma’muriyatning ilk yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. Mazkur siyosiy jarayonning muhim bosqichi sifatida, 22-dekabr kuni, ya’ni bir kun oldin AQSh tomonidan Afg‘onistonning yangi hukumatini rasmiy tan olish holati qayd etilgan.

Bundan tashqari, Bonn konferensiyasi Gulbiddin Hikmatyorni radikal siyosatchi sifatida baholab, uning rahbarligidagi “Afg‘oniston Islom Partiyasi” vakillarini yig‘ilishga taklif qilmadi va ularni siyosiy jarayondan chetga chiqardi.

Bonn konferensiyasining yana bir muhim natijasi rezolyutsiyaning deklarativ qismiga sobiq “mujohidlar”, ya’ni 1979-1989-yillarda SSSRga qarshi qurolli kurash olib borganlarga imtiyozli maqom berilishi haqidagi tezisni kiritish bo‘ldi. Ma’muriyat raisining 5 o‘rinbosaridan 2 nafari mazkur urushning faol

qatnashchilari bo‘lgan, yana 1 nafari esa “mujohidlar” harakatida rahbarlik faoliyatini yuritgan, ammo janglarda bevosita qatnashmagan. Deyarli barcha asosiy vazirlik lavozimlari Afg‘oniston Xalq Demokratik Partiyasi va Sovet armiyasiga qarshi kurashgan faxriylar tomonidan egallandi, ularning ko‘pchiligi Ahmad Shoh Mas’udga yaqin shaxslar edi. Shuni ta’kidlash joizki, “mujohidlar”ga oid Bonn rezolyutsiyasi bandlari sobiq AXDP a’zolari va “kommunistik” davrda davlat tuzilmalarida ishlagan shaxslarning siyosiy maydonga qaytish imkoniyatlarini sezilarli darajada chekladi. Mavjud ma’lumotlarga ko‘ra, faqat afg‘on kommunistlari hukmronligi davrida muvaffaqiyatli faoliyat yuritgan sog‘liqni saqlash vaziri Suhayla Siddiqi yangi hukumat tarkibiga kiritilgan.

Bonn konferensiyasida qabul qilingan qarorlar Afg‘oniston hududida xorijiy harbiy kontingentlarning joylashuvi uchun huquqiy va siyosiy asos yaratdi. Mazkur jarayon natijasida 2011-yil yakuniga kelib, mamlakatda joylashtirilgan xorijiy qo‘shinlar soni 130 mingdan oshdi. Xorijiy harbiy kuchlarning Afg‘onistondagi faoliyati ularni nafaqat mamlakat ichki xavfsizlik tizimining muhim elementi, balki Markaziy Osiyodagi murakkab va ko‘p qirrali mintaqaviy siyosiy tuzilishning ajralmas tarkibiy qismi sifatida shakllantirdi. Ushbu holat Afg‘onistonning mintaqaviy geosiyosiy tizimdagi o‘rnini qayta belgilab, xalqaro koalitsiya kuchlarini mintaqa xavfsizlik muvozanatining muhim aktoriga aylantirdi (Heccap O, 2010).

XULOSA VA TAKLIFLAR

2001-yilda o‘tkazilgan Bonn konferensiyasi Afg‘onistonda Tolibon rejimi qulaganidan keyingi siyosiy bo‘shliqni to‘ldirish va yangi davlatchilik asoslarini yaratishga qaratilgan muhim xalqaro tashabbus sifatida namoyon bo‘ldi. Ushbu konferensiya mamlakatda vaqtinchalik boshqaruv tizimini shakllantirish, siyosiy o‘tish davrini tartibga solish hamda kelgusida konstitutsiyaviy va saylov jarayonlarini yo‘lga qo‘yish uchun zarur institutsional mexanizmlarni belgilab berdi. Shu ma’noda, Bonn jarayoni Afg‘onistonning post-tolibon davridagi siyosiy qayta qurilishining boshlang‘ich nuqtasi bo‘ldi. Biroq konferensiya doirasida qabul qilingan qarorlar inklyuzivlik nuqtayi nazaridan cheklangan xarakterga ega edi. Ayrim muhim siyosiy aktorlarning, jumladan, Tolibon harakatining va boshqa radikal yoki chetda qolgan kuchlarning muzokaralarga jalb etilmasligi siyosiy tizimning ichki legitimligini zaiflashtirdi. Natijada, shakllangan davlat institutlari xalqaro hamjamiyat tomonidan qo‘llab-quvvatlangan bo‘lsa-da, ular jamiyatning barcha qatlamlari manfaatlarini to‘liq ifoda eta olmadi.

Bonn kelishuvlari Afg‘onistondagi kuchlar nisbatiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Xususan, “Shimoliy Alyans” vakillarining vaqtinchalik ma’muriyat tarkibida ustun mavqega ega bo‘lishi xavfsizlik va kuch ishlatar tuzilmalar ustidan

nazoratni ta’minladi, biroq bu holat siyosiy hokimiyatning muvozanatli va adolatli taqsimlanishiga to‘sqinlik qildi. Shu bilan birga, AQSh va boshqa yetakchi xalqaro aktorlarning faol ishtiroki Afg‘onistonda yangi siyosiy tuzilmaning shakllanishida tashqi omillarning hal qiluvchi rol o‘ynaganini ko‘rsatdi.

Umuman olganda, Bonn konferensiyasi Afg‘oniston davlatchiligini qayta tiklash yo‘lidagi muhim va zarur bosqich bo‘lganiga qaramay, u uzoq muddatli barqarorlikni kafolatlay oladigan mustahkam ichki siyosiy konsensusni shakllantira olmadi. Konferensiya natijasida yaratilgan institutlar huquqiy jihatdan legitim bo‘lsa-da, ularning tashqi tayanchga haddan tashqari tayanishi va ichki siyosiy muvozanatning yetarli darajada ta’minlanmagani keyingi yillarda Afg‘oniston siyosiy tizimida yuzaga kelgan beqarorlik va mojarolarni izohlashda muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi.

2001-yilda o‘tkazilgan Bonn konferensiyasi va yangi davlatchilik asoslarini shakllantirish jarayonini tadqiq qilgan holda quyidagi bir qator ilmiy takliflar bildiriladi.

Birinchi navbatda, siyosiy o‘tish davri bo‘yicha qilingan kelishuvlar “inklyuzivlik” asosida bo‘lishi lozim. Bu esa siyosiy raqobatni qurolli tarzda emas, institutsional holatda olib borishga xizmat qiladi.

Ikkinchi navbatda, Loya Jirg‘a kabi legitimlashtiruvchi institutning vakillik darajasi va tartib-qoidalari doimiy takomillashtirilishi, vakillarning shaffof tarzda tayinlanishi hamda shikoyat mexanizmlarining real ishlashi ta’minlanishi kerak.

Uchinchi navbatda, saylov komissiyalarining mustaqilligi, saylov nizolarini hal qiluvchi institut, partiyalarning moliyaviy shaffofligini belgilovchi minimal standartlarning belgilanishi siyosiy raqobatni institutsional qilib belgilaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Agreement on Provisional Arrangements in Afghanistan Pending the Re-Establishment of Permanent Government Institutions. Bonn. Germany, December 22, 2001. https://peacemaker.un.org/en/node/9444

2. Astri Suhrke. Democratization of a dependent state: the case of Afghanistan. Norway. 2007:10. 15 p.

3. Filling The Vacuum The Bonn Conference. Berlin: WGBH Educational Foundation, 2001.

4. Kenneth Katzman. Afghanistan: Post-War Governance, Security, and U.S. Policy. Washington. 2008. 73 p.

5. Sultan Barakat. Setting the scene for Afghanistan’s reconstruction: the challenges and critical dilemmas. //Third World Quarterly, Vol 23, № 5. UK.: 2002. 801-816 pp.

6. Афганистан на переходном этапе (сентябрь 2001 – июнь 2002 г). М.: ИВ РАН. 2002. 281 с.

7. Арунова М.Р. К вопросу о стабилизации обстановки в Исламской Республике Афганистан. Часть //URL: http://www.journal-neo.com/?q=ru/print/8806

8. Ляховский А.А., Давитая С.Ж. Игра в Афганистан. М.: 2009. 634 с.

9. Нессар О. «Боннская модель» и политический процесс в Афганистане в 2001-2004 гг.//Вестник Калмыцкого института гуманитарных исследований РАН № 1. 2014. 14 с.

10. **دکتر عمر صدر. حل سیاسی منازعه ی افغانستان: الگو های مختلف. انستیتوت مطالعات استراتژیک افغانستان. کابل. ۱۳۹۷. (2018) ۱۱۰ ص**

REFERENCES:

1. Agreement on Provisional Arrangements in Afghanistan Pending the Re-Establishment of Permanent Government Institutions. Bonn. Germany, December 22, 2001. https://peacemaker.un.org/en/node/9444 (In English)

2. Arunova, M.R. K voprosu o stabilizatsii obstanovki v Islamskoy Respublike Afganistan. Chast 1. //URL: http://www.journal-neo.com/?q=ru/print/8806 (In Russian)

3. Astri Suhrke. Democratization of a dependent state: the case of Afghanistan. Norway. 2007:10. 15 p. (In English)

4. Doktor Omar Sadr. Hal-e siyasi-ye monaze'e-ye Afghanistan: olgu-haye mokhtalef. Anstitut-e motale'at-e strategik-e Afghanistan. Kabul. 1397 (2018). 110 s. (In Persian)

5. Filling The Vacuum The Bonn Conference. Berlin: WGBH Educational Foundation, 2001. (In English)

6. Kenneth Katzman. Afghanistan: Post-War Governance, Security, and U.S. Policy. Washington. 2008. 73 p. (In English)

7. Lyakhovskiy A.A., Davitaya, S.Zh. Igra v Afganistan. M.: 2009. 634 s. (In Russian)

8. Nessar O. Istoriya politicheskogo razvitiya sovremennogo Afganistana (2001-2014 gg.). M.: 2014. 237 s. (In Russian)

9. Sultan Barakat. Setting the scene for Afghanistan's reconstruction: the challenges and critical dilemmas. //Third World Quarterly, Vol 23, № 5. UK.: 2002. 801-816 pp. (In English)

10. Vahid Mojdeh. Afghanistan va naqshe-ye rah az Bon-e avval ta dovvom. 20/9/2011 http://www.farsi.ru/doc/4531.html (In Persian)

TALABA-YOSHLAR ORASIDA DINIY MAZMUNDAGI RADIKALLASHUVNING SHAKLLANISH OMILLARI: HOZIRGI DAVRDAGI MUAMMOLI JIHATLAR VA PROFILAKTIK YONDASHUVLAR

FACTORS CONTRIBUTING TO THE FORMATION OF RELIGIOUS RADICALIZATION AMONG STUDENTS AND YOUTH: PROBLEMATIC ASPECTS IN THE CURRENT PERIOD AND PREVENTIVE APPROACHES

ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ РЕЛИГИОЗНОГО РАДИКАЛИЗМА СРЕДИ СТУДЕНТОВ И МОЛОДЁЖИ: ПРОБЛЕМНЫЕ АСПЕКТЫ В СОВРЕМЕННЫЙ ПЕРИОД И ПРОФИЛАКТИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ

https://zenodo.org/records/20666490

Ataxanov Xamza Ataxanovich
Oriental universiteti rektor maslahatchisi
Mustaqil tadqiqotchi
Tel: +998 91-091-10-44
E-mail: khamzaatakhanov@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada bugungi kunda dolzarb muammolardan biri bo‘lgan radikallashuvning shakllanish omillari hamda hozirgi kundagi unga berilayotgan yechimlarni kompleks o‘rganilgan tadqiqotlar asosida tahlil qilindi. Radikallashuv jamiyatda faqat diniy ta’limot bilan emas, balki ijtimoiy tengsizlik, identitet inqirozi, oilaviy zaiflik, onlayn makon, algoritmik ta’sir, psixologik ehtiyojlar va geosiyosiy voqealarning raqamli aks-sadosi bilan bog‘liq murakkab jarayonlarning ta’siri ham ko‘rib chiqilgan. Maqolada profilaktika uchun diniy savodxonlik, media savodxonlik, maktab-oila-mahalla hamkorligi, yoshlar bandligi, psixologik yordam va muqobil ma’no maydonlarini kuchaytirish zarurligi asoslanadi.

Kalit so‘zlar: *yoshlar, diniy radikallashuv, ekstremizm, identitet, ijtimoiy tarmoqlar, diniy savodxonlik, algoritmik targ‘ibot, media savodxonlik, profilaktika.*

Abstract. The article analyzes the factors that form radicalization, one of the most pressing problems today, and the current solutions to it based on comprehensive research. Radicalization is not only associated with religious teachings in society, but also the impact of complex processes associated with social inequality, identity crisis, family vulnerability, online space, algorithmic influence, psychological needs, and the digital echo of geopolitical events. The article argues that prevention requires religious literacy, media literacy, school-

family-neighborhood cooperation, youth employment, psychological support, and strengthening alternative meaning spaces.

Keywords: *youth, religious radicalization, extremism, identity, social networks, religious literacy, algorithmic propaganda, media literacy, prevention.*

Аннотация. В статье анализируются факторы, формирующие радикализацию, одну из самых актуальных проблем современности, и существующие решения этой проблемы на основе всестороннего исследования. Радикализация связана не только с религиозными учениями в обществе, но и с влиянием сложных процессов, обусловленных социальным неравенством, кризисом идентичности, уязвимостью семьи, онлайн-пространством, алгоритмическим влиянием, психологическими потребностями и цифровым эхом геополитических событий. В статье утверждается, что профилактика требует религиозной грамотности, медиаграмотности, сотрудничества школы, семьи и соседства, трудоустройства молодежи, психологической поддержки и укрепления альтернативных смысловых пространств.

Ключевые слова: *молодежь, религиозная радикализация, экстремизм, идентичность, социальные сети, религиозная грамотность, алгоритмическая пропаганда, медиаграмотность, профилактика.*

KIRISH

Axborot kommunikatsiya sohasi rivojlanishi insonlar hayoti va ijtimoiy faoliyatda qulay imkoniyatlarni ochish bilan birga turli g‘oyalarning kirib kelishi global muammolarni hosil qiladi. So‘nggi yillarda dunyoning turli mintaqalarida talaba-yoshlar ishtirokidagi radikallashuv holatlarining murakkablashib borayotgani ilmiy va amaliy doiralarda alohida tashvish uyg‘otmoqda. Xususan, diniy mazmunga ega bo‘lgan, ammo haqiqiy kontekstdan uzib, ma’no jihatdan o‘zgartirilgan siyosiy va emotsional maqsadlarda talqin qilinishiga asoslangan radikallashuv shakllari tezroq yoyilayotgan segmentlardan biri bo‘lib qolmoqda. Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev “Ma’naviyat va ma’rifat kengashi” yig‘ilishida *“Biz bugungi keskin sharoitda g‘oyaviy-mafkuraviy sohada raqobatga tayyormizmi? Yosh avlodimiz tarbiyasi murakkab zamon talablariga javob beryaptimi? Bular oddiy savollar emas. Odamni jiddiy o‘ylantiradigan, tashvishga soladigan savollar. Agar biz bu yorug‘ dunyoda “o‘zbek”, “o‘zbekistonlik”, “O‘zbekiston” degan nomlar bilan yashab qolishni istaydigan bo‘lsak, bu savollarga bugun javob topishimiz va ularni hal etish bo‘yicha amaliy harakatlarni aynan bugun boshlashimiz shart. Ertaga kech bo‘ladi”*, – dedilar. Mazkur murojaat nafaqat ma’naviyat va ma’rifat kengashi a’zolariga qaratilgan, balki kelajak avlodni tarbiyalayotgan o‘zbek xalqiga aytilgan bo‘lib, ijtimoiy

tarmoqlar orqali **diniy e’tiqod niqobi ostida yoshlarni ma’rifatga emas, jaholatga undash** holatlarini oldini olishga undashdir. Bunday vaziyatda jamiyatda jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashishni kuchaytirish, ehtiyotkorlik va ogohlikni oshirish lozimligi ta’kidlanmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Radikallashuv iborasini tushuntiruvchi ilmiy yondashuvlar turli fan tarmoqlari doirasida mavjud bo‘lib, ular orasida psixologik, sotsiologik, siyosiy va pedagogik tushunchalar alohida o‘rin tutadi. Diniy mazmundagi radikallashuvni ham biror matnni o‘qish bilan emas, balki ma’no, mansublik va harakat ehtiyojlarini qondirish uchun bosqichma-bosqich ideologik muhitga kirib borish bilan izohlash maqsadga muvofiq. Tahliliy tadqiqotlar talaba-yoshlar radikallashuvida bir qator takrorlanuvchi xavf omillarini aniqlagan. Emmelkampning multilevel meta-tahlili voyaga yetmaganlar orasida adolatsizlik hissi, yoshlikdagi zulm ostidagi tarbiya, ruhiy bosim, tajovuzga nisbatan yuqori bag‘rikenglik, past darajadagi ijtimoiy bog‘liqlik, salbiy tengdosh ta’siri, oila bilan nizolar va institutlarga ishonchsizlik radikallashuv bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi (Emmelkamp J., 2020:55). Shu bilan birga radikallashuv mohiyatini anglashda identititlik muhim ahamiyat kasb etadi. Echelmeyer, Slotboom va Weerman identitetning ekstremistik radikallashuvdagi rolini ko‘rib chiqib, ayniqsa guruhga mansublik, tahdid ostidagi kollektiv identitet va ma’naviy yuksaklik hissi kabi omillar muhimligini ta’kidlaydi (Echelmeyer L., Slotboom A., Weerman F. (2023:39).

Talaba-yoshlar orasida yolg‘izlik holatida qolish, qattiq stress oqibatida depressiyaga tushish, hamisha ma’naviy, ijtimoiy hamda ruhiy bosimga uchraganligi oqibatida o‘zini himoya qobig‘iga o‘ralishi natijasida “ haqiqat sari kurashuvchi” sifatida tasavvur qila boshlaganida, radikal guruhlar ta’siriga tushish ehtimoli yuqori bo‘ladi. Diniy mazmundagi radikallashuv aynan mana shu joyda kuchayadi: din murakkab hayotiy savollarga tez, qat’iy va hissiy jihatdan qoniqarli javob sifatida taqdim etiladi.

N.Yusof, A.Kaur, S.Dalib, R.Ramli hamda Awang-Hashim hammuallifligida yozilgan “Guruh identifikatsiyasi va ekstremizm: Yoshlarning ishontirish muloqotiga oid mulohazakor tajribalari. Bolalar va yoshlar xizmatlari sharhi” nomli qo‘llanmasida diniy radikalizmning asosiy ta’siri identitga bog‘liqligi ochib berilgan. Undan ma’lumki, talaba-yoshlar va guruh identiteti munosabatini tadqiq etib, ekstremistik xabarlarning ta’siri ko‘pincha to‘g‘ridan-to‘g‘ri aqidaviy ishontirishdan ko‘ra, yoshlarning ruhiyati hamda dunyoqarashi doirasida atrof-muhit bilan ziddiyat yuzaga kelishi orqali ifodalanishi keltirilgan (Yusof N., 2020:121). Boshqacha aytganda, talaba-yoshlar radikal g‘oyaga darhol emas, balki ma’lum guruh bilan hissiy identifikatsiya orqali yaqinlashadi. Bu esa diniy

mazmundagi radikallashuvni tushuntirishda “kimman?” degan savol ko‘pincha “nimaga ishonaman?” degan savoldan ham oldin kelishini bildiradi.

Klinik va psixopatologik yo‘nalishdagi tadqiqotlar radikallashgan yoshlarning hammasini patologik toifaga kiritib bo‘lmasligini, biroq ayrim holatlarda travma, oilaviy zo‘riqish, ruhiy izolyatsiya, affektiv beqarorlik va himoyalanmaganlik hissi radikal ta’sirchanlikni oshirishi mumkinligini ko‘rsatadi. Tadqiqotchi olim N. Campelo, A. Oppetit, C. Thompson, D. Cohen psixopotologik holatga tushgan radikal talaba-yoshlar bilan munosabatda ehtiyotkor pozitsiyani taklif etadi: radikallashuvni na to‘liq psixiatriyalashtirish, na mutlaqo psixologiyadan uzib qo‘yish kerak. Yoshlar bilan ishlashda klinik sezgirlik va ijtimoiy kontekst tahlili birga qo‘llanilishi lozim (Campelo N., Oppetit A., Thompson C., CohenD., Louet, E. (2022:13).

Yurtimizda diniy radikalizm masalasi bir qator tadqioqtchilar tomonidan ham o‘rganilgan. Jumladan, B. Abduhalimov, B. Babadjanov, I.Daminov, M. Komilov, D. Maxsudov, D. Rahimjonov, O. Ernazarov kabi olimlar tomonidan diniy radikalizmning oldini olish, “jaholatga qarshi ma’rifat” targ‘ibot-tashviqot ishlarining radikalizmning oldini olishda muhim ahamiyatga ega ekanligi hamda sabablari va omillari o‘rganilgan. Bugungi kunda Din ishlari bo‘yicha qo‘mita O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi bilan hamkorlikda “Jaholatga qarshi ma’rifat” targ‘ibot ishlari olib borayotganligi Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning mamlakatimizda diniy-ma’rifiy sohalarda olib borilayotgan islohotlar hamda turli yot g‘oyalarning oldini olishda ma’naviy-ma’rifiy ma’lumotlar berish doirasidagi topshiriqlarining amaliyotga tatbiq etish in’ikosidir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda talaba-yoshlar orasida diniy mazmundagi radikallashuv jarayonini tizimli va bosqichma-bosqich tahlil qilish maqsadida sotsial-psixologik va raqamli ekologik yondashuv tanlandi. Radikallashuvni oddiy “aqidaviy og‘ish” deb emas, balki murakkab ijtimoiy-psixologik va raqamli jarayon sifatida ko‘rib chiqish uchun quyidagi ikki asosiy metodologik asos qo‘llanildi:

1. Radikallashuvning besh bosqichli modeli.
2. Onlayn radikallashuvning raqamli ekotizim komponentlari tahlili.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yoshlar orasida diniy mazmundagi radikallashuvni jarayon sifatida tahlil qilinganda, odatda besh nisbiy metodologik bosqichni ajratish mumkin (Sabic-El-Rayess., 2021:87).

1. Sezuvchanlik yoki tayyorlik bosqichi. Bu davrda yoshning hayotida savollar ko‘payadi: adolat nima, nega zulm mavjud, nega jamiyatdagi ayrim guruhlar boy va qudratli, boshqalari esa mensimaydi, nega ma’naviy bo‘shliq kuchaymoqda? Odatda bu savollar o‘z-o‘zidan xavf belgisi emas; aksincha, ular yosh tafakkurining tabiiy rivojlanish qismidir. Ammo ushbu savollarga muvozanatli, bilimli va ishonchli javob topilmasa, sezuvchanlik bosqichi radikal ta’sirga ochiq maydonga aylanishi mumkin.

2. Keraklilikning ideologik kodlanishi. Bu bosqichda talaba hayotdagi tengsizlikni global diniy adolatsizlikning bir qismi sifatida ko‘radi. Talaba-yoshlarning ichki ranjishi oqibatida atrofidagi munosabatlarni “hamma meni yomon ko‘radi” uslubida talqin qiladi.

3. Guruh bilan hissiy identifikatsiya. Radikal diskursning real kuchi ko‘pincha aqidaviy dalillarda emas, balki jamoa va birodarlik hissini ishlab chiqarishidadir. Yoshlar o‘zini eshitilgan, ko‘rilgan va hurmat qilingan his qiladigan yopiq jamoaga kirganda, u yerdagi g‘oyalarni tanqidiy baholash qobiliyati pasayishi mumkin. Chunki qarashlar endi faqat “fikr” emas, balki do‘stlik, sadoqat va ijtimoiy maqom bilan bog‘lanadi. Guruhga qarshi chiqish “haqiqatga qarshi chiqish” bilan tenglashtiriladi.

4. Obrazning mustahkamlanishi. “Biz” mutlaqo haq, “ular” mutlaqo nohaqdir.

5. Legitimlashtirish va guruhlanish. Har bir radikallikka moyil shaxs zo‘ravon harakatga bormaydi, lekin aynan shu bosqichda u zo‘ravonlikni oqlashga tayyor bo‘lib qoladi. Bu holat onlayn tashviqot, guruh bosimi, karizmatik shaxslar ta’siri yoki keskin voqea fonida tezlashishi mumkin. Shu bois erta profilaktika aynan dastlabki uch bosqichda samaraliroq bo‘ladi; to‘rtinchi va beshinchi bosqichlarda esa ish ancha qiyinlashadi.

Onlayn radikallashuvni chuqurroq tushunish uchun raqamli ekotizimning ichki tarkibiy qismlarini alohida ko‘rib chiqish lozim:

Birinchi component-algoritmik tavsiyalar tizimi. Platformalar foydalanuvchini ushlab turish maqsadida uning oldingi qiziqishlariga o‘xshash, lekin ko‘pincha yanada hissiyroq va keskinroq materiallarni ko‘rsatishga intiladi. Bu jarayon ekstremistik kontentni avtomatik ravishda yaratmaydi, biroq foydalanuvchi bir marta grievance, geosiyosiy zulm yoki “asl haqiqat” haqidagi materiallarga qiziqish bildirsa, o‘xshash semantik maydondagi kontent oqimi kuchayishi mumkin. Natijada yosh o‘zini go‘yo “hamma aynan shunday o‘ylayapti” degan filtrlashgan haqiqat ichida topadi.

Ikkinchi komponent – sharhlar va mikro-jamoalar maydoni. Ko‘plab yoshlarda videoning o‘zidan ko‘ra, uning ostidagi izohlar, repostlar, bahslar va memlar kuchliroq ta’sir ko‘rsatadi. Chunki bu joyda ular nafaqat kontentni

iste’mol qiladi, balki unga javoban o‘zini pozitsiyalashtiradi. Radikal muhitlar aynan shu bosqichda “bir xil o‘ylaydigan” kichik jamoalarni shakllantirib, yangi kelgan foydalanuvchini ijtimoiy mukofotlar – e’tibor, layk, tasdiq va “birodarlik” bilan mustahkamlaydi.

Uchinchi komponent – yopiq messenjer kanallari va yarim maxfiy tarmoqlardir. Ochiq platformadagi kontent ko‘pincha “eshik” vazifasini bajaradi. Asosiy radikallashuv esa moderatsiyasi sustroq, shaxsiyroq va ierarxikroq bo‘lgan yopiq guruhlarda chuqurlashadi. Bu yerda kontent yanada keskinlashadi: selektiv diniy matnlar, dushman obrazini kuchaytiruvchi lavhalar, “ichki ma’lumot” ko‘rinishidagi fitna narrativlari, zo‘ravonlikni estetiklashtiruvchi materiallar va amaliy maslahatlar uzatilishi mumkin. Yangi a’zo asta-sekin “oddiy tomoshabin” dan “ishonchli doira a’zosi”ga aylantiriladi.

To‘rtinchi komponent – mem madaniyati va ironik radikallashuvdir. Hozirgi yoshlar orasida ko‘plab mafkuraviy signallar jiddiy ma’ruza yoki manifest emas, balki hazil, kinoya, satira yoki “shunchaki mem” shaklida tarqaladi. Bunday format psixologik himoya mexanizmlarini chetlab o‘tadi: foydalanuvchi o‘zini “hazil ko‘ryapman, jiddiy qabul qilmayapman” deb o‘ylaydi, ammo takrorlanuvchi obraz va ma’no qatlamlari uning tasavvurlarini baribir shakllantiradi. Diniy mazmundagi radikal memlar ayniqsa “haqiqiy mo‘minlar” va “munofiqlar”, “uyg‘onganlar” va “uxlayotganlar”, “sha’nli o‘tmish” va “xor bugun” qarama-qarshiligini kuchaytirishi mumkin.

Beshinchi komponent – audio-vizual immersiya. Radikal kontentning ayrim shakllari professional montaj, musiqiy fon, dramatik pauzalar, subtitrlar va vizual ritm orqali ishlaydi. Bu usullar hissiy ishonch hosil qiladi: foydalanuvchi faktni tekshirmasdan turib ham kontentni “haqiqiy” va “chuqur” deb qabul qilishi mumkin. Ayniqsa diniy til bilan birlashgan video-kontentda tasvir, ovoz va matn uyg‘unligi yoshning mantiqiy emas, sezgi qabulini oldinga chiqaradi.

Himoya omili	**Ilmiy mazmuni**	**Amaliy ifodasi**
Maktabdagi munosabat	Ijtimoiy bog‘liqlik va kelajak tasavvurini kuchaytiradi.	Mentorlik, akademik qo‘llab-quvvatlash, ijobiy baholash hamda o‘qituvchi tomonidan e’tirof etilishi
Ota-ona e’tibori	Emotsional xavfsizlik va nazorat muvozanatini ta’minlaydi.	Suhbat, kuzatuv, hukmsiz savol-javob, birgalikdagi faoliyat, tushuna olish metodikasini qo‘llash orqali farzand bilan sirlashish.
Ijobiy guruhlararo aloqa	Hissiy yolg‘izlikni oldini oladi, ruhan ko‘tarinki kayfiyatni hosil qiladi.	Muloqot maydonlari, qo‘shma loyihalar, bahs madaniyati.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, talaba-yoshlar orasida diniy mazmundagi radikallashuv uch darajada shakllanadi: keng, o‘rta va qisqa masshtabli omillar. Keng masshtabli omillarga strukturaviy “turtki maydoni”ni hosil qiluvchi ma’naviy muhit, o‘rta masshtabli omillar kundalik ijtimoiy hayotdagi faoliyat natijasida yuzaga kelgan omillar, qisqa masshtabli omillar esa individual tobelik, qabulchanlik va motivatsion mexanizmlarni ta’minlaydi. Ushbu uch omil bir-biridan mustaqil ravishda faoliyat olib bormaydi, balki bir-birini rivojlantirishga turtki bo‘ladi (J.Do‘stmurodov, M.Oltiboyev, N.Azizova:12). Bularni oldini olishda quyidagi takliflar ijobiy natija bera oladigan ko‘rsatma hisoblanadi:

Birinchi muhim omil – ijtimoiy adolatsizlik va nisbiy deprivatsiyadir. Talaba-yoshlar ko‘pincha o‘zini nafaqat mutlaq qashshoqlik, balki tengdoshlar bilan taqqoslash, jamiyatdagi imkoniyatlar notekisligi, korrupsiya, nepotizm yoki istiqbolning noaniqligi sabab marginal his qilishi mumkin (UNESCO, 2016:15). Ayniqsa “mehnat qilaman, lekin tan olinmayman” degan hissiyot radikal narrativlar uchun qulay zamin yaratadi. Bunday narrativlar jamiyatdagi murakkab muammolarni soddalashtirib, “asl sabab – yovuz tizim” yoki “haqiqiy dushman – boshqa guruh” degan shaklda taklif etadi. Yechim: oilada yetarli darajada milliy qadriyatlarga tayanilgan tarbiya uslubidan foydalanish.

Ikkinchi omil – geosiyosiy ziddiyatlarning raqamli hissiy rezonansidir. Bugungi kunda yoshlar dunyoning istalgan nuqtasidagi mojaro tasvirlarini real vaqt rejimida ko‘radi, sharhlaydi va ularga hissiy munosabat bildiradi. Mojarolar haqida biryoqlama, kontekstdan uzilgan yoki selektiv materiallar takror-takror iste’mol qilinganda, global grievance mahalliy identitetning bir qismiga aylanadi. Diniy mazmundagi radikallashuvda aynan mana shu mexanizm kuchli ishlaydi: “dunyo bo‘ylab bizning jamoamizga qarshi zulm bo‘lyapti, demak men ham javobgar va harakat qilishim kerak” degan tuyg‘u shakllanadi. Yechim: oldini olishda diniy kontentlardan yiroq turish, Din ishlari bo‘yicha qo‘mita tomonidan o‘rganilib, foydalanish taqiqlangan internet manzillaridan foydalanmaslik va ota-ona tomonidan shaxsiy telefoniga bola nazorati funksiyasini yoqish (И.Даминов., 2016:28).

Uchinchi omil – davlat va institutlarga ishonchning pasayishi. Agar talaba tahsil olayotgan OTM muhitida ma’lum mansabdor shaxslar tomonidan bosim va adolatsizlikka uchragan bo‘lsa, himoya va yechim topa olmasa, muqobil legitimatsiya manbalarini qidira boshlaydi. Bu manbalar ba’zan diniy ko‘rinishdagi, biroq aslida siyosiy-hissiy mobilizatsiyaga qaratilgan yopiq jamoalar bo‘lishi mumkin (OSCE, 2024:43). Yechim: oilada talaba farzand nazoratida ruhiy ko‘mak va ma’naviy tarbiya berish.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalarini muhokama qilish shuni ko‘rsatadiki, yoshlar orasida diniy mazmundagi radikallashuvni faqat aqidaviy og‘ish, faqat qashshoqlik, faqat internet yoki faqat psixologik zaiflik bilan tushuntirish mumkin emas. Aksincha, radikallashuv – bu ijtimoiy grievance, identitet izlanishi, hissiy safarbarlik va kommunikativ infrastrukturaning qo‘shilish nuqtasida yuzaga keladigan murakkab jarayondir. Talaba-yoshlar radikallashuvi ko‘pincha mansublik va status ehtiyojlari bilan chambarchas bog‘liq. Radikal jamoa yoshga nafaqat g‘oya, balki rol beradi: u o‘zini “tanlangan”, “uyg‘ongan”, “kurashchi” yoki “haqiqat himoyachisi” sifatida his qila boshlaydi. Bu rol oddiy kundalik hayotda topa olmagan qadr-qimmatni kompensatsiya qiladi. Demak, profilaktika ham muqobil mansublik va qadr-qimmat maydonlarini yaratishi kerak: ilmiy, ijtimoiy, sport, ko‘ngillilik, ijodiy va ma’rifiy faoliyatlarda yoshning status va ma’no topishi radikal jamoalarning jozibasini kamaytiradi. Umuman olganda, yoshlar orasida diniy mazmundagi radikallashuvga qarshi kurash “ko‘proq nazorat” bilan emas, “ko‘proq tushunish va erta vositachilik” bilan samaraliroq bo‘ladi. Bu esa xavfsizlik, ta’lim, dinshunoslik, psixologiya va raqamli kommunikatsiya bo‘yicha hamkorlikdagi ko‘p tarmoqli strategiyani taqozo etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Арунова М.Р. К вопросу о стабилизации обстановки в Исламской Республике Афганистан. Часть 1.

2. Афганистан на переходном этапе (сентябрь 2001 – июнь 2002 г). М.: ИВ РАН. 2002. 281 с.

3. Campelo N., Oppetit A., Thompson C., Cohen D., & Louet E. (2022). A Clinical and Psychopathological Approach to Radicalization Among Adolescents. Frontiers in Psychiatry, 13, 788154.

4. Даминов И., Бозоров О., Акрамова Ш. (2016) Миллий тарбия ва ёшлар. –Тошкент: “Камалак”, 2016.

5. Дўстмуродов Ж., Олтибоев М., Азизова Н. (2007) Диний экстремизм ва терроризмга қарши курашнинг маънавий-маърифий асослари. Қарши.

6. Duindam H. M., van Loon A. W. G., & Lösel F. (2025). Protective factors against extremism and violent radicalization in youth: A multilevel meta-analysis. Aggression and Violent Behavior, 85, 102101.

7. Ляховский А.А., Давитая С.Ж. Игра в Афганистан. М.: 2009. 634 с.

8. Нессар О. История политического развития современного Афганистана (2001-2014 гг.). М.: 2014. 237 с.

9. Нессар О. «Боннская модель» и политический процесс в Афганистане в 2001-2004 гг.//Вестник Калмыцкого института гуманитарных исследований РАН № 1. 2014. 14 с.

10. OSCE. (2024). Research on Youth and Security. Vienna: Organization for Security and Co-operation in Europe.

11. Sabic-El-Rayess A. (2021). How do people radicalize? International Journal of Educational Development, 87, 102499.

12. UNESCO. (2016). A Teacher's Guide on the Prevention of Violent Extremism. Paris: UNESCO.

REFERENCES:

1. Arunova M.R. K voprosu o stabilizatsii obstanovki v Islamskoy Respublike Afganistan. Chast 1. (In Russian)

2. Afganistan na perekhodnom etape (sentyabr 2001 – iyun 2002 g). M.: IV RAN. 2002. 281 s. (In Russian)

3. Campelo N., Oppetit A., Thompson C., Cohen D., & Louet E. (2022). A Clinical and Psychopathological Approach to Radicalization Among Adolescents. Frontiers in Psychiatry, 13, 788154. (In English)

4. Daminov I., Bozorov O., Akramova Sh. (2016) Milliy tarbiya va yoshlar. – Toshkent: "Kamalak", 2016. (In Uzbek)

5. Dŷstmurodov J., Oltiboev M., Azizova N. (2007) Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy asoslari. Qarshi. (In Uzbek)

6. Duindam H. M., van Loon A. W. G., Lösel F. (2025). Protective factors against extremism and violent radicalization in youth: A multilevel meta-analysis. Aggression and Violent Behavior, 85, 102101. (In English)

7. Lyakhovskiy A.A., Davitaya S.Zh. Igra v Afganistan. M.: 2009. 634 s. (In Russian)

8. Nessar O. Istoriya politicheskogo razvitiya sovremennogo Afganistana (2001-2014 gg.). M.: 2014. 237 s. (In Russian)

9. Nessar O. «Bonnskaya model» i politicheskiy protsess v Afganistane v 2001-2004 gg.//Vestnik Kalmytskogo instituta gumanitarnykh issledovaniy RAN № 1. 2014. 14 s. (In Russian)

10. OSCE. (2024). Research on Youth and Security. Vienna: Organization for Security and Co-operation in Europe. (In English)

11. Sabic-El-Rayess A. (2021). How do people radicalize? International Journal of Educational Development, 87, 102499. (In English)

12. UNESCO. (2016). A Teacher's Guide on the Prevention of Violent Extremism. Paris: UNESCO. (In English)

QUYI AMUDARYO HUDUDIDA ANTIK DAVR HUNARMANDCHILIGI MAHSULOT TURLARI BO‘YICHA MULOHAZALAR

РАССМОТРЕНИЕ ВИДОВ ИЗДЕЛИЙ ДРЕВНЕГО РЕМЕСЛЕННОГО МАСТЕРСТВА В НИЖНЕМ РЕГИОНЕ АМУДАРЬИ

EXAMINATION OF TYPES OF ANCIENT CRAFTSMANSHIP IN THE LOWER REGION OF THE AMUDARYA

https://zenodo.org/records/20666520

Ibragimov Ibragim Axmedovich
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti o‘qituvchisi
Tel: +998 97-517-17-27
E-mail: ibragim.dilfuza@gmail.com

Annotatsiya. Xorazm vohasi antik davrda urbanistik jarayonlarni qamrab olishi natijasida (mil.avv.IV- milodiy IV asrlar) yuz bergan o‘zgarishlari bilan O‘zbekiston antik dunyosi tarixida o‘ziga xos muhim tarixiy ahamiyatga egaligi bilan farqlanish xususiyati tahlil qilingan. Xorazm ekspeditsiyasi hamda mustaqillik yillarida Quyi Amudaryo regionida aholi o‘rnashgan madaniy-xo‘jalik markazlar, ular tarkibidagi mikrovohalarda kechganligi manbalar asosida qayd qilingan va boshqa mintaqalar bilan solishtirib, uning o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilinadi. Mil.avv.V asr boshida o‘troq ziroatkor aholi tomonidan Amudaryodan Qizilqum sernam va serunum hududlarni o‘zlashtirish uchun chiqarilgan Kaltaminor sug‘orilish inshooti suv ta’minoti davom etganligi bois, Dingilja aholisi sof tuproqdan unumli foydalanib kulolchilik ashyolari mahsulotlarining turlarini kengaytirganligi va mehnat vositalari turlarini ko‘paytirganliklari, ayniqsa bu jarayon mil.avv.IV-III asrlarda keng tus olgani maqolada qayd etilgan. Shuningdek, antik davrda hunarmandchilikda aksariyat kulolchilik mahsulotlari charxda va qo‘lda ishlanganligi haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: *Amudaryo, Bozorqal’a, Dingilja, xumcha, tuvak, Kaltaminor, bilaguzuk, mehnat vositalari.*

Аннотация. Хорезмский оазис, как результат урбанизации, происходившей в древности (IV век до н.э. - IV век н.э.), анализируется с точки зрения его уникальности в истории древнего мира Узбекистана, обусловленной произошедшими в нем изменениями. Культурные и экономические центры, обосновавшиеся в нижнеамударьинской области во время Хорезмского похода и в годы независимости, а также микрооазисы в их составе, зафиксированы на основе источников, а его специфические особенности анализируются путем сравнения с другими регионами.

Поскольку Калтаминорская ирригационная система, построенная оседлым земледельческим населением в начале V века до н.э. для развития Кызылкумского сернама и серунума в Амударье, продолжала обеспечивать водой, жители Дингильи, используя чистую почву, расширили ассортимент керамических изделий и увеличили количество видов орудий труда, особенно широко этот процесс распространился в IV-III веках до н.э. Также отмечается, что в древности большинство керамических изделий изготавливалось на гончарном круге и вручную.

Ключевые слова: *Амударья, Базаркала, Дингильджа, хумча, тувак, Калтаминор, браслет, орудия труда.*

Abstract. The Khorezm oasis, as a result of the urban processes that took place in ancient times (4th century BC - 4th century AD), is analyzed for its distinctiveness in the history of the ancient world of Uzbekistan, as a result of the changes that occurred in it. The cultural and economic centers settled in the Lower Amu Darya region during the Khorezm expedition and the years of independence, as well as the micro-oases within them, are recorded on the basis of sources, and its specific features are analyzed by comparing it with other regions. Since the Kaltaminor irrigation system, which was built by the settled agricultural population at the beginning of the 5th century BC to develop the Kyzylkum sernam and serunum regions from the Amu Darya, continued to provide water, the Dingilja residents, using pure soil, expanded the range of pottery products and increased the types of labor tools, especially this process became widespread in the 4th-3rd centuries BC. It is also said that in ancient times, most pottery products were made on a wheel and by hand.

Key words: *Amu Darya, Bazarkala, Dingilja, humcha, tuvak, Kaltaminor, bracelet, tools.*

KIRISH

Xorazm ekspeditsiyasi hamda mustaqillik yillarida Quyi Amudaryo regionida aholi o‘rnashgan madaniy-xo‘jalik markazlar, ular tarkibidagi mikrovohalarda kechgan. Ijtimoiy-iqtisodiy va etnomadaniy munosabatlar rivojlanish darajasi mezoni bo‘lgan hunarmandchilik bilimini aks ettirgan arxeologik izlanishlar natijalarini quyidagi tarixiy davrga ajratgan holda ushbu davrlarga ajratish mumkin:

1-Tarixiy davr mil.avv. IV-I asr

2-Tarixiy davr milodiy I-IV asrlar.

Xorazm ekspeditsiyasi xodimlari hamda mustaqillik yillarida ilmiy markazlarning arxeologik guruhlari tomonidan aholi turar-joylarida olib borilgan arxeologik izlanishlar natijalari temir davri yodgorliklari markazlarida

hunarmandchilik mahsulotlari va mehnat qurollari ishlatilishi davom etgan va yangi aholi turar-joylari bunyod qilingan aholi markazlarida ko‘p tarmoqli hunarmandchilik mahsulotlari geografiyasi kengayganligi kuzatiladi. Hunarmandchilik tarmoqlarining antik davrda sifat jihatidan bir-biridan farqlanadigan kulolchilik ashyolari, mehnat qurollari ishlab chiqilishida texnologik jarayonlar ko‘zga tashlanadi.

Shu ma’nodan kelib chiqib, antik davrda hunarmandchilikning texnologik asosida ishlab chiqilishi hamda qo‘lda tayyorlangan mehnat qurollarining ishlab chiqarilish jarayonini o‘ng va so‘l sohili hududlarida aholining hunarmandchilik mahsulotlari ishlab chiqarishini qarab chiqamiz:

1.Amudaryo o‘ng sohili hududi mil.avv. IV-I asrlar;

Birinchi tarixiy davrning hunarmandchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, texnologik asoslarda o‘ziga xos xususiyatlariga ega ekanligi kuzatiladi, ya’ni: temir davri so‘nggi bosqichida Bozorqal’a va qishloq maqomidagi Dingiljada o‘rnashgan aholi avlodlari antik davrda ajdodlari tomonidan qo‘llanilgan texnologik jarayonlar ahamiyati saqlanib qolgan. Antik davrga kelganda ikki turar-joyda o‘rnashgan aholi soni oshganligi sababli, qishloq xo‘jaligida sun’iy sug‘orma dehqonchilik madaniyati, uy chorvachiligining son miqdori oshganligi sababli, xum, xumcha, don mahsulotlarini saqlash, oshxona uchun mo‘ljallangan idish-tovoqlarni ishlab chiqarilish hajmi keng tus olganligini hunarmandchilik mahsulotlarida ajralib turadi. O‘ng sohilda temir davri so‘nggi bosqichida Bozorqal’a aholisi antik davrda hunarmandchilik bilimida texnologik uslubdan foydalanish davom etgan. Bozorqal’ada istiqomat qilgan temir davri so‘nggi bosqichida o‘rnashib, loy bilimi asosida texnologik va qo‘lda tayyorlanish kundalik amaliyotiga ega bo‘lgan avlodlari kundalik amaliy faoliyatlarini davom ettirganlar (texnologiya asosida (charxda) xum, xumcha, tuvak, tog‘ora, hajmi kichik tovoqlar, bezakli va bezaksiz (qizil angobli) ishlab chiqarilgan. Ayniqsa yodgorlik yaqinida aholi tomonidan olamdan o‘tgan safdoshlarini joylashtirgan qabrlardan olingan moddiy ashyolar (idish-tovoqlar, mehnat qurollari, zeb-ziynat mahsulotlari) antik davr hunarmandchilik mahsulotlari sifat jihatidan turli vazifalarni bajarishga mo‘ljallangan. Misol tariqasida, tadqiqotchilarning 1967 - yilda Bozorqal’a yaqinida aholi tomonidan qoldirib ketilgan (To‘rtko‘l tumani) 20 ta qabrni tozalash vaqtida kulolchilik ashyolari va mehnat qurollari namunalari olingan. 20 ta qabrdan olingan hunarmandchilik mahsulotlari tarkibi quyidagicha bo‘lgan:

-Hunarmandchilik mahsulotlari tarkibi;

-Qabrlardan olingan kulolchilik ashyolari qo‘lda tayyorlangan.

Hunarmandchilik mahsuloti turi - kuvshin ikki shaklda qo‘lda tayyorlangan. Qabr-1 da qo‘lda ishlangan suv saqlanishiga mo‘ljallangan kuvshin. Qizil rangda, olovda yaxshi pishirilgan. Ilk antik davr kulolchilik texnologiyasini takror qiladi. Idish ushlagichida yo‘lbars haykalchasi mavjud.

Qabr-6 qo‘lda ishlangan kuvshin. Qizil rangda, ushlagichi yo‘q, yarim-qizil rangda, pastki qismida oyoq mavjud.

Qabr- II da qadah- ikki formada, oyoqchasi juda past, aylana-silindr shaklda, yaxshi pishirilgan, qizil rang berilgan.

Mil.avv.V asr boshida o‘troq ziroatkor aholi tomonidan Amudaryodan Qizilqum sernam va serunum hududlarni o‘zlashtirish uchun chiqarilgan Kaltaminor sug‘orilish inshooti suv ta’minoti davom etganligi bois, Dingilja aholisi sof tuproqdan unumli foydalanib kulolchilik ashyolari mahsulotlarining turlarini kengaytirganlar va mehnat vositalari turlarini ko‘paytirganlar, ayniqsa bu jarayon mil.avv. IV-III asrlarda keng tus olgan. Masalan: M.G.Vorobyevani Dingilja yodgorligida keng qamrovli ravishda olib borgan arxeologik izlanishlar natijasida temir davri idish tovoqlari texnologiyasidan farqlanish xususiyatlariga ega bo‘lgan, yangi texnologik bilimi asosida turli vazifalarni bajaradigan hunarmandchilik mahsulotlari geografiyasini kengaytirganlar. Masalan: Birinchi navbatda Dingilja yodgorligi yaqin hududida joylashgan uy-qo‘rg‘onda qazishma ishlari olib borilishi munosabati bilan mil.avv. IV- milodiy IV asrlarga oid hunarmandchilikning turli mahsulotlari ishlab chiqarilgan. Buni temir davri aholisi yangi avlodlari yangi texnologik bilimlarni o‘zlashtirish natijasida xo‘jalik oshxonaga mo‘ljallangan, idish – tovoqlar, turli vazifani bajaradigan mehnat qurollari, loydan yasalgan haykalchalar, mudofaa inshootlari, xom g‘ishtlar paxsa bilimlari, zeb-ziynat ashyolari (turli shaklda) kundalik faoliyatlarida keng qo‘llaganlar.

Yodgorlikning ikkinchi qurilishi davrida xo‘jalik ishlariga bag‘ishlangan kulolchilik mahsulotlari turi ko‘paygan, mehnat vositalari, binokorlik-me’moriy bilimlar, loy haykalchalari (odam va uy hayvonlari), kamon o‘qlari loy yadrolar hosil qilgan. Misol tariqasida, Dingilja uy-qo‘rg‘onidan (№ 9, 10,11 a, 17,19, 21, 28) idish-tovoqlar, mehnat qurollari, bronza va temirdan qilingan pichoqlar, kamon o‘qlari va bronza quymasidan tayyorlangan zeb-ziynat ashyolari (uzuk, bilaguzuk, oyna, munchoqlar, kolsalar olingan (Воробъева М.Г., 1959: 9-11). Shu bilan birga manzilgoh yaqinida “otash”goh joylashgan, aylana shaklda, markazida aylana, uning o‘rtasida kvadratda olov yoqib turgan, bu antik davrda davom etgan (Воробъева М.Г., 1959: 12).

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Tadqiqotchi B.I.Vaynberg Amudaryo so‘l sohili hududida Quyisoy balandligida neolit davrida o‘rnashgan aholi Quyisoy-2 manzilgohi uy-xonalaridan olingan moddiy ashyolar olingan. Shu bilan birga Quyisoy-12 manzilgohi neolit davri urug‘ jamoalari olamdan o‘tgan safdoshlarini yotqizgan qabr ochib o‘rganilganligini qayd etib o‘tgan.

Tumek-Kichidjik qabridan marhumlar suyaklari, mehnat vositalari hamda kulolchilik ashyolari olingan (Вайнберг Б.И., 1979: 25-26). XX asr 70-75 yillarda Xorazm viloyati Hazorasp tumani Pitnak qishlog‘i hududida M.A.Itina qazishma ishlarni Sulton Sanjar, Qarriqizil, Qo‘shbuloq manzilgohlarida olingan ashyolar neolit davriga mansub bo‘lgan (Итина М.А., 1991: 51-71).

A.V.Vinogradovning ikkinchi asarida uchinchi bo‘limida Oqchadaryo havzasida Tolstov manzili hamda so‘l sohili hududida Quyisoy-12 manzilgohida o‘rnashgan Tumekkichidjik aholisi moddiy madaniyatini qayd qilgan (Виноградов А.В., 1981).

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot Quyi Amudaryodagi hunarmandchilik turlarini tahlil qilishda bir nechta ilmiy metodlarga tayanadi. Asosiy metodologik yondashuv tarixiy-xronologik izchillik metodi bo‘lib, u Qadimgi Xorazm hududidagi hunarmandchilik markazlarini paydo bo‘lish davrlarini, uning turlarini paydo bo‘lishi ketma-ket davriy chegara yordamida o‘rganish imkonini beradi. Bu orqali hunarmandchilik turlarining o‘ziga xos jihatlari, yutuqlari va kamchiliklari aniqlanadi. Shuningdek, tizimli tahlil metodi qo‘llanilib, hunarmandchilikning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy tizimlari bir butunlikda, o‘zaro aloqadorlikda ko‘rib chiqiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi Quyi Amudaryo regionida bronza davriga oid yodgorliklarni o‘rganish XX asr 50 yil o‘rtalaridan boshlangan. Shu xronologik davrgacha bronza davri yodgorliklari arxeologik jihatidan o‘rganilgan emas. Asosiy e’tibor Janubiy Oqchadaryo hududiga e’tibor berilgan. Shu yerda qayd qilish kerak bo‘ladiki, 1945 yilda qayta faoliyatini olib borgan Xorazm ekspeditsiyasi tarkibida turli fanlar mutaxassislari to‘planganligi bois ilmiy, milliy markaz vujudga kelgan.

S.P. Tolstov turar joylarda olib borilgan qazishma ishlari natijalari o‘rganish yuzasidan tadqiqotlar:

A.V.Vinogradov neolit davri tarixini o‘rganish:

M.A.Itina bronza davri tarixini yoritish.

B.V.Andrianov Xorazmni qadimgi sug‘orilish tarixini o‘rganish.

Ya.G‘.G‘ulomov Xorazm sug‘orilish tarixini o‘rganish bo‘yicha ilmiy yo‘nalishlar belgilab olingan.

Xorazm vohasi antik davrda urbanistik jarayonlar qamrab olishi natijasida (mil.avv.IV- milodiy IV asrlar) yuz bergan o‘zgarishlari bilan O‘zbekiston antik dunyosi tarixida o‘ziga xos muhim tarixiy ahamiyatga egaligi bilan farqlanish xususiyatiga ega ekanligi kuzatamiz. Hunarmandchilikning barcha sohalarini namoyon qilgan mahsulotlar o‘ng sohilda Ayozqal’a-3, Burgutqal’a, Qumbosganqal’a, Katta Kichik Qirqqizqal’a, Katqal’a, To‘qqal’a, Gaurqal’a (Sulton Uvays tog‘i), Toshxirman, (Qizilqal’a). So‘l sohilda Xumbuztepa kulolchilik markazi davom etgan, Hazorasp, Xiva, Katqal’a, Shaxsanam, Mizdaxqon, Gurganch, Devkesgen, Yarbaqirqal’a, Manqirqal’a, Oybuyirqal’a (bu yodgorlikda mil.avv.V asr oxiriga oid Xorazm yozuvi topilgan) va x.k. Tozabog‘yob sug‘orilish tizmasida joylangan Qo‘yqirilganqaladan hunarmandchilik sohasini loy bilimi, idish-tovoqlar, haykaltaroshlik, musiqa san’ati ashyolari bilan boshqa aholi turar-joylari, xususan moddiy va ma’naviy madaniyati antik davr yuksak darajada rivoj topganidan dalolat beradi.

Amudaryodan mil.avv.IV asrda Qizilqum tomon chiqarilgan Tozabog‘yob magistral sug‘orilish inshootidan chiqarilgan tarmoq Qo‘yqirilganqala aholisini suv bilan ta’min qilgan. Qo‘yqirilganqala antik davr boshida Qizilqum sahrosi sharoitida o‘troq aholi tarkibida binokorlik bilimini puxta egallagan hunarmand egallab olgan natijasini Qo‘yqirilganqala yodgorligi qurilishida aks ettirgan. Yodgorlik To‘rtko‘l shahridan 22 km shimoli-sharqida joylashgan, 1937-yildan arxeologik jihatidan qazishma ishlari olib borilishi boshlangan, jahon urushi boshlanishi bilan to‘xtab qolgan.

Qo‘yqirilganqala arxeologiya va topografik tuzilishi jihatlari S.P.Tolstov va B.V.Andrianov asarlarida qayd qilingan (Толстов С.П., 1953: 204-205). S.P.Tolstov qayd qilishicha, Qo‘yqirilganqala atrofida turli tarixiy davrlarga oid sug‘orish inshootlari harakat qilgan (Толстов С.П., 1958: 110) Yodgorlik atrofida Bazarqala, Adamliqala joylashgan. Yodgorlikda 1951-yildan boshlab, doimiy ravishda Xorazm arxeologiya va etnografiya ekspeditsiyasi xodimlari arxeologik tadqiqotlarni boshlab yuborgan. Arxeologik izlanishlar natijasida uning joylashish topografiyasiga oid ma’lumotlarga ega bo‘lingan, ya’ni aylana shaklda hajmi 90 m, kirish qismi shimoli-sharqiy tomonga qaratilgan. Qazishmalar eng qadimiy madaniy qatlamgacha olib borilgan, natijalari ilk tarixiy davrdan, faoliyati oxirigacha xronologiyasi oydinlashtirildi.

1939-1940-yillarda Xorazm ekspeditsiyasi arxeologik qidiruv natijasida Tuproqqal’a ro‘yxatga olingan, 1946 -yilda yuqori qatlamida qisman qazishma

ishlari olib borilishi natijasida (2 oy mobaynida 30 ta uy-xonalari) sharqiy va janubiy qismida o‘rganilgan. Topografik tuzilishi to‘g‘riburchak, umumiy hajmi 17 ga, shimoli-g‘arbiy burchagida ark joylashgan-kvadrat shaklda-hajmi 3,47 m. Uy xonalari biri devoridan arfa chalayotgan ayol rasmi tushirilgan, olingan ashyolar milodiy III asrga oid bo‘lgan (Толстов С.П., 1952 : 31-46). M.A.Orlov Tuproqqala saroyi “askarlar zali” qadimiy holatini tiklagan (Орлов М.А., 1951: 47-48).

XULOSA VA TAKLIFLAR

Hunarmandchilikning barcha sohalarini namoyon qilgan mahsulotlar o‘ng sohilda Ayozqal’a-3, Burgutqal’a, Qumbosganqal’a, Katta-Kichik Qirqqizqal’a, Katqal’a, To‘qqal’a, Gaurqal’a (Sulton Uvays tog‘i), Toshxirman, (Qizilqal’a), so‘l sohilda Xumbuztepa kulolchilik markazi davom etgan, Hazorasp, Xiva, Katqal’a, Shaxsanam, Mizdaxqon, Gurganch, Devkesgen, Yarbaqirqal’a, Manqirqal’a, Oybuyirqal’a (bu yodgorlikda mil.avv.V asr oxiriga oid Xorazm yozuvi topilgan) va boshqalarni aytib o‘tishimiz mumkin.

-Xorazm vohasida kulolchilik bilimi, toshdan mehnat qurollari ishlab chiqarishning ilk asosi so‘nggi tosh davri ovchilari amaliy mashg‘uloti bilan ma’lum.

-Mazkur tarixiy davrdan boshlab, bosqichma-bosqich hunarmandchilik sohasida rivojlanishi davom etdi, bu jarayon bronza, temir va antik davrlarda davom etdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.Воробъева М.Г. Раскопки архаического поселения близ Дингильдже //МХЭ-М:Наука, 1959. Вып.Л-С.9.

2.Воробъева М.Г. Дингильджа. Наука, 1979. С-128.

3.Воробъева М.Г. Керамика Хорезма античного периода // ТрХАЭЭ-М.-Наука 1959-Т. С -98.

4.Вайнберг Б.И. Памятники Куюсайской культуры //Кочевники на границах Хорезма-М:Наука, 1979- С . 25-26.

5.Итина М.А. Памятники неолита и бронзы // Древности Южного Хорезма . //ТрХАЭЭ-М:Наука. 1991-С 51-71.

6.Виноградов А.В. Древние охотники и рыболовы Среднеазиатского Междуречья //ТрХАЭЭ-М:Наука1981. Т.XIII.

7.Толстов С.П. Итоги работ Хорезмской археолого-этнографической экспедиции АН СССР в 1953 г. //ВДИ-М: Наука, 1955 № 3-С. 204-205.

8.Андрианов Б.В. Археолого-топографические исследования на землях древнегоорошения Турткульского и Бирунийского районов Кара-калпакской АССР в 1955-1956 гг //МХЭ-М:Наука, 1959- № 1-С 143-149.

9.Толстов С.П. Работы Хорезмской археолого-этнографической экспедиции АН СССР в 1949-1953 гг //ТХЭ-М.Наука, 1958 Т.2-С 110. Толстов С.П. Андрианов Б.В. Новые материалы по истории развития ирригации в Хорезме // КСИЭ-М: Наука 1957, Вып XXVI-С 6-7.

10.Толстов С.П. Хорезмская археолого-этнографическая экспедиция Академии наук СССР (1945-1948 гг /ТрХАЭЭ-М:Наука, 1952. Т.1-С . 31-46.

11.Орлов М.А. Реконструкция «Зала воинов» дворца III в.н.э. Топрак-кала //ТрХАЭЭ-М:Наука, 1951 Т.1- С 47-48.

REFERENCES:

1. Vorobyova M.G. Excavations of an archaic settlement near Dingildzhe // MHE-M: Nauka, 1959. Issue L-P.9. (In Russian)

2. Vorobyova M.G. Dingildzha. Nauka, 1979. P-128. (In Russian)

3. Vorobyova M.G. Ceramics of Khorezm of the ancient period // TrHAEE-M.-Nauka 1959-T. P-98. (In Russian)

4. Weinberg B.I. Monuments of the Kuyusai culture // Nomads on the borders of Khorezm-M: Nauka, 1979- P. 25-26. (In Russian)

5. Itina M.A. Monuments of the Neolithic and Bronze Age // Antiquities of Southern Khorezm . // TrHAEE-M: Nauka. 1991-P. 51-71. (In Russian)

6. Vinogradov AV Ancient hunters and fishermen of the Central Asian Interfluve // TrKHAE-M: Nauka 1981. Vol. XIII. (In Russian)

7. Tolstov SP Results of the Khorezm archaeological and ethnographic expedition of the USSR Academy of Sciences in 1953 // VDI-M: Nauka, 1955 No. 3-P. 204-205. (In Russian)

8. Andrianov BV Archaeological and topographic studies on the lands of ancient irrigated areas of the Turtkul and Biruni districts of the Kara-Kalpak ASSR in 1955-1956 // MHE-M: Nauka, 1959- No. 1-P. 143-149. (In Russian)

9. Tolstov SP Works of the Khorezm archaeological and ethnographic expedition of the USSR Academy of Sciences in 1949-1953 // TKhE-M. Nauka, 1958 Vol. 2-P 110. Tolstov S.P. Andrianov B.V. New materials on the history of irrigation development in Khorezm // KSIE-M: Nauka 1957, Issue XXVI-P 6-7. (In Russian)

10. Tolstov S.P. Khorezm archaeological and ethnographic expedition of the USSR Academy of Sciences (1945-1948 / TrKHAEE-M: Nauka, 1952. T.1-S. 31-46. (In Russian)

11.Orlov M.A. Reconstruction of the “Hall of Warriors” of the palace of the 3rd century AD. Toprak-kala //TrKHAEE-M:Nauka, 1951 T.1- P 47-48. (In Russian)

G‘ARBIY SUG‘DNING QADIMGI AHOLISI TARIXINI O‘RGANISHDA YOZMA MANBALARNING AHAMIYATI

THE SIGNIFICANCE OF WRITTEN SOURCES IN THE STUDY OF THE HISTORY OF THE ANCIENT POPULATION OF WESTERN SOGDIA

ЗНАЧЕНИЕ ПИСЬМЕННЫХ ИСТОЧНИКОВ В ИЗУЧЕНИИ ИСТОРИИ ДРЕВНЕГО НАСЕЛЕНИЯ ЗАПАДНОГО СОГДА

https://zenodo.org/records/20666553

Uzoqova Mahfuza Abdusalomovna
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti mustaqil izlanuvchisi
Tel.: +998 *99-054-04-77*
E-mail: ramazonovhusan4@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada G‘arbiy Sug‘dning qadimgi aholisi, ularning kelib chiqishi, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotini yozma manbalarda yoritilishi tahlil qilingan.Tadqiqot davomida bizgacha yetib kelgan yozma manbalar “Avesto”, Eron Ahamoniylarning qoyatosh bitiklari, yunon va rim tarixchilarining yozib qoldirgan ma’lumotlari aniqlandi. Maqolada “Avesto” yozma manbalar ichida eng qadimgi ekanligi, zardushtiylik dinining muqaddas kitobi bo‘lib, ajdodlarimizning ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari, diniy, axloqiy, falsafiy qarashlari yoritilgan. Shuningdek, Eron ahamoniylar hukmdori Doro I buyrug‘iga ko‘ra Kirmonshoh shahri yaqinida qoyatoshga qadimgi fors, elam va bobil tillarida bitilgan Behistun yozuvlarida u zabt etgan davlatlar, xalqlar va Frada boshchiligidagi xalq harakatlari haqida hikoya qilganligi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *G‘arbiy Sug‘d, Avesto, Eron, ahamoniylar, Kirmonshoh shahri, Doro I, Behuston yozuvi, fors, elam, bobil, Geradot, Sug‘diyona, sug‘d, etnogenez.*

Abstract. This article analyzes the coverage of the ancient inhabitants of Western Sugd their origin, socio-economic and political life in written sources. In the course of the study, the written sources that have come down to us are the "Avesto", rock bits of the Iranian Achaemenids, the data recorded by Greek and Roman historians. The article says that the Avesta, the oldest of the written sources, is the holy book of the Zardushti religion, covering the socio-economic relations, religious, moral and philosophical views of our ancestors. It is also recorded that Behistun inscriptions, written in ancient Persian, Elamite and Babylonian languages on a rock near the city of Kirmonshah by order of the

Achaemenid ruler of Iran, Darius I, tell about the conquered states, peoples and the movements of the people led by Frada.

Keywords: *Western Sughd, Avesta, Iran, Achaemenids, Kermonshah, Darius I, Behuston script, Persian, elam, Babylonian, Geradot, Sugdiana, Sughd, ethnogenesis.*

Аннотация. В этой статье анализируется освещение древних жителей Западного Согд, их происхождение, социально-экономическая и политическая жизнь в письменных источниках. В ходе исследования к нам дошли письменные источники это «Авесто» каменные фрагменты иранских Ахеменидов, данные, зафиксированные греческими и римскими историками. В статье говорится, что Авеста, самый древний из письменных источников, является священной книгой религии зардушти, охватывающей социально-экономические отношения, религиозные, моральные и философские взгляды наших предков. Также зафиксировано, что надписи Бехистуна, написанные на древних персидском, эламском и вавилонском языках, расположенные на скале возле города Кирмоншах по приказу ахеменидского правителя Ирана Дария I, рассказывают о завоёванных государствах, народах и передвижениях народа под руководством Фрады. Информация, представленная в трудах греческого историка Геродота в «Истории», а также в трудах других греческих и римских историков освещены.

Ключевые слова: *западный Согд, Авеста, Иран, Ахемениды, Кермоншах, Дарий I, письмо Бехустона, персидский, элам, вавилонский, геродот, сугдиана, согд, этногенез.*

KIRISH

O‘zbekistonning qadimgi xalqlari tarixi haqida, shuningdek G‘arbiy Sug‘dda yashagan ajdodlarimizning tarixi haqida ma’lumot beruvchi muhim manba, bu yozma manbalardir. Yozma manbalar ichida eng qadimgisi zardushtiylik dinining muqaddas kitobi “Avesto”dir. Zardushtiylik dini O‘rta Osiyoning va Eronning qadimgi xalqlari orasida tarqalgan din bo‘lib, bu dinning asoschisi Zaratushtra. Qadimgi Eron hukmdorlari buyrug‘iga ko‘ra yozilgan qoyatosh yozuvlarida ham bizning hududimizda yashagan xalqlar haqida ma’lumotlar uchraydi. Yozma manbalardan yunon-rim tarixchilarining asarlarida keltirilgan ma’lumotlar muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Ushbu mavzu alohida tadqiqot mavzusi sifatida to‘liq va maxsus o‘rganilmagan. Mavjud ilmiy adabiyotlarda G‘arbiy Sug‘dning qadimgi aholisi turmush tarzi, urf-odatlari va madaniy hayoti haqidagi ma’lumotlar asosan umumiy O‘rta Osiyo va O‘zbekiston qadimiy tarixi doirasida ko‘rib chiqilgan. Yozma

manbalarga asoslangan tadqiqotlar akademik A.Asqarov, A.Sagdullayev, M.Is'hoqov, N.Jo'rayev, B.Ahmedov kabi o'zbek olimlari hamda xorijiy sharqshunoslar V.V.Struve, V.V.Bartold, M.M.Dyakonov, M.A.Dandamaev, E.A.Grantovskiy va boshqalar tomonidan amalga oshirilgan.

Tadqiqotning asosiy tayanchi "Avesto" kitobidir. A.Asqarovning "O'zbek xalqining kelib chiqish tarixi" (2019) va "O'zbekiston tarixi" (1994) asarlarida, A.Sagdullayev (2000, 1996, 2021), M.Is'hoqov (2000) va N.Jo'rayev (2015) ishlarida "Avesto"ning Videvdat, Yasht va Visparad qismlari chuqur tahlil qilingan. Ushbu asarlarda G'arbiy Sug'd (Sug'diyona) hududining dehqonchilik, chorvachilik, oilaviy va diniy hayoti haqida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan. A.Asqar Mahkamning "Avesto" tarjimasi (2001) esa matnni o'zbek tilida o'rganish imkonini beradi.

Ikkinchi muhim manba – Eron Ahamoniylar davrining Behistun, Naqshi Rustam, Suza va Persepol qoyatosh yozuvlaridir. Bu yozuvlar A.Asqarov (2019), A.Sagdullayev (1996) va Amelie Kuhrt (2007) asarlarida keng yoritilgan. Ularda Sug'diyona Ahamoniylar imperiyasining soliq to'lovchi viloyati sifatida tasvirlanib, mahalliy aholining iqtisodiy va harbiy faoliyati haqida aniq dalillar mavjud.

Uchinchi guruh manbalar qadimgi yunon va rim tarixchilarining asarlaridir. Gerodotning "Tarix" (III va VII kitoblar), Arrianning "Iskandarning yurishlari", Kvint Kurtsiy Rufning "Makedoniyalik Iskandar tarixi", Strabonning "Geografiya"si va boshqa asarlar Sug'diyona aholisining urf-odatlari, mashg'ulotlari va Iskandar davridagi voqealari haqida muhim ma'lumot beradi. Ushbu asarlarning o'zbek va rus tillaridagi tarjimalari ilmiy aylanmada faol qo'llanilmoqda.

Zamonaviy tadqiqotchilar orasida B.Ahmedov (2001), A.Sagdullayev va xorijiy olim Etienne de la Vaissiere (2011) ning ishlari ahamiyatli hisoblanadi. Ular yozma manbalarni arxeologik dalillar bilan birlashtirib, Sug'diyona madaniyatining rivojlanish bosqichlarini yoritishga harakat qilganlar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda G'arbiy Sug'dning qadimgi tarixini o'rganishda yozma manbalarning tutgan o'rni xolislik tamoyillariga amal qilinib, tahlil, sintez, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, tarixiy tahlil hamda xronologik yondashuv kabi ilmiy usullardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

G'arbiy Sug'dning qadimgi xalqlari tarixi O'zbekiston xalqlari tarixining bir bo'lagi bo'lib, juda qadimiydir. Qadimgi davr tarixini o'rganishda moddiy manbalar va yozma manbalarga tayaniladi. Ma'lumki, insoniyat tarixining to'qson

to‘qqiz foizini qadimgi tosh davri tashkil qiladi. Bu davrlarda yozuv bo‘lmagan, shuning uchun ham qadimgi ajdodlarimiz tarixi moddiy manbalar, ya’ni arxeologik manbalar asosida o‘rganiladi. O‘rta Osiyoning qadimgi xalqlari tarixi haqida ma’lumot beruvchi ilk yozma manba bu “Avesto”dir. Shuningdek, Eron ahamoniylar hukmdorlari tomonidan yozdirilgan Behistun qoyatosh yozuvlari, qadimgi yunon-rim tarixchilarining bizgacha yetib kelgan asarlarida keltirilgan ma’lumotlar O‘rta Osiyo xalqlari, O‘zbekiston xalqlari vakillaridan bo‘lgan sug‘dlar haqida qisman ma’lumot beradi. Yozma manbalarda sug‘dlar yashagan hudud Sug‘diyona deb tilga olinadi.

“Avesto” zardushtiylik dining muqaddas kitobi bo‘lib, bu din yakkaxudolikka asoslangan. (Асқаров А., 2015: 91, Жураев Н., 2015: 6) Bu dinga yurtimizda islom dini kirib tarqalgungacha ajdodlarimiz e’tiqod qilishgan. Zardushtiylik dining asoschisi Zardusht bo‘lib, Zaratushtra deb atalgan.

Avesto bizgacha to‘liq yetib kelmagan, uning Yasna, Yasht, Visparad, Videvdat deb atalgan kitoblaridan parchalar yetib kelgan. “Avesto”ning “Videvdat” kitobi 22 bob bo‘lib, Avesto qismlari orasida birmuncha yosh, lekin to‘liq saqlangan kitobdir. Uning boblari “fragard” deb atalgan. Fragardlarda Ahuramazda yaratgan 16 ta viloyatlar, jumladan Xvarizam (Xorazm), Gava Sug‘uda (Sug‘d), Mouri (Marv), Baxdi (Balx) haqida, dehqonchilik va chorvachilikning savobli sharofatlari haqida ma’lumotlar berilgan. (Исхоқов М., 2000: 14-17, Сагдуллаев А.С. 2000: 35-39).

Avestoda umumiy Sug‘d hududi haqida ma’lumot berilgan. Videvdat qismining birinchi fragadida shunday deyilgan. “Men Axura Mazda yaratgan ikkinchi sarzamin va go‘zal yurt Sug‘d diyori edi. Shundan so‘ng, butun borlig‘i ajal bilan yug‘rilgan Ahriman keldida, xrafastralar jinsiga mansub Skayatyani yaratdi. U butun podaga o‘lim urug‘ini sochdi.” (Асқар Маҳкам. 2001: 107, Жураев Н. 2015: 215) Turli manbalardagi Sug‘da, Sug‘uda, Sug‘diyona nomlarining kelib chiqishi va ularning ma'nosi hozircha noma'lum. “Avesto” ning Yasht kitobida tilga olingan “Sug‘d makoni Gava” - Sug‘diyonaning eng qadimgi viloyati bo‘lishi mumkin. Ba’zi ma’lumotlarga ko‘ra, Gava (Gau – “buqa”, “poda”), Qashqadaryo vohasi bilan bog‘lanadi. Bu atama mazkur viloyatning juda ko‘p geografik nomlarida takrorlanib saqlangan (Gavdara, Gavxona, tog‘lar Gau, cho‘qqi Gau va boshqalar). Ehtimol, “Gava Sug‘da” atamasida “qudratli Sug‘d” tushunchasi o‘z aksini topgan. (Sagdullayev. A. 2021: 155-156-betlar) Bu mintaqa So‘g‘diyona, Zarafshon daryosi vodiysida joylashgan. Avestodagi ma’lumotlardan G‘arbiy Sug‘d aholisining asosiy mashg‘uloti chorvachilik, sug‘orma dehqonchilik bo‘lganligini aniqlangan. Avesto Videvdat qismining uchinchi fragadida quyidagi ma’lumot keltirilgan. “Ahura Mazda javob berdi: Bunday joy bir Ashavan uy

tiklangan makondir. O‘sha uylar mubad ro‘zg‘or tebratadi. Sigirlar galasi va uy bekasi, farzandlar va suruvlar yashaydi bu uyda. Sigirlar galasi yaxshi parvarish qilinadi. Ashavanlik afzun bo‘ladi. Tevalar xuroki farovon, yaxshi iplarning rizqi serob. Uy bekasi baxtiyor, farzandlar shodmon. Hamisha olov gurillab turadi. Tiriklikning go‘zal har bir hodisasi yaxshilikka qovushadi. Bunday joy dunyodagi ikkinchi baxtiyor zamindir.” (Жураев Н 2015:226). Sug‘d chorvador aholisini turmush tarzi yuqoridagi ma’lumotlarda berilgan.

“Avesto”ning “Visparad’’ kitobida zardushtiylarning bayram va diniy marosimlarda ijro etiladigan madhiyalar to‘plangan, yasht kitobi esa 22 bobdan iborat bo‘lib, har bir bobda Axuramazdadan boshlab, u yaratgan va uning ma’lum vazifalarini bajaruvchi ma’budlar sha’niga aytilgan, gimnlardan iboratdir.Zardushtiylik diniyda iymon uch tayanchga asoslanadi:1) ezgu fikr, 2)ezgu so‘z, 3)ezgu amal.Avestoda “Bergan so‘zning uddasidan chiqish, unga sodiq qolish, savdo-sotiq va shartnomalarga qat’iy amal qilish, qarzni o‘z vaqtida to‘lash, aldamchillik va xiyonatdan xoli bo‘lish iymonlilik alomatidir”,deyilgan. (Асқаров А.1994:109).

Avestoshunos olimlar ta’kidlashicha Avestoda jamiyat to‘rt ijtimoiy bosqichdan iborat deyiladi patriarxal oila jamoasi-nmana, oila boshlig‘i-nmanapati,patrialxal urug‘ jamoasi-vis, urug‘ boshlig‘i- vispati,qabila jamoasi-zantu, qabila boshlig‘i- zantupati va qabilalar ittifoqi-daxyu, mamlakat sardori-daxyupati deb yuritilgan. Daxyu viloyat, mamlakat ma’nosini anglatgan.

Zardushtiylik ta’limotida olov, yer,tuproq,suv va havo muqaddas hisoblanadi ularni iflos qilish katta gunoh deb qaralgan. (Асқаров А., 1994:108). G‘arbiy sug‘dliklar Avesto qonun-qoidalariga qat’iy amal qilib yashaganlar.

Eron ahamoniylarining qoyatosh bitiklari G‘arbiy Sug‘d va O‘zbekistonning qadimgi aholisi, shuningdek, O‘rta Osiyoning qadimgi xalqlari tarixi to‘g‘risida qimmatli ma’lumotlar beradi. Tarixdan ma’lumki, Kir hukmronligi davrida miloddan avvalgi 540-yilda ahamoniylar Sug‘diyona viloyatini bosib oldi. Shundan so‘ng Sug‘diyona Ahamoniylar imperiyasining uzoq chegara viloyati sifatida integratsiya qilindi. (Etienne de la Vaissiere. 2011: 20 dekabr.)

Bosib olingan hududlar ahamoniylar podshohligiga soliqlar to‘lashgan. Soliq to‘lagan mamlakatlar va xalqlar nomi ahamoniy hukmdorlarning Persepol shahridagi shox saroyiga ko‘tariluvchi pillapoya devorlarida, Suza shahrida qad ko‘targan Doro I haykal yozuvlarida keltirilgan. Ular haqida V.V.Struvye, V.V.Bartold, M.M.Dyakonov, V.I.Abayev, M.A.Dandamayev, E.A.Grantovskiy va boshqalar ko‘p yozganlar. Ular tomonidan keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra, Ahamoniy podshohlarining bitiklari qadimgi fors tilida yozilgan turli ijtimoiy, siyosiy va diniy masalalarga doir podshoh buyruqlaridan va nutqlaridan iborat.

Ularda O‘rta Osiyo qadimgi aholisining etnik nomlari keltirilgan. Bu etnik nomlari zamon o‘zbek va tojiklarining ajdodlari qanday nomlar bilan atalganliklari haqida ma’lumot beradi.(Асқаров А., 2019: 100).

Behistun yozuvlari Doro I buyrug‘iga ko‘ra Kirmanshoh va Hamadon shahri o‘rtasidagi yo‘lda baland qoyatoshda qadimgi fors, elam va akkad tillarida yozilgan. Yozuvda shoh Doro I nomidan xabar beriladi: “Men – Doro, ulug‘ podsho, shohanshoh, mamlakatlar podshosi, Vishtasp o‘g‘li, Arshan nevarasi, Axomaniy. Ahuramazda irodasi bilan quyidagi davlatlarni qo‘limga kiritib, ularning podshosi bo‘ldim: Fors, Elam, Bobil, Ossuriya, Arabiston, Misr, Lidiya, Mo-niya, Armaniston, Kappadokiya, Partava, Drangiana, Arya, Xvarizam, Baqtriya, Sug‘diyona, Gandxara, Saka, Sattagadiya, Araxosiya, Maka. Hammasi bo‘lib 23 davlat” (Асқаров А., 2019: 100, Сагдуллаев А., 1996: 30, Amelie Kuhrt. 2007: 141bet.).

Sug‘diyona ahamoniylar imperiyasi tarkibida 18-o‘rinda tilga olinadi. Naqshi Rustam yozuvlarida mamlakatlar ro‘yxatida Midiya va Elamdan so‘ng sharqiy viloyatlar nomlari boshlanadi. Doro ulug‘ podsho ekanligini, ko‘p qabilalar va mamlakatlar podshosiligini keng sayhon yerlarning podshosi, Vishtasp o‘g‘li, Ahamoniy, parsning o‘g‘li, oriylar urug‘idan kelib chiqqan oriy deb yozdirgan. Podshoh Doro shunday deydi: “Fors viloyatidan tashqari quyidagi mamlakatlarni men bo‘ysundirganman, menga xiroj to‘lovchi bo‘lgan, mening so‘zimni ijro etgan, mening qonunimga asoslanib rivojlanayotgan: Midiya, Elam, Parfiya, Ar’yo, Baqtriya, Sug‘diyona, Xorazm... Saka Xaumavarka, Saka Tigraxauda... dengizdan narigi yerdagi saklar” (Amelie Kuhrt. 2007: 486).

1972-yilda Suza shahrida topilgan Doro I haykalidagi yozuvlarda Baqtriya, Sug‘diyona va Xorazmdan tashqari “balchiq va tuproq o‘lkasi saklari” tilga olingan.

Suza shahrida topilgan yana boshqa yozuvlarda Doro I bunday e’lon qiladi:

“Suzadagi saroyni men bino qilganimda uning bezaklari uzoq yurtlardan olib kelingan. Uaka yog‘ochi – Gandharadan, oltin Sard va Baqtriyadan, yaltirroq toshlar va lojuvard – Sug‘diyonadan, firuza – Xorazmdan, kumush va bronza – Araxosiyadan, tosh ustunlari – Elamdan yetkazib berilgan” (Amelie Kuhrt. 2007: 492-495, Sagdullayev A., 1996: 32).

Olimlar tomonidan Persepol shahrida Doro va Kserks saroyiga olib boruvchi tosh pillapoya devorlariga, Eron ahamoniylariga tobe mamlakatlardan xiroj olib kelgan turli xalqlar vakillarining bo‘rtma uslubda ishlangan suratlari o‘rganilgan. Suratda har bir mamlakatdan kelgan vakillar sovg‘a-salomlari bilan juda aniq tasvirlangan, ularni qaysi xalqqa tegishli ekanligini aniqlash qiyin emas. Masalan, Sug‘diyonadan kelganlar devoriy suratlarda sakkizinchi qatorni tashkil etadi, ular

yetti kishidan iborat bo‘lib, shohga kumush idishlar, ipak matolar, noma’lum hayvon terisi va ikki qo‘yni yetaklab kelayotganligi tasvirlangan. Bu G‘arbiy Sog‘dda va butun Sug‘diyona hududida hunarmandchilik, to‘qimachilik, dehqonchilik, chorvachilik va boshqa sohalarini yaxshi rivojlanganligidan darak beradi.

Qadimgi yunon va rim tarixchilari asarlarida G‘arbiy So‘g‘d, O‘rta Osiyoning qadimgi xalqlari haqida ma’lumotlar uchraydi. Qadimgi yunon tarixchisi Gerodot (mill.avv. 484-425-yillar oralig‘ida yashagan) Kichik Osiyo shaharlari, Vavilon, Finikiya, Kipr orollari, Makedoniya, Afina, Qora dengiz sohillari, Eri dengizi orollari va boshqa mamlakatlarda bo‘lgan, u o‘n yil davomida (mil.avv 455-445) Liviya, Misr, Ossuriya, Bobil, Ekbotanga sayohat qilib, ko‘pdan ko‘p tarixiy ma’lumotlar to‘playdi va o‘zining to‘plagan ma’lumotlari asosida 9 jildli “Tarix” asarini yozgan. Gerodotning Sug‘diyona xalqlari tarixi haqidagi ma’lumotlari “Tarix” asarining III, VII jildlarida o‘z aksini topgan. Sug‘diyona ahamoniylar tomonidan boshqarilganligini, sug‘dliklar to‘lagan soliqlar va sug‘dlarni harbiy yurishlarda ishtiroklari, harbiy qurollari haqida qisqa ma’lumot bergan. “Parfiyaliklar, Xorazmliklar, Sug‘dliklar va Areyaliklar - uch yuz talant; bu o‘n oltinchi tuman.” (Геродот. III книга, 93 глава 153, Amelie Kuhrt. 2007: 674)

Talant – qadimgi pul birligi. (bir talent 33,655 kg kumushga teng.)

Gerodotning ma’lumotlariga ko‘ra, baqtriyaliklarning boshlariga kiygan qalpoqlari midiyaliklarnikiga juda o‘xshagan, ular trosnikdan yasalgan o‘q va kalta nayzalar bilan qurollanganlar. “Parfyanlar, xorasmiylar, sug‘dlar, gandariylar va dadiklar baqtriyaliklarning qurollariga o‘xshagan yarog‘-aslahalar bilan harbiy yurishga kirganlar. Ularning yo‘lboshchilari: parfyanliklar va xorasmliklardan Farnakning o‘g‘li Artabaz; sug‘dliklardan – Artei o‘g‘li Azanes bo‘lgan” (Геродот VII книга. 66 глава 318.).

Miloddan avvalgi 329-yilda makedoniyalik Iskandarning Baqtriya va Sug‘diyona yerlariga harbiy yurishlarida uning qo‘shini bilan birga bo‘lajak tarixchilar Ptolemey, Aristovul, Onesikrit, Kallisfen va Xaresslar xizmat qilib, turli xil siyosiy va madaniy voqeliklarni yozib borganlar. Ammo bu ma’lumotlar ularning o‘zlari tomonidan yozilgan maxsus asar sifatida bizgacha yetib kelmagan bo‘lsa-da, u ma’lumotlardan so‘nggi davr yunon tarixchilari va geograflari keng foydalanganlar.Masalan, Diodor (mil. avv. 90-21-yillar) “Tarixiy kutubxona”, Strabon (mil. avv. 64-24-yillar) “Geografiya”, Pompey Trog (mil. avv. I – milodiy I asr) “Filipp tarixi” asarini, Plutarx (milodiy 46-127-yillar), Klavdiy Ptolemeylar (milodiy II asr) o‘z hikoyalarini, Pliniy (milodiy I asr) esa “Tabiiy tarix” nomli kitobini yaratdilar.Ammo Iskandar harbiy yurishlari haqida keng va to‘liq ma’lumotlar rimlik Kvint Kurtsiy Ruf (miloddan avvalgi I asrning oxiri – milodiy I

asr o‘rtalari) va yunon tarixchisi Arrian (milodiy 90/95-175-yillar) asarlarida bizgacha yetib kelgan. Arrian “Iskandar yurishlari”, Kvint Kurtsiy Ruf esa “Makedoniyalik Iskandar tarixi” asarlarini yaratgan (Асқаров А., 2019: 110).

Arrian “Iskandarning yurishlari” asarida O‘rta Osiyoning qadimgi xalqlari, ularning urf-odatlari, aholining shug‘ullangan mashg‘ulotlari,ularning Iskandar qo‘shiniga qarshi mardlarcha olib borgan janglariga, vatanga bo‘lgan muhabbati haqida qimmatli ma’lumot beradi. Zarafshon daryosi Politimit deb tilga olingan. Kvint Kurtsiy Ruf qadimgi Rim antik davr tarixchisi bo‘lib, “Makedoniyalik Iskandar tarixi” asarini yozgan. Asarda Iskandarning yurish qilgan mamlakatlari Baqtriya va Sug‘diyona tabiati, aholisi, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti to‘g‘risida ma’lumot beradi. Uning yozishicha, “Sug‘diyona – keng hududiy masofadagi dashtli mamlakatdan iborat,cho‘llarning kengligi 80 stadiyga yaqinlashadi. …mahalliy aholi tomonidan Politimet degan daryo mamlakat bo‘ylab shiddatli oqadi. Suv yo‘li o‘zani torayib, daryo qum ichiga oqadi va qumga singib ketadi” (Kvint Kurtsiy Ruf. Makedoniyalik Iskandar tarixi. VII kitob, X bob, 1-bet).

Strabonning “Geografiya” asarida ham O‘rta Osiyo qadimgi xalqlarining yashagan shaharlari, urf-odatlari, xalqlarning nomlari, turmush tarzi, Iskandar tomonidan vayron qilingan shaharlar va u tomonidan Baqtriya va Sug‘diyonada asos solgan shaharlar va bu hududlardan oqib o‘tuvchi daryolar haqida ma’lumotlar keltirilgan. “Sug‘diyona ichidan oqayotgan daryoni Aristobulning aytishicha, makedonlar Polimet deb atashgan. Oriylar yeridan oqayotgan Ariy daryosiga o‘xshab, bu daryo ham mamlakat yerlarini sug‘orib, dasht va cho‘l o‘lkalariga intiladi va qumlar ichida yo‘qolib ketadi” (Strabon., 9-bob,5).

Miloddan avvalgi III-II asrlarda oromiy yozuvi asosida shakllangan sug‘diy yozuv o‘lkamiz madaniyati tarixida muhim rol o‘ynadi. Bu yozuv ijtimoiy va madaniy hayotning barcha sohalardan keng qo‘llanilgan. Sug‘d tili va yozuvi Sug‘diyona hududlaridan tashqari Farg‘ona vodiysida, Toshkent vohasida va Yettisuv keng yozilgan.

Sug‘diy yozuv 22 ta harf-belgidan iborat. U bir necha bosqichni o‘z boshidan kechirgan. Uning ilk bosqichi Yunon-Baqtriya tangalariga taqlid qilib chiqarilgan Sug‘d tangalarida uchraydi. Shuningdek, sug‘diy yozuvning namunalari Afrosiyobdan topilgan eramizning I-III asrlariga tegishli sopol parchalarida va terrakota haykalchalarda uchraydi. Milodiy II asrda Sug‘diyonada kumush tangalar zarb etila boshlaydi ba u jahon bozoriga chiqadi (Асқаров А., 2019: 130).

G‘arbiy Sug‘dning qadimgi aholisi tarixi haqida yozma manbalarda ma’lumotlar juda kam uchraydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, G‘arbiy Sug‘dning qadimgi aholisi tarixini o‘rganishda yozma manbalarning o‘rni juda katta. Yozma manbalarda Sug‘diyonaning qadimgi tarixi haqida umumiy ma’lumotlar berilgan. G‘arbiy Sug‘d hozirgi Buxoro viloyati va Navoiy viloyati hududlarini, ya’ni Zarafshon daryosining quyi havzalarini o‘z ichiga olgan. Garbiy Sug‘d mil. avv. VI asrda ahamoniylar tomonidan, mil. avv. 329-yili Aleksandr Makedonskiy tomonidan bosib olingan va idora qilingan. Bu davrda eronliklar, yunonlar madaniyati mahalliy aholi madaniyati bilan aralashib antik davr, ya’ni ellinizm madaniyati vujudga keldi. Qo‘shni hududlardan aholini kirib kelishi natijasida mahalliy aholini tarkibida etnik o‘zgarishlar sodir bo‘ldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Асқаров А. (2019) Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи. – Тошкент: O‘zbekiston.

2. Асқаров А. (1994) Ўзбекистон тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи.

3. Асқар Маҳкам. (2001) Авесто. – Тошкент: O‘zbekiston.

4. Аҳмедов Б. (2001) Ўзбекистон тарихи манбалари. - Тошкент: Ўқитувчи.

5. Геродот. (1972) Итория. – Ленинград.

6. Исҳоқов М. (2000) Эзгу ўй, эзгу сўз ва эзгу амал. «Авесо китоби-тарихимиз ва маънавиятимизнинг илк ёзма манбаи» мавзуидаги илмий-амалий семинар материаллари. – Тошкент.

7. Сагдуллаев А.С.(2000) Авесто тарихий географияни ўрганиш манбаи сифатида. «Авесто китоби – тарихимиз ва маънавиятимизнинг илк ёзма манбаи» мавзусидаги илмий-амалий семинар материаллари. Тошкент. 2000.

8. Сагдуллаев А. (1996) Қадимги Ўзбекистон илк ёзма манбаларида. – Тошкент: Ўқитувчи.

9. Жўраев.Н. (2015) Авесто. – Тошкент: O‘zbekiston.

10. Квинт Курций Руф (1963) История Александра Македонского. – Москва.

11. М.А.Дандамаев.(1985) Политическая история Ахеменидской державы. – Москва.

12. Sagdullayv.A.S. (2021) O‘zbekiston tarixi, 1-kitob. – Тошкент: O‘zbekiston.

REFERENCE:

1. Asqarov A. (2019) O‘zbek xalqining kelib chiqish tarixi. – Toshkent: O‘zbekiston. (In Uzbek)

2. Asqarov A. (1994) O‘zbekiston tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi. (In Uzbek)

3. Asqar Mahkam. (2001) Avesto. – Toshkent: O‘zbekiston. (In Uzbek)

4. Ahmedov B. (2001) O‘zbekiston tarixi manbalari. - Toshkent: O‘qituvchi. (In Uzbek)

5. Gerodot. (1972) Itoriya. – Leningrad. (In Russian)

6. Is’hoqov M. (2000) Ezgu o‘y, ezgu so‘z va ezgu amal. «Aveso kitobi-tariximiz va ma’naviyatimizning ilk yozma manbai» mavzuidagi ilmiy-amaliy seminar materiallari. – Toshkent. (In Uzbek)

7. Sagdullaev A.S.(2000) Avesto tarixiy geografiyani o‘rganish manbai sifatida. «Avesto kitobi – tariximiz va ma’naviyatimizning ilk yozma manbai» mavzusidagi ilmiy-amaliy seminar materiallari. Toshkent. 2000. (In Uzbek)

8. Sagdullaev A. (1996) Qadimgi O‘zbekiston ilk yozma manbalarida. – Toshkent: O‘qituvchi. (In Uzbek)

9. Jo‘raev.N. (2015) Avesto. – Toshkent: O‘zbekiston. (In Uzbek)

10. Kvint Kursiy Ruf (1963) Istoriya Aleksandra Makedonskogo. – Moskva. (In Russian)

11. M.A.Dandamaev.(1985) Politicheskaya istoriya Axemenidskoy derjavy. – Moskva. (In Russian)

12. Sagdullayv.A.S. (2021) O‘zbekiston tarixi, 1-kitob. – Toshkent: O‘zbekiston. (In Uzbek)

Oriental universitetining “Al-Buxoriy” nomli jurnali

Jurnal Oliy o‘quv yurtlari hamda ilmiy-tadqiqot muassasalarining professor-o‘qituvchilari, doktorantlari, mustaqil tadqiqotchilari, magistrantlari, talabalari va keng kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan.
Maqola muallifining fikri tahririyat fikrini ifodalamaydi.

AL-BUXORIY
AL-BUKHARI

Bosh muharrir: **Farhod Maksudov**
Bosh muharrir o‘rinbosari: **Malika Nasirova**
Mas’ul muharrir: **Govhar Rahmatova**
Musahhih: **Gulida Norkulova**

Manzil: Toshkent shahri, Olmazor tumani, Norzatepa ko‘chasi, 52.
Telefon: +998 93 004-57-77. E-mail: al-buxoriy@orientaluniversity.uz

“Al-BUXORIY” jurnali
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining
№ 111741 raqamli guvohnomasi bilan
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Oriental universiteti Kengashining 2026-yil 26-fevral, 5-sonli yig‘ilish bayonnomasiga asosan nashrga ruxsat etildi.